R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamroev

ONA TILIDAN
mashqlar to‘plami

**Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining boshlang‘ich ta'lim metodikasi, defektologiya, maktabgacha tarbiya hamda
pedagogika-psixologiya mutaxassisliklari uchun**

TOShKeNT – 2009

Mazkur to‘plam Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tayyorlangan bo‘lib, shu universitet Ilmiy kengashining 2009 yil 24 sentyabrdagi 2-bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti professori, filologiya fanlari doktori Sh. KO‘ChIMOV

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri Sh.YO‘LDOSheVA

–

FONeTIKA, GRAFIKA, ORFOGRAFIYa VA ORFOEPIYa

1-mashq. Nutq a'zolari qaysilar? Ularning vazifalarini tushuntiring. Nutq tovushlari nima? Ular boshqa tovushlardan nimasi bilan farqlanadi? Nutq tovushlari nimalarni shakllantiradi? O‘zbek tili nutq tovushlarini ayting. Ular yozuvda nimalar vositasida shakllanadi?

2-mashq. . Quyidagi bir bo‘g‘inli so‘zlarni diqqat bilan o‘qing. Ular tovush tomondan nima uchun to‘rt guruhga ajratilganligini ayting.

1. Ot, ish, o‘q, el, o‘q, uz.
2. Bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, qor, g‘or.
3. Bo‘l, bel, bol, bul, bil, bal.
4. Ov, oz, oy, on, or, os, ot, och, osh, oq, og‘, oh.

3-mashq. So‘zlarni o‘qing. Har bir guruhdagi so‘zlarning tovush tizimi jihatdan o‘zaro va guruhlararo o‘xshash hamda farqli tomonlarini tushuntiring.

1. Bil, dil, jil, zil, yil, mil, nil, sil, til, fil, xil, shil, qil, hil-hil; bol, gol, dol, lol, mol, pol, sol, tol, fol, xol, chol, shol, qol, hol; boy, voy, joy, loy, moy, poy, roy, soy, toy, choy, hoy; darz, tarz, farz, arz.
2. Barra, darra, zarra, karra, marra, g‘arra, sharra; barcha, darcha, jarcha, zarcha, parcha, sharcha; jo‘ra, ko‘ra, so‘ra, to‘ra, xo‘ra, sho‘ra, qo‘ra, g‘o‘ra.
3. Iz, il, im, in, ip, is, ich, ish; uz, uy, ul, un, ur, uf, uch, uk, uh; eg, ez, ek, el, ep, er, es, et, esh, eh; shod, shol, shom, shon, shox, shosh, shoh.

4-mashq. Gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tovush tomondan tahlil qiling va ma'nosini izohlang.

1. Quduq qazib qumzordan,
   O‘rnatib qo‘sh chig‘iriq,
   Derdim: “yerning qa'ridan
   Suvjon, suvjon, qani chiq!” *(Q. H.)*
2. Susambil soqchilari
   Chegarada bir qari
   Cholni tutib oldilar. *(H. O.)*
3. Kirib keldi ayon edi itoati, kamoli.
   Avtandil va shoh Faridun o‘tirishar yonma-yon,
   Ziyofatda o‘sha yurtlik aslzoda yuz a'yon. *(Sh. Rustaveli)*

5-mashq. Qudrat Hikmatning “Erinchoq” she'rini o‘qing. Avval bir xil tovush yig‘indisidan iborat bo‘lgan so‘zlarni, so‘ng bir fonemasi o‘zgargan so‘zlarni, undan so‘ng ikki-uch fonemasi bilan farqlanadigan so‘zlarni guruhlab ko‘chiring.

Kuzda yomg‘ir tomchilab,
Erinchoqni qamchilab:
- Yugur! – deydi, darsingga,
- Ulgur! – deydi, darsingga.
Seni ko‘rsam kuyaman,
Ustingdan sel quyaman.
Ivitaman chigitday,
Chaqqonroq bo‘l yigitday!
Imillashdan foyda yo‘q,
Yalqov ko‘zni qildi lo‘q.
Bosib kiydi shapkani,
G‘ijimladi papkani.
Qanday yursa oldinlar,
Shu alpozda odimlar...
Kuzning g‘ashi keladi,
Unga qarshi keladi.
Yomg‘ir purkab betiga,
Nish sanchadi etiga.
Oyoq-qo‘li zirqirab,
Chopib qolar chirqirab.
Bu bir bo‘lib o‘tgan gap,
Erinchoqqa kuz ham chap.

6-mashq. Bir xil tovush kompleksidan iborat bo‘lgan so‘zlarni ikki ustun shaklida yozib *(alam - a'lam),* ma'nolaridagi farqni tushuntiring.

Alam, tasir, davo, nasha, sanat, surat, tana, tarif, taqib, sher, ayon, sava, qala, hayat; hay'at, a'yon, sa'va, ta'rif, ta'qib, a'lam, san'at, nash'a, qal'a, da'vo, sur'at, she'r, ta'na, ta'sir.

7-mashq. Nuqtalar o‘rniga unli yoki undosh fonemalardan qo‘yib ko‘ring, hosil bo‘lgan so‘zlarni yozing.

1. B...z, s...z, t...z, k...z; t..n, j...n, k...n, t...t, b...t, s...t; sh...m, sh...r, sh...x; x...n, x...l, x...m, x...s, x...t, x...sh; z...l, z...r, k...r. 2. O...a, a...a, e...a, u...a, o‘...a, a...i. 3. O…, u..., e..., i..., o‘...

8-mashq. Birgina fonema bilan farq qiladigan so‘zlarni toping va ularni yonma-yon yozing.

Roziq, sho‘ra, tolmoq, tong, **tin**, pona, botmoq, **ko‘z**, so‘ra, Ber, qin, bayt, qoziq, **bong**, xona, ko‘ra, bo‘z, din, qayt, solmoq, jo‘ra, dong, so‘z, fin, hoziq, olmoq, chin, **payt**, shona, sotmoq, qin, qo‘ra, qona, totmoq, xo‘ra, to‘z, ter, qotmoq, cho‘z, g‘o‘ra, **sher**, sin.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi unlilarning tilning gorizontal harakatiga turini ayting.

9-mashq. O‘qing. Har bir so‘z tarkibidagi unli va undosh fonemalarni ko‘rsating.

Ko‘zlarim tindirolmas Na **dovrug‘u**, na davlat.
Izmiga indirolmas Na mansabu, na savlat. *(Z.O.)*

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi unlilarning tilning vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko‘ra turini ayting.

10-mashq. O‘qing. Unli fonemalarni tilning gorizontal, vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko‘ra guruhlab, quyidagi chizmaga joylang.

Tilim bormas aslo ko‘r qiz demakka,
Siz ham bir eshiting «Dugoh”, “Bayot”ni.
Chamamda, ko‘z nuri ko‘chgan yurakka,
Shuning-chun u kuylar qaynoq hayotni.*(O. Xoldor.)*

Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra		Tilning vertikal harakatiga ko‘ra			Lablarning ishtirokiga ko‘ra	
Til oldi	Til orqa	Yuqori tor unlilar	O‘rta keng unlilar	Quyi keng unlilar	Lablangan	Lablanmagan

11-mashq. O‘qing. Unlilarga to‘liq tavsif bering.

N a m u n a: *u* – tilning gorizontal harakatiga ko‘ra til orqa, vertikal harakatiga ko‘ra tor, lablarning ishtirokiga ko‘ra lablangan unli.

1. Aytishlaricha, u kitoblar Bag‘dod, Damashq., Kashmir va Nishopur kabi shaharlardan keltirilgan ekan. *(K.Moiseeva.)* 2. Eng baland minora ham yerdan ko‘tarilgay. *(“Amir Temur o‘gitlari”dan)*

12-mashq. O‘qing. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undosh fonemalarni guruhlab, berilgan chizmaga joylang.

Ko‘m-ko‘k bog‘ bor Toshkent chetida, Uni “Mo‘jiza bog‘” deyishar...		Bunda qishda – yozu, kuzda – bahor, Bunda ajab g‘o‘za yetishar.*(Mirm.)*
Lab undoshlari	Lab-lab	
	Lab-tish	
Til undoshlari	Til oldi	
	Til o‘rta	
	Til orqa	
	Chuqur til orqa	
Bo‘g‘iz undoshi		

13-mashq. So‘zlarni o‘qing. Qaysi guruhdagi so‘zlar tarkibida faqat til undoshlarigina qatnashganligini aniqlang.

1. Agar(da), agent, adadsiz, adolat, ayg‘oqchi, akashak, alang-jalang, anarxist, antiqa, asilzoda, attang, achchiqtosh, ajdod.
2. Asalari, aslaha, arg‘uvon, asrandi, attor, ashaddiy, aqidaparast, aholi, abjir, admiral, aysberg, aka-singil, aksiyador.
3. Gavhar, gajim, galstuk, giyoh, girdob, gugurt, gultuvak, gulqaychi, go‘sxo‘r, gulxayri, gulkaram, gulxan, gazanda.
4. Gajak, gazetxon, garaj, gardish, general, gilos, guldasta, gultojixo‘roz, gulqand, go‘ngqarg‘a, gulshan, gazak.

14-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Undosh fonemalarni hosil bo‘lish usuliga ko‘ra guruhlab, quyidagi chizmaga joylang.

1. Umid jasoratli odamlarda bo‘ladi. 2. Mashaqqatsiz kelgan rohat tuzsiz oshga o‘xshaydi. 3. Odamning eng shirin, lazzatli va halol taomi o‘z mehnati, qo‘l kuchi bilan topgan rizqidir. 4. Nafsning davosi ochko‘zlikni tark qilishdir. *(“Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur”)*

Portlovchilar	Oddiy portlovchilar	
	Qorishiq portlovchilar	
Sirg‘aluvchilar		
Portlovchi-sirg‘aluvchilar	Burun tovushlari	
	Yon tovush	
	Titroq tovush	

15-mashq. Matnni o‘qing. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undosh fonemalarni guruhlab, chizmaga joylang.

1. Suqrot hakimning: “Ilmdan ortiq xazina bo‘lmas; nodondan yomonroq dushman bo‘lmas, ilmu hunardan a'loroq hurmat bo‘lmas!” – degan hikmatini har vaqt yodimda tuturmen. *(K.Moiseeva.)* 2. Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin. *(“Amir Temur o‘gitlari”)*

Shovqinlilar	Jaranglilar	
	jarangsizlar	
Sonorlar		

16-mashq. O‘qing. Undosh fonemalarni aniqlab, har biriga to‘liq tavsif bering.

N a m u n a : *d* – paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra til undoshi, til oldi; paydo bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, oddiy portlovchi; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli, jarangli.

Men 1941 yil 5 avgustda Toshkent biqinidagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilgan ekanman (har qalay, guvohnomada shunday yozilgan). Qishloqda, tag‘in poytaxt biqinidagi qishloqda tug‘ilganim taqdirning hadyasi bo‘lsa ajab emas. Negaki ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak. *(O‘. Hoshimov.)*

17-mashq. Matnni o‘qing, uni fraza va taktlarga bo‘ling.

I. O‘zbekiston - suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar... O‘zbekistonning davlat chegarasi hududi daxlsiz va bo‘linmasdir. *(“O‘zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi”dan.)*

II. Mana, erkin fikrlash, to‘la ma'noda erkin ijod qilish davri keldi. Bunday zamon haqiqiy ijodkor zimmasiga erk bilan baravar katta mas'uliyat hissini ham yuklaydi. Nuqul huquqini pesh qilib, mas'uliyatini unutgan odam qattiq adashadi.

Birodarlar! Yozuvchi – xalq vijdoni, degan gap bejiz aytilgan emas. Ayniqsa, bugungi kunda kimning qanday ijodkor ekanligi xalq dardini, mamlakat tashvishini qanchalik chuqur etayotganiga, bu yumushlarga yelkasini qanchalik tutib berayotganiga bog‘liq. *(O‘. Hoshimov.)*

18-mashq. O‘qing. Gaplarni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib, bo‘g‘inlarning turi va tuzilishini ayting.

Vaqt kech bo‘ldi. Quyosh botgan bo‘lsa ham, uning zarrin etagi hali osmonda tovlanib turardi. Shimoldan, tog‘ tomondan yoqimli shabada esardi, musicha, chumchuqlar to‘rt tarafdan uchib kelib, daraxtlarning shoxlariga qo‘nar, qanotlarini qoqar… edilar. Allaqayoqlardan podadan qaytib kelayotgan sigir-buzoqlar, echki-uloqlar, qo‘y-qo‘zilarning ma'ragan ovozlari quloqqa goh baland, goh past chalinardi. Dala yo‘llari, qishloq ko‘chalaridan … sarg‘ish chang erinibgina osmonga ko‘tarilar edi. *(F.Niyoziy.)*

19-mashq. So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga muvofiq bo‘laklarga ajratib, chiziqcha bilan yozing, har bir bo‘g‘in necha fonemadan tuzilganini ayting.

I. Arang, angishvona, vulgar, gung, daf'a, kenguru, kinofilm, so‘nggi, tangens, she'riyat, g‘ijjak, ungur, tinglovchi, ko‘ngilchan, multiplikatsiya, angina, dongdor, muhofaza, broker, dastarra, dialog, doira, duogo‘y, yengil, jamoa, imorat, ishonch, karate, kengashmoq, ma'dan, odamiylik, oila, ohanrabo, pensne, sammit, so‘ngak, taomil, fojia, shaffof, efir, e'tiqod, yangroq, o‘jar, qanoat, hamohang, g‘ijjak, o‘nglamoq, ijara..

II. 1. Quyosh tikkaga ko‘tarilgan chog‘da, qalin o‘rmon ichi yanada go‘zallashadi, go‘yoki hamma yoqqa tangachalar sochilganday bo‘ladi.*(H.N.)* 2. Garchi sochiga oq oralagan bo‘lsa ham, o‘zi bardam, rangi ro‘yi, toza edi. *(B.Iqlimov.)* 3. Nifoq solayotgan kishi birlik-ittifoqlikning ashaddiy dushmani, zang po‘latni qanday kemirsa, nifoqchi ham birlikka shu xilda zaxa yetkazadi, kuchini buzadi, sindiradi. *(N.S.)* 4. To‘g‘ri, mard yanglishsa qo‘lga tushadi, qush yanglishsa – to‘rga.*(Sh.)*

20-mashq. O‘qing. Har bir so‘z necha bo‘g‘indan tuzilganini aniqlab, bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni aniqlab ayting.

Bahor yaqinlashib qoldi. To‘rtinchi qavatning derazasidan butun shahar faqat tomlardan iborat bo‘lib ko‘rinardi; qizil, ko‘k tunuka kataklarini, chekkaroq mahallalarning sarg‘ish cherepitsa tomlarini yomg‘ir top-toza qilib yuvgan. Qaerdadir, ufqning naryog‘ida, erta bahor momaqaldirog‘ining so‘nggi bo‘g‘iq guldurosi eshitiladi.

Sokin tun cho‘kdi. Har derazaga shu'la qo‘ngandek, xonalar yorug‘, iliq, fayzli. *(A.Muxtor.)*

Har bir so‘z necha fonemadan tuzilganini, tovushlar qanday harflar bilan ifodalanganini izohlang.

21-mashq. O‘qing, urg‘u tushgan bo‘g‘inni aniqlang. Ko‘chirib, urg‘uli bo‘g‘in tagiga chizing, urg‘u belgisini qo‘ying. Ruscha-intenatsional so‘zlarning urg‘usini tushuntiring.

I. Agent, agentlik, agronom, agronomiya, adolat, adolatlilik, adolatparvarlik, bakteriya, bakteriologiya, belgi, belgili, belgilovchi, vakolat, vakolatxona, voqye, voqyea, voqyeanavis, navigatsiya, norma, normativ, omonim, omonlik, optika, orientatsiya, personaj, personajlar, sirt, sirtqi, stanok, stanoksoz, stanoksozlik, tarif, ta'rif, fokus, fikr, fikrdosh, chin, chiniq, shaxta, shaxmatchi, ekipaj, elektr, erk, erka, erkalamoq, yur, yurgiz, o‘rinbosar, qovunpoliz, g‘olib, g‘olibona.

II. U kombinatga elektrik bo‘lib ishga kirgan edi. Qishi bilan yangi sexni ishga tushiramiz deb har kuni hamma qatori tongdan shomga qadar ishda bo‘ldi. Ba'zan kechalari ham… brezent shimini kiyib, shaldir-shuldir zanjirli “temir tirnoq”larini yelkasiga ilib chiqib ketardi. Kelgan kunlaridagi kayfiyati zerikishdan ekan-da. Ishga kirdi deguncha o‘zgardi-qo‘ydi. Sharofat xola ham xuddi shunday bo‘lar, deb o‘ylagan edi. Mehnatda gap ko‘p. *(A.Muxtor.)*

22-mashq. O‘qing, so‘zlardagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni aniqlang. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi urg‘uning ko‘chish sababini tushuntiring.

1. Bilim, **bilimdon**, **bilimdonlik**; dukkak, **dukkaklik**; ishonch, **ishonchli**; mehmon, **mehmondo‘st**, **mehmondorchilik**; paxta, **paxtakor, paxtakorlar, paxtakorlarga;** hosil, **serhosil, hosildor**.
2. Akrobat, **akrobatika**, **akrobatik**, arifmetika, **arifmetik**, biologiya, **biologik**, vegetatsiya, **vegetatsion**, industriya, **industrial**, telefon, **telefonist**, yumor, **yumoristik**.

23-mashq. O‘qing. Urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushganini aniqlang.

Azimut, aysberg, benzin, birja, boda, botanik, botanika, vanilin, vena, viktorina, galstuk, demagog, demagogiya, dollar, duet, jeton, jodu, jodi, zebra, zona, kazarma, kaktus, kafedra, kashalot, leksika, lektor, maket, makler, nihoya, opera, opium, paluba, parik, sambo, selitra, seminar, tango, telepatiya, tormoz, tranzit, tranzistor, ultimatum, uran, faza, xronika, filarmoniya, ekran, ekspert, elektron, elektronika, yunker, yupiter.

Urg‘uning qaysi (nechanchi) bo‘g‘inga tushishini hisobga olgan holda so‘zlarni guruhlab ko‘chiring, urg‘u belgisini qo‘ying.

24-mashq. Gaplarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning urg‘usini belgilang, ma'no farqlarini tushuntiring.

1. Zargarov Qutbiddinovni o‘larday kalaka qilib **toza** alamini oldi.*(A.Q.)* 2. Zaynabning ham **toza**, osuda, Dog‘ ko‘rmagan ma'sum qalbida Sevgi yaproq yozib qolibdi. *(H.O.)* 3. – Bu uzoqmi? – Yo‘q. Xuddi amerikaliklar zonasidagi bizning **uycha** keladi. *(D. Kyusak.)* 4. Kiyikchamga katta **uycha** yasadim.*(Sh.S.)*

25-mashq. So‘zlarni urg‘usiga rioya qilgan holda o‘qing va ma'nosini ayting. Urg‘uni oxirgi bo‘g‘inga ko‘chirgan holda so‘zlarni qayta o‘qib, shu so‘zlar ma'nosining o‘zgarishiga e'tibor bering.

Akademik, grafik, didaktik, dinamik, dogmatik, yig‘ma, klassik, praktik, radiotexnik, taktik, terma, fizik, qoplama, ximik, estetik, energetik, to‘qima, qiyma, hozir.

26-mashq. Gaplarni o‘qing va logik urg‘u olgan so‘zlarni aniqlang.

1. Saida qattiq xijolat bo‘ldi.*(A. Q.)*2. Qalandarov toza yalinibdi: “Jon uka, nachalnikka ro‘para qilib, erkak qaddimni bukma...” *(A. Q.)* 3. Sizning ishingiz bo‘lmasin! Bu yerda men boshliqman, siz emas.*(L. Sh.)* 4. Ko‘chaga chiqsa, hammaning ko‘zi o‘shanda.*(A. Q.)* 5. Shu kuni ertalab Botirov Salimovning kelib qolishi mumkinligidan darak berib
ketgan edi. *(J. Abd.)* 6. Gazetaga Said haqida yozish kerak edi. Bu adolatsizlik-ku, u qildi hamma ishni.*(As. M.)* 7. Men or qilaman unga o‘xshashdan. Nima sababdan adashtirishadi bizni, tavba*!(As. M.)* 8. Mening qizim gul keltirib beribdi? – Ha, shunaqa deyishyapti... *(F. Niyoziy)*

27-mashq. O‘qing. Assimilyasiyaga uchragan so‘zlarni topib, turini ayting.

1. Bular yozib bergan bir enli xatni odamlar suvga ezib ichganini ko‘rgan. *(P.T.)* 2. U... kambag‘al-qashshoqlar bilan bittanga-yarim tanga ustida g‘ijillashib o‘tirishni istamas edi. *(P.T.)* 3. Uning badani jimillashib ketdi.*(N.Biryukov.)* 4. Ha, ko‘hlik tolihimdan o‘rgulay deb mundoq qulochchi keravering.*(H.N.)* 5. Endi Go‘ro‘g‘libekdan eshitmoq kerak gappi.*(Po‘lkan.)* 6. Handalak – shakar palak, shirinini tallab oling.*(N.S.)* 7. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o‘tarsiz...*(J.Abd.)* 8. U boyning otini Oqchishboy der edi. *(Usmon baxshi.)* 9. U juda qarigan, qo‘lda tokqaychi. *(Mirm.)* 10. Ukaginang orderlarini jaranglatib keldi. *(S.Ahm.)* 11. Gulsunbibi qizi Gulnorni ro‘parasiga o‘tqizdi, mahsini yeshtirdi. *(O.)*

28-mashq. O‘qing, fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni aniqlang. Dissimilyasiya hodisasiga uchragan so‘zlarni ajratib, qay tarzda o‘zgarganini izohlang.

1. “Bo, zaril keptimi! – Lobar labini burdi. – Ishim boshimdan oshib yotibdi”. *(H.G‘.)* 2. Ko‘rmay turib tusmonlab o‘xshatardi kimgadir.*(Mirm.)* 3. Menga qara, Hojiakbarri o‘g‘lisan-a, ertaga bir do‘ppi o‘rik beraman, mana shu xatti o‘qib ber. *(S.Ahm.)* 4. Boy buvang to‘y qilib, beripti xatti, Ulug‘im deb xon otangni yo‘qlapti, Borolmasman bugun, bolam, bu to‘yga, O‘zi uchun otang sizni jo‘natti! *(Usmon baxshi.)* 5. Boshiga lo‘mba degan narsa o‘lgur tushdimi, zambarakmi, nayzagami duch keldi...*(O.)* 6. Saida kasal kishiday bitta-bitta qadam bosib, hujrasiga tomon yo‘naldi. *(A. Q.)* 7. “Sayr qilsa arziydigan tun, - dedi Ketrin. – Bevosh kecha, nimasini aytasiz”. *(E. Xeminguey.)*

29-mashq. O‘qing, assimilyasiya, dissimilyasiya va metatezaga uchragan so‘zlarni aniqlang. Metatezaga uchragan so‘z ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, shu so‘zning tagiga chizing va izohlang.

1. Boshim aynaldi. U yog‘ini eslolmayman.*(H. G‘.)* 2. Sizzi ko‘rishga ko‘pdan beri mushtoq edi.*(S.An.)* 3. – Unda ekchi go‘shti ishlatamiz, - dedi Bashirjon kaftlarini yoyib, quv ko‘zlarini o‘ynatarkan...*(N.A.)* 4. Elmurod… turli nozu ne'matlardan yeyayotgan sallalilarga telmurdi.*(P.T.)* 5. Toshtemir aka tambur, Alijon esa dutor, Dadavoy aka nay chalar edi.*(H.G‘.)* 6. Tomlar tut tolqonlari bilan qoplangan. Quritib, yag‘richoqda tortib yoki o‘g‘irchada tuyib, bir tirikchilikka sarflashadi. *(O.Xalil.)*

30-mashq. O‘qing. Pozitsion o‘zgarishga uchragan so‘zlarni topib, ularning turini aniqlab ayting.

I. Avlot, balog‘at, ajabtovir, dahshat, amalparas, daslap, bazim, ataylap, blaknot, biyron, garchan, blanka, dasgoh, gazit, zabarjat, zanggori, ijod, zovir, ituzim, kannay, kosip, barometir, mavrit, minora, bakal, mikrop, dakalat, barikada, gladiyolis, diplom, zabastovka, infark.

II. 1. – Said! Said! Tur, ukajon! Eshikda shubhali odamlar! *(Mirm.)* 2. E'tibor yugurib oyisiga peshvoz chiqadi. – Opa, keldizmi, opa? *(M.Boboev.)* 3. Ollo bizga shafqat qildimi, men sening yana yuzingni ko‘rdim. Shuning o‘zi kata baxt. *(Mirm.)* 4. Dilfuza… bor dardini ichiga yutib jilmayib muomila qilar, har zamon-har zamonda butun nafratini nigohiga joylab Ahmadbekka qarab qo‘yardi. *(M.Boboev.)* 5. Kelayotgan odamning yarmi shu yerda tushib, chiqadiganning yarmi shu yerdan chiqadi. Biroq hozir – choshgoh palla, qatnov mo‘tadil, yo‘lovchi odatdagidan siyrakroq. *(E.A'zamov)*

31-mashq. O‘qing. Tovush va harfni ajrata olmaslik tufayli personaj nutqida yo‘l qo‘yilgan xatoni toping va nimada xato qilganini ayting.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo‘ydi.

- “J” ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko‘rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

- Endi “J”ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og‘zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo‘lsangiz-chi!.. Burninngiz terladi, arting, ta'bir joyiz ko‘rilsa!

San'atkor o‘rnidan turib, yotoqqa kirib ketdi.

- Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.
- Nima edi?
- “J”ning kattasini ko‘rsatib bermadingiz, ertaga domla so‘raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?
- Kichigini yozib qattiqroq o‘qing! *(A.Q.)*

32-mashq. O‘qing. So‘zlar tarkibidagi yonma-yon qo‘llangan bir xil va har xil unlilarning talaffuzi va yozilishi (imlosi)ga e'tibor bering.

Aviatexnika, videoklip, voajab, ziroatchilik, koinot, intuitsiya, inshoot, laureat, doim, kinoocherk, duo, muddao, mushoira, tabiat, tabiiy, murojaat, xoin, shuur, navoiyshunos, mikroorganizm, maosh, zaiflashmoq, matbuot, majmua, rais, faoliyat.

33-mashq. O‘qing, og‘zaki nutqda fonetik o‘zgarishga uchragan ruscha-internatsional so‘zlarni aniqlang. So‘z ichida qaysi tovush qanday o‘zgarganligini izohlab, shu so‘zlarning adabiy tildagi variantini ayting.

1. Istansada u yoqdan bu yoqqa yurib o‘zimdan o‘zim so‘radim. *(S. Ahm.)* 2. Boshpurti yo‘q darbadar degandek bir narsaman.*(A. Chakovskiy.)* 3. Siyoqidan zo‘r generol bo‘lishini fahmlab turibman.*(H. G‘.)* 4. – Ayrapo‘rtlari yaxshi ekan, - dedi u birpasdan keyin. *(F.Muhammadiev.)* 5. Ikkilasining ham mingan oti yaxshi ekan. Serkdagi otlarga o‘xshaydi-ya! *(S.Ahm.)* 6. Katta teatrlarda shunday bo‘lsa bordir, bu o‘zimizning teatr. Qancha xohlasak, shuncha ayttiramiz.*(S.Ahm.)* 7. O‘ris texniklar valasipit minib, yelkasida qo‘shtig‘ bilan Naymandan to‘ng‘iz urib kelishadi.*(S.Ahm.)* 8. Sallotlar o‘qi bilan gum bo‘ldi. *(O.)*

34-mashq. So‘zlarni va gaplarni o‘qing. Chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga qarab o‘qilsa ham, tovush tizimi va ma'nosi o‘zgarmaydigan so‘zlarni topib ko‘chiring.

I. A'zo, aza, ammo, dog‘, amma, dod, bobo, qoloq, bob, obbo, kiyim, qipiq, shox, kiyik, shosh, kichkina, kuchuk, ko‘p, ko‘k, aka, quyruq, quduq, uka, dono, quruq, bilib, qochmoq, qochoq, nodon, ota, alla, kez, aka, kek, dum, tivit, qulluq.

II. 1. - Quruq bo‘htonga imzo chekadigan nodon yo‘q! (Mirm.) 2. Jo‘xori non yeb o‘tirgan kunlarimizda otam cho‘ldan ikki qop un yuborib qoldi.*(E.A'zamov.)* 3. Safura tantiqona bir qiliq, bilan o‘zini Bakir hamda Bargida o‘tirgan divanga tashladi...*(E.A'zamov.)* 4. Avtobusning haydovchisi Adham, ... qirriq, chapani shofyorlardan edi. (E.A'zamov) 5. Tabibiyning yumaloq, rangpar yuzi bir oz so‘lg‘in ko‘rinar, qiyiq ko‘zlarida malollik, xijolatga o‘xshash ifoda zuhur edi.*(S.Siyoev)*

35-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar orfografiyaning qaysi prinsipi (tamoyili) asosida yozilganini tushuntiring.

Qosh qorayib qolgan. **Pastqam** tepaliklar qurshagan Jarqoq, ya'ni o‘z nomi bilan o‘zini ifodalovchi qaqragan jarlik dengizdagi charog‘on kemaday uzoq-uzoqlardan **ko‘rinib turibdi**. Ba'zan uchar yulduzlarday cho‘g‘ parchalari **ko‘kka** ko‘tarilib, yer yo‘ldoshi trassasimon **ufqda** iz qoldirib yana so‘nadi, ba'zan pastdan o‘tkir chaqmoq chaqnab, ko‘z qorachiqlarini teshib o‘tadi. “Elektr payvandchilar ishlashyapti”, - **ko‘nglidan o‘tkazdi** Dadashev. Mashina **Jarqoqqa** yaqinlashgan sari, **motorlarning** ovozi tank **batalonlarining** jangga kirish paytlarini eslatib, tobora avjga mindi.

Dadashev “gazik”ning darchasidan boshini chiqarib, bo‘lajak trassani **kuzatdi**. Trassa yo‘lning o‘ng tomonidan o‘tadi. Keng dala, **atrofi** osmon... Osmonning yarim gumbazida yakka-yakka yulduzlar **tevarakka** igna sanchib turibdi. Gumbaz pastlagan sari, yulduzlar **siyraklashib**, yer zimistonida **yo‘qolib** ketmoqda.*(I.R.)*

36-mashq. To‘g‘ri talaffuziga e'tibor bergan holda so‘zlarni o‘qing; kirillchada “ye” harfining “e” va “y+e” tovushlarini ifodalash uchun qo‘llangan o‘rinlarini aniqlab, ularni alohida-alohida yozing.

Jez, gigiena, mavze, peshin, agregat, bearmon, yelvizak, ob'ekt, rezavor, anketa, bellashmoq, ieroglif, spidometr, beega, vergul, yepiskop, kekirdak, poezd, chechan, devor, dorpech, kofe, svetofor, zebra, infeksiya, pesa, tesha, karusel, kechmish, raz'ezd, tavoze, feleton, makler, mezon, relef, tole, traektoriya, mutelik, nevara, parket, foye, hyezlamoq.

37-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring; aytilishi va yozilishini tushuntiring. Yozgan so‘zlaringizni imlo lug‘atidan tekshiring.

1. N..tarius, ...bligatsiya, ...rganizm, ...rol, p...rtret, pr...spekt, pr...tokol, r...mantik, t...lqon, t...mat, f...ntan, sh...fer, b...rona, v...jatiy, v...ronka, g...rizont, d...klad, d...mino, d...sent, kisl...rod, kisl...ta, k...llektiv, k...lorit, k...manda, k...mbayn, k...meta, k...mitet, k...mpot, k...nspekt, k...nfet, k...nsert, lab...rant, m...zaika, m...n...lit, m...ntaj, m...totsikl, n...vator, n...rmal.

2. Uch...n, but...n, ul...sh, turg‘...n, tuz...m, turm...sh, tug...n, turk...m, uyq..., tuyg‘..., ud...m, uz...m, uz...nlik, uz...nchoq, uyq...chan, ung...r, un...tuvchan, ust...n, uch...q, uchq...r.

3. D...lar, d...mna, d...nor, zav...d, z...na, z...nt, kal...riya, kart...n, k...lba, k...mik, nas...s, n...rma, ...braz, ...blast, ...krug, ...rgan, ...rden, s...da.

4. B...ho, b...hona, b...hor, v...bo, v...gon, g...vda, g...vjum, g...vhar, d...vlat, d...vomat, d...vron, z...l, zo‘r...von, m...vj, m...bodo, n...vbat, n...vqiron, n...moyon, naq...rot, n...hor, t...mom, x...votir, x...vf, h...vaskor, h...vza, h...vo, sarl...vha, hash...rot. 5. ...stiq, …lkan, …tuk, …lpiz, …lchimoq, ...mish, ...pun, ...lmog‘iz, ...lg‘iz, ...mush, ...ridik, ...ntoq, ...mg‘ir, ...ngil, ...qumli, ...sanmoq, ...noq, ...tarli, ...daki, ...shirin, ...rlaqamoq, ...lduzsimon, ...qinlashmoq, ...g‘log‘i, ...g‘och, ...g‘du, ...vosh.

38-mashq. O‘qing , ayrim so‘zlardagi unlilarning yozilishida yo‘l qo‘yilgan xatolarni topib, qaysi imlo qoidasi asosida yozilishi lozimligini izohlang.

1. Chol salomimga alik olish o‘rniga, boshi aylangandek ko‘zlarini yumub, ingradi-da, gandiraklab ketdi. *(S.Nazar.)* 2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. *(Sh.Rustaveli.)* 3. To‘lun oyday yorug‘ sochar, shu payt uning jamoli. *(Sh. Rustaveli.)* 4. Ahmadjon aka, hali sizga katta mukofatlar chiqar. *(A.Q.)* 5. Tutqin qizning qayg‘usini chekar faqat bu Asmat. *(Sh. Rustaveli.)* 6. Kamarbasta xizmatkorlar g‘oyat xushmuomila. *(Sh. Rustaveli.)* 7. Qizdur, juvondur, ayol zotida hayo, iffat nomus bo‘lishi shart.*(Sh.)* 8. Matluba yaqinlashganida, u nima deyishini bilmay qizarib, kulimsirab qarab turaverdi.*(A. Eshonov.)* 9. Ikkinchi soatning so‘nggi minutlari o‘tayotganda, Saidiyning ko‘zi charchab, turtuna boshladi. *(A. Q.)*

39 -mashq. So‘zlarni avval chapdan o‘ngga, so‘ngra o‘ngdan chapga qarab o‘qing; ularning tovush tizimi va ma'nosidagi o‘zgarishlarini so‘zlang.

Ko‘p, qiz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, qo‘l, tosh, mosh, nok, top, madad, jig‘, narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza, allo, mol, nam, amal, amin, omma, qora, aslo, matoh, lab, bit, tub, dada, kod, g‘ijim.

40-mashq. Tushirib qoldirilgan undoshlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring; aytilishi va yozilishini tushuntiring.

1. Makta..., obo..., beada..., dokla..., shokola..., daroma..., mada..., limona..., pudra..., zumra..., hasa..., g‘aza..., yuzla…, atayla..., matla..., asa..., nasa..., mansa..., masshta..., choysha..., adi..., maqsa..., ziyo..., faryo...,

tahdi..., ta'ki..., umi…, oi..., tanqi..., aji..., mayi..., tarki..., g‘oli..., kosi..., munosi..., koti..., tarti..., kabo…, obo..., barbo..., umrbo..., savo..., ajdo..., shaddo..., epizo..., ozo..., avlo..., isno..., muro..., e'tiqo..., shogir..., qas..., zu..., su..., asbo..., rubo..., javo…, odo..., girdo..., azo..., qallo..., tano..., sero..., hiso..., qasso..., xito..., mansu..., maktu... .

2. A…tor, sosta..., usta..., massi..., passi..., agressi..., normati..., nominati..., agglyutinati…, fakultati..., reakti..., effekti..., ob'ekti..., lokomoti..., arxi..., a...tomat, a...tobaza, sub'ekti..., konservati..., sada..., tara..., sa..., zai..., tasodi..., takli..., maori..., tashri..., ta'ri..., ti..., voqi..., hay..., sin..., zarbo…, lo..., g‘ilo..., isro..., atro..., inso..., tazarru..., taassu..., kash... .

41-mashq. Orfoepik normaga mos holda berilgan so‘zlarni o‘qing. Har bir so‘zning orfografik shaklini yozib, ularni “Imlo lug‘ati”dan tekshiring; talaffuzi va yozilishidagi farqni izohlang.

Bangkir, botingka, ko‘ngilchang, mungkaymoq, to‘ngka, fingka, chungki, esangkiramoq, sho‘xchang, bangkrot, bangket, bangka, ko‘langka, masqaraboz, maxtov, qizixchilik, bixsimoq, boxcha, bo‘yoxchilik, vaxt, vaxtincha, vaxtichog‘lik, zixna, zorixtirmoq, ixtisod, nixtamoq, oxsamoq, oxshom, oxshoq, poyloxchi, soxchi, taxchil, to‘xson, to‘xmoq, chaxchaymoq, o‘xtalmoq, quloxchin, alangga, banggi, barzanggi, vatanggado, vaholangki, gunggalak, go‘shangga, davanggir, danggal, danggasa, buxangka, varangka, denggiz, domanggir, yenggiltak, janggavor, kalamingka, karzingka, jinggalak, kunggaboqar, kunggira, kunggay, tangketka, ko‘langka, ko‘taringki, mingashmoq, nongko‘r, chekangka, sarpoychang, tangga, to‘ngka, changgal, shinggil, shtanga, sho‘xchang, enggash, yanggi, harakatchang, qizilo‘nggach.

42-mashq. O‘qing. Avval sirg‘aluvchi, so‘ngra, qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan so‘zlarni ajrating. Ularni ikki ustun shaklida yozing.

Jabr, jabra, jadval, janr, jangvar, jargon, jasur, gijda, jamoat, anjir, abajur, ajablanmoq, ajdargul, ajriq, gijja, dyujina, daraja, javob, jadval, jandarm, jemper, jingalak, jirafa, jumla, jurnalist, jurnalxon, jo‘yak, juft, zanjir, zijigalka, zotiljam, ijozat, ijobiy, injener, iskanja, kenjatoy, kinorejissyor, mavj, majlis, morj, natija, passajir, projektor, reja, rejim, sabotajchilik, tajriba, tarjima, falaj, xorijiy, shajara, o‘lja, g‘ijim, hajv.

43-mashq. O‘qing. Fonetik tamoyil asosida yozilgan so‘zlarni ko‘chiring va izohlang.

G‘ayrat, qolib, qo‘lyozma, qo‘llanma, qo‘llanma, o‘toq, g‘alla, g‘avvos, qultum, quvonch, o‘rama, yagana, yaktak, yagona, yuqumli, yupanch, ekologiya, ezgu, eskiz, shudring, shulxa, shilel, chayqov, chastota, cherkov, xaridorbop, xokkey, fermer, firuza, uyqu, ushu, tajriba, tazkira, teletayp, simvol, simob, romans, razolat, poyabzal, papirus, orangutan, og‘ayni, nogoron, neft, mardonavor, marketing, lashkarboshi, lager, konfet, kokain, katapulta, kaptar, yo‘qlov, in'om, zag‘cha, zenit, jarangdor, jarima, jandarm, dilorom, dilozor, dardkash, guberna, gavhar, vazelin, boqatdan, bodroq, anvoyi, akvarel.

44-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ularning yozilishi va talaffuziga e'tibor bering. Orfografiyaning shakliy-an'anaviy tamoyil asosida yozilgan so‘zlarni ko‘chirib, tegishlicha izohlang.

Direktor, mavhum, dirijyor, makkor, doktorant, minbar, dolzarb, izhor, kristall, mirzaterak, muolaja, mollyuska, mazkur, mukofot, matbaa, olijanob, motor, naqdina, okean, orbita, og‘zaki, palto, pasport, piramida, rasmiyatchilik, reportaj, ravoch, rusumli, safsata, sekund, separator, sirop, solqi, tabor, tadqiqot, tarozi, tembr, tokqaychi, tumonot, xoin, xokkey, xo‘tik, chilangar, chirmovuq, sharmsor, shahodat, shifer, elevator, ehtiyoj, yashovchan, qalamtarosh, qopag‘on.

45-mashq. Berilgan so‘zlarni talaffuz va yozuv qoidasiga rioya qilgan holda o‘qing. Nuqtalar o‘rniga shu so‘zlarning yozuvdagi shaklini namunadagidek yozib ko‘rsating.

N a m u n a : *1) aksioner – aksioner;*
2) delegatsiya – delegatsiya.

Affiksatsiya - …, vulkanizatsiya - ..., instansiya - ..., ssenariy - ..., kultivatsiya - ..., kansler - ..., penitsillin - ..., platskarta -..., reaksiya - ..., sotsiologiya - ..., sisterna - ..., okkupatsiya - ..., sterilizatsiya - ..., rezidensiya - ..., publitsistika - ..., annotatsiya - ..., kvitansiya - ..., konferens-zal - ..., investititsiya - …, infeksiya - …, punktuatsiya - ..., platsdarm - ..., sanksiya - ..., mototsikl - ..., siklon - ..., konstruksiya - ... .

46-mashq. Kirilcha o‘zbek grafikasida qorishiq undosh tovushni ifodalovchi “s” harfi bilan yoziladigan o‘zlashma so‘zlarning hozirgi o‘zbek tilida 2 xil (“s” va “s” tarzida) talaffuz qilinishi va yozilishini e'tiborga olib, quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing hamda ko‘chirib yozing.

Attraksion, litsenziya, sellofan, konsern, koordinatsiya, militsioner, sement, intuitsiya, korporatsiya, senzura, sanatsiya, sotsial-demokrat, dotsent, kolleksiya, irrigatsiya, avianoses, litsey, plantatsiya, reaksion, statsionar, seksiya, repetitsiya, sitrus, farmatsevtika, kanalizatsiya, konslager, inkubatsiya, teleinssenirovka.

Tegishli harf (s) va harfiy birikma (ts) ni aniqlab, “s”ning tagiga bir to‘g‘ri, “ts”ning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

47-mashq. O‘qing. So‘zlar tarkibida aynan bir xil undoshning yonma-yon(takrorlangan, juft) holda qo‘llanganligiga e'tibor qiling. Shu so‘zlarni talaffuz xususiyatiga ko‘ra 2 turga ajratib yozing va tegishlicha izohlang.

N a m u n a: 1) *kassa* – 2 ta bir xil undosh aniq talaffuz qilinadi (talaffuzi va yozilishi bir xil); 2) *kasseta* - 2 ta bir xil undosh 1 ta tovush sifatida talaffuz qilinadi.

1. Alla, balli, ballon, alloma, illyuziya, intellektual, kristall, mahalla, metallshunoslik, millat, millioner, muallaq, masalliq, gorilla, vallamat, ballada, illyuminator, salla, kollokvium, milliard, muallif, mutavalli, novella, tavallud, trillion, trolleybus.

2. Vassal, assambleya, dissertatsiya, jussa, vassa, issiqxona, kassa, kassatsiya, kassir, rassom, rejissyor, kissa, klass, kissavur, komissar, komissiya, kompressor, kongress, massa, kross, missiya, muassasa, mujassam, mutaxassis, xossa, g‘ussa, hissa.

3. Arra, apparat, vanna, vatt, gijja, baqqol, affiks, dollar, ashaddiy, zukko, immunitet, kashshof, kilogramm, kurra, kommersant, labbay, mashaqqat, metall, musaffo, muttaham, mug‘anniy, novvos, terror, tunnel.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma'nosini izohlang.

48-mashq. Tarkibida bir tovushni ifodalovchi *ng* harfiy birikmasi mavjud so‘zlarni aniqlang va ularni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga muvofiq qismlarga ajratib yozing. Urg‘usini belgilang.

Anglamoq, belangi, dangal, dangasa, do‘ng, do‘ngalak, yengillik, yog‘ingarchilik, ingichka, ingliz, kenglik, ohangdosh, rango-rang, rang-barang, so‘ngak, so‘ngra, tanglay, tengdosh, tinglovchi, farang, xarsang, changimoq, changal, engak, engashmoq, yangilik, yangramoq, o‘ngir, o‘nglamoq.

49-mashq. O‘qing. Ayrim so‘zlardagi undoshlarning yozilishida yo‘l qo‘yilgan xatolarni topib, sababini izohlang.

1. U boshini shunday tez va kutilmagan vaqtda burdiki, Saidiy ko‘zini ololmay qoldi va xuddi gunoh ish qilib turgani ustida tutilganday esangkiradi, qizardi. *(A. Q.)* 2. Orol to‘rt-to‘rt yarim tanopcha kelar edi. *(A. Q.)* 3. Abadiy sevikli bo‘lib qoladi To‘ng‘ich parzandimiz, «kichkintoyimiz». *(U.)* 4. Hazil boshlab der Faridun: «Kengashing-ku, juda bob. Lekin senga tulpor tortiq qilganimdan dil kabob». *(Sh. Rustaveli.)* 5. Hurmatoy ipagiday asil, nafis batisga San'atkor qiz qo‘li-la hayot o‘zi bosar gul. *(Z.)*

50-mashq. O‘qing. Orfografik jihatdan xato yozilgan so‘zlarni aniqlab, ular qaysi qoidaga muvofiq yozilishini tushuntiring.

1. Mash'ala vishillab-vishillab mushtdekgina cho‘g‘ga aylandi-yu, oxiri uni ham cho‘l shamollari... uchirib ketdi. *(S. Ahm.)* 2. Odil Sarkorga murojaat qil, u dodinga yetadi, deb maslahat bergan edi. *(F. Niyoziy.)* 3. Rayis otni haydab, tabelchiga yaqinlashdi. *(S. Nazar.)* 4. Yusufjon ranggi oqarib, ...devorga suyanib o‘tirdi. *(S. Kalmikov.)* 5. Baron ... ustgi labini ko‘tarib burnini jiyirdi. *(A. Q.)* 6. Nahotki ikki yil ishlab, mehnati singan joyni tashlab ketadi? *(S. Ahm.)* 7. Usta G‘iyos turdi erta bilan, seskanmadi tongi sovuqda. *(Mirm.)* 9. Shohga odat emas edi quruqgina do‘q qilmoq. *(Sh. Rustaveli.)* 10. Yo‘qlamaning bir chekkasiga qo‘l qo‘yib bersalar, vassalom. Bir minutli ish. *(E. Nosir.)* 11. Kampirlar aravachalarda nevaralarini olib kelib, o‘zlari ko‘z oynak ustidan gazetani yalagudek qilib o‘qishadi. *(S. Ahm.)*

51- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda nima maqsadda ikkita bir xil undosh va unli ketma-ket qo‘llanganini izohlang.

I. 1. Taqdiri boshshini yesin! *(M. Ism.)* 2. Kamolxonov iltimosiga «xo‘p» degan javobni kutib, savol alomatiday gajjak bo‘lib turganida, telefon jiringlab qoldi. *(A. Q.)* 3. «Ajoyib olma! — dedi Feruza. — Mazza!» *(H. G‘.)* 4. Hov, oy-yi! bu yerdagi narsalar ja katta-ya! *(D. Kyusak.)* 5. Bola uni tuzzukroq o‘ylab ko‘rishga qo‘ymadi. *(S. Ahm.)* 6. Yashsha, Qoraqosh! Tankchining ko‘zini o‘yding! — dedi ... kapitan. *(I. R.)* 7. — Shu ko‘rib turganlaring hammasi oqibat, uka, — dedim. — Oqibating nimassi! *(A. Qod.)*

II. 1. - «Ji-im!» — Kapitan Faragut buyurdi. *(J. Vern.)* 2. Soch — mundoq. Shim - mu-u-undoq... *(As. M.)* 3. Shunday pallada pensiyani shimi-i-b, uyda ag‘nab yotsak bo‘lmas. *(A. Muqimov.)* 4. Bizdaqa odam bir og‘zi ochildimi, ke-yetdi. *(O‘. Usmonov),* 5. Shu xotin hayro-o-on qolardi. *(Mirm.)* 6. Kulo-o-ol, uyg‘oqmise-

yez? *(Mirm.)* 7. «Kanalga-a!» — degan ovozlar ko‘kka ko‘tarilardi. *(N. Biryukov.)* 8. Qoraqosh ... qichqirdi: «Lenta! Lenta-a!» *(I. R.)* 9. Bu hisobmas, boshqa kelasizlar endi xotirjamlikda. Yotadigan bo‘li-ib... *(A. Muqimov.)* 10. «Kim?» — deb so‘radi o‘rnidan turayotib. «O-och!» — deb baqirdi Yo‘ldosh. *(S. An.)*

52- mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan ***h*** yoki ***x*** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

I. ...avas, ...abar, ...ajviy, ...ayvon, ...ayol, ...arita, ...ayotba...sh, ...ayriyat, ...ajm, ...irmon, ...aykal, ...arajat, ...aykaltaroshlik, ...islat, ...isobot, ...itob, ...immat, ...aqqoniyat, ...ulq, ...ususiy, ...ikoyanavis, ...ushtabiat, ...issa, ...ushbo‘y.

II. Maza..., mad..., giyo..., tari..., sayyo..., si..., oromgo..., sul..., za..., dastgo..., char..., nigo..., sho‘..., jarro..., ya..., podsho..., sur..., islo..., sersho..., guru..., mi..., sat... .

III. Ar...iv, a...borot, a...vol, asla...a, ba...il, ba...s, ba...tiyor, beba...o, be...ato, be...ayo, bu...ta, bo‘...ton, va...ima, gul...an, guru...bozlik, da...ldor, da...shat, do...iy, du...oba, jaro...at, jo‘...ori, za...arlamoq, ma...sus, ma...orat.

IV. Imo qildi zolim ...on, Saroy bo‘sh qoldi shu on. *(H. O.)* 2. Cholni qo‘ymay ...oliga, Olib chiqib ...oliga, Ikki sandiq oltinni Naqd berib oldi uni. *(H. O.)* 3. Kokillari uning tol-tol, Lablarida bitgan qora ...ol. *(H. O.)* 4. Va ko‘rdikim, ajoyib bir ...ol: Zaynab turar qayg‘uli va lol. *(H. O.)* 5. Sodda edim ham ...ayoli, Endi dilda yor ...ayoli. *(S. Nazar.)*

53- mashq. Nuqtalar o‘rniga ayirish yoki yumshatish belgisidan mosini qo‘yib, so‘zlarni va gaplarni ko‘chiring. Ayirish belgisi qanday holatlarda qo‘llanishi haqidagi qoidani eslab, bunday so‘zlarning talaffuziga alohida e'tibor bering.

I. Al...bom, ad...yutant, al...manax, val...s, in...om, apel...sin, kinos...yomka, bil...yard, bul...dozer, mas...ul, vul...gar, interv...yu, s....yomka, del...fin, ob...yekt, kinofil...m, kul...tivator, pod...yezd, pavil...on, sur...at, pal...to, raz...yezd, p...yesa, sub...yekt, pul..s, sun...iy, prem...yera, ta...minlovchi, pochtal...on, sub...yek-tiv, sud...ya, ta...sis, skul...ptor, ta...sir.

II. 1. Mamlakatimiz g‘oyat ulkan aql-zakovat, ma...naviy va moddiy imkoniyatlarga ega. *(I.Karimov)* 2. Ijod qiyin, mas...ul, zavqli, shuning uchun ham ijod deb ataladi. *(As.M.)* 3. Derazada chiroq shu'lasi yalt etdi... *(Stendal)* 4. ... Bu kuy va ashulalarni Halima opadek chinakam san'atkorlar... ijro etmog‘i shart. *(O.Yo.)* 5. Sizning iste'dodingizni bilaman, sizga hurmatim hamisha baland. *(O.)* 6. Hayotimdagi eng qisqa, lekin eng mas'ud onlar esimga tushib ketdi. *(O.Yo.)* 7. Kim yana ko‘proq ne'matga, yana balandroq shuhratga, yana olisroq manzillarga intilmabdi! *(H.G‘.)* 8. Otaqo‘zi daf'atan vulqonday qaynab kelgan g‘azabini zo‘r-bazo‘r to‘xtatib qoldi. *(O.Yo.)*

54-mashq. Gaplarni o‘qing, qo‘shimcha qo‘shilishi bilan o‘zakda o‘zgarish hosil bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va ularning qaysi imlo qoidasi asosida yozilganini tushuntiring.

1. Sinovlarda men chiniqdim, qasamimga sodiqman. *(Sh. Rustaveli.)* 2. Ikkovi valsga raqs tushib, shamolday gir aylanib turganlarida, oyog‘i kimgadir tegib ketdi. *(S. Nazar.)* 3. Tanaffusga chalingan qo‘ng‘iroqning keti uzilmasdanoq, auditoriya zshigi lang ochildi-yu, o‘qituvchi bilan izma-iz bolalar yo‘lakka oqib chiqishdi. *(S.An.)* 4. Yotog‘iga qaytib kirganda, Hamidaning jarangdor, sho‘x tovushi qulog‘i tagida hamon yangrab turganday tuyuldi. *(S. An.)* 5. Issiq ovqat, choy-poylarimiz shularning bo‘ynida. *(J. Abd.)* 6. Munavvar oktyabrning boshlarida Hamidalarnikiga yana bir kelganida, Yo‘ldosh singlisi bilan uni ... bog‘ sayliga olib ketdi. *(S. An.)* 7. Munavvar eng yaqin do‘stini to‘satdan uchratganday o‘rnidan turib ketdi. *(S. An.)* 8. Uni bunday qiynoqdan faqat qo‘ng‘iroqqina qutqaradi. *(S. An.)*

55-mashq. O‘qing. Ushbu matnda qanday grafik vositalar qatnashganini tushuntiring.

1. Axir, turmush ko‘lmak suv emas, oqib turgan bir daryo-ku! *(O.Yo.)* 2. Arastu hakim aytadi: “To‘g‘ri so‘zlab, to‘g‘ri ishlab vafot etish yolg‘onchi bo‘lib uzoq yashashdan ko‘ra xayrlidir”. 3. Iya, kuyovbola, qayoqlarda yuribsiz? *(E.A'zamov)* 4. To‘y, yor-yor, qo‘shiq, kuy avjida. To‘rda yigit bilan qiz. Bugungi to‘y ularniki. *(M.Boboev)* 5. Arxitektura – odamning didi, zavqi, madaniyatiga bog‘liq bir san'at. *(O.Yo.)* 6. Har bir odamda 50 milliarddan ziyod asab tolalari mavjud. *(H.Shayxov)*

56-mashq. Qismlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan so‘zlarni imlo qoidasiga muvofiq (qo‘shib, ajratib yoki chiziqcha bilan) yozing.

I. Shu asnoda payvasta/qosh, shalpang/ quloq, barmoqlarida binafsha/rang siyoh dog‘lari bor, oriqqina yigitcha — idora sekretari paydo bo‘ldi va mashinada hozir bir kishi kelib, Raisani kutib turganini bildirdi. *(O.)* 2. Idorada pravleniening o‘zga a'zolari hali to‘planmagan edi. Rais qo‘llarini orqaga qo‘yib, katta qo‘rada unga/bunga ko‘z tashlab, ot/boqar yo aravakashlar bilan u/bu to‘g‘risida so‘zlashib, kimlarni koyib, kimni maqtab asta yura/boshladi.

O‘ktam bo‘sh xonalardan birida osma/lampa ostida gazeta o‘qir ekan, labida papiros, chakkasida atir/gul Nasimjon kirib keldi va kolxozning butun tashvishi go‘yo yolg‘iz uning zimmasida bo‘lib, benihoyat charchagandek o‘zini stulga tappa tashladi. O‘ktam ma'nodor iljayib qo‘ydi-da, o‘qiyverdi. *(O.)*

II. Tosh/baqa, och/sariq, issiq/sovuq, oy/bolta, azob/uqubat, dam/badam, ayiq/tovon, arz/dod, amaliy/nazariy, beshik/tervatar, bir/zumda, boy/o‘g‘li, bo‘lar/bo‘lmas, bir/tomonlama, umum/ta'lim, afsus/nadomat, dev/qomat, dov/daraxt, gul/dasta, kasb/kor, nim/pushti, nim/rang, oyoq/osti, orzu/umid.

57-mashq. O‘qing. Berilgan so‘zlar va gaplarda bosh harflarning qo‘llanish o‘rinlariga e'tibor bering, ularning bosh harf bilan yozilish sabablarini tushuntiring. Yana qaysi o‘rinlarda so‘zlar bosh harf bilan yoziladi?

I. Avstriya, Amudaryo, Arslonbob, Bekobod, Baliqchi, Braziliya, Boysun, Burchmulla, Buxoro, Bo‘stonliq, Vashington, yevropa, Jizzax, Iroq, Kattaqo‘rg‘on, Osiyo, Tokio, Uychi, Chirchiq, Bo‘zsuv.

II. 1. Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasining ahamiyati haqida to‘xtalib: “Yangi mafkuraning asl mazmuni - yangicha, erkin fikrlaydigan, mutelik va jur'atsizlik tuyg‘usidan mutlaqo xoli mustaqil insonni tarbiyalashdir”, degan fikrni bildirdi.

Darhaqiqat, har bir xalqning, har bir davlatning kelajagi o‘z yurti, xalqi va Vatanini sevuvchi, e'zozlovchi, ularga sadoqat bilan xizmat qiluvchi oqil, fidoyi, vatanparvar yoshlarga bog‘liq bo‘ladi.

Qalbida vatan tuyg‘usi kuchli bo‘lmagan kishilarda qat'iyat, sobitlik, mustahkam e'tiqod va iroda bo‘lmaydi. *(“Qonun himoyasida” jurn.)*

2. Mustaqilligimizga, tinchlik va xavfsizligimizga tajovuz qilayotgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan qonunlar ijrosi nazoratiga ustuvor ahamiyat berildi. Masalan, 1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida, 2000 yilning yozida Surxondaryo viloyatining Uzun tumani, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida terroristik harakatlarni tashkillashtirgan Tohir Yo‘ldoshev, Juma Hojiev va boshqalarga nisbatan (jami 12 nafar shaxs) O‘zbekiston Respublikasi JK ning tegishli moddalari bilan ayblash yuzasidan jinoyat ishi bo‘yicha tergov harakatlari tamomlanib, ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko‘rib chiqildi. *(“Qonun himoyasida” jur.)*

58-mashq. O‘qing. Kerakli o‘rinlarda kichik harflar o‘rniga bosh harflarni qo‘ygan holda gaplarni ko‘chirib yozing; nima uchun shunday yozilishini izohlang.

1. O‘rta Osiyo kobrasi eng katta zaharli ilonlardan biridir. Uning uzunligi ikki metrgacha boradi. *(“G‘uncha”dan)* 2. Biz vatanimizning kelajagi porloq ekaniga ishonamiz. *(I.Karimov)* 3. Meni kutayotir ajib kelajak, u mening iqbolim, mening baxtimdir. *(A.Oripov)* 4. Aziz vatandoshlar! Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqlarni ko‘zlab yashagan. *(I.Karimov)* 5. Oshnam: “dunyoda eng aziz, eng qimmatli narsa nima”, - deb so‘rab qoldi. Mo‘ysafid hamrohimiz javob berdi: “inson va uning vaqti”. *(Yo. Sh.)* 6. Men Muhammad kabir nodirshoh bilan gaplashib olishim kerak! *(H. Shayxov)*

59-mashq. Quyidagi o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Ular tarkibida qo‘llangan “o” harfi qaysi o‘rinlarda “a” tarzida, qaysi o‘rinlarda “o‘” tarzida talaffuz qilinishini ayting, sababini izohlang.

Aloy, auditoriya, aeroport, balkon, barometr, basketbol, begemot, benzokolonka, binokl, blokada, boykot, bokal, boks, bolt, bronxit, bronza, vagon, vertolyot, garmon, gastronom, globus, gorizont, zavod, zvonok, intonatsiya, ippodrom, kolbasa, kolonka, komediya, kompas, kompot, kompress, konvert, konkurs, konservatoriya, kontramarka, koridor, korpus, kosmetika, kosmodrom, kotlet, kofe, kofta, laborant, logika.

60-mashq. Orfoepik norma asosida yozilgan so‘zlarni o‘qing. Ularning orfografik normaga mos shaklini yozib, qaysi tovush-harflar o‘zgarganini tushuntiring.

N a m u n a : *aylamma – aylanma...*

Aylamma, ag‘oqchi, marmalat, boxcha, maskiro‘fka, badbax, badjahil, negatif, netral, begana, besavir, ariginal, arnament, govda, gurich, pasajir, petsavet, dasgoh, doyimiy, donishman, rafinat, rengen, yombosh, yotoxxona, tvarok, to‘nna, trikotash, turis, javir, jahonggir, jurat, uchaska, fortichka, inggichka, ishqivoz, chimpiyon, shifaner, shtampofka, kallaqant, kannaychi, lo‘ttivoz, mayishat, ekanamis, naqorat, paymol, po‘slog‘, rasim, tambih, tannov, telva-teskari, uzir, uski, shovkat, shoyir, ihtirom, g‘ovvos, husin, qulip.

61-mashq. Abdulla Qahhorning «San'atkor» hikoyasidan olingan parchani o‘qing, personaj nutqida yo‘l qo‘yilgan leksik, grammatik, orfografik xatolarni aniqlang.

...San'atkor o‘zicha bo‘g‘ilib: ... O‘zi bilmaydi-yu, menga o‘rgatganiga kuyaman! Artist kulturniy odam, gapni adabiy qilib aytadi — «bo‘lsa, bo‘lmasa» deydi. Pojarniy «gugurtni yerga tashlamang» dedi, rejissyorimiz esa «gugurtning yerga tashlamang» dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! *(A.Q.)*

62-mashq. Berilgan tekstni o‘qing. Personajlar nutqida uchragan defektlarni aniqlang va bunday nuqsonlar qanday sharoitda, qaytarzda ro‘y berganini izohlang.

Xorda Muxanovning qo‘lini qisdi, mayin kulimsirab, chuchuk tilda gapira boshladi: «Shizdek tajgibali shtgatek bilan tanisganimdan xugshandman, genegal, Andijonda shiz haqda ko‘p esitganmiz...». — Kichikib qolamanmi, deb qo‘qqan edim, — dedi nafasi tiqilib Irina. — Janobi Monshtlov, Ishak shizning bolsevikli hiylashiga isonib qolisingizdan qo‘qan edi.. Muxanov Ishak so‘zini eshitishi bilan xaxolab kulib yubordi.. Monstrov bilan Irina unga hayron bo‘lib qarab qo‘yishdi., «Qaysi eshak haqida gap ketganini bilolmay dog‘daman?» Xorda qip-qizarib ketdi. Monstrov miyig‘ida kuldi: «Irochka “s” harfini yaxshi talaffuz etolmaydi. Gap Andijon eserlarining rahbari Isaak Abramovich Ganishevskiy haqida boryapti». — “Zahalni men topib kelyaman, — dedi Irina chuchuk tili bilan — aptekalalda tanisim bol”. — Barakalla, Irochka. Shu bugunoq aptekalardan hamma strixninni, margumushni, sianistiy kaliyni ko‘tara olish kerak. *(S. Kalmikov.)*

63-mashq. Gaplarni o‘qing, bolalar nutqida uchragan kamchiliklarni aniqlang. Bu kamchiliklar qaysi fonemalarni noto‘g‘ri talaffuz qilish natijasida ro‘y berganini tushuntiring.

1. Ular o‘zlarining kechagina «ninni» bo‘lganliklarini unutib: «Apa, ninni, manda ninni! Sandamas — manda!» — deyisha ... chug‘ur-chug‘ur qilishardi. Umri: «Sizlardayam «ninni» tilib beliymi?» — desa, ular: «yo‘q, bizda toptov, bizda toptov!» — deb chuvurlashdi. *(H. N.)* 2. O‘shanda endi tili chiqa boshlagan boladan otini so‘rasalar, «Ummi» degan. Shu-shu Umri bo‘lib ketgan. *(H. N.)* 3. “Dada, - quvonib, maqtanib dedi Yulduz, — mana ko‘ylagimni qarang, yenggi. Attasdan. Ayam tikib berdi”. *(O.)* 4. «Xo‘jayinjon»ning nuri diydalari Qiyomxonovga juda o‘rganib qolishgandi. Uni ko‘rdi deguncha «amaqim teldila», — deb bo‘yniga osilishardi. *(E. Nosirov.)* 5. — Voy-voey.. Manavini qaranglar-a. Xuddi qo‘g‘irchoqqa o‘xshaydi-ya. — Quychoqmas, — dedi o‘yinchi qiz arazlab. — Quychog‘im uyda. *(Sh. Toshmatov.)* 6. — Diyiktiy aya! Ey, diyiktiy aya! Saodatxon o‘girildi. 4-5 yoshlar chamasidagi bir qiz... yugurib kelardi. *(S. Z.)* 7. — Buni kim berdi, qizim? — Bitta tishi. Huyatda, — qizcha qo‘li bilan orqa tomonni ko‘rsatdi. *(S. Z.)* 8. — Mulla amati, do‘xtiy chaqiyib beying. — Tili chuchuk qora bola pillapoya ustida turardi. *(Mirm.)* 9. Sochi jingalak qo‘y ko‘z Olga: «Dadam meni yaxshi ko‘yadi, dadam qug‘uychoq apeladi, toychayam apeladi, etada...» — deb javrab otasining oyog‘i ostida o‘ralashar edi. *(M. G.)* — Tatta bo‘ladimi? — Bo‘ladi. Juda katta bo‘ladi. — Tag‘in etamiz, dada. O‘zim ushab tuyaman. — Xo‘p, o‘g‘lim, tag‘in ekamiz. O‘zing ushlab turasan.. — Dada, bu ham maniti, o? — Saniki Ahmadjon, hammasi saniki! *(Y. Shamsharov.)*

64-mashq. Juft-juft qilib berilgan so‘zlarning tovush tarkibiga e'tibor bergan holda ularning ma'nolarini izohlang.

Yog‘du – yog‘di, kurd – kurk, nasab – nasib, nihon – nihol, jodi – jodu, so‘qa – so‘ta, majoz – mijoz, olcha – olchi, juda – judo, malay – malak, rux – ruh, orden – order, yirik – yiriq, sovun – sovut, jujun – jujuq, oqim – oqin, murtad – murtak, sop – sof, tobla –tablo, nufuz – nufus, og‘u – ohu, yanga – yangi, burj – burch, soxta – so‘xta.

LeKSIKOLOGIYa. FRAZeOLOGIYa

So‘z va uning ma'nosi

65-mashq. So‘zlarni o‘qing. Har bir so‘zning leksik ma'nosini, nominativ(nomlash) xususiyatini izohlang.

Ajriq, ayvon, amaki, ari, asov, o‘nta, barvasta, men, bastakor, avval, baxil, bahs, bedana, bezatmoq, bildirgi, allakim, burro, bo‘ron, vergul, gerb, go‘zal, dardchil, diyor, mana shu, dimlamoq, doim, dono, dum, dubulg‘a, yetmak, yetmish, yechintirmoq, yoyiq, yong‘oq, yoppasiga, jadval, jiyan, jiddiy, jilg‘a, jussa, ziyofat, ziroat, ziqna, zubr, ikkinchi, iljaymoq, injiq, in'om, irkit, istiqlol, itoatkorona, yo‘g‘on, kalit, kaltafahm, kashta, keyin, kimyogar, ko‘p, hyech kim.

66-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning leksik va grammatik ma'nolarini izohlang.

1. Farzand umr bog‘ida Hayotdek aziz, shirin. *(T.Saydaliev)* 2. Tuhmatning oyog‘i qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat to‘q danak, ko‘msa ham ko‘karib chiqadi. *(Shuhrat)* 3. Mehnat bilan topilgan non beminnat bo‘ladi. 4. Qahramon ota, jasur o‘g‘il, jafokash ona, hijronzada qalliq, hurmatli yodgorlik oldida uzoq bosh egib turdim. *(S.Ahm.)* 5. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh bo‘lish ilonni asrashga o‘xshaydi. Ilon har qancha asralsa ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki ko‘payadi. *(“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”)*

67- mashq. Matnlarni o‘qing, monosemantik so‘zlarni aniqlang va qaysi sohaga oidligini ayting.

I. Bakteriya hujayralari massasining asosiy qismn oqsil va nuklein kislotalaridan hosil bo‘lgan sitoplazma va yadrodan iboratdir. Oqsillar juda murakkab organik moddalar bo‘lib, ularning molekulalari yuz va minglab atomlardan tuzilgandir. Oqsillar tarkibiga uglerod, vodorod va kislorodlardan tashqari azot, oltingugurt va ba'zan fosfor ham kiradi. *(K. ye. Sharikov.)*

II. Mahmud Koshg‘ariy yirik fonetist sifatida har bir tovushni alohida o‘rganib, uni fiziologik va akustik tomondan tasvirladi. Tovush va harf orasidagi munosabatga to‘xtalib, arab yozuv sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi...

Mahmud Koshg‘ariy so‘zlarni uch turkumga ajratadi. Bular: ot, fe'l, yordamchi so‘zlar. Mahmud Koshg‘ariy ko‘pgina affikslarning ma'no va funksiyalarini ko‘rsatib bergan edi. Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. *(S. Usmonov.)*

III. Alisher Navoiy katta badiiy va ilmiy asarlari qatorida maxsus lingvistik asar yozganligi barchaga ma'lum.

Navoiy eski o‘zbek tilining morfologiyasini yaxshi analiz qildi. Masalan, u fe'lning o‘zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko‘makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so‘z yasovchi affikslarning ma'nolarini ko‘rsatib, ularni misollar bilan izohlab beradi.

Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining fonemalariga, ayniqsa, unlilariga ham ahamiyat berdi. *(S. Usmonov.)*

68-mashq. Gaplarni o‘qing, o‘z va ko‘chma ma'noli so‘zlarni aniqlang. Ko‘chma ma'noli so‘z ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, ma'nosi ko‘chgan so‘zlarning tagiga chizing.

I. 1. Agar derlar ko‘ngil yosh bo‘lsa, Oq soch o‘zi bir husn erur. *(Sh.)* 2. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi. *(O.)* 3. Avval o‘z bolalaringni va jigarlaringni oq podshoh qo‘shiniga yuborib ko‘ringlar-chi. *(S. Kalmikov.)* 4. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga... *(Qo‘shiqdan.)* 5. Ishonmasdan qarardi Do‘ndiq, go‘zal yuzlarga. *(Mirm.)* 6. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o‘yin-kulgi avjiga chiqqan edi. *(O‘. U.)* 7. Karim yo‘lda borar ekan, qulog‘iga Bibining ovozi eshitildi. *(N. Biryukov.)* 8. Bu suvning qulog‘iga yaqin, tekis yer edi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 9. Bir samovar bilan bir necha choynak meniki bo‘ldi. *(S. A.)* 10. Otlarni saroyga bog‘lab, o‘zlari samovarga kirishdi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)*

II. 1. U yil oxirida xizmati uchun boydan ma'lum miqdorda tuyoq oladi. Bu yilgi oladigan tuyog‘i ham noma'lum. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 2. Otlarning tuyoqlari... qattiq yerdan... toshlarni taraqlatib ketar edi. *(S. B.)* 3. Mana menam suv to‘la ariq labida quruq labman. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 4. Barmog‘imning tirnog‘i etidan ajrab ketdi. *(N. S.)* 5. Xushro‘y bitta-yu bitta qizi. Befarzand o‘tdim deganda ko‘rgan tirnog‘i. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 6. — Sizlar menga ishonaveringlar, — dedi Nosir mamash ohu ko‘z yigitga choy uzatib... — Siz Haydarbek emassiz! — dedi burgut ko‘z yigit. — Bu yog‘i endi o‘zlaringizga bog‘liq. To‘g‘ri yurib, bechorachilikni bo‘yinlaringizga olsalaring, oshlaringni yeysizlar. — Bo‘lmasam-chi?! — dedi Nosir mamash so‘zini kesib burgut ko‘z. *(N. S.)*

69- mashq. O‘qing. Metafora yo‘li bilan ma'nosi ko‘chgan so‘zlarni aniqlang. Gaplarni ko‘chirib, ma'nosi ko‘chgan so‘zlarning tagiga chizing va ma'no ko‘chish xususiyatini izohlang.

1. Yo‘ldoshboy soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 2. ... Ikki ko‘zi har nav mollar bilan to‘la xurjunni.yelkaga tashlab, ...inqillab kirdi. *(O.)* 3. Charchamagan bo‘lsangiz «Nautilus»ning quyruq tomoniga yuring. *(J. Vern.)* 4. Darhaqiqat, suv osti kemasining tumshuq qismini ko‘rib bo‘lgan edim. Kemaning o‘rtasidan tumshug‘igacha joylashgan xonalar o‘z tartibi bilan quyidagicha edi... *(J. Vern.)* 5. Bulbullarning dudog‘idan uchgan navoni Qo‘shiqlarim qanotida olib keltirdim. *(E. V.)* 6. Tog‘larning etagidan uchib maysaga yetar. *(Mirm.)* 7. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri Varrak dumlariga ilashib qoldi. *(Shukrullo.)*

70-mashq. Metonimiya yo‘li bilan ma'nosi ko‘chgan so‘zlarni topib, izohlang.

1. Butun vujudi bilan Berildi u o‘qishga. Har kun olib papkasin, Qatnar u “Navoiy”ga. *(Mirm.)* 2. Ko‘zimning oldidan o‘tadur g‘amgin Navoiy tobutin ko‘targan Hirot. *(A.Eshonov)* 3. Siz ham uzoq yashaysiz,

yuzga kirasiz. *(Shuhrat)* 4. Butun qishloq bizni so‘zlaydi, To‘yimizni doim ko‘zlaydi. *(H. G‘.)* 5. Dod deyman! Mahallani boshimga ko‘taraman. *(H. G‘.)* 6. Bir «Opa-doktor» degan Yoqib qolgandi xalqqa; Yarim Toshkent tanirdi. *(Mirm.)* 6. Qosh qoraygach, barcha yig‘iladi: Maktab, ferma, hamma xonadon... *(Mirm.)* 7. Zal gurillab kulib yubordi. *(A. Q.)* 8. London xushchaqchaq bir kuyni eshittirardi. *(Yu. Semyonov.)* 9. Beshinchidagi Anorgulni aytsang-chi, har kuni yuz yetmish besh kilogrammdan teryapti-ya. *(A. Muhiddin.)* 10. — Sizning kelishingizni eshitib, butun Marg‘ilon ko‘chib chiqdi. *(H. Nu'mon, A.Shorahmedov.)* 11. Qishlog‘imiz asosan bog‘dorchiligu chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. *(E.A'zamov)*

71-mashq. Ko‘chiring. Metonimiya yo‘li bilan ma'nosi ko‘chgan so‘zlarni topib, tagiga chizing, uning metaforadan farqini tushuntiring.

1. «Cho‘l kezding»,—debsiz,—muncha? Ne der eshitgan quloq? *(Mirm.)* 2. Sakkizda eding, o‘n oltiga qadam qo‘yding. *(H. G‘.)* 3. Ulug‘ qabrning ustida Hirot yig‘ladi. *(O.)* 4. Zalning butun nigohi, butun e'tibori boshqa tomonga ko‘chganini sezganda ham, ...to‘xtamay gapiraverdi. *(A. Chakovskiy.)* 5. Til bilan dil boshqa-boshqa bo‘lmasin, Egri qo‘llar bizni aldab yurmasin. *(H. G‘.)* 6. Menga lazzat berar shashmaqom, yalla, To‘ychi hofiz kuyi, Chaykovskiy, Bax. *(U.)* 7. Gospital shu tarafga yordamchi xo‘jalik qilmoqchi. *(S. Ahm.)* 8. Sport maydoninig etagida esa katta hovuz bo‘ladi. *(H.G‘.)* 9. Qishloq uyg‘onmoqda, har joy-har joyda mo‘rilardan tutun chiqmoqda. *(L. Sh.)* 10. Olijanoblikni qutlar yer yuzi, Qurbonsiz bo‘lmadi va lekin yarash... *(Mirm.)*

72-mashq. Gaplarni o‘qib, ko‘chma ma'noli so‘zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo‘li bilan ma'nosi ko‘chgan so‘zli gaplarni ko‘chiring; ma'nosi ko‘chgan so‘zning tagiga chizib, uning metonimiyadan farqini tushuntiring.

1. Quvnoq tongning oltin bo‘sag‘asida Tongni kutar quvnoq ming-ming ko‘z. *(Mirm.)* 2. — Qanaqa tashvishni aytyapsiz, oqsoqol? *(H. N.)* 3. Egizakni ko‘p tug‘ar qo‘ylar, Ko‘payadi suruvda tuyoq. *(Mirm.)* 4. Hoshim zo‘r, Ergash polvon va boshqa qing‘ir oyoqlarning ishlari Haydarbekka ayon. *(N. S.)* 5. — ... Qulingizdan qoladigan yolg‘iz tirnoq bu. Ishqilib mendan keyin yetimligi bilinmasin! *(Y. Sulaymon.)* 6. Qiyig‘ing uchida sen ko‘tarib kelgan to‘rtta olma yeyman deb turgan sakkiz og‘izga nima bo‘ladi. *(H.G‘.)* 7. Eshitgan quloq nima deydi? *(H. G‘.)* 8. Uqubatli kunlarni Endi ko‘rmasin boshlar. *(Mirm.)* 9. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz, — dedi telefonistka. *(Yo. Sh.)* 10. Yo‘li menga besh qo‘ldek ravshan bo‘ldi. *(Yo.Sh.)*

73- mashq. O‘qing. Ko‘chma ma'noda qo‘llangan so‘zlarni toping. So‘z ma'nosi qaysi yo‘l bilan ko‘chganligini izohlang.

1. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. *(I. R.)* 2. Oyoqda og‘ir etik Asfaltda taraqlardi, Soldatlar etigidek Tumshug‘i yaraqlardi. *(Mirm.)* 3. Bir oshnam «she'r» o‘qib, chapak chalmasa, zalga o‘shqiribdi — «talant» emish u... *(Mirm.)* 4. Sen o‘zing go‘zalsan, ey O‘zbekiston, Bog‘imiz husniga jahon boqmoqda. *(Mirm.)* 5. Shinelni yechmasdan frontdan to‘g‘ri Zavod quchog‘iga otilding tetik. *(Sh.)* 6. Igna zahrin mendan so‘ramang, Tob berganman ne zahmatlarga. O‘ttizga kirsam ham cho‘chib turaman, Ko‘zim tushsa oq xalatlarga. *(E. V.)* 7. «Akamdan bitta-yu bitta shu tirnoq qoldi», — dedi u. *(Y. Sulaymon.)* 8. Modomiki maslahatni mendan emas, mahalla qora ko‘zlaridan so‘ramoqchi ekansiz, so‘rang, qani bular nima der ekanlar. *(N. S.)* 9. Oyga uchayotgan kosmonavt agar so‘rasa ne kitob olishni, u dam — Navoiy-yu Pushkin, G‘afuru Tagor Va olib uch derdim Tixonovni ham. *(Mirm.)* 10. Qizning mehrini, iltijosini sezgan saman ot buloq boshida bo‘yin egib turib berdi. *(H.G‘.)*

So‘zlarning shakl va ma'no munosabatiga kura turlari

74-mashq. Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan omonim so‘zlarning ma'nolarini izohlang.

1. Ayshingizni surib yura berasiz. Paxta har yili **yuz**! Pilla **yuz**. *(A. Q.)* 2. Mayin kulimsar **yuzi**, Tajangliklardan yiroq. *(Mirm.)* 3. Dunyoda bor ekan har narsaga **chek**. Bema'ni umringga bir oz qayg‘u **chek**. *(G‘. G‘.)* 4. Tegirmonchi Roziq degan chol, Cholning yuzi, ko‘zi doim **un**. *(Mirm.)* 5. Dodlay desam chiqmas **unim**, Nima qildim, nima qildim?! *(M.Boboev)* 7. ... bir masalaning **hali** uchun qoshingizga kelgan edim. *(O.)* 8. Bu atrofda **hali** ko‘p izg‘iydi u. *(O.)* 9. Yana bir kasb etgan baxtim **sizsiz**, azizim. 10. Mayli, lekin biron majlis **sizsiz** o‘tsa nima bo‘pti? *(O.)*

75-mashq. O‘qing, omonim so‘zlarni aniqlab, ma'nosini izohlang.

1. Bir vaqt Bog‘dod xalifasi saroyining yetukli dabiri bilan uchrashganim bor. *(K. Moiseeva.)* 2. Dono mudarrisimizning o‘zi ham... hali biron bor kirishga muyassar bo‘lolmagan-ku! *(K. Moiseeva.)* 3. Men do‘zaxning qoq o‘rtasida bo‘ldim, undagi hayotning «lazzatlarini» totib ko‘rdim. *(K. Moiseeva.)* 4. Ayabroq o‘t sochishdi, shekilli, har qalay, bir qo‘limdan ajrasam-da, tirik qoldim. *(N. T.)* 5. Qovjiragan tutam o‘t Bo‘lgan unga paloslar. *(Q. H.)* 6. Mo‘rilardan tutun burqadi, Gur-gur yonar qoq g‘o‘zapoya. *(Mirm.)* 7.

Yuragingda bo‘lsa o‘t, Bizga qiyo boqib o‘t. Agar ko‘ngling bo‘lmasa, Mayli bag‘rim yoqib o‘t. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 8. Yig‘ilgan pullarni yaktagining qiyiq cho‘ntagiga solib, xayrlashib jo‘nadi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 9. Xo‘b yarashgan qop-qora miyiq, Belidadir shohidan qiyiq. *(O.)* 10. Uni eshitishdan ko‘ra quloqlarim tom bitgani yaxshi. *(K. Moiseeva.)* 11. Chakka o‘tar — eski tom. Bosaman deb qo‘rqitar. *(Mirm.)* 12. Stolida turar qalin tomlar... *(Mirm.)*

76-mashq. O‘qing. Omonimlarni topib, turini (omoshakl, omofon, omograf) ayting.

1. Semurg‘ dedi: «Ey botir, Kel endi o‘rningdan tur!» *(H. O.)* 2. Jyuri sizlarga o‘zining quyidagi birinchi tur savollarini yuboradi. *(B. Ergashev.)* 3. Binafshalar, rango-rang gullar, Shisha kabi zangori ko‘llar, ...Hammasi bor, hammasi ma'mur. *(H. O.)* 4. Bahor chog‘i butun tabiat gullar, G‘uncha kabi ochiladi ko‘ngillar. *(H. O.)* 5. Maktab binosi yoniga yetganda, qizi La'liga duch keldi. — Idoraga uch, senga ham pul katta. *(Sh. Toshmatov.)* 6. Hosil olamiz der ekanmiz, har kuni uch mahal ovqat kilishni kanda qilmaganimizdek, ekinlarni ham bir kun emas, bir soat ham kechiktirmasdan sug‘orib turishimiz kerak. *(Ch. Ayt.)* 7. Abdulhay, o‘zing ham to‘rga o‘t, bolam. Bemalol yonboshlayveringlar, o‘z uylaring. *(E. Nosir.)* 8. Mamatali to‘rga tushgan bedanadek ko‘p urinib ko‘rdi. *(I. Sodiqov.)* 9. Mehmonlarga ko‘p yoqar, Qanday soz bu el raqsi. *(Mirm.)* 10. Uni bayon qilishda Soz ham yig‘laydi yomon... *(Mirm.)* 11. Minora baland, zinapoyalari tik, o‘y-xayollar esa zildek og‘ir edi. *(S.B.)* 12. Feruza yo‘l-yo‘l tik ko‘rpachada ma'yus o‘tirarkan, onasiga yumshoqqina jilmaydi. *(H. G‘.)* 13. Gapga yana gap ular, o‘zaro suhbat gullar. *(Q. H.)* 14. So‘ng zolim xonga ular Tanitdilar Darxonni. *(H. O.)* 15. — Umridan shuncha uzoq bo‘lgandan keyin... umri uzoq bo‘ladi-da, — deb so‘z o‘yini qildi. *(A. Q.)*

77-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonimlarini toping.

1. Xon shu kechasiyoq kampirga **chopar** yubordi. *(S.Ahm.)* 2. Dildor yugurib borib Davlatbaxtning xonasidan g‘ijjak, tanbur, **daf** keltirdi. *(O.)* 3. **Belni** aldab-aldab ishga solmasak bo‘lmas. *(S. Ahm.)* 4. Men ikkinchi **rang** harbiy vrachman. *(A. Chakovskiy.)* 5. U turtinib, plashchining **bari** butalarga ilinib, ...hansirardi. *(Ch. Ayt.)* 6. Sog‘inib kutdim, **yoshim** marjon bo‘lib. *(H. G‘.)* 7. Ba'zan uning **organ** chalayotganini eshitar edim. *(J. Vern.)* 8. ...**Unga** musiqiydan dars berish uchun jaziramada, **qoq to‘p** paytida piyoda borib-kelib tursa — bu qanaqa muhabbat bo‘ldi. *(R. Zahir.)*

78-mashq. Quyidagi omomnim so‘zlarning ma'nolarini izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kurak, kunda, ko‘za, may, mansab, nor, ol, ort, och, osha, oshiq, palak, par, sep, son, son, sur, taqa, rom, ter, tovon, tirish, tok, tuz, to‘p, chang, chop, qazi, qiy, qil, qirq, qor, quv, qo‘y, qo‘sh.

Izohlaringizni “O‘zbek tilida omonimlarning izohli lug‘ati” bilan solishtirib ko‘ring.

79-mashq. Shakli bir xil, vazifasi har xil affikslarni aniqlang, ularning turini ayting.

I. 1. Bu gullarning umri qisqa, olingiz, Iqbolingiz ming yil etsin davomlar. *(H. G‘.)* 2. Bola ochib bemalol Bog‘larida o‘sdimiz. Ular bizga jonkuyar, Saxovatli do‘stimiz. *(Q. H.)* 3. Mehmonxonada, o‘z xonamizdamiz. *(E. Xeminguey.)*

II. O‘zbekcha—qizcha; hayqir—uchqur, suvsa— borsa, boray — kuchay; yig‘iq — tortiq; bosma—bosma; tugma – tugma; tortinchoq — qo‘zichoq, suvsiz—studentsiz; baliqchi — baliqchi, o‘qidim—o‘qituvchim, chiqindi — yuvindi, supurgi — yozgi.

80-mashq.Tovush tizimi jihatdan bir xil shakllangan so‘zlarni topib, ma'nolarini izohlang.

1. Tushma qallob to‘riga, O‘tqizsa ham to‘riga. Odam qovun emasdir, Qarab bilsang to‘riga. *(Habibiy)* 2. Ba'zilar bor go‘yo ho‘l o‘tin, Tutab yonar, ko‘rmaysan o‘tin. Yangilikka qayishmas sira, Xoh buyur-u, xoh o‘tin. *(M.Mudarrisov)* 3. Qoshlarni terdirib kuya tortibsiz, Bekuya do‘stlardan o‘zni tortibsiz. Ko‘rganini qilgandek qush uyasida, Ayangizga siz ham aynan tortibsiz. *(Yamin Qurbon)*

Bu so‘zlar so‘zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko‘ra qaysi turlariga kiradi?

81-mashq. O‘qing. Sinonimlarni aniqlang, omonimlardan farqini ayting.

1. ...Keyin maskayog‘ surtib, likobchaga qo‘ydi. *(R. Zahir.)* 2. U likobchadagi ustiga sariyog‘ surtilgan... ikki bo‘lak nonni olib, yeya boshladi. (*R. Zahir.)* 3. Yoshlik — fundament. ...Poydevorni qiyshiq qo‘ysang, imorat qulaydi. *(Mirm.)* 4. Borib onangni va ro‘zg‘orlaringni bu yerga oldirib kel. *(J. Zaydon.)* 5. Bo‘lmasa farmoningizni volidamga yetkazish uchun uyga borishga ijozat bersangiz. *(J. Zaydon.)* 6. Qo‘shin

orqada qolib ketgani uchun, Temur ilgari yurmay to‘xtadi. *(S. B.)* 7. Bosqinchilarning askari tor tog‘ cho‘liga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan. *(S. B.)* 8. Bir sohib ikkala qo‘li bilan yo‘g‘on asosiga tayanib o‘tiribdi. *(R. Zahir.)* 9. O‘ng qo‘lida hassasini yerga tiq-tiq urgancha chiqib keldi. *(J. Zaydon.)* 10. Jamila dastgohiga kombinat gudok chalib turgan paytda yetib keldi. *(Mirm.)* 11. Stanok ustiga qo‘ngan changni cho‘tka bilan artdi. *(Mirm.)* 12. Begona yurtda, bolasi diydoridan uzoqda armon bilan ko‘z yumdi. *(S.Ahm.)* 4. Tolibjon ko‘p mashaqqatlarni birga kechirgan xotinini yot el tuprog‘ida qoldirdi. *(S.Ahm.)* 14. Intiqom ol! — der edi. Har gunohsiz oqqan qon. O‘ch ol!— derdi Maratga Har tong chiqqan zar quyosh. *(Sh.)* 15. Bu qo‘shiq bilmaydi nedir to‘siq-g‘ov. *(Sh.)* 16. Olam yaralmishki, bandisan, osmon, Sukunat domiga o‘tmishing asir. *(G. J.)* 17. Ana bedazor. ...Dilni yashnatgan yo‘ng‘ichqazor ham o‘rib olinib, o‘rni shudgor qilib qo‘yilgan edi. *(S. Z.)*

82-mashq. Sinonim so‘zlarni aniqlab, ma'no jilvasidagi farqni tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo‘ynimga osilar subh shamoli. *(Mirm.)* 2. yel keltirar mayin bir ohang. Yana olib ketar nariga. *(Mirm.)* 3. Dalamizda salqin shabboda yeldi, Uxla, jonim bolam, allayo-alla. *(Mirm.)* 4. Martabador shaxslarni fuqaroga tez-tez siyosat qilib, avom jilovini mahkam ushlab turishga undardi. *(Mirm.)* 5. Eldan qo‘rqqan qozi keyinchalik uni bo‘shatib yubordi. *(Mirm.)* 6. Ulug‘ Gimnning yangroq ohangini Olib ketdi tungi sho‘x sabo. *(Mirm.)* 7. Qovjiragan palaklarning u yer-bu yerida qolib ketgan sapchalardan uzib, chaylaga olib bordi. *(H. N.)* 8. Qani, bu hamaklarni chanqovbosdi qilib turaylik. *(H. N.)* 9. Sendan hyech sirimni yashirmayman. *(A.Q.)* 10. ...Ammam boyaqishning o‘g‘lini dadam musofirlar, mardikorlar orasiga qo‘shib qo‘ydi. Dadamda sira insof yo‘q. *(O.)* 11. Ba'zan uni o‘qiyman oshkor, Ba'zan xufiya — g‘oyatda pinhon. *(Mirm.)* 12. Siddiqjon bunga mutlaqo ishonmasa ham, Ro‘zimatning ko‘ngli uchun yoqasini ushladi. *(A. Q.)* 13. Endi u butunlay qo‘rqmay ham qoldi. *(P. T.)* 14. Siz asti xavotir bo‘lmang. *(Ya.)* 15. Choy qog‘ozga yozilib, to‘rt buklangan xatni boy ochdi. *(O.)* 16. Maktubning bosh tomonini o‘qiganda Homidning yuzida ko‘rilgan shodlik o‘zgarishlari... o‘rnini chuqur bir mulohaza olgandek bo‘ldi. *(A. Qod.)* 11. Bu noma ertasi kun xonga yuboriladigan bo‘lib, bunga maxsus kishi belgilandi. *(A. Qod.)*

83-mashq. Berilgan gaplardagi sinonim so‘zlarni toping, ularni sinonimik qatorlarga guruhlab ko‘chiring.

1. Tushida u brigada traktoriga minib, qabriston chekkasidan ariq o‘tkazish niyatida go‘ristonga yo‘l olgan emish. *(O.Yo.)* 2. Uning chekiga Asaka ko‘chasidagi dorixona tushdi. *(S. An.)* 3. Hilol ko‘ksin yer o‘g‘liga Yostiq etmish par. *(E.V.)* 4. Munavvar... Asaka ko‘chasidagi aptekaga qadam bosmay qo‘ydi. *(S. An.)* Oy sukut aro, Cheksiz fazo og‘ushida yer o‘g‘li uxlar. *(E.V.)* So‘rar ekan fursat sarhisob, benaf o‘tgan hayoting uchun vaqt oldida berursan javob. *(E.V.)* 7. Biz ochgan xazina Vatanimizga arzirli tortiq bo‘ladi, deb umid qilaman. *(H.G‘.)* 8. - Shaxmatni ham olib kelay-a? - dedi Sharifjon. *(S. Kalm.)* 9. Dadam sizga ozgina sovg‘a berib yubordilar. *(H.G‘.)* 10. yemakni ko‘proq g‘amla. *(K. Moiseeva.)* 11. Juda yaxshi bo‘ladi-da. Oshdan keyin achchiq-achchiq choy ichib, satranj suramiz. *(S.Kalm.)* 12. Tirikchiligimiz avval qanday bo‘lsa, hozir ham shunday. *(O.)* 13. Aytmaysiz ham, qo‘shni. *(H. G‘.)* 14. Aytib ber-chi, qaysi qiz burun sevib bo‘lgan umid bilan yor. *(H.O.)* 15. Itni olib kelishga aqlimiz yetibdi-yu, xo‘ragi to‘g‘risida o‘ylamabmiz. *(N.S.)* 16. yelkangizni tuting bizga, hamsoya. *(H.G‘.)* 17. O‘zimiz tolqon, turshak bilan zo‘rg‘a kun o‘tkazib turgan kezimizda itga beradigan yemishimiz yo‘q edi. *(N.S.)*

84-mashq. Quyidagi so‘zlarni asos(dominanta) qilib olib, sinonimik qatorlar tuzing va ularni A.Hojievning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”dan tekshirib ko‘ring.

Aloqadar, anqov, baxt, vatan, dangasa, jirkanch, inoq, maosh, nom, uzoq, ozod, osmon, rohat, sassiq, soya, tabrik.

85-mashq. Quyidagi so‘zlardan sinonimiya qatorlari tuzib yozing.

Egoist, bahs, sovg‘a, tanqis, yashirin, g‘alaba, hadya, o‘g‘rincha, tirriq, munozara, pinhon, tortiq, kamchil, tortishuv, armug‘on, tahchil, xudbin, xufiya, zafar, g‘irrom, tuhfa, maxfiy, betashvish, tanbal, naridan-beri, yesir, ma'ruza, yakka, ko‘mak, yov, jussa, beg‘am, apil-tapil, dangasa, zulm, yordam, dushman, guvoh, doklad, g‘amsiz, beva, gavda, yalqov, yolg‘iz, madad, g‘anim, shohid, istibdod, qayg‘usiz, shosha-pisha, ishyoqmas, tanho, ag‘yor.

86-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

1. Aspirantura yillari qishloqqa kelishning **sira** iloji bo‘lmadi. *(S.Ahm.)* 2. Qorli cho‘qqilardan olib keladigan bebosh toshqin suv to‘lqinlarining **qaypallada** vujudga kelishidan juda kamdan-kam odam xabardor. *(K. Moiseeva.)* 3. Nodirov **likopchasini** qush go‘shtlariga to‘ldirib oldi. *(I. R.)* 4. **Tush** bo‘lay deganda horib-charchab yetib keldik. *(M.Boboev)* 5. To‘piqqa urgan ko‘m-ko‘k **yo‘ng‘ichqa** o‘rtasidan... yo‘l tushgan. *(S.*

Z.) 6. Ammo jiddiy manglay Ferdinand **Intiqomni** o‘ylardi yomon. *(Mirm.)* 7. Bunda yo‘lbarslar poylar, Kelar chanqoq **ohular**. *(Mirm.)*

87-mashq. Sinonim affikslarni aniqlang.

Ko‘makchi— ko‘makdosh; somsachi — somsapaz; adabiyotchi — adabiyotshunos; chorvachi — chorvador; suratchi — suratkash; xizmatchi — xizmatkor; sutli — sersut; serharakat — harakatchan; beg‘ubor — g‘uborsiz; sezgir — sezuvchan; bilag‘on —bilarmon; notinch — betinch; mardona — mardlarcha; tiriklay — tirikligicha, aybsiz – beayb.

88-mashq. Badiiy asarlardan sinonim so‘zlar qatnashgan 10 ta gap topib yozing.

89-mashq. Gaplar tarkibidan antonimlarni topib, ularning antonimlik xususiyatlarini tushuntiring.

1. ...U o‘ziga kerakli odamlarni omon saqlab qoldi, keraksizlarni, aksincha, lagerga jo‘nataverdi. *(Yu. Semyonov.)* 2. Qani, aytinglar-chi, o‘t bilan suv sherik bo‘la oladimi? *(I. R.)* 3. Hazratov bundan tashida xursand bo‘lsa ham, ichida xafa. *(I. R.)* 4. Tojixon dalada ham yigit, ham qiz bo‘lib ishladi. *(Mirm.)* 5. Va lekin ko‘zlarim oldida birdan, Ochdi poyoni yo‘q yaqin-yiroqni. *(Z.)* 6. Men qancha mahorat bilan yolg‘onni chin qilishga urinmay, Munira buni sezdi... *(U. N.)* 7. Erksiz o‘tgan bir yildan Ozod on yaxshi! *(Sh.)* 8. Ikki tomon o‘rtasida beomon jang bormoqda, u yomonlik ila yaxshilikdir. *(Mirm.)* 9. “Obod shaharni xarob qilaylikmi yoki xarob shaharni obod qilaylikmi?” — debdi. *(“Gulpari”.)* 10. Endi siz menga og‘a, men esa sizga singil bo‘lib qolibman. *(“Gulpari”.)* 11. Zorimiz bor, zo‘rimiz yo‘q, jo‘nashingiz mumkin. *(Mirm.)* 12. Istibdod o‘ligu, Iste'dod tirik. Shoh ijod tirigu Shahanshoh o‘lik. *(Z. O.)*

90-mashq. Antonimlarni aniqlang. Avval to‘la antonimlarni, so‘ngra yarim antonimlarni ko‘chiring.

1. Meva-chevaning ho‘lidan qurug‘i, qurug‘idan ho‘li ko‘p. *(I. R.)* 2. U yosh-yalang, qari-qartang odamlarga ko‘nikkan... *(Sh. Toshmatov.)* 3. Suyunganimdan emas. kuyunganimdan aytyapman. *(S. Kalmikov.)* 4. Sevgan ko‘ngil shoh bo‘lurmi va yoki gado, Bila olmadim. *(E. V.)* 5. U bilan Saodatxon necha yil birga yashadi, shodlikni ham, qayg‘uni ham birga totdi. *(S. Z.)* 6. Shu kuni kechqurun aka-uka ona oldida bu haqda yana gaplashishdi. *(Mirm.)* 7. Shoir, sizga ijozat yo‘q, kulolga bor! *(Mirm.)* 8. Ko‘proq emas, kamroq yermiz. Hozir kulollik ham yomon emas. *(Mirm.)* 9. Nima, g‘unan bo‘lib sakrab yursam sog‘u, mundoq yotsam kasalmi? *(Mirm.)* 10. Ho‘l tarashani qalab Pishirdi yog‘liq-yovg‘on. *(Mirm.)* 11. — Kecha yoz edi, bugun — qippa-qish! *(U. N.)* 12. Goh juda uzun, goh juda kalta kiyim kiyardi. *(R. Zahir.)* 13. yeru ko‘kni tutib ketgan xitoblar. Maguaning ovozini bosib yubordi. *(F. Kuper.)*

91-mashq. O‘qing. Antonimlarni aniqlang; avval o‘zakdosh, so‘ngra turli o‘zakli antonimlarni ko‘chiring.

1. Aql turganda nechuk qurol-la gaplashmoqlik?! Nodonlar yoqalashar, donolar til topishar. *(Mirm.)* 2. Bunda yondosh shodlik va qayg‘u, Bunda yondosh visol va firoq. *(E. V.)* 3. Dadasheva haqli, Dadashev nohaq, — dedi Hazratov. *(I. R.)* 4. Kishi qahri toshni yorganday, mehri temirni eritadi. *(Shuhrat)* 5. Odamlarga pok ko‘z bilan qarasang pok, nopok ko‘z bilan qarasang nopok ko‘rinadi. *(S. Z.)* 6. Laylakning ketishini emas, kelishini kutishadi. *(N. S.)* 7. Borar ikki yo‘lovchi — Biri — tong, Biri — oqshom. *(Mirm.)* 8. Rahbarxonning onasi... xursand-noxursandligi noma'lum vaziyatda o‘tirar edi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 9. “Salom, o‘g‘lim, kel”,—dedi. “Dushman emas, el”,— dedi. *(H. O.)* 10. Bor mening ko‘zlarga ko‘rinmas yo‘rg‘am, Kiftida goh shodman, gohida purg‘am. Bilolmam manzilim yaqinmi yiroq, yo‘rtadi uyqimu uyg‘og‘imda ham. *(Z.O.)* 11. Uning gaplaridan bama'ni va bema'ni jihatlarni aql tarozisida sinchiklab tortdi. *(K. Moiseeva.)* 12. Daryo yuzi tinch oqar, Notinch bo‘ladi tubi. *(Mirm.)* 13. O‘g‘il-qizlari davlatida birini yechib, birini kiyib yurgan kampirlarning ham uyda o‘tirishga yuzi chidamay qoldi. *(S. Z.)* 14. Ularning xotirasi turli-tuman ishlar bilan band bo‘lib, darrov nozaruridan zarurini, keraksizidan kerakligini ajrata olmay qoldilar. *(S. B.)*

92-mashq. Quyidagi so‘zlarning antonimlarini toping.

Yog‘liq, sog‘lom, og‘a, botirlik, mehnatkash, yosh-yalang, qayg‘u, ixtiyoriy, ko‘pchilik, yiroq, samo, istiqbol, aziz, progressiv, issiq, qo‘y, yumshoq, dono, zahar, aqlli, ko‘p, kirmoq, arzon, yashirin, to‘g‘ri, past, quyi, ibtido.

93-mashq. Antonimlarni aniqlang. Ular ichidan juft so‘z hosil qilish mumkin bo‘lganlariii ajratib yozing.

N a m u n a: *oq-qora.*

1. Toshkentdan komissiya kelarmish Oqni oqqa, qorani qoraga chiqaradigan komissiya. *(I. R.)* 2. Mushketyorlarning g‘alabasi yoki mag‘lubiyati ularga cheksiz quvonch baxsh etar yoki chinakam qayg‘uga solardi. *(A. Dyuma.)* 3. Rais bo‘lsa tun ham, kun ham o‘yladi. *(S. Z.)* 4. Traktorchi bo‘lsang to‘g‘ri ko‘chani qo‘yib, egrisiga burilganing nimasi? *(A. Muhiddin.)* 5. Endi kunduzlarigina emas, kechalari ham ne vaqtgacha dars tayyorlardim. *(N. S.)* 6. Pok dilni nopok qilmasin! *(A. Muhiddin.)* 7. Yovning tashida bo‘lguncha ichida bo‘l, degan gap bor. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 8. Ko‘hna dunyo shu qadar qadimiyki, uning ibtidosiga ham, intihosiga ham yetib bo‘lmaydi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 9. Siz ko‘ngil qo‘ygan ayol dono yo befahm, sohibjamol yo xunuk, badavlat yo kambag‘al bo‘lsa ham, uning sizga baxsh eta oladigan yoki bundan sizni mahrum qila oladigan bitta narsasi bor: bu — uning yuragi. *(T. Drayzer.)* 10. Charx tepayotgan akasi yoniga kelib... turdi. Ukasi ruhining pastligi Mirsaidga ham o‘tdi. *(Mirm.)* 11. Gazlar... zo‘r bosim kuchi bilan suyuq va quyuq holatda snaryadlarga joylanardi. *(N. T.)*

94- mashq. O‘qing. Quyidagi bosh qismi berilgan maqollarning qolgan qismini topib to‘ldiring, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning antonimi qatnashgan bo‘lsin.

1. Erta ekkan xirmon qilur, ... 2. Yaxshi do‘st jon ozig‘i, ... 3. Donoga ish shonu shuhrat, ... 4. Mard o‘zar, ... 5. Aqlli o‘zini ayblar, ... 6. Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, ... 7. Ko‘z qo‘rqoq, ... 8. Ilmsiz bir yashar, ... 9. Kengga keng dunyo, ... 10. Egri ozadi, ...

95-mashq. Bosh qismi tushirib qoldirilgan maqollarni o‘qing va mazmuniga qarab ularni to‘ldiring. Berilgan qismdagi ajratib tagiga chizilgan so‘zlarning antonimi to‘ldirilgan qismda qatnashgan bo‘lishiga e'tibor bering.

1. ... – qish xazinasi. 2. ..., arzon beillat bo‘lmas. 3. ..., yo‘q maqtansa chopilar. 4. ..., ishni ko‘p ko‘zla. 5. ... mehr bilgan yot yaxshi. 6. ..., ona ko‘rgan to‘n bichar. 7. ..., keyin so‘yla. 8. ..., aql – do‘st. 9. ..., nomard to‘zar. 10. ... – sichqonning tirigi.

96- mashq. O‘qing. Omonim so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, omonimlar tagiga chizing. Sinonim so‘zlar ishtirok etgan gaplarni topib, shu so‘zlardan sinonimiya qatorini tuzib yozing. Antonimlarning turini ayting.

1. Hyech kimdan sado chiqmadi. Haligi ovoz chiqqan tomonda birpas ivir-shivir bo‘ldi-da, tindi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov)* 2. Sakkiz bo‘lgach, kechqurun: «Mashqni yoz!» — deb urar zang. *(Q. H.)* 3. Ish — yoshlarga, osh — keksalarga! *(I. R.)* 4. Har qanday temir yoki po‘latni zang chiritadi. *(N. S.)* 5. Surtib kiyikning qonin, Yugur der misli ohu. *(Z. O.)* 6. Mahmud... tok zanglarini taray boshlaydi. *(H. G‘.)* 7. — Siz bu yerda sekretar bo‘lib ishlaysizmi?—Ha, kotibmiz. *(S. Z.)* 8. Klara biri g‘amgin va ikkinchisi quvnoq ikkita birmacha qo‘shiqni besoz ijro etdi. *(N. T.)* 9. Ovni otsang bilib ot, Dol nishonga ilib ot! *(Mirm.)* 10. Ot halloslar, otning burnidan Chiqar edi bir samovar bug‘. *(Mirm.)* 11. Shunisi qiziq ediki, ilgari bir-birlari bilan hyech uchrashmagan bu kishilardan birining oti Hasan, boshqasining oti Husayn edi. *(S. B.)* 12. Ajoyib savollar, g‘aroyib javoblar. *(Sh. Toshmatov.)* 13. Bu kabi yolg‘on-rost gaplar davom etardi. *(Sh. Toshmatov.)* 14. Yov emasman, begona bo‘ldim senga, Sen ham menga endi tamom bo‘lding yot. *(H. O.)* 5. Shuning uchun o‘ch olib, Bu ishini buzaman. *(H. O.)* 16. Qullarning qasosini Olurman deb ahd qilgan. *(H. O.)*

O‘ZBeK TILINING LUG‘AT TARKIBI

97-mashq. O‘qing. Berilgan so‘zlar o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi asosiy qatlamlarning qaysilariga oid ekanini aniqlab ayting.

1. Sut, mayiz, un, mastava, sho‘rva, qatiq, patir, sabzi, mosh, turshak, chuchvara, bodom, palov.
2. Biz, siz, u, hyech kim, har narsa, har kim, kim, qancha, necha, bu, o‘sha, o‘zim.
3. Opa, singil, uka, buvi, buva, momo, bobo, jiyan, ada, oyi.
4. Yomg‘ir, qor, shudring, bulut, suv, havo, muz, qir, tog‘, adir, jar, soy, jilg‘a, yer, osmon, o‘rmon, quyosh, oy, yulduz.
5. Ko‘z, qosh, bosh, oyoq, dum, tumshuq, tuyoq, teri, o‘pka, jigar, buyrak, ichak, tirnoq.
6. Shirin, achchiq, qizil, ko‘k, sariq, katta, kichik, uzun, kalta, silliq, ...
7. Kelmoq, ketmoq, ishlamoq, bormoq, yozmoq, o‘qimoq, aytmoq, yugurmoq, sakramoq, ...
8. El, yurt, xalq, mamlakat, davlat, jamoa, mahalla, millat, do‘st, o‘rtoq,...
9. O‘n besh, o‘ttiz, ellik, yetmish, to‘qson, yuz, ming, million...; so‘m, tiyin, metr, kilogramm, litr, gektar, kilometr...
10. Odam, hayvon, bola, ot, xotin, qush, dehqon, chorva, echki, quyon, parranda, tuya, mol, ilon, eshak, chol, kampir...
11. Ko‘rpa, gilam, poyondoz, yostiq, ko‘ylak, ro‘mol, do‘ppi, dasturxon, choynak, qoshiq, igna, mahsi, kalish...

12. Daftar, kitob, qalam, ruchka, qog‘oz, televizor, telefon, radio...
13. Mashina, poezd, avtobus, samolyot, traktor...
14. Bolta, tesha, ketmon, pichoq, qaychi, o‘roq, bolg‘a, qozon, ...

So‘zlarni qayta o‘qib, umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlarni ko‘chirib yozing. Bu topshiriqni bajarishda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalaning.

98- mashq. O‘qing. Ruscha-internatsional so‘zlarni topib ko‘chiring.

I. Maqbara, klient, shifoxona, shogird, simvol, tuman, trest, g‘oya, firma, gol, ehson, kamera, konspekt, dilkash, zukko, industriya, karnay, karniz.

II. 1. Ishim ustidan rahbarlik qilishga professor Odil Jo‘raev rozilik berdi. *(U.N.)* 2. O‘sha dorini tezdan topib, ustaga yetkazish uchun aptekaga bordi. *(H.N.)* 3. Mehr-oqibatli komandirlarni omilkor bog‘bonga o‘xshatsa bo‘ladi. *(H.Tojiboev)* 4. Injenerning, akademikning bilishi shart bo‘lmagan sohalar bor. Yozuvchining unday sohasi yo‘q. *(As.M.)* 5. Bosh buxgalter ham choyxonaga chiqib ketgandi. 6. Mayor sabrsizlanib har yoqqa tikildi. *(O.)*

99-mashq. Quyidagi ruscha-internatsional so‘zlarning o‘zbek tilidagi sinonimlarini topib, namunadagidek yozing.

Namuna: *progressiv – ilg‘or.*

Pedagog, baza, konkret, fraza, affiks, fakt, syujet, agitatsiya, funksiya, lingvistika, aktiv, avtor, abstrakt, agent, redaktor.

100-mashq. Mirmuhsinning «Ziyod va Adiba» dostonidan keltirilgai quyidagi parchani o‘qing, unda o‘zbek tilining qaysi shevalari nazarda tutilganini ayting.

Biri yotar yonboshlab,
Tirsak yerda, kaftda
bosh Tinmay
pichirlaydi lab,
Manglayda porlar
quyosh.
«Galdim» derdi
so‘zida,
Iliqlik bor yuzida,
Amudaryo — azimdan
Suv ichib ulg‘aygandi.

Qizilqum harorati
Barq urar edi tanda.
Ikkinchisi o‘tirar
Ro‘molcha uzra
yengil.
Xayoli tarqoq edi,
Chaqnab turardi ko‘zi.

Konspektni, kitobni
Shunchaki o‘qir faqat.
Tuxum kabi oq edi,
Yumaloq, rangpar edi.
“Ovuz”ni qo‘shar edi
So‘zlaganda so‘ziga...

101-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni “umumxalq leksikasi” va “dialektal leksika”ga ajratib yozing. Dialektal so‘zlar ma'nosini tushuntiring, ularning adabiy tildagi shaklini ayting va yonma-yon yozing.

1. ...Bozordan uch-to‘rt hovli naridagi, biqinida bir tup zardoli o‘sgan katta ko‘k darvoza bizniki. *(E.A'zamov)* 2. Savat ko‘targan yigit parmanchak terib, o‘rmon cheti bilan kelaverdi. *(Yo.Sh.)* 3. Men yugurib borib non sandiqdan nonparni olib keldim. Buvim yasagan patir-kulchalarga nonpar bosa boshladim. *(S.Nurov)* 4. Umarxo‘ja boy ... katta bazm berib, mushakbozlik qildirgan edi. O‘shanda Shamsiddinim yo‘lga kirmagan buvak edi.*(S.Ahm.)* 5. Qandolatfurush yarim kilo pechak qand tortib uzatdi. *(Yo.Sh.)* 6. Faner bermasa, vassa qilarsiz. *(P.Q.)* 7. – Taladan kelganimda shatta turgan edi-ya! – Kampir chiroqsiz xonada gugurt chaqib, qimiz kadini qidirar edi.*(P.Q.)* 8. Men seni injitmayman, Va lekin tinchitmayman. *(M.Boboev)*

102- mashq. Gaplarni o‘qing, dialektal so‘zlarni aniqlang, ular qaysi shevaga xos ekanini va adabiy tildagi shaklini ayting.

1. Ma'lumki, tun bilan kunduz tenglashgan tongda ko‘katlar bulturgi ildizlaridan bosh ko‘tarib chiqadi, daraxtlar pindig‘i bo‘rtadi, tabiat uyg‘onib, yer ko‘pchiydi. 2. Bozordagilar: «Jinoyat amakimdi eshagining ham aytgani aytgan, degani degan», deyishsa, qishloqdagilar: «Jinoyat oqsoqol eshagiga xalacho‘pdi ham birovning tolidan sindirib oladi»,— deyishardi. *(S. Ahm.)* 3. Sen bilan biz baqlarda yuribmiz, xolos. *(S. Ahm.)* 4. Huv o‘qishni bilgan axtig‘imdan aylanay, - deb buvisi nabirasining yelkasini qoqib qo‘ydi. *(J.Sh.)* 5. O‘rikka chiqib, g‘o‘ra uzib yeyishni, ... allaqachon o‘rgangan. *(P. T.)* 6. Yuraklarim ezilib ketdi, hadeb tushimga kirvotti. *(P. T.)* 7. To‘satdan oranglardan ola pishak o‘tdimi? *(E.Usmonov)* 8. Saidahmadxon Eshonxon ko‘k choy suzib uzatgan piyolani oldi. *(O.)* 9. Shundan keyin tez-tez ko‘rishib turish odatga aylandi... Asosiy pakkamiz bog‘ning etagi. *(U.Nazarov)* 10. Sekin, sekin, aya, birov eshitib qoladi. *(S. Ahm.)* 11. – Ie, anovi, polvonning askardan yangi kelgan ulimi? *(E.A'zamov)* 12. ...Biror joyda birpas choylashib, keyin poezdga chiqsak, qalay? *(E.A'zamov)* 13. Ammo Nazarov qoyil qolib: «Ofarin! Bamisoli po‘lot toblanishopti!» — dedi. *(H. G‘.)*

103- mashq. o‘qing. Toshkent shevasida qo‘llangan so‘zlarni aniqlang va ularni adabiy shakli bilan birga (*kep-kelib*) yozing.

1. Sultona: «Endi boring, ular hozir kep qolishadi», - dedi. *(Sh. Siddiqiy.)* 2. Bir kun keyin mulla bo‘ladi. Zixni o‘tkir bola. *(S. Ahm.)* 3. Popop tikishga shundog‘am chevarki! Toshkanning to‘rt dahasida hyech kim unga teng kela olmaydi. *(O.)* 4. O‘shaqqa ketsak yomon bo‘lmaydi. Mani aytdi, dersan. *(S. Ahm.)* 5. «Ha, inim,—dedi Zebixonning opasi,—uxlagani ketyapsizmi? Vahli-ku?» *(S. Ahm.)* 6. «Qatta yuribsiz daydib, boydan nima davo topib keldingiz?» — so‘radi Buvsara kesatib. *(O.)* 7. — Tavba, hyech kim seni Portugaliya yo Janubiy Afrika Ittifoqi fuqarosi deyayotgani yo‘q-ku. — Sal bo‘lmasa shunday demoqchiyding. *(F. Muhammadiev.)* 8. «Umi... u ...anavi yerda, oti minnamaydi»,— deya oldi, xolos. *(Sh. Siddiqiy.)* 9. Oyimla aytdilarki, qolgan ikki oy uchun haqni yaqin kunlarda to‘lar emishlar. *(Sh. Siddiqiy.)* 10. Biletiyla manda, yetib borganda qaytaraman, - dedi. *(N.A.)* 11. — Opoqing qani? — Ana, kevottila! *(H. G‘.)*

104- mashq. Q. Hikmatning «Bobo dehqon hangomasi» poemasidan olingan parchani o‘qing, polizchilikka oid so‘zlarning ma'nosini izohlang

Paykal to‘la «Gulobi»,
«Gurvak»lari karsillar.
«Qari qiz»i xuddi qand,
«Oq novvoti» karsillar.

Men ham asal bo‘ldim deb,
«Shakar poya», «Qora qosh»,
Azza-bazza pushtadan
Ko‘tarishib turar bosh.

105-mashq. Jyul Vernning «Suv ostida 80000 kilometr» romanidan olingan quyidagi parchani o‘qing, terminlarni aniqlab, ularning qaysi sohaga oidligini ayting. So‘z va terminning farqini izohlang.

— Mana bu yoqqa qarang, professor, — deb so‘z boshladi kapitan Nemo xona devorlarida osig‘liq turgan asboblarga ishora qilib. — Bular «Nautilus»ni boshqarishga xizmat qiladigan apparatlar. Bu yerda ham salondagiday, bular hamisha mening ko‘z oldimda bo‘ladi va «Nautilus»ning okeanning qaerida turganini va yo‘nalishini aniq ko‘rsatadi. Mana bu «Nautilus»dagi havo haroratini ko‘rsatadigan termometr; bunisi barometr, u havo bosimini aniqlaydi va bu bilan havoning o‘zgarishini oldindan aytib turadi, gigrometr atmosferada namlik miqdorini ko‘rsatadi; kema yo‘nalishini ko‘rsatadigan kompas, quyosh balandligiga qarab joyning kengligini aniqlaydigan sekstant; geografik uzunlikni belgilaydigan xronometrlar; nihoyat, kunduzgi va tungi kuzatuv trubalari; «Nautilus» suv sathiga chiqqanda, men bular yordamida ufqni kuzataman.

— Bu asboblarning hammasi, — deb javob berdim men,— kemachilikda ishlatib kelinmoqda va bularning hammasi menga ilgaridan tanish. Biroq mana bu yerda menga ma'lum bo‘lmagan allaqanday asboblar bor. Mana bu harakat qilib turadigan milli katta siferblat manometr emasmi?

— Ha, bu manometr. U kema tashqarisidagi suv bosimini o‘lchaydi va bular «Nautilus»ning suvga qancha cho‘kkanini ko‘rsatib turadi.

— Mana bular zondlarmi?

— Ha, faqat yangi konstruksiyadagisi. Bular turli suv qatlamlaridagi haroratni o‘lchaydigan termometrik zondlar.

106- mashq. Quyidagi so‘z va terminlar qaysi sohaga oidligini aniqlang. Shulardan ikki sohaga oid so‘z va terminlarni ko‘chiring.

Argument, afilliya (bargsizlanish), oqsil, g‘uncha, miqdor, kattalik, noto‘g‘ri kasr, toq son, nomerlash, proekqiya, astronavtika, teleskop minorasi, oy tutilishi, fonema, akustika, meteor nurlanishi, gultoj, novda, vilt, cheksiz yechim, ehtimoliy xato, sig‘im, grafik usul, punktuatsiya, semasiologiya, o‘zak, kabisa yil, kosmogonik gipoteza, Katta Ayiq, vaqt, absolyut vaqt, negiz, so‘z yasovchi affiks, bo‘luvchi, yopiq chiziq, tenglik ishorasi, logarifm, urg‘u, milliy til, bo‘g‘in, tovush, leksikografiya, kometa, meteor, oy o‘rog‘i, assimilyasiya, moslik, elliptik nuqta, dukkak, yon ildizlar, vegetativ hujayra, Omega tumanligi, bachki, kurtak, gerbariy, yulduzsimon yadro, turkiy tillar, ko‘chirma gap, kallak, g‘allasimonlar, nektar, moslashuv, harakat nomi, palak, soyadagi barglar, o‘sish nuqtasi, to‘qima, qalamcha.

107-mashq. Quyida guruhchalarga ajratib berilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Rus tilidan va rus tili orqali boshqa yevropa tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarni topib, ular etimologik jihatdan qaysi til(lotin, grek, fransuz, rus) larga mansubligini aniqlab ayting.

1. Avgust, agregat, advokat, akvarel, akkumulyator, aksiya, ambulatoriya, annotatsiya, argument, arxiv, armatura, artikulyasiya, aspirant, auksion, antenna, apparat, assimilyasiya, atseton, affiks.

2. Albom, anketa, aktrisa, avans, abajur, attraksion, ansambl, akusher, amortizator, antrakt, artilleriya, akkordeon, adres, avangard, atele, argo, alternativa, avantyura, anons.

3. Abstrakt, avaxta, avtomatika, akrobat, anonim, ariston, avtobaza, aktiv, akula, aliment, aerodrom, ataman, aviatransport, amirkon, affrikat, arbitraj, aristokrat.

4. Akademiya, akustika, aksioma, alebastr, anatomiya, antibiotik, amnistiya, antiteza, aorta, asbest, asfalt, atmosfera, alfavit, amfiteatr, azot, avtograf, analiz, araxis, akatsiya, antonim, apostrof, apteka.

108-mashq. O‘qing. Berilgan va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligini aniqlab ayting.

I. Adir, azimut, neft, guzar, muammo, kompleks, beshik, zona, gul, ruboiy, chilla, latifa, ayol, bola, ssenariy, platshakl, mushoira, diyor, disket, anor, armug‘on, gavhar, gayka, davo, dabdaba, demokrat.

II. 1. Dunyoda oqilona so‘z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi. 2. Tarbiyasiz odam jonsiz jasadga o‘xshaydi. *(“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”)* 3. Xalqimiz azaldan o‘z ma'naviy qadriyatlari va diniy e'tiqodini yuksak qadrlab kelgan. 4. Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-bobolardan meros qilib olingan. *(I.Karimov)* 5. Aspirant Davron Bo‘ronov kechqurun institutdan uyga qaytmoqda edi. *(E.A'zamov)* 6. Vatanimda chin grajdanman, Shudir mening oliy mansabim. *(T.Saydaliev)*

109-mashq. Quyida berilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Arab tilidan va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Abadiy, avvalo, ajdar, andisha, beandisha, attor, anjir, anjirzor, aziyat, alifbe, alifbo, ark, armug‘on, asar, afsun, afsungar, atir, afzal, arg‘uvon, arzon, ashyo, ashyoviy, anduh, aqida, aql, ahil, afg‘on, astoydil, astar, avra, araz, ariza, armon, anjuman, adolat, ayol, arzanda, ajoyib, ajoyibot, andava, axloq, anor, anorzor, aholi, angishvona, askiya, askar, arra, arrakash, aloqa, amal, amaliyot, andaza, asbob, asil, atrof, afsona, an'ana, ayyor, asab, a'lo, andarmon, azmoyish, adabiyot, ahd, ahamiyat.

110-mashq. O‘qing. Gaplarda ishlatilgan jargon va argolarni aniqlang, qanday ma'noda qo‘llanganini ayting.

1. Zamon bunaqa bo‘lishini bilganimda hamma narsani sotib, shundan qilib qo‘ymasmidim, — boy tagidagi xurjunga ishora qildi, — uch mingta buxoriy xurjunning bir chekkasida kelyapti. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 2. — Belni baquvvatrok, qilib oliptimi? — Chakki emas, uch mingdan ortiq tirigi-yu, uch ming o‘ligi bor. — «O‘ligi» dedingizmi? — O‘sha Buxoroning qizili-da, — dedi cho‘zib O‘rmonbek xuddi pashmak holva yeb tamshangandek. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 3. — Xo‘sh, agar ikkita oq qirg‘oqdan bo‘lsa? — Ikkita yuz so‘mlik demoqchisan-da, a? yomon emas-a!.. *(M. G.)* 4. — Nilufar, tur o‘rningdax deyapman! — Nima qilaman turib? Nima ishingiz bor? — E, bomisan, danap? — dedi Karomatxon Nilufarni gij-gijlab va menga qarab: — Ana, pattangizni oldingiz, kalampo, endi noyi bo‘ling! *(U. N.)* 5. Mullajiring bo‘lmasa, har qanaqa mavsum ham befayzu belutf ko‘rinadi. *(R. Zahir.)* 6. Burchakka ilib qo‘yilgan plashchning cho‘ntagidan g‘ilofli ustara va quyidagi mazmundagi g‘alati xatni topib oldik: «Kecha Mitkani xitlar ilintirishibdi, Sigan sotgan bo‘lishi kerak. Qaqir-ququrlar xitoynikida». *(L. Sh.)*

111-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma'nosini izohlang.

1. Bo‘y desangiz — bir guli nihol, Dilni o‘rtar **yonoqdagi** xol. *(O.)* 2. 3. Bir podsho **shikordan** qaytayotib tashna bo‘libdi va bir hovli oldiga kelib suv so‘rabdi. *(«Gulpari».)* 4. Oftob **mashriqdan** chiqib o‘lkamizni nurafshon qildi. *(S. Kalmikov.)* 5. **Diydalarda** yosh qalqidi. *(S. Kalmikov.)* 6. Mulla Mirtojiga o‘xshaganlar **zohirda** tishlarining oqini ko‘rsatib yurgan bo‘lsalar-da, **botinlarida** g‘azab-nafrat qaynab toshardi. *(N. S.)* 7. **Ash'oriy** kitoblarga ixlosmand bo‘lgan Husayn yangi «Devon» yoki «Bayoz»lar topish ishtiyoqida **saxxof** do‘koniga tez-tez kelib turardi. *(K. Moiseeva.)* 8. Hatto Aburayhonga birinchi da'fa **muqobil** kelganda ham, o‘zini bunchalik yo‘qotib qo‘ymagan edi. *(K. Moiseeva.)* 9. **Zarb, taqsimdan** bergan vazifalarni tez-tez ishlab berdim. *(N. S.)* 10. **Satranjning** ham vatani Hindiston ekanligi jumla olamga ayon-ku! *(K. Moiseeva.)* 11. Siz yoshlarimiz fabrika-zavodlar qurishni bilmog‘ingiz, **«osmon poezd»lar** yasab uchmog‘ingiz kerak. *(N. S.)* 12. Har toifa xalq va qavm olimlari **bitib** qoldirgan kitoblarni o‘qib chiqish lozim bo‘ladi. *(K. Moiseeva.)* 13 Aburayhonning **falakiyot** va **riyoziyot** bobidagi ilm-hunarlari Xorazm saltanati uchun mislsiz foyda keltirajagiga imonim komil. *(K. Moiseeva.)* 14. Qarag‘aylar uzra yoyilgan, ko‘k gumbazida jilva qilayotgan **ol rang** shafaqning nafis bo‘yog‘i uning **qirmizi** yonog‘i tusichalik tiniq va dilrabo emasdi. *(F. Kuper.)* 15. Biringiz buyuk **munajjim** bobolaringiz Ulug‘bek poyoniga yeta olmagan falakiyot ilmini nihoyasiga yetkazarsiz. Oralaringizdan Beruniylar, Ibn Sinolar, zamon **muhandislari**, ulug‘ tabiatshunoslar yetishib chiqar. *(N. S.)*

112-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Nofaol so‘zlarni topib, ma'nolarini izohlang turini aniqlab ayting.

1. ...Rang-barang kiyingan otliqlar uning orqasidan yurib borar, tug‘ yoki yalovlar baland ko‘tarilgan edi. *(S. B.)* 2. ...Yuz minglab yosh dehqonlar kerak edi, biroq yoshlar so‘qa dastasini ushlashni unutgan, ... *(S. B.)* 3. Qishloqda bir hakim yo‘q, Ko‘pchilnkni dard ezgan. *(Q. H.)* 4. Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to‘y keladi, marhamat qiling, durustmi? *(O.)* Shodlikdan bir zumdayoq Dudoqlar ketdi yonib. *(Mirm.)* Yorg‘uchoq tortish ham, qo‘rg‘oshin kuydirish ham uning ishi. *(Mirm.)* 7. Temurning orqasidan... choparlari, mirzalari, tilmochlari va eng keyinda xizmatkorlari kelar edi. *(S. B.)* 8. Nasriddinbek gilamga sochilgan satranj donalarini bosib, pastga tushdi. *(Mirm.)* 9. Boychechaklarning xushbo‘y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli sasi bilan uchirib keldi. Qilich esa otini olti chaqirimcha bir tusda choptirib borib... darvozaxonaga kirdi. *(S. B.)* 11. Sizlarning bog‘laringizdagi zardoliga chiqishga chiqib, tusholmay yig‘lab o‘tirganlarimda necha-necha bor tushirib qo‘ygansiz *(B.Daminov.)* 12. Olimshoh yetti mamlakat hoqonidan yiliga ikki martadan xiroj olar ekan. *(«Gulpari».)*

113- mashq. Gaplarni o‘qing. Arxaik va tarixiy so‘zlarni aniqlab, ikki ustun shaklida yozing.

1. Qo‘llarida aso, keksalar, Yuzlarida ziyo, keksalar. *(E. V.)* 2. Bu maktabxona bo‘lib, mullavachchalar haftiyak yodlashardilar. *(P. T.)* 3. Besh paysa yemni ayagan kezlaringda, qor kurab, ildiz topib berdim ularga. *(I. R.)* Ishlar zimdan bitsin, sezmasin ag‘yor. *(Ya.)* 5. Tirak bo‘ldi — loy iylab, charx tepdi, yorg‘uchoq tortdi. *(Mirm.)* 6. Mushtlashish, ur-yiqitni mirshablar ham bosolmadi. *(Mirm.)* 7. Abduvahob tezgina chipta oldi va yo‘lovchilarga qo‘shildi. *(Sh. Toshmatov.)* 8. Bo‘lmasa sizning o‘g‘lingizga o‘xshab shayton arava minsinmi?... *(H. N.)* 9. – Sening ishing kolxozimizning sekretari mulla Muqimning anketa to‘ldirishiga o‘xshaydi. *(A. Q.)* 10. Kemtik tishday omochga muhtoj dehqon bechora. *(Q. H.)* 11. Aldab qo‘yadi deb menga ishonmaydi, bir soat savdolashib, to‘rt pul hayon ko‘radi. *(S. B.)*

114-mashq. I. Gaplarni o‘qing. Tarixiy so‘zlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, shu so‘zlar tagiga chizing. Arxaik so‘zlarning sinonimlarini toping.

1. Mirzo Ulug‘bek ilmi riyoziyot va handasa borasida ust-ustiga savollar berdi. *(O.Yo.)* 2. Kichkina-kichkina, shiftiga bosh tekkudek do‘konlarda baqqollar, attorlar, bazzozlar, vopurushlar, poyakilar o‘z mollari bilan savdo qilishadi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 3. Yigitlarni to‘playver, yuzboshi qilib qo‘yaman. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedav.)* 4. Tun yarmidan oqqan, olis qirlar ortidan ko‘tarilgan zaifgina hilol shu'lasida borliq sokin, osuda uyquga cho‘mgan. *(O.Yo.)* 5. Bugun bu yerga politsmeyster, pristav, qozi, mingboshilar, ellikboshilar kelib, xalqqa va'z-nasihat qilmoqchi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 6. ...Mana paxta orqasida o‘zi yonar chiroqqayam yetishdik. *(O.)* 7. Niyoz harifining qo‘lini qattiq burab orqasiga qayirdi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 8. Zavod sizga bo‘nak beradi. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 9. Kelasi bahorda sherkatning yerini o‘t omoch bilan haydashsa kerak. *(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 10. Bu amirlarga ishonma, o‘g‘lim! Ularni sodiq bo‘lsin desang, qilichingni ilkingda mahkam ushla.*(O.Yo.)*

II. Badiiy asarlardan tarixiy va arxaik so‘zlar ishtirok etgan ikkitadan gaplarga misollar topib yozing, ma'nolarini izohlang.

115- mashq. Nazir Safarovning «Navro‘z» asaridan olingan parchani o‘qing, kasb-hunarga oid so‘zlarni aniqlab, ular qaysi sohaga tegishli ekanini ayting.

«G‘uv-g‘uv!.. G‘uv, g‘uv, g‘uv!.. G‘uv-g‘uv!.. G‘uv, g‘uv, g‘uv!..» Bu — charxning ovozi. Onam hamon qadalib o‘tirganicha charx qulog‘ini tezkorlik bilan aylantirar, charx pallasi charxpalak singari aylana-aylana parrak bilan dugga tutashtirilgan kanop yordamida dug ham harakatga kelar, chirillab aylanib, dug uchiga ishlashtirilgan pilta paxta tolalari pishirilib, biri-biriga ilashib, dugga o‘ralardi. Daqiqalar o‘tgan sari dug semirib, ipga to‘lib borardi.

116-mashq. Gaplarni o‘qib, frazeologik birikmalarni aniqlang, ma'nolarini izohlang.

1. Abdurahim Toshmatovich tanqiddan xafa bo‘lgan ekanlar shekilli, trestdan kelganlar bilan ham xayr-ma'zurni nasiya qilib, quyon bo‘ldilar. *(E.Nosirov)* 2. Bosmachilik harakatidan ko‘z-quloq bo‘lib turmoq uchun Keyli Farg‘onada qoldi. *(S. Kalmikov.)* 3. Ish men kutgandek yakunlanmadi. Tarvuzim qo‘limdan tushib ketdi. *(N.Yoqubov)* 4. Qo‘rquvdan yuragini hovuchlab yana anchagacha kiprik qoqmay yotdi. *(Sh. Siddiqiy.)* 5. Ularni ko‘rib Afshin hang-mang bo‘ldi-yu, tiliga muhr bosildi. *(J. Zaydon.)* 6. – Bu yog‘i haqida ertalab bosh qotiramiz. *(Shuhrat)* 7. «Hozircha ishlab turadi, — dedi Yo‘ldosh aka, — durustroq bilimdon kishi topilgach, pattasi qo‘liga tegadi». *(K. Nu'mon, A. Shorahmedov.)* 8. Kabinetni ko‘rib, Saidaning og‘zi ochilib qoldi. *(A. Q.)* 9. Oyog‘ingni qo‘lingga olib g‘izilla. *(R. Zahir.)* 10. Birovning dilini siyoh qilmay yuradigan kun ham kelarmikin? *(N. Biryukov.)* 11. – Voy, gapga tushib ketib vaqtni tuya qilibmiz-ku! *(Shuhrat)* 12. Oyog‘idagi tuflisining ohori to‘kilibroq qolgan, demak, bitta tufli ham xarid qilish lozim. *(F. Musajonov.)*

117-mashq. Frazeologik iboralarni topib, turlarga ajrating; har bir turga oid ikkitadan gapni ko‘chirib, ma'nolarini izohlang.

1. Arava bo‘lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. *(O.)* 2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... *(S. Abd.)* 3. ...Ishqilib baraka topsin shu doktorlar, boshing yostiqqa yetganda joningga ora kirishadi. *(H. N.)* 4. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. *(As. M.)* 5. ...Qizlar har zamon ishdan bosh ko‘tarib, bir-biriga gap otishadi. *(S. Ahm.)* 6. Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keldi. *(S. Azimov.)* 7. ...Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz! *(S. Nazar.)* 8. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. *(As. M.)* 9. Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi. ... *(M. I.)* 10. ...Uning ko‘zlari qinidan chiqayozdi. *(O.)* 11. — Murodovaga ma'qul. Ammo Zunnunov ikki oyog‘ini tirab turibdi. *(I. R.)* 12. Qodir kirganda, u kitobga mukka tushgan edi. *(Shuhrat)*

118-mashq. O‘qing. Frazeologik iboralarni topib, ma'nolarini izohlang; So‘ngra ularning sinonimlarini topib, har bir iboradan so‘ng qavs ichida yozib ko‘rsating.

1. Hay-hay, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi, dedingmi? *(G‘.G‘.)* 2. Nusrat uni: “yer tagida ilon qimirlasa biladi”, — der, undan o‘tdan qo‘rqqandek qo‘rqardi. *(S. Nazar.)* 3. Shu o‘tirishda ichini mushuk tatalayotganini qayoqdan bilsin u? *(S. An.)* 4. Uyalmadingizmi davlatning ko‘zini bo‘yagani? *(S. An.)* 5. ... Qodirning qorong‘i dunyosi yorishib ketdi, labining tanobi qochdi. *(Shuhrat)* 6. La'lixonning sha'niga bir gap aytdi, hammaning tepa sochi tikka bo‘ldi. *(S. Ahm.)* 7. O‘zining shu yerdaligini bildirsinmi? Yo‘g‘-e. Tomdan tarasha tushganiday-a? *(S. An.)* 8. ...Chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug‘urgandek chiqib ketadi. *(S. Ahm.)* 9. Sal qovog‘ingizni ochib o‘tiring. Odamning kapalagini uchirib yubordingiz-ku, Matlubaxon! *(O.Yo.)* 10. Maktabga taalluqli nima masala bo‘lsa aralashadi. Lekin hyech kim: “Nega sen hamma narsaga chovlingni solaverasan?” demaydi. *(Shuhrat)*

119-mashq. O‘qing. Frazeologik iboralarni topib, ma'nolarini izohlang. O‘zaro antonim sifatida qo‘llangan frazeologik iboralarni aniqlab, ularni juftlab ko‘chiring.

1. Sodiqning fikri ravshanlashib, o‘ylay ketdi: Chuxanov ham tergovchi, bu ham tergovchi. Ikkalasi ikki dunyo. Biridan kishining ko‘ngli suv ichadi, ikkinchisidan ensang tosh qotadi. *(Shuhrat)* 2. Sudyaning dunyoda o‘g‘li borligidan qalbiga iliq nur yugurgani bilan ko‘ngliga qora soya tushib, xijil edi. *(Shuhrat)* 3. Sobir bilan uning o‘rtasidan shu kunlarda ola mushuk o‘tganini yaxshi bilishmasdi. *(H.N.)* 4. U dashtdagi qizlar bilan apoq-chapoq bo‘lib ketgan edi. *(O.Yo.)* 5. Hamma ishlaridan ko‘ngli to‘q bo‘lganidan ikki kun ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi. *(O‘.Usm.)* 6. Kunlar oyog‘iga tosh boylab o‘tar, U maktub yo‘liga intiq ko‘z tutar. *(M.Ali)*

120-mashq. Badiiy asarlardan frazeologik iboralarga misollar topib yozing, ularning ma'nolarini izohlang.

121-mashq. Quyida nomlari berilgan lug‘atlar bilan amaliy tanishing, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini misollar keltirib izohlang.

1.“Imlo lug‘ati” (maktab o‘quvchilari uchun), 1976 y., “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida, “Fan”, 1976 y., “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (lotin yozuvida) 1995 y.; “O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati” (To‘lqin Tog‘aev va boshqalar), 1999 y. “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” (M.Sodiqova, O‘.Usmonova), 1977 y.

2. “Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati” (O.Usmon, R.Doniyorov), 1965, 1972 yillar; “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (Z.M.Ma'rufov tahriri ostida, 2 tomlik), Moskva, 1981 y., X.Yu.Bekmuhamedov. “Tarix terminlari izohli lug‘ati”, 1978 y.; “Geografiyadan izohli lug‘at” (S.Qoraev va b.) 1979 y.

3. A.Hojiev. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”, 1974 y.; “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”, (Sh.Rahmatullaev va .), 1980 y.; “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, (Sh.Rahmatullaev va .), 1984 y.; Sh.Rahmatullaev. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, 1978 y.

4. V.Rahmonov. “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”, 1983 y.; Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk”(Turkiy so‘zlar devoni), 3 tomlik.(Tarjimon S.M.Mutallibov), 1963 y.

122-mashq. Quyida nomlari ko‘rsatilgan lug‘atlar bilan tanishing. Ularning o‘ziga xos xususiyatini va 121-mashqda berilgan lug‘atlardan nimasi bilan farqlanishini tushuntiring.

“Forscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati” (A.Rustamov va b.), 1975 y.; Q.Turg‘unov. “Psixologiya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”, 1975 y.; “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati” (O.Usmon tahriri ostida), “Fan”, 1976 y.; O.S.Sodiqov “Geologiya lug‘ati”, 1958 y.; S.R.Muhammadxonov, F.X.Jongurazov. “O‘simlikshunoslikdan ruscha-o‘zbekcha lug‘at-spravochnik”, 1973 y.”

123-mashq. I. Quyida nomlari ko‘rsatilgan lug‘atlar bilan tanishib, ularning boshqa tipdagi lug‘atlarga o‘xshash va farqli tomonlarini izohlang.

K.Z.Zokirov, H.A.Jamolxonov “Botanikadan ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik lug‘at”, 1-tom, 1973 y.; “Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi”, 1982 y.; “Salomatlik ensiklopediyasi”, 1985 y.; “U kim, bu nima”. Bolalar ensiklopediyasi, 3 tomlik, 1987 y.

II. Quyidagi so‘zlarning yuqorida nomlari ko‘rsatilgan lug‘atlarning qay biri tarkibida berilganini aniqlab yozing.

Bo‘g‘irsoq, voyaga yetmaganlar, deaktirovka, jizzali non, kabaret, kuya, ko‘ra, lochira, marinad, oila byudjeti, pijama, romshteks, sifon, tomorqa, dehqonchilik, achitqi, chakchak, sharbatlar, shilpildoq, yubka, o‘rama, qiyom, qushtili

124-mashq. Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovlarning “Keng uyning kelinchagi” kitobidan (Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964 y.) olingan quyidagi iboralarni yozib, ularning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da qay darajada izohlanganini tekshirib ko‘ring.

Ammamning buzog‘i, bebiliska, bel bog‘ladi, gapning beliga tepdi, do‘ppisi tor kelib qoldi, zuvalasi pishiq, ilonning yog‘ini yalagan, katta og‘iz, lom-mim deyolmay qoldi, misi chiqib qoldi, nog‘orasiga o‘ynaydi, otning qashqasi.

125-mashq. Berilgan so‘zlarning ma'nosini qavs ichida ko‘rsatilgan lug‘atlardan foydalangan holda izohlang.

1. Akkreditiv, bionika, vakansiya, garpun, djaz, jeton, zummer, indeks, kvorum, (“Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati”).
2. Buqalamun, vobasta, dilovar, yog‘och, ol, jubba, zanbur, luchchak, ma'vo, nigun (“O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”).
3. Mushak, suz, tuyg‘un, chakka, yupqa, o‘ng, qiy, alam, bargak, do‘l (“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”).
4. Albatta, ... butunlay... gina qilmoq..., kasalmand..., dang‘illama..., yetishmoq..., yordam..., jahl..., zulm...(“O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”).
5. Adresant - ..., barqaror - ..., dali-g‘uli - ..., yovuzlik - ..., zolim - ..., obod - ..., sayoz - ... («O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati»).

MORFOLOGIYa

126-mashq. Gaplarni o‘qing. Mustaqil so‘zlarning leksik va grammatik ma'nolarini aniqlang.

N a m u n a: *Bu* — leksik ma'nosi: ko‘rsatish, grammatik ma'nosi: olmosh, ko‘rsatish olmoshi, sintaktik vazifasi: sifatlovchi aniqlovchi.

1. Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona tinglardi. *(Mirm.)* 2. Dilshod kitobni yopdi, ildam odimlar bilan hovli tomon ketdi. *(M. I.)* 3. Atrofi ko‘k panjaralar bilan o‘ralgan ulkan bog‘ darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to‘kib turibdi. *(J. Abd.)* 4. Yo‘lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. *(O.)*

127-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan grammatik ma'noni ifodalovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Dehqonni yer davolaydi. **Urug‘ bilan** birga orzu, dard-hasrat, quvonchlarini ham **yerga** to‘kadi. *(S. Nurov.)* 2. Gulnorning g‘oyib bo‘lishi Yo‘lchiga **yashin urgan kabi** ta'sir ko‘rsatdi. *(O.)* 3. Zufar Hakimovichning yuzida ham endi bezovtalik ifodasi yo‘q edi. *(P. Q.)* 4. Ona **mehriga tenglashadigan** mehr-muhabbat olamda topilarmikan? *(Yo. Shukurov)*

128-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni morfemalarga ajrating: o‘zak va shakllarni (modal funksional shakl va so‘z o‘zgartish shakli) ko‘rsating.

N a m u n a: *ko‘zlarini* — ko‘z/lar/i/ni — so‘z o‘zgartish shakli; *jilmayib — jilmay/ib* — modal shakl.

1. Kampir ko‘zlarini ochdi va ro‘parasida jilmayib turgan yigitga tikildi. *(H. N.)* 2. Qunduz universitetning uchinchi kursida o‘qir, uning maqsadi hayvonot dunyosini o‘rganish, shu sohada ilmiy ish bilan shug‘ullanish ekan. *(J. Abd.)*

129-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni morfemalarga ajrating; o‘zak va affikslarini belgilang; affikslarning turini ayting.

To‘lishgan oy shu'lasida qor qoplagan vodiy kumushdek yarqirardi, faqat o‘rtadagi daralarni qop-qora soya bosgandi, leknn u yerda ham qor dam-badam kuyadori singari yalt-yalt qilib turardi. Qarag‘ay shoxlaridagi qor uyumlari hamlaga hozirlanib turgan yirtqich hayvonlarga o‘xshardi. Uzoqda elektrostansiya dvijogi gupillardi: uning shovqini shamol esgandagina eshitilardi. *(Yu. Semyonov.)*

130- mashq. Gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi so‘z yasovchi affikslarni belgilang va qanday negiz yasaganini ayting.

1. Ular raisning o‘tkir, jonli, goh piching, goh tashvish va hazil bilan tovlangan so‘zlarini, dadil fikrlarini diqqat bilan tinglashar, o‘z takliflari bilan to‘ldirishar, gali kelganda ochiq e'tiroz qilishar edilar. *(O.)* 2. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakultetga kelishga to‘g‘ri keldi. *(A. Q.)* 3. Bu birinchi bo‘linma komandiri okopga yetib,... qat'iy ovozda so‘radi. *(F. Niyoziy.)* 4. O‘ktamning sal suzuk ko‘zlari endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. *(O.)* 5. Ko‘p ham o‘tmay so‘radi shoh: “Qani mening shoh qizim, Hayotimning suyanchig‘i, yupanchim ham yolg‘izim?” *(Sh. Rustaveli.)*

131-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi shakl yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi affikslarni belgilang.

O‘ktam siyrak tut yoki meva daraxtlar qatori bilan, ariqlar, zovurlar bilan bir-biridan chegaralangan keng dalalarni yoqalab kezdi. G‘o‘zaning o‘sishida katta tafovut ko‘rdi u. Hatto bir-biriga yondosh dalalarning manzarasi keskin farq qilar edi. U bir yoqqa qarab xursand bo‘lsa, zavqlansa, ikkinchi yoqqa boshini o‘girib, o‘sishi mujmal, allaqanday kasalsimon g‘o‘zalarni ko‘rar, yuragi achishar edi. U turli brigadalarda, zvenolarda g‘o‘za parvarishi bir xilda emasligini angladi. *(Oybek.)*

132-mashq. O‘qing, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang. Qo‘shma, juft va murakkab so‘zlarni alohida-alohida ko‘chiring.

I. Egnida qizg‘ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog‘ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako‘l telpak. Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, to‘pponcha, qora qosh, xushmo‘ylov, xushqomat, behad ko‘rkam Haydarbek qurolli ikki yigiti o‘rtasida, qo‘li ko‘ksida, bosh egib, o‘ng va so‘lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg‘umi, payqab bo‘lmas edi.

II. Bizni Orzi amaki boshlab boryapti. Uning so‘ziga qaraganda, qishloqning kun chiqish tarafida bir oshnasi bor emish. Mehmondo‘stlikda unga yetadigani yo‘qmish. Doim eshigi, dasturxoni ochiqmish. Yuz-ko‘zi kulib turadigan, ko‘ngli ochiq odammish. Uning suhbatida bo‘lgan kishi zerikmasmish, bama'ni gaplaridan kishining miyasi to‘larmish. Tunashga joy bemalol, ot-eshaklarga ham yemish mo‘l emish. Xayriyat, eson-omon qo‘nadigan yerga borib yetdik. *(N. Safarov.)*

133-mashk. O‘qing, tub va yasama so‘zlarni aniqlang. Yasama so‘zlarning qaysi usul bilan yasalganini ayting. Avval morfologik, keyin sintaktik usul bilan yasalgan so‘zlarni yozing.

I. Ular bog‘dan chiqib, yolg‘izoyoq yo‘ldan paxta maydonlari bo‘ylab yurisharkan, qiz «Dam olish uyi»ning ahamiyati, o‘zga qurilishlar, ishlar haqida so‘zladi. Suhbat, muomala minut sayin ko‘proq bevosita va do‘stona bo‘la boshladi. O‘ktamga gidrostansiya dastlab oddiy va yengil qurilish kabi ko‘rindi. O‘ktam balandga ko‘tarilib, quvur bo‘yicha katta sur'at va kuch bilan otilayotgan suvni tomosha qildi, keyin stansiyaning mustahkam g‘ishtin binosiga kirib agregatni va asboblarni ko‘rdi. *(Oybek.)*

II. 1. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (*O. Jo‘raev.)* 2. Odamgarchilik, mehribonchilik qanaqa bo‘lishini o‘sha kinodan o‘rganish kerak ekan. *(L. Mahmudov.)* 3. Bu — faqat bizning asrimiz kishilarining aql-zakovati, kuch-qudratiga xos inshoot. *(A. Nazarov.)* 4. Ko‘zlarida bo‘lsa ko‘zoynak, Kitoblarin soni juda ko‘p. *(Mirm.)* 5. Rais uning ko‘ziga kamsavlatroq ko‘rindi. (*A. Q.)* 6. Anjirlar obdan sarg‘aygan, anorlar endi piyoladay bo‘lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko‘m-ko‘k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. *(H. G‘.)* 7. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi. *(A. Nazarov.)*

134-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni aniqlab, qanday savolga javob bo‘lishini ayting.

Mehmondorchilikdan qaytgandan so‘ng Zaynab kiyimlarini elektr dazmol bilan dazmolladi, qunt bilan taxlab chamadonchasiga joyladi-da, radiopriyomnikni qo‘yib, «Pikovaya dama» operasining o‘zbekchasini tingladi. Zaynab ertaga jo‘nashini eslarkan, yuragi allanechuk zirqirab ketdi. Hatto uning mehnatda botir, yuragi sof va samimiy “oshiqlari” ham bor. Hamisha g‘ayrati toshgan, shijoatli, xushchaqchaq yosh kolxozchi To‘g‘on Boshoqov bilan birga dalada ishlaganda charchaydimi kishi. To‘ti xoladay to‘qqiz o‘g‘ilning onasi, majlisda notiq, terimda devkor ayolni jondan sevmaslik mumkinmi? *(Oybek.)*

135-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni hamda modal, undov va taqlid so‘zlarni aniqlang.

Quyosh selida miriqib cho‘milgan bo‘ydor teraklar quchog‘ida toraya-toraya g‘oyib bo‘lgan tekis yo‘lda askar yengil odim otardi. Bu yo‘lni urushdan burun kolxozlar qurgan edilar. Ilgari bu yerda yog‘ingarchilik pallasida balchiq otning qorniga yetardi. Mana bugun quling o‘rgulsin bir xiyobonki, ko‘lankasida yastanging keladi. Askarning yuragi to‘lqinlanib, odim-odim joyda to‘xtar va har yonga suqlanib qarar edi. O‘ng tomonda uchi ko‘rinmas, ko‘m-ko‘k, tekis paxta dalasi ochildi: “Bunda shunday yaxlit paxta maydoni yo‘q edi-ku. Qanday ish qilishibdi-ya. Paxtaga ana shundoq qulochkash maydon kerak. Mehnatni ayamasang, bu yerda hosil qaynayveradi. Ah, g‘o‘zasi picha kechikibdi-da...” — dedi o‘z ichida askar. Ariqlarda qiy-chuv bilan cho‘milib, qizg‘in tuproqqa ag‘anagan qora-qura bolalar, havoda zarg‘aldoqlarning “biyov-biyov”i va traktorlarning guldurovi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi, bog‘larda mevalarni qushlardan qo‘riqlovchilarning shovqini — hamma narsa unga tinch hayotni va erkin mehnat nash'asini gavdalantirar edi. *(Oybek.)*

OT

136-mashq. O‘qing, atoqli va turdosh otlarni aniqlang, ularning farqini izohlang.

Odatda katta iste'dod egalari hayotda ham yorqin shaxslar bo‘ladi. Men Oybek va G‘afur G‘ulom, Mirtemir va Shayxzoda kabi ulkan so‘z san'atkorlari suhbatida bo‘lib, shunday e'tiqodga kelganman. Bu ustozlar kirib kelgan uylarda chiroq yoqilganday bo‘lar, o‘zgacha bir fayz qo‘shilar edi. Aminmanki, Hamid Olimjon, Usmon Nosirlar ham shunday farishtali odamlar bo‘lishgan.

... Usmon Nosirning “Yurak”, “Nil va Rim” she'rlari, “Naxshon” dostoni o‘zbek she'riyati xazinasidan joy olgan. Shoir qilgan tarjimalar bu olijanob san'atning yorqin namunalari sifatida ko‘p avlod tarjimonlar uchun mahorat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.*(E. Vohidov)*

137- mashq. Murodjon Rahmonovning «Samimiylik» she'rini ifodali o‘qing. Aniq va mavhum otlarni aniqlab, farqini tushuntiring.

Sen borsanki, hayot shirin, ishq barqaror, samimiylik,
Sen borsanki, do‘stlik mangu, yor vafodor, samimiylik.
Sen bor joyda ko‘ngil ravshan, dillar charog‘on hamisha,
Sen bor joyda yo‘q kin, g‘araz, yo‘qdir ozor, samimiylik.
Sen bor joyda turmush go‘zal, kulib boqar baxt, istiqbol,
Sen bor joyda yaxshilik bor, ezgulik bor, samimiylik.
Sen borsanki, sof dil odam, el farovon, zamon xurram,
Sen bor joyda bo‘lmas gumon, yo‘q hyech g‘ubor, samimiylik.
Sen borsanki, ko‘ngillarda doim bahor, samimiylik.
Sen bilandir saodat ham, pok xislatlar, sadoqat ham,
Mangu yasha sen jahonda, bo‘lgin bisyor, samimiylik...

138-mashq. O‘qing, yakka va jamlovchi otlarni aniqlang, farqini tushuntnring. Gaplarni ko‘chirib, jamlovchi otlar tagiga chizing.

1. Xonga urush ochmoqni U xayol qilar edi, El buni bilar edi. *(H. O.)* 2. U doim boqib poda, Yurar edi sahroda. *(H. 0.)* 3. Bolam, endi yurt tinchib qoldi, Elu xalq ham erkin tin oldi. *(H. O.)* 4. Mamlakatning sardoriga peshvoz bo‘ldi fuqaro. *(Sh. Rustaveli.)* 5. Lashkar uchun dasturxonni to‘kin yozib qo‘ydirib, Mehmonlarga ulashdi shoh shohlarga xos sovg‘alar. *(Sh. Rustaveli.)* 6. Qo‘shin borar, orqasidan borar edi yuk karvon. *(Sh. Rustaveli.)* 7. Ko‘k va yashil kiyimdagi olomon tik turishib, Sevinch yoshin to‘kar edi Avtandilni ko‘rishib. *(Sh. Rustaveli.)*

139-mashq. O‘qing. Birlik va ko‘plik sonda kelgan otlarni aniqlang. Ko‘plik shaklda kelgan otlarning ma'nolaridagi farqlarni izohlang. Gaplarni ko‘chirib, ko‘plik qo‘shimchasi tagiga chizing.

I. Quyosh botgan esa-da, hali hammayoq yorug‘, hali kunduzning yallig‘i bilan nafas olgan dashtda to‘rg‘aylar ora-sira “chiv-chiv”lashib uchishar edi. Toshbaqalar, kirpitikanlar o‘ynar edilar. Mayda toshlar ustida shildirab oqqan iliq suv bilan chelaklarni to‘ldirgandan keyin, bet-qo‘llarini yuvib, sochlarini ho‘llab, dam olgani katta toshga o‘tirishdi. Bu yerda chuqur jimjitlik hukm surar edi. Qizlar sekin-sekin quyuqlasha borgan shom qorong‘isida sokin mudragan adirlarga, tepalarga xayolchan termulib, ancha vaqt jim o‘tirishdi. *(Oybek.)*

II. 1. Boshlarimga yostiq kelar ko‘p malol. *(H. O.)* 2. Halimaxon, Naziraxonlar, Nadimaxon, Karimaxonlar Qushday yengil uchar edilar. *(H. O.)* 3. Mana hozir ona suratiga tikilarkan, uning yuzidagi tanish, ko‘p voqyealarning shohidi bo‘lgan ajinlar, hyech qachon kulmagan qisiq lablar, hasrat to‘la ko‘zlar Nizomjonga: “Bolaginam... Yomonga yondashma!” deyayotgandek.*(S. Ahm.)* 4. Opasi bo‘ynidan, quloqlaridan isirg‘alarini olaturib hiringlab kuldi. *(S. Ahm.)* 5. U o‘z bolasini bir parcha etdan katta qilguncha ne mashaqqatlar tortmagan! *(S. Ahm.)* 6. Seni opichlab ko‘targan otangning bellari qarsillab sinib ketsa bo‘lmasmidi! *(S. Ahm.)*

140- mashq. Egalik affikslarini olgan otlarni aniqlang. Ko‘chirib, egalik qo‘shimchasi tagiga chizing, shaxs va sonini so‘zning ustiga yozing.

1. Akam ishxonadan chiqib, o‘rtog‘i Xolmat partizanni qarshiladi. U, odatdagidek, to‘la-to‘kis qurollangan. Uning kelishgan qomatiga... ko‘k movut shimi, sarg‘ish gimnastyorkasi, ... shpor taqilgan qora xrom etigi, qilichi, belidagi qo‘sh bombasi, beshotar miltig‘i faqat Xolmat Rajabov uchun yaratilgandek yarashardi. *(N. Safarov.)*

II. 1. Asrlarning so‘kib chokini, Ko‘zlarimga surib xokini, Tarixlarni bir-bir titurman, Afsonalar topib biturman. *(O.)* 2. Navro‘z kelsa so‘roqlab, Ne deyman, boshlarim xam. Yoz izlasa so‘roqlab, Ne deyman, kiprigim nam. *(Z.O.)* 3. Adashtirmay tanib turdi Ulkan daryong, keng o‘rmoniig, Bog‘u rog‘ing, qiringni! *(Sh.)* 4. Lochin akam — Valeriy, Lochin opam — Valyaxon! Men sizga hamroh, sherik Quyoshga aziz mehmon. *(G. J.)* 5. Ijodingga biz tashna. Chanqoqlikni, kel, qondir, Kuying elga dostondir. *(Q. H.)*

141-mashq. Gaplarni o‘qing, egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan otlarni aniqlang. Otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zakning o‘zgarishini izohlang.

1. Moshi siyrak dukkaklab, Qovog‘i kech gullagan. *(Q. H.)* 2. Butun qishlog‘imizda bitta Rajabiyimiz bor, xolos. *(N. Biryukov.)* 3. U ishkomning og‘zida ko‘ringan yorug‘likka intildi. *(S. An.)* 4. Jonajon o‘rtog‘i Karima bilan hujralarida yuzma-yuz qolishga Munavvarning yuragi betlamas edi. *(S. An.)* 5. Bolalar yotog‘ida ham hyech kim ko‘rinmaydi. *(S. An.)* 6. Ha, aytganday, Ilashev, Yo‘ldoshevlar chakana radio emas, og‘zini berkitsangiz, burni bilan gapirishdan ham toymaydigan odamlar. *(A. Muhiddin.)*

142-mashq. Ko‘chiring Bosh kelishikda qo‘llangan otlarni aniqlab, so‘rog‘i va gapdagi vazifasini ayting.

1. Yurak to‘la shodlik, mehr, baxt, Uning ko‘zlariga boqaman. *(Z.)* 2. Ona o‘z yurtini jonday sevadi, Vatan ham onani sevar ardoqlar. *(Z.)* 3. G‘ira-shira vaqt. Hali quyosh Chotqol tog‘larining bag‘rida yotibdi. Bo‘tako‘zliklar bu choqni subhidam deydilar. *(I. R.)* 4. Toshkentda do‘stlarim, o‘rtoqlarim, aka-ukalarim — hammalari ham juda hurmat bilan qarshi oldilar. *(G‘. G‘.)* 5. Ovga chiqib bir kiyikni ovlashdi ikki o‘rtoq, Gulxan yoqib o‘tirdilar, o‘tmadi lekin tomoq. *(Sh. Rustaveli.)*

14Z-mashq. O‘qing, otlarni topib, so‘roq bering, qaysi kelishik shaklida qo‘llanganini ayting. Ko‘chirib, bosh kelishik shaklidagi otlarning tagiga chizing, gapdagi vazifasini ayting.

Yoz boshlanib, Yaksart bo‘yidagi cho‘llarda o‘tlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi shak qabilalari sero‘t yaylovlarga ko‘chish taraddudiga tushishdi. Yangi yerlarga ko‘chish chorvachilar uchun bir bayramdek edi. Ular bahor mavsumida yashab o‘rganib qolgan yerlarini tashlab ketish oldidan bir-birlarinikiga qo‘noq bo‘lib borar, dorivor o‘tlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan o‘tkir qimizlarni ichgan yigitlar qizlar bilan lapar aytishar... edi.

Biroq bu safar odamlarning ko‘ngliga qil sig‘mas, o‘tovlardan na qo‘shiq tovushi va na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitilardi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o‘tovni egnilariga yarg‘oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo‘riqlab turardilar. *(M.Osim)*

144-mashq. O‘qing. Qaratqich kelishigida qo‘llangan otlarni aniqlab, so‘rog‘ini, qaysi so‘z bilan bog‘langanini va gapdagi vazifasini ayting. Qaratqich kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Saksovulning bir qismi yonib bo‘lib, yaxlit-yaxlit cho‘g‘larga ajralmoqda, cho‘g‘lar esa kulga aylanmoqda. Gulxanning yonginasida — men yotgan karavotning pastida yozig‘liq shol ustida ham joy to‘shalgan. *(M. Salom.)*

2. Samolyotning uch soat kechikib uchayotgani qizning shirin xayollarini, bo‘lajak qahra-monlari bilan qiladigan suhbatlarini chippakka chiqargandek bo‘ldi. *(M. Salom.)* 3. Anovi qilich taqqani bo‘lsa, Xolmat samovarchining o‘g‘li Rahmat. *(N.S.)* 4. Buzoqcha so‘yilgan kuni yetti uxlab tushimga kirmagan voqyeaning guvohi bo‘ldim. *(N.S.)* 5. Buvimning har qissasi, Har bir qilgan hissasi Fikrimni tortar edi. *(H.O.)* 6. Jurjonning dalasida, Daryoning yoqasida Bir chol o‘tin terardi. *(H. O.)*

145-mashq. O‘qing. Qaratqich kelishigida kelgan otlarni aniqlab, qanday shaklda (belgili, belgisiz, ***-n, -in*** shaklida) qo‘llanganini ayting. Belgisiz qo‘llangan qaratqich kelishigidagi otni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Olmos bo‘lib yarqirar tog‘lar qoyasi, Yo‘llaringga bosh urar bog‘lar soyasi. *(Z. O.)* 2. Lekin pichoq tig‘i tegar-tegmas tars yorilgan Yo‘ldoshning shakarpalagi beqiyos shirin edi. *(S. An.)* 3. Uyimizning fayzi ham sizsiz, Farzandimiz onasi — baxti. Taomimiz lazzati ham siz, Kiyimimiz dazmoli — taxti. *(Mirm.)* 4. Arab shohin tanbehin-ku berolardim bemalol, Ammo tojin izzat qilib chopib o‘tdim men darhol. *(Sh. Rustaveli.)* 5. Sulton qasrin eshigida tortdik otlar yuganin. *(Sh. Rustaveli.)* 6. Shamollarning sho‘x o‘yinida, Gulzorlarning chaman qo‘ynida, Soylardagi to‘lqin bo‘ynida Quloch yozdi bahor va yozim. *(H. S.)* 7. Xarsanglar bag‘rida o‘sar oq gullar, Yurganda oyoqni o‘par nilufar. *(H. S.)* 8. O‘tmishingdan mangu yodgordir Ulug‘ rassom Repin ijodi, Nekrasovning qo‘shiqlarida Kuylangandir burlaklar dodi. *(H. S.)* 10. Xalq hurmati, do‘stlar sevgisi Qalb o‘tini aslo so‘ndirmas. *(U.)*

146-mashq. O‘qing. Tushum kelishigi shaklida kelgan otlarni topib, so‘rog‘ini, qaysi so‘z bilan bog‘langanini va gapdagi vazifasini ayting.

1. Men yigitlarni yaqinimga chaqirdim. Qishloqni razvedka qilish kerak. Ikki kishini yuboradigan bo‘ldik. *(T. Rustamov.)* 2. Ketma-ket uzatilgan chelak va savatlarni keksalar yerga ag‘dardilar, xirmon borgan sari ko‘paydi. *(O.)* 3. Bir zumda mashinani o‘rmonga olib kirdik-da, pastqam joyga yashirdik. Uning izini ham tekislab tashladik. *(T. Rustamov.)* 4. Gullar, to‘smang yo‘limni, yellar, tutmang qo‘limni, Namanganlik nozanin yo‘limda intizormish. *(H. S.)* 5. Sen kuylading va birin-ketin Borlig‘imni chulg‘adi xayol. *(H. S.)* 6. Xira qilar ko‘zlarining yashini yulduzlarni, Go‘yo quyosh yaqinlashib, qamashtirar ko‘zlarni. *(Sh. Rustaveli.)* 7. Nolir edi: «Falak meni yuz baloga duch etdi, Hayot shavqin, nay-rubobni, chiltorlarni puch etdi». *(Sh. Rustaveli.)*

147-mashq. O‘qing. Qaratqich va tushum kelishigida qo‘llangan otlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda ko‘chiring; qanday so‘z bilan bog‘langanini tushuntiring.

— Siz ham afandi bo‘lib qolibsiz, rais, — dedi u kulgisi bosilmay, — afandi tushida uch tanga pul topib olibdi-da, shu uch tangaga ot olib minmoqchi bo‘libdi. Uch tangaga ot kelarmidi. O‘ylab-o‘ylab tuxum olmoqchi, tuxumdan jo‘ja, undan tovuq qilmoqchi bo‘libdi. U tovuqni jo‘jalatib, puliga qo‘zi almoqchi, qo‘zini qo‘y, qo‘yni buzoq, buzoqdan sigir qilmoqchi — sigirning sutini sotib, ot olmoqchi bo‘libdi... . Siz ham yo‘q tovuqning tuxumini yuz ming so‘mga sotmoqchisiz.

— Sen afandichalik ham bo‘lmabsan, — dedim Foziljonga. — Qo‘rdingmi, afandi dehqon ekan. Dehqon hisobdon bo‘ladi. U bir chigitdan ikki quchoq paxta olmasa, yerga engashmaydi. Afandi uch tangaga ot olib minishning hisobini topibdi. Parranda — xazina! Burungilarning naqli shuki, dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor. Masalan, sigir — ro‘zg‘orning qassobi bilan baqqoli, asalari — oilaning tabibi, ipak qurt — qizlarning sepi, objuvoz — qozonning qaymog‘i, tegirmon — qorinning belbog‘i, borginki, o‘rmon ham xazina, parranda ham. Bularning hammasi bor, parranda yo‘q. Tegirmonchining o‘g‘li aytgan bo‘lsa, ishon. Dadasi qanday xazinamizni boshqaryapti. Tegirmondan har kuni ma'murgarchilik oqib turibdi. *(I. Rahim.)*

118-mashq. O‘qing. Tushum kelishigida ishlatilgan otlarni aniqlang va qanday qo‘llanganini (belgili, belsisiz, *-n, -in* shaklida) tushuntiring. Belgisiz va *-n, -in* shaklida kelgan tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Dunyoning yoshligi deydilar Gul chehrali bahorni, Mayni. *(U.)* 2. Ofarin mehnatning qadrin bilganga! Shonu sharaf bo‘lsin mehnat qilganga! *(U.)* 3. Cho‘ng po‘lat tulporin u paxtazor maydonida O‘ynatib, javlon urar, hyech kimsaga ochmas dilin. *(H. S.)* 4. Agar ishdan to‘xtasa buloq, Ko‘zlarini qum bosar, qurir, Kecha-kunduz qumni o‘ynatib Qaynashining boisi shudir. *(U.)* 5. Inson aqlin, o‘y-zakovatin jonlantirib she'ring satrida, Hindistonning xush tabiatin Misralarga tizding, Amrita! *(H. S.)* 6. Shum tolein qarg‘ab-qarg‘ab u qaytmoqqa jazm etdi. *(Sh. Rustaveli.)* 7. Koshonaga kirganida eshitdi ov bo‘lishin, Shikorchilar qiyqirig‘in, burg‘ularning tovushin. *(Sh. Rustaveli.)* 8. Shunda sulton allanima eslaganday bo‘ldi-yu: «Bu qirg‘oqda ko‘p g‘alati ish yuz berdi», — dedi u. *(Sh. Rustaveli.)* 9. Yov yengildi, bizga qal'a eshiklarin ochdilar. *(Sh. Rustaveli)* 10. Erkni, qirni, daryolarni, cho‘lni qo‘msab qoldi dil, Biz otlandik sulton bilan, chopishib ketdik dadil. *(Sh. Rustaveli.)*

149- mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga *-ning* yoki *-ni* affikslaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Sobir butun-butun xarsanglar..., ortiqcha kuchanmasdan, allaqaydandir ko‘tarib, qora terga botib yugurardi. O‘ktam esa ko‘pirgan, o‘kirgan suvda bo‘ynigacha botib, hansirab ishlardi. Sayramov... yuragi to‘lqinlanib ketdi. Xalq... shovqinli, mardona kurashi..., qahramonona ishi... ko‘rganda, uni hamisha hayajon quchar edi. Mashhur xalq qurilishlarida o‘n minglarcha xalq... baland ruhi..., fidokorligi... va imkonsizdek ko‘ringan ishlar... mo‘jizador qahramonlik bilan bajarganini, eng azim qiyinchiliklar... ajoyib uyushqoqlik, uquv va mardlik bilan bartaraf qilganini Sayramov ko‘p marta ko‘rgan edi. Hozirgi kurash u buyuk ishlarga nisbatan bir tomchi edi go‘yo. Sayramov oq shohi kiteli... yechib, qayoqqadir otdi-da, qizg‘in ishga astoydil qo‘l urdi. Ishga kirishganda o‘zini unutadigan darajada, qiziqish, berilish uning odati edi. *(Oybek.)*

150-mashq. Gaplarni o‘qing. Noto‘g‘ri qo‘llangan qaratqich va tushum kelshigidagi otlarni aniqlang, noto‘g‘ri qo‘llanish sababini tushuntiring.

1. Qizingizni manfaati siz uchun hammadan afzalroq ekanini tushunaman. *(N. Biryukov.)* 2. Broshyuralarni esa son-sanogi yo‘q, shuncha kitobni u qachon orttira qoldiykin. *(N. Biryukov.)* 3. Biroq atrofi gulzor bilan o‘ralgan uy oldiga kelganda, Oynorni notanish bir qiz bilan o‘tirganini ko‘rdi. *(N. Biryukov.)* 4. Bu nimaning oqibati? Hayotning bilmaslikning oqibati. Agar butun garmdorining ko‘rgan bo‘lganingizda bilardingizki,... *(F. Musajonov.)* 5. Ular bu qurilishni o‘zlari uchun, o‘zlarining avlod-ajdodlari uchun hamda Vatanni yanada yashnatish uchun barpo qilayotganliklarini juda yaxshi bilardilar. *(A. P.)* 6. Ammo ovozi qovoqni ichida shunaqa shang‘illab ketdiki, birov uni qulog‘iga mix qoqqanday bo‘ldi. *(L. Mahmudov.)*

151- mashq. Gaplarni o‘qing. Jo‘nalish kelishigida qo‘llangan otlarni topib, so‘rog‘i va gapdagi vazifasini ayting. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi so‘zlarga qaysi shaklda qo‘shilganini izohlang. Shu kelishikdagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib, kelishik affiksi tagiga chizing.

1. Komila yostiqqa yonboshlab, uzun so‘lish oldi, beixtiyor o‘y va xayollarga berildi. (O.) 2. Onaning yuragi umid va quvonchga to‘ldi, qiziga uzoq umr va baxt tiladi-da, ... idish-oyoqni yig‘ishtira boshladi. (O.) 3. Ko‘z o‘ngida chirpirak bo‘layotgan manzara ozodlikka chiqib raqs tushayotgandek ... bo‘ladi. (U. N.) 4. Ular uch arava bo‘lib nonushta mahalida qishloqqa kirib kelishdi. (A. Q.) 5. Tankka dushman artilleriyasining snaryadi tegib yona boshladi. (T. Rustamov.) 6. U har gal Marg‘ilon kelganda, albatta, Ikromjonni surishtirib, ... birpas chaqchaqlashib, o‘zi Andijonga o‘tib ketar edi. (S. Ahm.) 7. Dildor qoshlarini chimirib shiyponga chiqar ekan, Asroraga ginali qarab oldi. (S. Ahm.) 8. Oradan yo‘qoldi qadrdon ota, O‘zbekka jonajon, mehribon ota. (G‘. G‘.) 9. Gaz keldi, gaz bilan poytaxtimga go‘yo quyosh kirib kelganday bo‘ldi. (U.) 10. Dimoqqa xush hid upuradi Bog‘lar oshib kelgan shabboda. (H. S.)

152-mashq. Gaplarni o‘qing. O‘rin-payt kelishigidagi otlarni topib, so‘rog‘i, ma'no munosabatlari va gapdagi vazifasini ayting; ularni o‘zi bog‘lagan so‘z bilan birga ko‘chiring, kelishik affiksi tagiga chizing.

1. Navoiyning ko‘zlarida o‘t chaqnadi. Mamlakatda yangi g‘alayon ko‘tarilganligi haqidagi xabar uning qalbida g‘azab olovini yoqqandi. (L. Bat.) 2. «Shu maqsad yo‘lida ishlayvering, yetarsiz orzuga...», — dedi O‘ktam. (O.) 3. Tongda birinchi bor zavodga kelib, Egasiz dastgohga qo‘ling uzatding. (3.) 4. Siz jangda botirsiz, sizning yurakda Keksa bobolarning o‘lmas nomi bor. (3.) 5. Aldoqchida va xoinda na vijdon bor, na subut. (Sh. Rustaveli.) 6. Qishloqda keyingi yillarda ro‘y bergan turli voqyealar to‘g‘risida gap boshlandi. (O.) 7. Bu hol Davronda bir zumgina davom etdi. (T. Rustamov.) 8. Ularni eshikda kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqoriga boshladi. (O. Yo.) 9. Ajoyib sovut va dubulg‘a kiygan bir otliq arab tulporida qo‘shin oldidan chopib o‘tdi. (L. Bat.) 10. Gullarda uchratdim sening ko‘zingni, Otashin sevgingni o‘qidim unda. (Z.) 11. Salqin saharlarda,

bodom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor, Qushlarning parvozi, yellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor. (Z.)

153-mashq. Nuqtalar o‘rniga jo‘nalish yoki o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, kelishik affikslari tagiga chizing.

Komila bu yerdan ikki-uch kilometr nari..., eski va xarob qishloq..., kaptarxonadek bir kulba... tug‘ildi. yetti-sakkiz yoshi... uni toshkentlik tog‘asi olib ketdi. Komilani maktab... berdilar. Pishiq, tuyg‘un qizcha yaxshi o‘qidi. Biroq to‘qqizinchi sinf... o‘tganda, to‘satdan otasi vafot etdi. O‘n ikki yashar o‘g‘ilcha bilangina beva qolgan va goh sog‘, goh kasal onaning taqdiri Komilani tashvish... soldi. Loaqal bir-ikki yil ko‘maklashay deb, 1940 yil yozi... qishloq... qaytdi-da, dastlab tabelchi bo‘lib ishladi. Keyin paxtakorlik... qiziqib, ketmonchi bo‘ldi, yuqori hosil uchun qattiq kurashdi. U vaqtlar... qizlar orasida nodir hodisa edi bu.

Bir yildan keyin, xo‘jalik raisi boshqa xizmat... tayin qilingach, ishbilarmon, o‘qimishli, jasur Komilani xalq rais qilib sayladi. Komila xo‘jalikni urush davrining og‘ir sharoiti... rivojlantirishga yosh yurakning butun g‘ayrati va o‘ti bilan kirishdi. Suv uchun, yangi yerlarni egallash uchun, yangi qishloq va madaniy hayot uchun kurashdi. Uning esi... na sevgi, na istirohat keldi. (Oybek.)

154- mashq. Gaplarni o‘qing, chiqish kelishigidagi otlarni aniqlab, so‘rog‘i, ma'no xususiyati va gapdagi vazifasini ayting; ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring, kelishik affiksi tagiga chizing.

1. Unga avval oq shohidan ko‘ylak kiygizishdi. (O. Xalil.) 2. Amir kibrli tabassum ila yosumandan mamnun ekanligini bildirdi. (O. Xalil.) 3. Yoshlikdan husningiz jalb etdi meni, Ey olmos tog‘larim — o‘lkam gardishi. (H. S.) 4. Urush bo‘lmasin, inson Ajralmasin baxtidan. (U.) 5. Bu o‘ylardan yuragini alanga olgan Mirzo Ulug‘bek tishini tishiga bosib otiga yana qamchi urdi. (O. Yo.) 6. Alisherdan ikki yuz qadamcha narida to‘xtab, atrofni ko‘zdan kechira boshlashdi. (L. Bat.) 7. Devorlarda, panjaralarda ganchdan ishlangan anvoyi gullar. (O. Xalil.) 8. Shamol essa tog‘lardan, Ko‘k ko‘l jimirlar. (H. S.) 9. Bag‘ishlangan yurtga umrimdan Zarracha ham yo‘q shikoyatim. (Mirm.) 10. Shuhratga berilish — fe'lan ojizlik, Daraxt qaqqayadi mevasizlikdan. Chaqmoqday yalt, etib so‘nmay sen izla G‘avvosdek javohir qalb dengizidan! (Mirm.)

155- mashq. Tekstni o‘qing, otlarni topib, qaysi kelishikda qo‘llanganini aniqlang; egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan otlarning shaxs-sonini ayting; otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib, ko‘plik affiksi tagiga bir to‘g‘ri chiziq, kelishik affiksi tagiga ikki to‘g‘ri chiziq, egalik affiksi tagiga esa to‘lqinli chiziq chizing.

Ma'mun Pomir tog‘laridan Ispaniyagacha cho‘zilgan o‘lkalarga hukmdor bo‘lib, o‘zini xalifa deb e'lon qilganidan keyin bir qo‘li bilan u yer-bu yerda boshlangan xalq qo‘zg‘olonlarini bostira boshladi, ikkinchi qo‘li bilan atrofiga olimlarni to‘plab, ilm-fan uchun ko‘plab mablag‘ sarf qilishga kirishdi.

Baytul-hikmat, ya'ni donishmandlar uyini tashkil etib, hind, yunon, suryoniy tillarida yozilgan ko‘hna kitoblarni yig‘dira boshladi. (M.Osim)

156- mashq. O‘qing, tub va yasama otlarni aniqlang. Yasama otlarni ko‘chirib, qanday usul bilan yasalganini ayting.

1. «Pastqo‘rg‘onda turaman. yettinchi brigadada ishlayman», — qisqa javob berdim. (M. Niyozov.) 2. Bu yerda mehmondorchilik ham, suhbat ham me'yoriga yetmay turib, mehmonlar qo‘zg‘alib qolishdi. (A. Nazarov.) 3. Bu — boylik, baraka, qut. Bu — sog‘liq, olam-olam baxt, quvonch. (M. Mirzarahimov.) 4. Bulutlar ostidan chiqqan oy endi hu baqaterak ayrisiga minib oldi. (M. Mirzarahimov.) 5. O‘ktam jiydazordan o‘tishi bilanoq, paxta maydonlari butun ulkanligi, kengligi, salobat va go‘zalligi bilan qarshisida ochildi. (O.) 6. Aravakash... bu dahshatli qichqiriqdan o‘zini yo‘qotib qo‘yib, yana qattiqroq ayta boshladi. (L. Mahmudov.) 7. Ayvonning zinasi oldida siniq xum ag‘anab, kattakon qadoqtosh zang bosib yotibdi. (A. Q.) 8. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. (A. Q.) 9. Temirchilar bolg‘alar taqa, Tilanchilar dardi bir chaqa. (O.) 10. Bolaligimda shu daryo bo‘yida oqizoq o‘ynardim. (M. Mirzarahimov.)

157- mashq. Gaplarni o‘qib, yasama otlarni aniqlang va qanday usul bilan yasalganini ayting. Morfologik (affiksatsiya) usuli bilan yasalgan otlarni ko‘chirib, ot yasovchi affikslar tagiga chizing.

1. Goho ustaning g‘origa hamsoya hunarmand va kosiblar, temirchilar, chilangarlar, miskarlar, suyaktarosh va sangtaroshlar, sandiqchi va beshiksozlar, mixchi va taqachilar, etikdo‘z va gilamdo‘zlar yig‘ilishar, ustozlari Temur boboga atalgan sovg‘a-salomlarini qo‘ltiqlashib, og‘a-ini Qalqonbek bilan Bosqonbek kirib kelishar, shunday paytlarda o‘choqda qora qumg‘on biqirlab, suhbat qizir, ... barcha yangiliklar o‘rtaga tashlanar edi.

(O. Yo.) 2. — Men traktorchi bo‘lishga ahd qildim, — dedi g‘urur bilan. (M. Salom.) 3. Sinfdoshlarim sakkizinchida o‘qiy boshlagan kuni men belimga etak bog‘lab terimga tushib ketdim. (P. Q.) 4. Qassoblar kelishib bog‘larida qo‘y so‘yishdi, oshpazlar osh damlashdi. (O. Yo.) 5. Sog‘inch, hasrat, muhabbat, hatto yovuz dushmanga g‘azab — barchasi bor uning ulug‘ qalbida. (O.) 6. Yoshlikni jasorat, qahramonlik bezaydi, keksalikni— nuroniylik, donolik. (K. Hamro.) 7. Bir-ikkita qaldirg‘ochni ko‘rib, bahor keldi degan bog‘bon dog‘da qoladi. (K. Hamro.) 8. Dalalar va adirlarda, o‘rib olingan bug‘doyzorlarda, hatto olis-yaqindagi bog‘larda biron-bir odam qorasi ko‘zga chalinmas, qirlarda mollar ham ko‘rinmas edi. (O. Yo.)

158- mashq. Gaplarni o‘qib, yasama otlarni aniqlang. Kompozitsiya usuli bnlan yasalgan otlarni ko‘chiring, yozilishini izohlang.

1. Besh-oltita jo‘yak olingan to‘rt burchakli bu gulzorchada qator-qator nomozshomgul gultojixo‘roz, rayhon, ularning atrofida ra'nogul va boshqa gullar rang-barang bo‘lib ochilib turardi, ulardan taralayotgan yoqimli hid kishi dimog‘iga tegib, ta'bni ravshan qilardi. (F. Niyoziy.) 2. Biz shunday qilishimiz kerakki, ular ham tomorqasidan o‘rinli foydalana olsin. (A. Muhiddin.) 3. Bu o‘t oddiy

chaqmoqtoshdan chiqqan olov emasdir. (Sh. Rustaveli.) 4. Shu yil mart oyi boshlarida Xayri Chinoz qishloq xotin-qizlari uchun ochilgan kooperativda ishlay boshladi (A. Muhiddin.) 5. yer yo‘ldoshlar, kosmik kemalar yasashda asosan sirkoniy qo‘llanadi. (U. N.) 6. Oqil va fozillar mol-dunyoni emas, ilm-hunarni o‘z boyliklari deb hisoblaydilar. Ularning boyliklari sarflagan bilan ado bo‘lmaydi. (K. Hamro.) 8. «Rahimjon, — dedi u sandiqchasini sim bilan bog‘layotib, — yoshlik — toshqin suv, sug‘oradigan ekiningizni sug‘orib qolmasangiz, o‘tib ketadi. Keyin keksalikning ko‘z oynagini taqib igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi». (A. Q.)

159-mashq. Juft otlarni aniqlang. Ko‘chirib, juft otlar tagiga chizing.

1. Paxtacha qadri yo‘q oltin-kumushning, Paxta — inson jonin isitgan otash. (G‘. G‘.) 2. Qarasam terak bo‘yi keladigan sisternalar, yerga tutun purkab ishlayotgan qator dizellar, men nomini bilmaydigan xilma-xil asbob-uskunalar avtobus derazasi oldidan bir-bir o‘tyapti. (P. Q.) 3. Tojiboy oqsoqol qarindosh-urug‘chilik yo‘li bilan ko‘tarilib qolgan ekan-da? (P. T.) 4. Saodatxon yengiga qistirib qo‘ygan qor singari oppoq ro‘molchasini olib, shoshmasdan yuz-ko‘zini artdi. (N. S.)

160-mashq. Berilgan qisqartma otlarning to‘liq shaklini ayting va yozing.

ToshMI, TDPU, ToshTU, O‘zMU, BMT, FA, DAN, AQSh, O‘zTAG, DTM, RTM, UrDU, MRDI, BuxDU.

161-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal shaklda qo‘llangan otlarni aniqlang, ularning yasalishi va ma'no jilvalarini izohlang.

1. Mahkam ushla qo‘lchalaring-la, Nurin tutib keltirdim senga! (Mirm.) 2. O‘s, qo‘zichoq, O‘s, yurak poram! (Mirm.) 3. Men emas, siz osmondan kelyapsiz, Rohatbonu. (H. G‘.) 4. Bir kun qornimiz to‘yib qolar, Sobirtoy. (O.) 5. Bu yerda xalta-xulta ko‘targan kosiblar... liq-liq. (O.) 6. Xalilov qopchig‘ini ko‘tarib kulib qo‘ydi. (S. Kalmikov.) 7. Qushlar unga in solar, Yayrab o‘sar qushchalar. (Q. H.) 8. Bu qizaloq ham o‘z qarindoshim-ku. (H. N.) 9. Popukoyning yosh artistka ekanini bilib... olgan edi. (Mirm.) 10. Hamma qarz-qurzdan ham yengillaysan, ham turma-surmasidan birato‘la qutulasan. (H. H.) 11. Voy aylanib ketay, o‘rgilib ketay bolaxondan. (I. Sodiqov.) 12. Parvoz! Parvozjon! Tursang-chi! Tur, toychoq! (H. G‘.) 13. «Qurilish tugaguncha u yoq-bu yoqqa gul-mul, daraxt-maraxt ham ekib tashlaymiz», — dedi boladay suyunib O‘ktam. (O.)

162- mashq. Otlarni aniqlab, to‘liq morfologik tahlil qiling. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni morfemalarga ajrating.

N a m u n a: Gaz — ot, turdosh, bosh kelishik; sodda, tub; gapda ega vazifasida kelgan. Quduq — ot, turdosh, belgisiz qaratqich kelishik; sodda, tub; aniqlovchi vazifasida kelgan. Atrofi — ot, turdosh, bosh kelishik, III shaxs, birlik; sodda, tub; gapda ega vazifasida kelgan.

1. Gaz hamon dahshat solib bo‘kirmoqda. Quduq atrofi tobora qattiq titraydi. Nafas olish ilgarigidan xiyla og‘ir, havoda gaz ko‘paymoqda. Lekin cho‘l keng, shuning uchun u qadar bilinmaydi.

Agar fontan bu darajada bahaybat va xatarli bo‘lmaganda, hamma do‘ppisini osmonga otib suyungan bo‘lardi. Axir, ko‘pdan beri kutilgan zo‘r kon ochilgan edi! Geologlarning aytgani tasdiqlangan edi. Shaharchamizni katta kelajak kutmoqda edi. (P. Q.) 2. Bahor kelgach, har yili dalalarga chiqardik, etak-etak chuchmoma, boychechaklar yig‘ardik. (H. S.)

SIFAT

163-mashq. O‘qing, sifatlarni aniqlab, qanday belgi bildirayotganini ayting, sifatlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring, sifatning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

I. To‘lin oy tikkaga kelib, osilib qoldi. Tunning erka shabadasi o‘rik yaproqlarini bir-biriga urib o‘ynaydi, undan chiqayotgan mayin sasdan orom oladi. Qizg‘ish chiroq shu'lasida yaltirab turgan mushtdek-mushtdek o‘riklar «to‘p-to‘p» to‘kiladi. Pastda, ikki o‘rik panasidagi so‘rida yosh qiz va oq soch ayol xayolga cho‘mib o‘tirishibdi. Keksa ona, dilbar qiz. (M. Pirmatov.)

II. Chetlariga o‘ymakor panjara yasalgan katta ayvonga ipak ko‘rpachalar to‘shalgan, o‘rtadagi xontaxtaga barkash-barkash noz-ne'matlar qo‘yilgan edi. Bu yerdan, tepalikka qurilgan bu koshonaning ayvonidan, yomg‘irda cho‘milgan ko‘z ilg‘amas ulkan, bog‘, qizil qum sepilgan xiyobonlar, hilol va yulduz shaklidagi gulzorlar yanada go‘zalroq, yanada so‘limroq ko‘rinardi. Olisda, Qo‘qon qirining ortida, harir ko‘kish tuman orasidan ko‘tarilgan yuksak tog‘lar ko‘zga chalinar, Samarqand daraxtlar orasidan aniq ko‘rinmas, lekin beriroqda, yashil yaproqlar orasida, yana bir yuksak bino ko‘zni qamashtirib charaqlar, bu — shafaq jilolangan rasadxona peshtoqlari edi. (O. Yoqubov.)

164-mashq. O‘qing, sifatlarning qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniqlang. Otga bog‘langan sifatlarni birikma tarzida ko‘chiring.

1. Qarshimda onam o‘tiribdi. Bag‘ri olamday keng, ko‘ngli paxtaday yumshoq uning. Tongday go‘zal, tongday musaffo, ey muqaddas zot, sening muhabbating mangu qalbimda, hurmating boshimga do‘ppi. (M. Mirzarahimov) 2. Sariq, pushti, pistoqi ranglarga boy ipagim. (Q. H.) 3. Sertuproq yo‘llar, olisdagi uylarning tomlari oydindan yiltiraydi, boshlarida, qo‘yinlarida yulduzlar chaqnagan teraklarning bo‘ylari yana balandroq, adlroq ko‘rinadi. (O.) 4. Fanda oson yo‘l bo‘lmaydi, oson yo‘l tanlagan uzoqqa bormaydi. (J. Abd.) 5. Bu xatlarga samimiy, insoniy tuyg‘ular bitilgan edi. (S. Ahm.) 6. yer baquvvat bo‘lsa, g‘o‘za ham baquvvat o‘sib, hyech qanday dardga chalinmaydi. (J. Abd.) 7. O‘sar mitti azamat: Serharakat, mard, durkun. Ammo hayron qoldirar Kulganlarni u bir kun. (Q. H.)

165-mashq. O‘qing. Asliy va nisbiy sifatlarni aniqlab, nisbiy sifatlarning yasalishini izohlang.

1. Sobir quyoshda chaqnagan orden va medallarini jaranglatib, qizdan sal nari choʻqqaydi va oʻchoqdagi qorindor qoʻshaloq qumgʻon ostiga quruq shaldiroq xaschoʻp tashladi. (O.) 2. Qish edi. Derazadan televizion antennalarning izgʻirinda hushtak chalgani eshitildi. (As. M.) 3. Ehson ustki labini tishlab, koʻzini yuqoriga koʻtardi. (A. Q.) 4. Ozarbayjonlik Soib Ismoilov toʻpdan tinmay oʻq uzardi. (T. Rustamov.) 5. Egma-bukma kamonlarni va zarb yegan qalqonni yechintirib qiz oldi-yu, gʻorga eltdi oʻgʻlonni. (Sh. Rustaveli.) 6. Saidiy, haqiqatan, talabalik vaqtida koʻp she'rlar yozgan, bularning koʻpchiligi devoriy gazetada bosilgan... edi. (A. Q.) 7. Katta sandiq yal-yal yongan olmos, la'l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi. (O. Yo.) Koʻrasanmi, hu olisda ketayotir pahlavon, Oʻz yoʻlidan aynamaydi quyoshsimon, oysimon. (Sh. Rustaveli.) 9. Endi qizning tasallibaxsh soʻzlarin tingladi u. (Sh. Rustaveli.) 10. Ular mavlono Muhiddinning bogʻida, jar boʻyidagi keksa yongʻoq tagida uchrashdilar. (O. Yo.) 11. Rajab aka, siz oʻz vaxtangizda tarbiyaviy ish olib bormay qoʻyibsiz. (P.Q.) 12. Olis togʻlar orqasidan koʻtarilgan quyosh boshoqlarni oltin dengizga aylantirgan edi, ertalabki salqin shamol bu dengizni toʻlqinlantirib, gʻir-gʻir esardi. (O.)

166-mashq. Oʻqing. Sifatlarni aniqlang, qanday daraja shaklida qoʻllanganini ayting. Oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni uch ustun shaklida yozing, daraja koʻrsatkichi tagiga chizing.

1. Yangi klub. Katta zalda Oʻtgan kuni boʻldi bal. (Q. H.) 2. Agar unga Toshkentdan chiroyliroq shahar ham bor, deb aytsalar, aslo ishonmasdi. (N. Biryukov.) 3. Axir, eng jasur, eng tajribali dengizchilar ham Shimoliy qutbgacha yetaman deb, ... halok boʻlganlar. (J. Vern.) 4. Sersoqol, baroq qoshli chol qushlar tiliga tushunardi. (Yu. Semyonov.) 5. Chindan aytaman, sizdan koʻra menga ogʻirroq. (N. Biryukov.) 6. Uning ovozini pasaytirdi va bundan kuy yana ravonroq, yoqimliroq tuyuldi. (H. Gʻ.) 7. Lekin bu ish avvalgi ishlaridan har jihatdan mushkulroq edi. (H. Gʻ.) 8. Ehtimol, eng soʻnggi misralarni u Qogʻozni boʻyagan qon-la bitgandir. (O.Xoldor.) 9. Shu qorongʻilikda tepalikdagi ekskavator tagʻin ham haybatliroq koʻrindi. (H. Gʻ.) 10. ...Lekin undan kichikroq xarita ustiga egilishdi. (H. Gʻ.) 11. Goh Yoʻlchining marhum onasini xayol kuchi bilan jonli, ravshan tasavvur qilishga tirishadi. (O.) 12. Bu uy uning eng baxtiyor, eng azobli kunlariga guvoh. (S. Ahm.) 13. Rais uning koʻziga ilgarigidan kamsavlatroq koʻrindi. (A. Q.)

167-mashq. Oʻqing, sifatlarni topib, darajasini ayting. Qiyosiy va orttirma darajali sifatlar ishtirok etgan gaplarni koʻchirib, sifatlarning oʻxshash va farqli tomonlarini izohlang.

1. U oʻtaketgan darajada sovuqqon, chaqqon, shijoatli va farosatli odam edi. (J. Vern.) 2. Oʻzining kiyimlari... unikiga qaraganda qalin, issiqroq edi. (S. An.) 3. Otalar oʻz bolalarini dunyodagi bolalarning eng zoʻri, eng xushbichimi deb bilishadi. (S. Ahm.) 4. Yunus bobo... Safarning ogʻzaki salo-midan kura koʻproq xatidan umidvor boʻlganini payqadi. (F. Niyoziy.) 5. U oʻzining shavq-zavqini ularga nisbatan yanada dabdabaliroq ifodalar edi. (S. B.) 6. Lekin hammasidan ham xavflirogʻi anovi Mirza. (N. Biryukov.) 7. Oʻz uyi oldida, oʻz devorida unga eng ogʻir, eng dahshatli hukm bitilgan edi. (S. Ahm.) 8. Odamlar bilan ishlashdan muhimroq va mushkulroq narsa yoʻq, azizim. (H Gʻ.) 9. Bu yerdagi kunimiz achchiq edi, u yerda tagʻin ham achchiqrogʻini totidik. (O.) 10. U eng toza buloq suvidan ham tiniqroq. (J. Vern.)

168-mashq. O‘qing, tub va yasama sifatlarni aniqlang, yasama sifatlarning yasalish usulini tushuntiring. Morfologik (affiksatsiya) usulda yasalgan sifatlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, sifat yasovchilar tagiga chizing.

1. Yarim kechaga borib serzavq odamlar bilan gavjum bo‘lgan vagon... tinchidi-qoldi. (A. Nazarov.) 2. Biroq Asqar hammasidan ham yengil tabiatliroq ko‘rinadi unga. (A. Nazarov.) Nihoyat, Ahmadjon askariy xizmatga chaqirildi. (A. Q.) “Shuncha kitob yozilgan-u, baribir menbop kitoblar kam”, — deb shikoyat ham qilib qo‘yadi. (L. Mahmudov.) 5. Qolgan vaqt ichida o‘zimning mineralogik hamda botanik va zoologik kolleksiyalarimni tartibga solmoqchi bo‘ldim. (J. Vern.) 6. Uchqur xayollarimning qarorgohi, oromgohi bo‘lgan ajoyib manzil. (M. Mirzarahimov.) 7. O, bir mahallar qanday yuksak, qanday sehrli eding sen? (M. Mirzarahimov.) 8. Seni shundoq yonginamda avvalgidek xushchaqchaq, mehribon, dilkash, samimiy bir holda ko‘rdim. (M. Mirzarahimov.) 9. Hovuz atrofidagi mis pardozlangan chiroyli oynaband vitrinalarga eng nodir dengiz mo‘jizalari qo‘yilgan. (J. Vern.) 10. O‘ychan, erinibgina qadam tashlab, fabrikadan chiqib kelyapman. (M. N.) 11. Oy nurida qizning cho‘zinchoq chiroyli oqish yuzi, hurkak ohunikidek shahlo, jovdiroq ko‘zlari baralla namoyon bo‘ldi. (O. Xalil.)

169-mashq. O‘qing, yasama sifatlarni aniqlang. Sintaktik (kompozitsiya) usulda yasalgan sifatlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring, sifatlarning tagiga chizing.

1. Uning shishasimon jonsiz ko‘zlari... la'nat yog‘dirayotandek tuyular edi, (N. Biryukov.) 2. Uning kampirdahan yuzlarida qizil dog‘lar paydo bo‘ldi. (N. Biryukov) 3. Xizmatda u juda ulfati odam. (V. yegorov.) 4. Nim rang toyipi, pushti rang hasayni, tilla rang qirmiska, qahrabo husayni, har donasi yong‘oqday keladigan kattaqo‘rg‘on — hammasi shig‘il pishgan. (S.An.) 5. Bo‘ynidagi tuproq rang sharfi jundan edi. (F. Niyoziy) 6. Gulnozning bu artistona o‘yini buvining arazini issiq choyning hovriday tarqatib yubordi. (H. G‘.) 7. Oftobga qaragan har ikki derazaning ichkarisidan ikki tavaqali gulkor eshigi bor edi. Uyga solingan bo‘yra ustiga guldor gilam to‘shalgandi. (F. Niyoziy)

170-mashq. O‘qing. Sifatlarni aniqlab, tuzilish jihatdan turlarga ajrating va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Sodda

Qo‘shma

Murakkab

Juft

tub

yasama

I. Kechga yaqin ular yaylov tugab, sahro boshlanadigan yerga yetib keldilar, sarg‘ish barxanlar, chiroyli gullagan saksovul butalari ko‘rindi. Botayotgan quyosh nurida uzoqdan bir nima oltinday charaqladi. Bu haykal edi. Bronzadan byust. U asfalt yo‘l tugab, dasht-biyobonga son-sanoqsiz karvon yo‘llari, cho‘pon so‘qmoqlari kirib ketadigan joyda, kichkinagina, chanqoq gulzor o‘rtasida, yo‘nilgan xarsang ustida turibdi.

Cho‘qqi soqolli, keksa odam. Kechki oftobda nurlanib turgan yuzining chuqur ajinlari bu xiyobonlarning qadimiy fojialaridan, uzoq zahmatkash umr va ajoyib g‘olibona taqdirdan darak berardi. Qyeksa cho‘pon bu sahrolarni tiz cho‘ktirgan bahodirday qisiq ko‘zlarini ufqlarga tikib turardi. (As. Muxtor.)

II. 1. Uning o‘ychan boqadigan qora ko‘zlari, uzun kipriklari, bug‘doy rang, sal cho‘ziqroq yuzlari va pushti rang, guldor ko‘ylagi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lganda, yigit qalbi toqatsiz tepa boshladi. (M. Salom.) 2. Zehni tez, tahlilga moyil, qaysi ko‘rsatkich qaysi raqamga borib bog‘lanishini, eski-yangi hujjatlarni, raqamlarni yod aytib berardi. (As. M.) 3. Kelinchakning gul yuzi, shahlo ko‘zlari, qaldirg‘och qanoti singari qayrilma qop-qora qalam qoshlari, shabnamdek beg‘ubor tiniq ruxsori, jozibador nigohi, tovus qomati — hammasi iffat pardasiga burkangan... (N. S.) 4. O‘ktam turli-tuman yumushlar bilan qancha band bo‘lmasin, qurilishni bir minut ham unutmas edi. (O.)

171-mashq. -li, -chan, -iv, no-, be-, ser-, -siz, -simon affikslari yordamida sifatlar yasang va yozing, sifat yasovchilar tagiga chizing va qaysi so‘z turkumidan sifat yasalganini ayting.

172-mashq. I. Sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida yaltira, aylan, bil, bot, buz, buk, bura, bo‘l, bo‘g‘, dimla, yoyish, yoy, yoz, yop, ishonar, yig‘, kes, sirg‘an, sovi, tortin, tug‘, chanqa, qaqra, qirq, qis, quy, qo‘rq fe'llaridan sifatlar yasab yozing va imlosini tushuntiring.

II. Quyidagi sifatlarning yasalishini tushuntiring, sifat yasovchi affikslarni ajratib ko‘rsating.

Yopishqoq, jo‘shqin, iliq, kemtik, oqsoq, tiniq, erinchoq, hurkak, asrandi, baqiroq, bilarmon, burma, bo‘lmag‘ur, qotma.

173-mashq. Nuqtalar o‘rniga -li yoki –lik sifat yasovchi affikslaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yozilishini izohlang.

1. Urushdan keyin ularni hamma unutib tashlab ketgan asirlar lageridan amerika... soldatlar kelib qutqazdi. (As. M.) 2. Ammo Vatan oldidagi burchi bundan faxr...roq, ulug‘roq. (S. Z.) 3. To‘g‘risi, oilada Hanifani beshta bolasining eng kattasiday ko‘rib, ota... mehri bilan ayab, iliq munosabatda bo‘lishini Munavvar payqadi. (S. An.) 4. Hakima — iroda... qobiliyat..., o‘qishni sevadigan bir talaba. (O. Yo.) 5. Ahdni bajarmasak ne der dugonam, boku... qahramon Surayyoxonim? (Z.) 6. Uch mingta marhamat...lar mashina va aravalarda qo‘shiqlar bilan Izboskan tomon yo‘llandilar. (N. Biryukov.) 7. Munavvarning ona... mehri jo‘sh urib ketdi. (S. An.) 8. Dunyoda Adibadan yo‘q edi baxt...roq qiz. (Mirm.)

174-mashq. Komponentlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan sifatlarni imlo qoidasiga muvofiq qo‘shib, ajratib yoki chiziqcha bilan yozing.

I. Baland/bo‘yli, amaliy/nazariy, betga/chopar, boqi/beg‘am, bug‘doy/rang, bo‘sh/bayov, gazet/bop, dali/g‘uli, darvesh/sifat, dil/ozor, do‘ng/peshana, yolg‘iz/oyoq, yoqa/vayron, jingalak/sochli, jon/baxsh, zil/zambil, ilmii/ommabop, ish/bilarmon, kam/yerli, kam/quvvat, kul/rang, maza/bemaza, malla/rang, mo‘min/qobil, nim/ko‘k, nim/tatir, ola/bayroq, ola/qura, orom/baxsh, ochiq/ ko‘ngil, och/sariq, sof/dil, tinch/totuv, umum/shahar, xush/xat, chala/chulpa, sher/yurak, sho‘r/peshana, eski/tuski, yalang/oyoq, tez/ pishar, qing‘ir/qiyshiq, qo‘l/bola, g‘adir/budur, hozir/javob.

II. 1. Darvoqye, qozoq sultoni Tavakkalxon huzuriga Moskva elchisi Velyamin Stepanov qimmat/baho tortiqlar bilan kelgan edi. (M. Osim.) 2. Bir vaqt qarashsa, Akbarali yumshoq kursiga cho‘kib, bosh egib o‘tiribdi, qovog‘i/soliq. Xush/chaqchaq shovqin birdan tindi. (As. M.) 3. So‘fi malla/rang, shalpang/quloq, xum/kalla, so‘xtasi/sovuq, ajiriq singari o‘sib bir-biriga tutashib ketgan soch-soqoli orasida, tulkiniki singari ayyor ko‘k ko‘zlari miltirab ko‘rinadigan bir odam edi. (N. S.) 4. Akbarali otasiga uncha o‘xshamas, novcha, ingichka, kam/gaproq edi. Lekin kechasidagi hikoyalaridan keyin oq/ ko‘ngil Bektemir aka unga yoqib qoldi, ota o‘rniga mehribon bir odam orttirgandek bo‘ldi Akbarali. (As. M.) 5. O‘zi saxiy va donishmand, odil va qonun/parast, Suhbatlarda shakar/ guftor, urushlarda zabardast. (Sh. Rustaveli.) 6. Bektemir aka bosh ustidagi yo‘g‘on/yo‘g‘on kabellarni, issiq/sovuq suv, havo quvurlarini, elektr, telefon simlarini ushlab qo‘yar edi. (As. M.) 7. Tars yorilgan zarang yerlar ustida qizil/qanot chigirtkalar uchib yuradi, yerda esa katta/kichik kaltakesaklardan bo‘lak jonivor yo‘q. (M.Osim.)

175- mashq. O‘qing, Otlashgan sifatlarni aniqlab, otlashmagan sifatlardan farqini tushuntiring. Ko‘chirib, sifatlarning gapdagi vazifasini chiziqlar orqali ko‘rsating.

I. U savatdan har xil hajm va har xil shakldagi shishalarni olishga kirishdi. Bularning orasida poroshok solingan qorindorlari ham, xilma-xil rangga bo‘yalgan yoki shaffof suyuqlik bilan to‘latilgan ingichka —

ixchamlari ham, ustiga “zahar” degan so‘z yozig‘liq egri-bugrilari ham, tor bo‘g‘izli yumaloqlari ham, yashil va oq rangli kattalari ham, sirtiga o‘yib xat yozilgan oyna probkalilari ham, mahkam yopiladigan burma tiqinlilari ham, po‘kak tiqilgan vino hamda zaytun moyidan bo‘shagan shishalar ham bor edi. (G. Uells.)

II. 1. Ularning xotirasi turli-tuman ishlar bilan band bo‘lib, darrov nozaruridan zarurini, keraksizidan kerakligini ajrata olmay qoldilar. (S. B.) 2. Umayder endi uning bu yasama xushchaqchaqligiga ishonmaydi... (As. M.) 3. Cho‘lda haqiqiy hayot oqshomdan so‘ng uyg‘onadi, deb to‘g‘ri aytilgan ekan. Kunduzgi jaziramada in-iniga yashiringan jonivorlar salqin tushishi bilan tumshuqlarini ko‘rsata boshlaydilar. (J. Abd.) 4. Mashinalar ketma-ket kelib shag‘al to‘kayotgan yerda qo‘liga daftar, qalam ushlagan, malla sochlarini bostirib bari keng poxol shlyapa kiygan, burni yassiroq, ko‘zlari ko‘m-ko‘k, xushro‘ygina rus qizi bilan uchrashdi. (J.Abd.)

176-mashq. Gaplarni o‘qing. Modal shaklda qo‘llangan sifatlarni aniqlab, ma'no jilvalaridagi farqni va yasalishini tushuntiring; ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring.

1. Olisda hali barg yozmagan daraxtning novdalari chuvalashgan qizg‘imtir ipdek bo‘lib ko‘rindi. (S. Ahm.) 2. U... yuzi qip-qizil, lekin nechundir, qovoqlari shishgan, ko‘zlari qizargan edi. (H. G‘.) 3. Karta etagiga bir tekis tizib ekilgan tut nihollaridan birining nim ko‘k bargini uzdi. (H. G‘.) 4. Xolmamat Toshtemir bilan sovuqqina salomlashdi. (H. G‘.) 5. Baland nim havo rang eshikning bir tavaqasi asta ochilib, Zuhra kirdi. (H. G‘.) 6. Yo‘g‘on-yo‘g‘on harflar bilan shunday deb yozdi. (S. Ahm.) 7. Zebixon bu pachoqqina, ko‘rimsizgina, kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan edi. (S. Ahm.) 8. Uchib o‘tgan qaldirg‘och orqasidan sarg‘imtir ufqqa qarab qoldi. (S. Ahm.) 9. Ona ko‘zi oldida o‘g‘lining qop-qora qoshlari, chaqnagan ko‘zlari qoldi. (S. Ahm.) 10. U sal novcharoq bo‘lib, gavda tuzilishi mutanosib emasdi... (A. Chakovskiy.)

177-mashq. O‘qing, ozaytirma va kuchaytirma sifatlarni aniqlab, ularning qanday yasalganini izohlang; ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan alohida-alohida ko‘chirib, sifatlar tagiga chizing.

1. Bola o‘zini shu daqiqalarda g‘oyat kichik, bag‘oyat yolg‘iz, butunlay unutilgan his qilardi. (Ch. Ayt.) 2. Parda yon tomondagi chog‘roq uyga kiriladigan eshikni to‘sib turgan edi. (N. Biryukov.) 3. Mirzacho‘lga qalingina qor yoqqan. (H. G‘.) 4. Nizomjon Zebixonga tikilib turib, uning qop-qora qoshlariga ...mahliyo bo‘lib qoldi. (S. Ahm.) 5. U yerda suvning qizg‘ishroq tovlanishiga ishonch hosil etasiz. (J. Vern.) 6. Katta-katta shaharlar, obod qishloqlarda ishlab o‘rgangan Qudratga bu yer juda g‘alati tuyular edi. (J. Abd.) 7. U raisning nomini aytganda, zalda suyuqqina chapak bo‘ldi. (H. G‘.) 8. Darhaqiqat, Tursunboy nihoyatda ko‘rkam yigit bo‘lgan edi. (S. Ahm.) 9. Katta-kichik demaklik g‘oyat nisbiy bir qiyos, Yupiterning oldida yer kurramiz bir nuqta. (Mirm.) 10. Zuhra Saodatxonga dadilroq qaradi. (S. Z.)

178-mashq. Quyidagi -roq affiksli sifatlar ishtirok etgan gaplarni o‘qing. Avval qiyosiy darajadagi sifatlar ishtirok etgan gaplarni, keyin modal shakldagi sifatlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring; ularning farqini tushuntiring.

1. Gap bunday, Saidaxon, men qiziqqonroq, buning ustiga qo‘polroq odamman. (A. Q.) 2. Qishloqdagi sayil bu yerdagidak ko‘ngilliroq bo‘ladi, albatta. (N. T.) 3. Dunyoda mendan ko‘ra baxtliroq, tolei balandroq kishi bo‘lmasa kerak! (J. Ikromiy.) 4. Chuqurroq ek. Ildizini shabadalatmasdan tuproq bos. (H. G‘.) 5. U Gerstvuddan aqlliroq, Druega nisbatan bosiqroq va bilimdonroq ko‘rinar edi. (T. Drayzer.) 6. Ikromjon tarafga qarab o‘tirgan keksaroq kishi unga yuz-ko‘zi bilan qandaydir ishora qildi. (S. Ahm.) 7. Kitob yozishimga madadkor bo‘lgan va hozirgimdan ham yaxshiroq va jasurroq bo‘lishga undagan qit'a shumi hali? (Yu. Smuul.) 8. Uzun tarnovdan ko‘cha o‘rtasiga bo‘tanaroq suv oqib yotardi. (S. B.) 9. Malol kelmasa birrov borib qozig‘ini sero‘troq joyga qoqib kelgin. (S. Ahm.) 10. Oftob... avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyuldi. (A. Q.)

179- mashq. Sifatlarni topib, morfemalarga ajrating.

1. Ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o‘tiribdi. (S. Ahm.) 2. Keyingi paytlarda ona tilida gaplashish qadrliroq, chiroyliroq ko‘rina boshladi. Ilgari inglizcha gapirgan odam aqlliroq ko‘rinib, arabcha gaplashganlar madaniyatsizroq ko‘rinardi. (Mirm.) 3. Chog‘roqqina yo‘lakdan o‘tgandan keyin allaqanday... uyning ostonasiga kelib qoldi. (N. Biryukov.) 4. O‘g‘iljonning yuzi tandirdagi nondek qizarib ketdi. (M. Pirmatov.)

180-mashq. Sifatlarni aniqlab, to‘liq morfologik tahlil qiling.

N a m u n a: Keng — sifat, asliy, tub, oddiy daraja, otlashmagan, sodda; gapda aniqlovchi vazifasida kelgan.

1. O‘ktam Komila orqasidan yurib, olchazor orqali keng, tekis, bahavo maydonga chiqdi; maydonning bir tomonidagi tepalikka ustalar ikki qavatli katta imorat qurmoqda edilar. (O.) 2. Manzuraxon, men va menga o‘xshaganlar haqida gazetada chiqqan tanqidiy maqolani o‘qigandirsan. (M. Salom.) 3. Toshlar ko‘k, qizg‘ish, yashil va firuza rang nur taratar, bu nurlar bir-biriga qo‘shilib kamalakday ajib bir manzara kasb etardi. (O. Yo.) 4. Hozir shahardagi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash bilim yurtiga kirib o‘qiyapman. (M. Salom.) 5. Bir dona so‘lg‘in gul guldasta husniga putur yetkazganidek, she'rdagi yagona o‘rinsiz so‘z ham uning jarangdorligi va mazmuniga salbiy ta'sir etadi. (K. Hamro.) 6. Izzattalabroq cholga o‘xshaydi! (N. Biryukov.)

181-mashq. O‘qing, ot va sifatlarni topib, to‘liq morfologik tahlil qiling.

Yomg‘irda yuvilgan daraxtlar, xiyobonlarning ikki yonida saf tortgan sarvlar allaqanday muloyimlashib, yashnab, bo‘lakcha bir go‘zallik kasb etdi. Archalar orasida tovlangan oq, sariq, nofarmon va qizil gul kosachalarni lim-lim to‘ldirgan tiniq tomchilar, go‘yo nafis piyolachalarga quyilgan mayday gul-gul yondi, borliqni bulbul xonishi tutdi. Go‘yo har bir shox, har bir yaproq tagiga yashirinib olgan bulbullar tobora avjga chiqar, boshqa hamma qushlar ovozini bosib, yayrab-yayrab, to‘lib-toshib sayrashardi.

Abu Said Mirzo qochganidan keyin yana vasvasa bosib, uyqu ko‘rmay iztirobda yurgan shahzoda go‘yo ko‘nglidagi barcha tashvish va g‘am-anduhlardan soqit bo‘lganday yengil tortdi. Mayin qizil qum sepilgan, behad katta bog‘ning eng xilvat joylarigacha olib boradigan xiyobonlarni, hilol va yulduzlar shaklida yasalib, bo‘lakcha bir mehr bilan parvarish qilingan mo‘jaz gulzorlarni aylanarkan, shahzoda bolalik va o‘smirlik chog‘larida bu gulgun maskanda o‘tgan ma'rakalar, dabdabali to‘ylar, xushovoz xonandalar, tovusdek raqqosalar ishtirokida berilgan bazmi jamshidlar esiga tushib, nechundir ko‘ziga yosh keldi. (O. Yo.)

182-mashq. Asqad Muxtorning quyidagi she'rini o‘qib, bir xil so‘z bilan ifodalangan ot va sifatlarni toping, gapdagi vazifasini ayting.

Birato‘la uch qizning

Aylantirdi boshini:

Fermadagi Shirin,

Agronom qiz Dono

Ham terimchi Dilbar!

Do‘stlar deydi: og‘ayni,

Go‘zal kerak yigitga,

Dilbarini tanlab ol.

Shirini ham dilbar,

Donosi ham dilbar,

Dilbari ham dilbar,

O-oh, qandoq qilay?

Ota deydi: hay bola,

Donolik kunda kerak,

Donosini tanlab ol.

Dilbari ham dono,

Shirini ham dono,

Donosi ham dono,

O-oh, qandoq qilay?

Ona deydi: hay bolam,

Xushfe'l bo‘lsin kelinim,

Shirinini tanlab ol.

Donosi ham shirin,

Dilbari ham shirin,

Shirini ham shirin,

O-oh, qandoq qilay!

SON

183-mashq. O‘qing. Sonlarni aniqlab, grammatik xususiyatlarini tushuntiring. Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib, ularning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

1. “Kooperatsiya” unchalik katta kema emas. Yuk to‘la ortilganda hajmi 5560 tonnaga teng bo‘ladi. Kemaning uzunligi bir yuz uch metr, eni o‘n to‘rt metr. Unda har biri bir mingu to‘rt yuz ot kuchiga teng «MA» markali ikkita dizel bor. Kemaning mak» simal tezligi soatiga 11,6 milya.

Komanda a'zolari turadigan xonalardan tashqari, unda o‘ttiz yettita passajirlar kayutasi, hammasi bo‘lib bir yuz yigirma o‘rin bor.

Kemada to‘rtta tryum bor. Muzxonali tryumiga ming tonnadan oshiqroq tez buziluvchi oziq-ovqat sig‘adi. Kema ruli va langari elektr quvvati yordamida boshqariladi. Kema korpusi... muzlar siquviga bardosh beradigan darajada mustahkam. To‘g‘ri, ikki ming sakkiz yuz ot kuchi Janubiy Muz okeani uchun kamlik qiladi.

Kema 1929 yili Leningrad kemasozlik zavodida qurilgan va o‘sha kezlari konstruksiyasi jihatidan eng zamonaviy kemalardan biri hisoblangan edi. 1929 yildan to 1937 yilga qadar bu kema passajir va yuk tashib, Leningrad — Gavr — London orasida qatnagan. “Kooperatsiya” 1937 yili respublikachi Ispaniyaga yuk tashib turdi.

II. “Kooperatsiya” Ikkinchi jahon urushi yillari Shimoliy harbiy flot sostavida torpeda katerlari uchun baza bo‘lib xizmat etdi. 1947—1948 yillari kema yana o‘zining avvalgi tinch mehnatiga — Leningrad — Shchetsin orasida passajir va yuk tashishga qaytdi.

Horib-charchab, rosa shalog‘i chiqqan kema 1949—1952 yillarda Vismarda kapital remont qilindi, remontdan keyin 1954 yilga qadar Boltiq dengizi va G‘arbiy yevropa portlari o‘rtasida qatnab turdi. 1954 yildan boshlab Arktikada ishlay boshladi.

1956 yilda esa “Kooperatsiya” Mirniyga ikkinchi Antarktida kompleks ekspeditsiyasini olib bordi. Mana u hozir oltinchi qit'aga ikkinchi marta safar qilmoqda. Bunday mas'ul vazifa har qanday kemaga ishonib topshirilavermaydi. (Yu. Smuul.)

184-mashq. O‘qing. Numerativ so‘z bilan birga qo‘llangan sonlarni aniqlab, numerativ so‘zlarning ma'nosini izohlang.

1. O‘zlaringni zo‘rlab bo‘lsa ham bir qoshiq-yarim qoshiqdan ovqat ichinglar! (N. S.) 2. Mayning yettilariga borib urug‘ sochish kerak! (S. Ahm.) 3. — Qayvaqtda bo‘lgan bo‘lishi mumkin?—Bundan o‘n asrlar muqaddam, do‘stim. (N. Biryukov.) 4. Soatiga atigi olti milya yo‘l bosyapmiz. (Yu. Smuul.) 5. Bir yillik xirojni — uch yuz ming dinorni oldindan yubortirdi. (S. B.) 6. U turgan joydan ellik qadamlarcha narida trassa ko‘kimtir chiroqlar bilan yoritilgan. (N. Biryukov.) 7. Ichkariga kir, uka. Biron piyola choy ich! (S. Ahm.) 8. Shtirlits soatiga qaradi: roppa-rosa yetti. (Yu. Semyonov.) 9. Uch-to‘rt oygina bo‘lsa ham diydoriga to‘ydirib ketdi. (S. Ahm.) 10. Zulfiqorovning xotini bitta qiyiqchada uch-to‘rtta anor, bir kilodan mo‘lroq sariq kishmish olib keldi. (A. Q.) 11. ...O‘n ming juftdan ortiq ko‘zlar bahaybat qoyali tog‘larga tikildi. (N. Biryukov.) 12. Uzoqda, taxminan, uch chaqirim narida tog‘ tizmasi ko‘rinib turardi. (F. Muhammadiev).

185-mashq. Gaplarni o‘qing. Sanoq va tartib sonlarni aniqlab, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ikki ustun shaklida ko‘chiring, gapdagi vazifasini ayting.

I. Birinchi o‘quv yilining birinchi, ikkinchi, uchinchi choragida biz “tosh daftar”, “kesak” qalamda yozib dars tayyorlardik. Keyinchalik paydo bo‘lgan «Sovg‘a» nomli o‘qish kitobi ham har olti o‘quvchiga bir donadan taqsimlab berilgan edi.

II. yer kurrasining uch yuz oltmish bir million kvadrat kilometri suvdan iborat. Bu suvning hajmi bir ming uch yuz yetmish million kub kilometrga tengdir. Demak, yer yuzidagi suvning vazni bir ming uch yuz yetmish kvintillion tonnadir.

Bu sonning naqadar kattaligini idrok etish uchun shu narsani bilish kerakki, milliard oldida bir qanchalik kichik raqam bo‘lsa, kvintillion oldida milliard ham shunchalik ushoq sondir yoki boshqa so‘z bilan aytganda, milliardda qancha bir bo‘lsa, kvintillionda shuncha milliard bor.

Quruqlik suvdan bir yuz qirq million olti yuz ming yetti kvadrat metr joyni tortib oldi...

Fan besh asosiy oqimni kartaga tushirgan: biri — Atlantika okeanining shimoliy qismida, boshqasi janubida, uchinchisi Tinch okeanining janubiy qismida, to‘rtinchisi shimolida va nihoyat, beshinchisi Hind okeanining janubiy qismidadir. Ehtimol, Kaspiy va Orol dengizlari hamda Osiyodagi katta ko‘llarning suv havzasi bitta bo‘lgan uzoq o‘tmishda Hind okeanining shimoliy qismida oltinchi oqim ham bo‘lgandir. (J. Vern.)

186-mashq. Gaplarni o‘qing. Ot o‘rnida kelgan sonlarni aniqlab, gapdagi vazifasini ayting.

1. Kanikul tugagach, Rohatoy beshinchi kursda, Asqarjon aspiranturada o‘qishni boshlashdi. (R. Fayziy.) 2. Bir tovoq suyuq atalani ikkimiz bir qoshiqda talashib ichardik. (N. S.) 3. Demak, bir ming ikki yuz ellik oltini ikkiga ko‘paytiramiz. (N. Biryukov.) 4. Kichkinagina budilnikning yorishib turgan mili beshni ko‘rsatardi. (Yu. Semyonov.) 5. Uch hovlida yolg‘iz bitta bola bo‘lib, u har safar ko‘chma do‘konni birinchi bo‘lib ko‘rar edi. (Ch. Ayt.) 6. Uchinchi qo‘shni Roziya opa bolalar yaslisida

murabbiya bo‘lib ishlardi. (M. Muhamedov.) 7. Lekin esingda bo‘lsin, yigirma beshinchida qandaydir noma'qulchilik sodir bo‘lgan. (L. Sh.) 8. Yo‘l tuzatuvchi ishchilarning yigirma beshinchi baragi yonidan o‘tib ketayotganida parovoz hushtak chaldi. (L. Sh.)

187-mashk. O‘qing. Miqdor va dona sonlarni aniqlab, qanday so‘z bilan bog‘langanini ayting. Oltita gapni tanlab ko‘chiring, sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tegishli chiziq bilan belgilang.

1. Yana Yoqub otasiga yo‘llamoqchi bo‘lgan maktubida zumradning besh fazilati, yetti nuqsoni, sakkiz xil tusi va o‘n ikki bahosini ham yozib yubordi. (K. Moiseeva.) 2. To‘planishgan edi uch o‘rtoq: Paxtakoru olim, agronom. (Mirm.) 3. To‘qayda o‘n qadam oldinroq yurgan otliqning boshi ko‘rinmay ketardi. (S. Ahm.) 4. Ancha zo‘r kitoblar yozib tashlabman, Besh jild qilsammikin yoki olti jild! (As. M.) 5. G‘ulomjon bilan Qosimov oldiga ofitsiantka... o‘n six kabobni olib kelib qo‘ydi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 6. Shu qishloqda yashar edi Uch qiz, uchta dugona. (Sh.) 7. Ish shu qadar qiziganki, bir odam o‘n odam ishini qilyapti. (N. Biryukov.) 8. G‘o‘za tuplaridan birida ikki yuz ellik yetti ko‘sak sanadim-a! (N. Biryukov.)

188- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Dona sonlarni topib, yasalishini tushuntiring.

1. Oq tunukadan yasalgan ikki paqirni menga berib, to‘rttasini akamning o‘zi ko‘tardi. (N. S.) 2. To‘qqiz nafar libos: bari ipaklik. (H. G‘.) 3. Yuzta dastgoh, shuncha usta, mingta ketmon ko‘raman desam, Norxo‘janing xuddi o‘ziga o‘xshash to‘rtta bekorchi, o‘tmaydigan ketmonga sop yo‘nib o‘tiribdi. (H. G‘.)

189-mashq. Chama sonlarni topib, qanday yasalganini izohlang va o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Axir, sizdek minglab xotin-qizlar cho‘rilikdan qutulib, biri doktor, biri injener, biri muallima bo‘lib xalqimizga xizmat qilmoqda. (Z. Fatxullin) 2. Ikki yuz - uch yuz qadamcha esini yo‘qotib yugurgandan keyingina uning ovozi chiqdi. (P. T.) 3. Yana uch soatlardan so‘ng xoinlar iziga tushamiz. (N. S.) 4. Xona eshigi oldida o‘nlarcha odam navbat kutib turibdi. (N. S.) 5. Katta yo‘ldan o‘ttiz qadamcha narida, kanal yoqasida kichikroq yog‘och ko‘prik bor edi. (N. Biryukov) 6. Ot yana yuz metr chamasi chopib bordi. (S. Kalmikov.) 7. Kunduz soat uchlarga borib birdan yomg‘ir yog‘a boshladi. (R. Z.) 8. Eshik ochilib, yetti-sakkiz yosh-qari dehqonlar hujraga kirdilar. (O.) 9. Hovlining narigi tomonidan, molxonadan, o‘n ikki-o‘n uch yoshlardagi yapaloq yuzli, dumaloq ko‘zli bir bola yugurib chiqdi. (P. T.) 10. “Uch tepa” cho‘liga qurilgan necha yuzlab chaylalar qamish-qiyoqdan yasalgan edi. (N. S.) 11. Mahallamizdan o‘n chog‘liq keksalar eshigimizdan kirib kelishdi. (N. S.) 12. Uch yoki to‘rt kun muqaddam bu surbet menga hisob-kitobni ko‘tarib kelibdi. (A. Dyuma.) 13. Sobirov engashib, taxminan o‘n besh gramm keladigan yaxshi pishgan yirik bir qulupnaynn uzib oldi. (N. Biryukov.)

190- mashq. O‘qing. Jamlovchi sonlarni aniqlab, gapdagi vazifasini, yasalishini tushuntiring.

1. Amu ichra beshovlon Rejalar tuzib keldik. (Mirm.) 2. Ishonchim komil: ikkovlaring darrov... apoq-chapoq bo‘lib ketardilaring. (K. Moiseeva.) 3. Biri bizga uzoqroq qarindosh, ikkinchisi begona, hammahalla, Ikkalasi ham to‘quvchilik hunarining piri. (N. S.) 4. — Yuzta diviziya kelyaptimish. — Diviziyalarning yuzovi ham sening ustingga kelyaptimikin-a? (I. R.) 5. Ikkalang ham maorif shu'basining tasdig‘idan o‘tdinglar. (N. S.) 6. Bog‘da gurung qurib o‘tirgan har ikkala erkak ham bir farzandning otasi ekanligini muhtaram o‘quvchi sezgandir.(H. Tojiboev.) 7. Komissarning kreslosida bir emas go‘yo o‘n bir komissar o‘tirardi. O‘n birovi ham bir gapni aytardi. (I. R.) 8. U o‘zining beshala sezgisiga zo‘r berib tinglardi. (A. Dyuma.) 9. Birov tosh, birov gul, o‘z joyida ikkovi ham yaxshi. (A. Q.)

191-mashq. Gaplarni o‘qing, taqsim sonlarni topib, yasalishini va dona sondan farqini tushuntiring.

1. O‘qituvchilar tayyorlash kursida yiliga uch oy-uch oydan olti oy o‘qidim. (N. S.) 2. Yog‘ochni bir qarich-bir qarich qilib arralay boshladilar. (N. S) 3. ...Goho bir yo‘la ikki, goho uch qoshiqdanga kelishib... ichishardik. (N. S.) 4. Har bir xumga o‘n paqirdan suv ketardi. (N. S.) 5. Otasi... har bir charm hamyonga yuztadan qilib joylashtirarkan... (K. Moiseeva.) 6. Tol novdasi bilan o‘nta-o‘nta bog‘langan ko‘chatlarni Feruzaga uzatib turdi. (H. G‘.)

192-mashq. O‘qing. Sonlarni aniqlab, turini ayting. Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda (so‘z birikmasi shaklida) tanlab, jadvalga joylang.

Tartib son

Sanoq sonlar

miqdor son

dona son

chama son

jamlovchi son

taqsim

son

1. Oldinda ikki kishi, keyin bir qator bo‘lib to‘rt kishi, undan keyin bir yo‘la o‘n-o‘n ikki kishi, keyin yana o‘n, keyinda bitta odam alohida borardi. (E. Xeminguey.) 2. Qo‘y, xafa bo‘lma, bolam. Beshta o‘g‘il-qizlarim bor. Sen oltinchisi bo‘lasan. (P. T.) 3. Ming to‘qqiz yuz o‘n sakkizinchi yilning mart oylariga borib bizning oilamizdan terlama kasali ko‘tarildi. (N. S.) 4. Taxtachaga quyidagilar yozilgan edi: «Gorilla Bobbi Berlinga 1928 yilning 29 martida uch yasharligida olib kelingan. 1935 yil 1 avgustda o‘lgan. Bo‘yi 1 metru 72 santimetr, vazni 226 kilogramm». (Yu. Semyonov}) 5. Lekin Umida ma'lum qiladigan kashfiyotning zaminida shogirdlar, ustozlar, butun bir kollektivning o‘n-o‘n besh yillik halol mehnati yotibdi. (As. M.) 7. Qancha tikilib qaramayin, osmonda o‘n beshtadan ortiq yulduzni sanolmadim. (K. Moiseeva.)

193-mashq. Gaplarni o‘qing. Sonlarning tuzilish jihatdan turini ayting va imlosini tushuntiring. Ajratib ko‘rsatilgan sonlarni morfemalarga ajrating.

1. Shtirlits soat yettida, qosh qorayayotgan paytda, qaytdi. (Yu. Semyonov.) 2. Yana uch-to‘rt kilometr yo‘l yurilgach, sakkizinchi brigada dala shiyponida nonushta qilishdi. (A. Q.) 3. Bora-bora har kuni yuz-ikki yuz gramm choy ishlatadigan bo‘lib qoldi. (N. S.) 4. Bu hovuz ikki odam bo‘yi chamasida chuqur edi. (N. S.) 5. Murmanskdan o‘n besh kilometrcha narida tutun hidini sezishibdi... (L. Sh.) 6. “O‘n besh-yigirma minutlarda kelaman”, — dedi-da, non, choy, mayizni olib jo‘nadi. (N. S.) 7. Bu bayroqqa ko‘z tikkanlar yigirma yettita! (N. Biryukov.) 8. Qani endi shu payt yonida yakka-yagona G‘ofiri bo‘lsa, bunday boylarning mingtasidan o‘z sevgilisini himoya eta olgan bo‘lardi. (N. Biryukov.) 9. Kerri siltabroq javob qilganidan, er-xotin uning xursand emasligini birinchi marta sezishdi. (T. Drayzer.) 10. Bu suhbat 1938 yilning 16 martida hovlida bo‘lib o‘tdi. (L. Sh)

194- mashq. O‘qing. Tartib va sanoq sonlarni topib, tuzilishiga ko‘ra turini ayting. Tartib sonlarni raqam bilan ifodalab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda imlo koidasiga muvofiq ko‘chiring.

1. Ovchiday ko‘z tashlardik To‘rt tomonga ikkovlon. (Q. H.) 2. Birinchi tramvay bir ming sakkiz yuz saksoninchi yili Rossiyaning Peterburg shahrida yurgan ekan. Ikkinchi tramvay bo‘lsa oradan bir yil o‘tgach, Berlin yaqinidagi Lixterfelde shaharchasida yura boshlabdi. (B. Ergashev.) 3. Benzin bilan ishlaydigan avtomobilni birinchi bo‘lib nemis konstruktori Karl Bens ixtiro qilgan. Avtomobilning

g‘ildiraklari uchta edi. 4. Birinchi bo‘lib svetofordan bundan yarim asr avval Nyu-Yorkning Beshinchi Avenyu ko‘chasida foydalanilgan. (B. Ergashev.)

195-mashq. Sonlarni raqam bilan ifodalagan holda ko‘chiring va tartib sonlarning yozilishini izohlang.

Dastlabki kabel bir ming sakkiz yuz ellik yettinchi va bir ming sakkiz yuz ellik sakkizinchi yillar mobaynida yotqizilgan edi. Ammo to‘rt yuz telegramma uzatilgandan keyin u to‘satdan ishlamay qo‘ydi. Bir ming sakkiz yuz oltmish uchinchi yilda injenerlar uzunligi uch ming to‘rt yuz kilometrli yangi kabel yotqizdilar; uning vazni to‘rt ming besh yuz tonna bo‘lib, bu g‘oyat og‘ir yukni yotqizish uchun maxsus paroxod jihozlandi. Biroq bu urinish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Yigirma beshinchi mayda «Nautilus» uch ming sakkiz yuz o‘ttiz olti metr chuqurlikka sho‘ng‘ib, xuddi kabel uzilgan joyning o‘ziga kelib qoldi.

«Nautilus» kabel yotqizilgan eng chuqur joylardan — to‘rt ming to‘rt yuz o‘ttiz bir metr chuqurlikdan o‘tdi.

U yerdan biz bir ming sakkiz yuz oltmish uchinchi yilda avariya sodir bo‘lgan joyga jo‘nadik.

Bu yerda dengiz tubi kengligi bir yuz yigirma metrli torgina vodiy hosil etgan edi. Agar Monblanni shu yerga ko‘chirish mumkin bo‘lganida, u butunisicha suvga cho‘kib turar edi. Bu vodiyning sharqiy qismi ikki ming metrli qoya devor bilan tugar edi. Biz bu yerga yigirma sakkizinchi mayda yetib keldik. Endi «Nautilus» Irlandiyadan bir yuz ellik kilometrdan ortiq bo‘lmagan masofada edi. (J. Vern.)

196-mashq. O‘qing. Sonlarning va numerativ so‘zlarning yozilishida ro‘y bergan xatolarni toping. Nima uchun shunday xatoga yo‘l qo‘yilganini izohlang.

1. To‘rttagina o‘g‘limiz bor. To‘rttovi ham armiyada. (H. G‘.) 2. Beshinchi kishi esa to‘rttalasiga ham yordam berib turardi. (N. Biryukov.) 3. Sholchalar, to‘shalgan katta so‘rilar uchchov, to‘rttovdan davra qurishgan odamlar bilan to‘lgan edi. (P. T.) 4. Anvar xuddi qo‘yniga yarim putlik tosh solinganday bir tomonga qiyshayib, Muattarga qaradi. (A. Q.) 5. Uchchovlari ham qumoq-qumoq... tarvuzning bir pallasini tamom qilolmay, qorinlarini silashdi. (O.) 6. Odamzodning yodidan Chiqmagay oson 20-nchi chaqirimdagi qon. (S. ye.) 8. Oldinma-ketin tushgan oshiqning to‘rttalasi baravar turib ketdi.(H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)

197-mashq. Parchani o‘qing, ot, sifat va sonlarni toping, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni to‘liq morfologik tahlil qiling.

Muhsin guppi o‘zining Tursunali degan devqomat korandasi va Alim-sho degan yugurdagi bilan uchta obkash, sakkizta chelak ko‘tarib tezda Nasriddinnikiga yetib kelishdi. Yoz boshining kuchga to‘lgan quyoshi ancha tikkalashib, dehqon va korandalarni soya-salqinga hayday bosh-lagandi. Shunga qaramay, boqqa ega chiqib qolishidan qo‘rqqan Muhsin guppi ishni kechiktirmaslikka qaror qildi.

Bu yil qurg‘oqroq keldi. Ikki yuz qadamcha naridagi katta ariqda suv jildirab qolgandi. Muhsin guppi malaylari bilan bir-ikki borib kelishdayoq qora terga botdi. Har holda, birinchi sakkiz chelak suvni ag‘darishgandayoq xumning yarmidan pastrog‘igacha to‘ldirib qo‘yishdi. Ikki-uch qatnashda xumning to‘lishi aniq edi. Muhsin guppining kayfi shunchalik chog‘, boshi osmonda. (Z.A'lam)

OLMOSh

198-mashq. O‘qing, olmoshlarni aniqlang va nimaga (predmet, belgi, miqdor) ishora etilganini ayting.

Umuman, «Vatan» deganning o‘zi nadir?

Tug‘ilib o‘sgan uyingmi? Beshikda qulog‘ingga kirgan mungli va ayni chog‘da nurli allami? Buvingning ertaklarimi? Maktabmi? Ilk bor visol onlariga guvoh bo‘lgan so‘lim xiyobonlarmi? Albatta, bularning hammasi va yana allaqancha narsalar birlashib «Vatan» degan narsaning so‘nmas timsolini yaratsa kerak. Va yana o‘ylaymanki, bolaning murg‘ak qalbidagi ilk bor paydo bo‘lgan Vatan timsoli har qancha yorqin bo‘lmasin, hali o‘zining shakl-u shamoyilini to‘la topib ulgurmagan bo‘ladi. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib, ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan. Tajribangiz ortgani sari, hayot doshqozonida qaynab pisha borganingiz sari Vatan degan narsani chuqurroq qadrlaydigan bo‘lib qolasiz. Vatan haqidagi tasavvuringiz to‘lishib, kengayib, boyib boradi... (O.Sharafiddinov)

199-mashq. Gaplarni o‘qing, olmoshlarni aniqlang. Kishilik olmoshi ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring, olmoshning tagiga chizib, shaxs va sonini ayting.

1. Onam uchun benihoya og‘ir bo‘lgan o‘sha kunlarda men qo‘limdan kelgancha unga yordam qilardim. (N. S.) 2. Hayhot, uning so‘nggi umidi ham chil-chil sindi. U shahzoda Abdullatifning katta qo‘shin bilan Jayhundan o‘tib, Keshga yaqinlashayotganini bilsa-da, bu mustahkam qal'a unga jang-jadalsiz taslim bo‘lishini kutmagan edi. U Amir Kamoliddinga ishonar, uning qal'a kalitini shahzodaga qarshiliksiz topshirishini sira kutmagan, chunki uni o‘zining eng sodiq amirlaridan biri deb o‘ylardi. (O.Yo.) 3. O‘zing-ku maktabxonada binoyiday ishlab yuruvding. (H. N.) 4. Nimadan cho‘chib, nimaning mulohazasiga boryapsizlar? (N. S.) 5. Ali Qushchi negadir bir sapchib tushdi. Mirzo Ulug‘bek uning tepasida hamon qo‘l qovushtirib turar, horg‘in ko‘zlari qisilgan edi. (O. Yo.) 6. Hyech kimga, hyech bir zotga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi. (Ch. Ayt.) 7. Biz keyingi vaqtlarda maktab uchun yaxshi g‘amxo‘rlik qilmayapmiz. Bu — bizning aybimiz. (F. Niyoziy.)

200-mashq. Gaplarni o‘qing. Kishilik olmoshlarining qaysi kelishik shaklida qo‘llanganini va gapdagi vazifasini ayting; o‘zakda ro‘y bergan o‘zgarishlarni izohlang.

1. “Nazirqul endi faqat sizning o‘g‘lingiz emas, mening ham o‘g‘lim”, — dedi domla. (N. S.) 2. Mendan ham o‘zg‘ir, Chaqqonmi odam? Eslolmas buni Bo‘ronboy dadam. (Q. H.) 3. Men o‘z Vatanimni qattiq sevaman. (Yu. Semyonov.) 4. Uning yuzlarida, dudoqlarida... bir tabassum yonadi. (O.) 5. Chakalakzor ko‘chadan o‘tib olish mening uchun naqadar qo‘rqinchli ekanini bir bilsangiz edi!

(N. S.) 6. Bilmadim, men sening oldingda gunohkormanmi yo sen mening oldimda gunohkorsanmi? (S. Ahm.) 7. Sizdan iltimos, odamlar bilan juda ehtiyot bo‘lib muomala qiling. (J. Abd.)

201-mashq. O‘qing. Ko‘rsatish olmoshlarini topib, ma'nosidagi farqlarni tushuntiring va o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring.

1. O‘sha zarb, o‘sha kuch hamon barqaror! (Mirm.) 2. Bu ona-yer, bu Vatan bashariyat baxti deb, Avlodlar iqboli deb beqiyos yo‘l ochmoqda. (Mirm.) 3. Zotan, bu mavqye, bu obro‘, bu boylik — hammasi Mirzo Ulug‘bek orqasida orttirilgan edi. (O. Yo.) 4. O‘shanda, bundan yigirma besh yil muqaddam, ustod, mana shu pastqamlikda turib, Ali Qushchi bilan so‘ng bor vidolashganida, bu elga qaytmoq, -bu yurt, bu maskanni ko‘rmoq nasib bo‘ladimi, yo‘qmi, deb g‘am chekkan, bu o‘y, bu tashvishdan, ko‘ngli vayron edi. Mana endi uning o‘zi ham shu o‘y, shu g‘am bilan banddur. (O. Yo.) 5. Oyijon! Manavi qizili menga! (Ya.) 6. Hozir u shu o‘tirishida o‘ylab o‘yiga yetolmadi. (S. Ahm.)

202-mashq. O‘qing. Kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan ko‘rsatish olmoshlarini topib, gapdagi vazifalarini ayting. Ko‘chirib, ko‘rsatish olmoshlaridagi egalik qo‘shimchasi tagiga to‘g‘ri, kelishik qo‘shimchasi tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

1. Shuni bilinglarki, posyolkani bor qiladigan ham, yo‘q qiladigan ham biz o‘zimiz. (P. Q.) 2. Agar biz bu ishlarni bilib-bilib qilsak, yaxshigina natijalarga erishishimiz turgan gap. (N. Biryukov.) 3. Buning endi haqiqatga yaqinroq. (E. Xeminguey.) 4. Qani endi rassom bo‘lsam-u, o‘sha musaffo go‘zal tongni, ko‘k bilan o‘pishgan azamat tog‘larni, shudring qo‘ngan ko‘m-ko‘k bedazorni, ariq bo‘yidagi bir tup kungaboqarni suratga solsam! (Ch. Ayt.) 5. Tolqon... shunday mazali bo‘lardiki, uning ta'mini faqat yeganlargina bilardi. (N. S.) 6. — Yarash. Tinchlik yaxshi gap, — dedi partizan, — ammo kim kim bilan yarashmoqchi, bularing shuni tushundimikan? (N. S.) 7. «...U huzurli mehnat. Ko‘ngil ana shunisini tusayapti», —dedi Onaxon. (As. M.)

203-mashq. O‘qing. So‘roq olmoshlarini aniqlab, predmet, belgi va miqdor haqida so‘roq bildirgan olmoshlarni uch ustun shaklida ko‘chiring.

1. Rais. albatta, qoloq kishi emas, bekorchi ham emas, ammo biz qachon, qaerda va qaysi sharoitda yashayotganimizni unutmasligimiz kerak. (I. R.) 2. Ochiqroq ayting, sizga nima bo‘ldi? Nimalar deyapsiz? Tushunmayapman! (S. Ahm.) 3. «Asl haqiqatning nimada ekanligini uning o‘zi bilurmu?» — deb so‘radi kinoya bilan Mamun. (K. Moiseeva.) 4. Mehmon-izmonni qanday kutadi? (H. G‘.)

5. Qancha dunyomni sarf qildirib bo‘z to‘qiydigan dov-dastgoh oldirdi. (N. S.) 6. Nizomjon o‘z boshiga tushadigan savdolarning xuddi shu daqiqadan boshlanishini qayoqdan bilsin. (S. Ahm.) 7. Men bunaqa voqyealar to‘g‘risida qancha-qancha kitoblar o‘qiganman. (O. Yo.)

204-mashq. O‘qing. So‘roq olmoshlarini topib, qanday o‘zgarganini va gapdagi vazifasini ayting. So‘roq gap tuzishda vosita bo‘lgan so‘roq olmoshlarini aniqlang.

1. Odam, nima yaxshi bo‘lsa, shuni qilishi kerak. (O‘. U.) 2. Ammo men bir narsaga tushunolmay turibman: shunchalik gaplaring bor ekan, savollaring bor ekan, nega shu choqqacha indamay keldilaring? (A. Q.) 3. Siz mening kimim bo‘lasiz, amaki? (I. R.) 4. Hilolangiz poliz brigadasiga borib, fermaga qancha po‘choq beryapsiz, deb so‘roq qilibdi. (I. R.) 5. Axir mening nimam Nazokatga o‘xshaydi? (S. An.) 9. “Ulari ham mayliga, — deb gap qo‘shdi polizchi chol, — kimlar qancha bepul qulupnay yeganini yozib ber, pulini undirib olamiz, deyapti”. (I. R.) 10. Bekning “mard” yigitlari qani? Quyondek qochib qolishdi-ku. (S. Kalmikov.)

205-mashq. O‘qing. Belgilash olmoshlarini topib, qanday o‘zgarganini ayting, so‘ngra jamlovchi, yakkaga ajratuvchi, jamlikning qismini bildiruvchi belgilash olmoshlarini uch ustunga ajratib yozing.

1. Axir, bugun shunday kunki, har kim o‘z do‘sti bilan birga bo‘lgisi keladi! (O. Yo.) 2. O‘rta yer dengizidagi juda ko‘p turg‘un baliqlardan ba'zilarini boshqalariga nisbatan uzoqroq kuzatdim... (J. Vern.)3. U har narsadan zavqlanish, lazzat topish, erkalanishni istar edi. (J. Abd.) 4. Dengiz barcha bo‘yoqlarni o‘zida singdirib, moviy rangdagina jilvalanar edi. (J. Vern.) 5. Qudratning birdan-bir maqsadi ularning hammasida haqiqiy fanga qiziqish uyg‘otish edi. (J. Abd.) 6. Har biri itdek-itdek keladigan bahaybat chumolilarni ko‘rdim. ...Har ajdar ilonlar borki, fildek keladi, va fil kuchi bilan hamla qiladi... (K. Moiseeva.) 7. Har bir odam uchun javobgarsiz. Mas'uliyatning bu tomonlarini ham sezing-da. (J. Abd.) 8. Agronom so‘zini eshitib, ba'zi qizlar hazilni to‘xtatishgan bo‘lsa ham, boshqa shaddodroqlari pisand qi-lishmasdi. (H. G‘.) 9. Uning chaqmoqdek chaqnab, qurilishga birdaniga jon kiritib yuborgani, hammani qattiq harakatga solib qo‘ygani durust. (J. Abd.)

206-mashq. O‘qing. O‘zlik olmoshini aniqlab, qanday turlanganini va gapdagi vazifasini tushuntiring. Ikkita gapni ko‘chirib, o‘zlik olmoshiga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi tagiga to‘g‘ri, kelishik qo‘shimchasi tagiga to‘lqinli chiziq chizing. Matnda uchragan boshqa olmoshlarning turini ayting.

1. Ular o‘z qo‘llari bilan nimalar yaratib, nimalar ishlab chiqarishga qodir ekanliklarini bilib olishlari kerak! (J. Abd.) 2. Nazarimda, u o‘qishimga xalaqit bermaslik uchun, mendan ham, o‘z huzur-halovatidan ham voz kechdi, shekilli. (Ch. Ayt.) 3. Men o‘z-o‘zimga deyman: Nahotki, oz muddatda shunchalik o‘zgaribman. (Mirm.) 4. O‘zing bilasan, o‘t ichidan qaytding, Gitlerni yakson qilish hazilakam ish bo‘ldimi? (O.) 5. Xudoyqulov boshliqlarga o‘zini ishchan, uddaburon qilib ko‘rsatishni bilardi. (J. Abd.) 6. So‘fito‘rg‘ay bo‘lsa g‘azalni o‘zi to‘qib, o‘zi bastalab, o‘zi kuyga solgan, maqomi shu qadar sershavq, jozibadorki, qulog‘imga Nosir akamning sehrgar dutorining ovozi eshitilgandek bo‘ladi. (N. S.) 7. Faqat o‘zigagina tushunarli bo‘lgan doiracha va kvadratlar chiza boshladi... (Yu. Semyonov.)

207-mashq. O‘qing. Bo‘lishsizlik va gumon olmoshlarini topib, yasalishi va ma'nosini izohlang.

1. Beorzu yashashning hyech qanday qizig‘i yo‘q, Toshpo‘latjon. (N. Biryukov). 2. U xonasi kelganda hyech kimni ayamasdi. (S. Ahm.) 3. O‘zi xunukkina. Hyech kim uni xunuk demaydi. Yuragi chiroyli, qilig‘i chiroyli. (S. Ahm.) 4. Jannat xolaning ko‘zlari chaqnab, allaqanday umid uchqunlari yongandek bo‘ldi. (S. Ahm.) 5 Orol aholisi hyech narsaga zoriqmay, hyech kimdan nolimay, huzur-halovatda yashar ekan. (J. Abd.) 6. Nechundir men shu topda o‘zimni oshiqchadek his qilib qoldim. (M. Salom.) 7. Men, Sobir, yana bir qancha bolalar qayrag‘och shoxlariga qushday qo‘nib olib, tomosha qilar edik. (O.) 8. Yalingansimon bo‘lib, Nenidir gumon qilib O‘tirar kresloga. (Mirm.) 9. Ularni biron nima bilan hayratlantirib bo‘larmidi? (N. T.) 10. Faqat hayratga o‘xshash qarash bilan tikilib qolganicha, allanarsalarni o‘ylay ketdi. (M. Salom.) 11. Ikromjonga qandaydir juda zarur bir gap aytmoqchi. (S. Ahm.) 12. Yo‘q, bunaqa odamni ko‘rmaganman, faqat ovozini kimlargadir o‘xshatgim keladi. (M. Salom.) 13. Birov uni bo‘g‘ayotgandek, yelkalarini qimirlatib, nafasini rostladi. (H. G‘.)

208-mashq. O‘qing. Bo‘lishsizlik va gumon olmoshlarini topib, o‘zgarishi va gapdagi vazifasini tushuntiring. Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan bo‘lishsizlik va gumon olmoshlarini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib, olmoshlarning tagiga chizing.

1. Qalin jo‘xorizorlar ortidan kimningdir yoqimli qo‘shig‘ini shamol uchirib kelardi. (J. Abd.) 2. Ammo Abdusamat hyech qanday harakat qilmadi. (M. Salom.) 3. Uning chap yuzidagi bilinar-bilinmas chandig‘iga ko‘zim tushdi-yu, negadir titrab, yuragim shig‘ etib ketdi. (M. Salom.) 4. Akam... dahshatdan hushidan ketayozgani, yana allaqancha sarguzashtlarini hikoya qila ketdi. (N. S.) 5. Tog‘aning qoshlari chimirilib ketdi. U hyech kimdan bunaqa savol kutmagan edi. (S. Ahm.) 6. Uydan allaqanday yoqimli hid kelib dimog‘imga urildi. (M. Salom.) 7. Juvon Saidaning, boyagiday, javobga so‘z qahat savollariga qarshi hyech narsa deyolmaganidan keyin taslim bo‘ldi. (A. Q.) 8. Mahalladagi qaysidir bir amaki... uni internatga topshirdi. (S. An.) 9. Xorazm saroyiga yaqin turgan odamki shunday der ekan, ishqilib, biron falokat yuz bermasa yaxshi edi-da. (K. Moiseeva).

209-mashq. O‘qing. Olmoshlarni aniqlab, ma'no jihatdan turini ayting va jadvalga yozing.

Olmoshlarning ma'nosiga ko‘ra turlari

Misollar

Kishilik olmoshlari

Ko‘rsatish olmoshlari

So‘roq olmoshlari

Belgilash olmoshlari

O‘zlik olmoshi

Bo‘lishsizlik olmoshlari

Gumon olmoshlari

Samolyot chiroqlari lip etib yondi-yu, hamma yoq munavvar bo‘ldi. Deraza oynasidan tez-tez o‘tib turgan karvon-karvon bulutlar endi ko‘rinmay qoldi. Bulutlarning raqsini tomosha qilib borayotgan istarasi issiqqina, nozik qiz allanimadan cho‘chigandek atrofga boqdi. Hamma xotirjam: ba'zi yo‘lovchilar gazeta-jurnal o‘qishmoqda, ayrimlari o‘zaro sekin-sekin gaplashib o‘tirishibdi; yana bir xillari o‘zlarini orqaga tashlagancha mudrab borishmoqda. Faqat uning yuragi notinch. Samolyotning uch soat kechikib uchayotgani qizning shirin xayollarini, bo‘lajak qahramonlari bilan qiladigan suhbatlarini chippakka chiqargandek bo‘ldi.

... Shu topda kassa yonida duch kelgan yigitning so‘zlari yodiga tushib, qizning tashvishi yanada ortdi. Boshqa redaksiyada ishlardi u yigit. Ammo har doim Oynisaga... hazillashardi. Bu safar komandirovka uchun pul olayotgan paytda yo‘liqdi unga. «Hm, hali shunaqami? — dedi u qizning qaysi tomonga borayotganini aniq bilgandan so‘ng. — Unda hushyor bo‘ling, yaxshi qiz».

Shu payt styuardessa chiqib, samolyotning yetib kelganligini e'lon qildi. Oynisa negadir hayajonlandi, yonidagi kishiga qarab qo‘ydi. Hozir hamrohining yuzidan hyech qanday ma'no uqib bo‘lmasdi.

Oynisa samolyot eshigidan zinaga oyoq qo‘yishi bilan, yuziga bir necha sovuq tomchi urildi: shamol aralash yomg‘ir yog‘moqda edi. (M Salom.)

210-mashq. O‘qing. Olmoshlarni topib, tuzilishiga ko‘ra turini ayting va berilgan jadvalga yozing.

1. Bu yigit o‘sha siznikiga kelib-ketib yurgan rus ayoli Maryam xolaning o‘g‘li ekan. (N. S.) 2. Men bir necha kun ilgarigidek dorbonlik qilib turdim. (L. Nikulin.) 3. «Hamma ayb mening o‘zimda, — davom ettirdi u so‘zini boshini egib. — Mabodo Shtirlitsni jazolaydigan bo‘lsangiz, men qattiq iztirobda qolaman: men uni sodiq kurashchi sifatida juda hurmatlayman». (Yu. Semyonov.) 4. Mana bu o‘g‘il bola gap bo‘ldi. (N. Biryukov.) 5. Oynisa u-buga mashg‘ul bo‘lib ko‘rdi. (H. G‘.) 6. «Meni har nima desangiz ham kamlik qiladi», — dedi chuqur nafas olib Abdusamat. (M. Salom.) 7. Lekin qarindoshimiz uni-buni bahona qilib paysalga solaverganidan, ...Shernazar bobonikiga olib bordilar. (N. S.) 8. Galya o‘sdi, shod, quvnoq, Qayg‘u unga begona. (Mirm.) 9. Shu-shu bo‘ldi-yu, Tursunboy Zebixonga ro‘para kelolmaydigan bo‘lib qoldi. (S. Ahm.) 10. Allaqanday zang bosgan mashinalarni

epaqaga keltirish, remont ustaxonasi tashkil qilish, yonilg‘i taqsimlash uchun maxsus kolonkalar o‘rnatish kabi ishlar ham uning bo‘ynida. (J. Abd.) 11. Uning har bir harakati, har bir so‘zi va har bir qilig‘i juda ham yoqardi menga. (M. Salom.)

Sodda olmoshlar

Qo‘shma olmoshlar

Murakkab olmoshlar

Juft olmoshlar

211-mashq. O‘qing. Qismlari vertikal chiziq bilan ajratilgan olmoshlarni imlo qoidasi asosida (qo‘shib, ajratib yoki chiziqcha bilan) yozib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ha, aytmoqchi, hali qoziqda osig‘liq turgan teriga ko‘zing tushdimi — ana/o‘sha biz ov qilgan bo‘rsiq terisi bo‘ladi. (H. I.) 2. Shu/shu yuragidagini yashirmay qo‘ydi. (J. Abd.) 3. Mana/shu davra Abdusamat Halimovning barcha qilmishlarini yuvib tashlayotganday edi nazarimda. (M. Salom.) 4. Gapingga qo‘shilmayman, o‘rtoqjon, yo‘q, meni yengma, o‘sha/o‘shasan haliyam, faqat bir oz to‘lishibsan. (J. Abd.) 5. U Mo‘tabar bilan birga odim otar ekan, har/bir chinor, har/bir gulzor yonidan o‘tganda, ...qalbi g‘ulg‘ula bilan yonardi. (M. Salom.) 6. Ho‘l bo‘lgan bir/necha tola sochi manglayiga tushib qolibdi, tim qora ko‘zlarida esa g‘alati bejolik. (M. Salom.)7. Mashinalarning g‘irillagani, alla/kimlarning xaholab kulishi, o‘zaro gaplari Mohidilni o‘rnidan turg‘izib yubordi.(J. Abd.) 8. Chaqaloqqa u/bu ol. (S. Ahm.) 9. Alla/nimalar haqida kulib gaplashardilar. (M. Salom.) 10. U hyech/kimga so‘z qotmaydi, birov bir/nimani so‘rasa, yerga qarab qisqa javob beradi, uy ishiga qarashadi, ...bo‘sh vaqtida mana/shu arqon karavotda devorga qarab, chordona qurib o‘tiradi-yu, tovush chiqarmay... kuy maqomiga tebranaveradi. (A. Q.) 11. Nahotki, hyech/nima deyolmasam, ...gapni nimadan boshlasam ekan-a? (M. Salom.) 12. Kim biladi, hali bunday odamlarning necha/nechasiga duch kelarman.. (M. Salom.) 13. Hovli jimjit. Ayvonda xira osma chiroq alla/nechuk kir yog‘du to‘kib turardi. (A. Q.)

212-mashq. O‘qing. Ot, sifat, son va olmoshlarni topib, to‘liq morfologik tahlil qiling. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning morfemalarini izohlang.

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga yaqinda yarim asr bo‘ladi. Bu urush yer yuzidagi deyarli barcha xalqlar tarixida mudhish, fojiali hodisa bo‘ldi.

Uyimiz roʻparasidagi harbiy kazarmani men ana shu urushning tugashiga munosib hissa qoʻshgan katta bir karvonsaroyga oʻxshataman. Shu yerdan xalq belini tugib, dushman qarshisiga otlandi, oʻlim bilan yuzma-yuz keldi. Vatan, doʻstlik, birodarlik qasamiga oʻzini safarbar qildi. Dahshatli urush oʻzbek xalqining bir soʻzli xalq ekanini, mard, doʻstlariga sodiq ekanini, sabr-toqatli, zahmatkash xalq ekanini koʻrsatdi. Shu bilan birga bu urush qancha odamlarning yostigʻini quritdi.

Qizim, Umida, men senga atab, murakkab, katta urushning bir kichkina boʻlagini qisqacha qogʻozga tushirdim. Lekin shu qisqacha hikoyadan ham oʻz xalqingning qanday ekanini koʻrib turibsan. U bilan faxrlan. Men — dadang kabi shu xalqni sev, unga sodiq boʻl, uning xizmatini qil. Bilaman, ishonaman, sen oʻz xalqingning obroʻsiga obroʻ qoʻshadigan, uning duosini oladigan ishlar qilasan. Qodirsan shunga, niyatingga yet, omad, baxt hamisha senga yor boʻlsin! (Oʻ.Umarbekov) Fe'L

213-mashq. Oʻqing, fe'llarni topib, qanday soʻroqqa javob boʻlishi va ma'nosini izohlang; gapdagi vazifasini ayting. Kesim vazifasidagi fe'lni ega bilan birga koʻchiring.

Komila oʻrtogʻining xonasiga kirib, har narsaga zoʻr qiziqish bilan qaradi. Toʻshak ustida keng, qorday choyshab tashlangan, sodda temir karavot oldidagi yangi dubdan yasalgan etajerkada taxt-taxt kitoblar, koʻchaga qaragan qoʻsh derazadan biriniig oldida qora-qizil yogʻochdan yasalgan silliq va ixcham stol. Buning ustida oddiy va qalin daftarlar ham oʻzga yozuv ashyolari muntazam tartib bilan terilgan. Odamzod a'zolarining tuzilishini koʻrsatuvchi karta derazalar oʻrtasidagi devorga knopkalar bilan yopishtirilgan. Bunga qarshi yaxlit devorga tiralgan pianino qop-qora yaltiraydi. Eshik bilan pianino oʻrtasida oddiy, sargʻish faner garderob. Stol top-toza yiltiraydi. Komila qoʻl tegizmay hamma narsaga bir-bir tikilib, stulga oʻtirdi-da, boshini asta aylantirib, iljayib yana tomosha qildi. Uy dim edi. Komila har ikki derazani ochdi. Oqshom shabadasi darrov qizning yuzlariga gʻir etib urdi. Yoʻlka boʻylab, adl, yosh akatsiyalar orasidan oqqan ariqningʻ shoʻxligi eshitildi. Qarshidagi hovlidan, quyuq, daraxtlar orasidan bayan tovushi va “Paren molodoy” qoʻshigʻi yangradi. Komila stolga suyanib, oʻtkinchlarni koʻzdan kechirdi... (O.)

214-mashq. Oʻqing, fe'llarni topib, aniq nisbat shaklidagi fe'llarni koʻchiring.

Feruza hovliga tushib, shabnamda qiygʻos ochilgan atirgullar ustiga egildi, toʻyib-toʻyib hidladi. Ariqning tiniq salqin suvida qoʻl-betini chayib, oshrayhonning serbarg shoxini sindirdi, chakkasiga qistirdi. Soatiga qaradi: besh yarim. Quyosh hali koʻtarilmagan, osmon oʻchgan gulxanday kul rang, u yer-bu yerda qoʻr yulduzlar miltillab koʻrinardi.

Feruza bor-yoʻgʻi uch soat uxlabdi. Taajjubki, uyquga toʻyibdi... Bogʻ etagidan, ishkom ichidan, Hanifa bir patnis shivilgʻoni bilan husayni koʻtarib chiqdi. ...Feruza Hanifaning qoʻlidan patnisni oldi.

Otam qayoqdalar?

Otang bogʻda ishlayaptilar. Chaqirdim, hozir chiqadilar. Ayvonga chiqishdi... Hanifa choy damladi. Choʻlbobo bogʻdan bir etak olma olib chiqdi. (H. Gʻ.)

215-mashq. O‘qing, o‘zlik nisbati shaklida qo‘llangan fe'llarni topib, yasalishi va aniq nisbatdagi fe'l shaklidan farqini tushuntiring. Aniq va o‘zlik nisbati shaklidagi fe'llarni ikki ustunga ajratib yozing.

1. Mashhadda Alisher butun vujudi bilan o‘qishga berildi. Uni, ayniqsa, astronomik jadvallar qiziqtirardi. Qarshisida osmon yuzini ochdi, u osmonning sir-asrorini o‘qishga o‘rgandi va bu fanni umrbod sevib qoldi. (L. Bat.) 2. Bugun ham u otlandi, Cho‘milmoq uchun ko‘lga. (Mirm.) 3. Marusya opasining bu qo‘shiqni zavq bilan aytayotganini ko‘rib ajablandi va quvondi. (I. R.) 4. Bo‘ston-chi? Hamon chaqqon, Xizmatda bo‘shashmaydi. (Mirm.) 5. Bobo uni kattalar oldida odobli, kamgap bo‘lishga o‘rgatgan edi, biroq Alisher o‘z akalaridan biriga o‘xshaganidan, qizcha tortinmasdan unga yaqinlashdi-da, dadil gapira ketdi. (L. Bat.) 6. Qasbin sevar, Ishlab charchamas, Goho jindek maqtanadi ham. (Mirm.) 7. Bir tup g‘o‘za tagida cho‘qqayib, shoxlardagi ochilgan, ochilmagan bo‘liq ko‘saklarni bittalab sanadi: yetmishta. (H. G‘.)

216- mashq. O‘qing, majhullik nisbati shaklida qo‘llangan fe'llarni topib ko‘chiring, yasalishini va o‘zlik nisbatidan farqini ayting.

1. O‘sarjon erta bilan dalaga chiqdi. Har joyda ko‘z ilg‘amas ulkan dalalarda lo‘ppi-lo‘ppi ochilgan yoki endigina chanog‘ini yorgan oppoq paxta ertalabki quyoshning oltin nuridan qorday chaqnar, salqin shabadadan yengil mavjlanar, ko‘z qamashtiruvchi million shabnam durlari bilan chiroyli tovlanar edi. Yosh yigitning ko‘zlari uchqunlanib ketdi. (O.) 2. Feruza katta yo‘lning toshlariga qoqilib, idora binosiga yetib keldi. (H. G‘.) 3. Mehmonxona yaxshi isitilgan, katta stolga dasturxon yozilgan, atrofiga stullar terilgan edi. (H. G‘.) 4. Qaddi-qomati kelishgan bir qiz Alisherning yonidan ildamlik bilan o‘tib, tor ko‘chaga burildi. (L. Bat.) 5. Ertasi kun Moskvaning Qozon vokzalida Mirzacho‘lga ketayotganlarning maxsus vagoni sostavga ulandi. (H. G‘.) 6. Tutzor orqasida etagi uzoq adirlarga taqalgan dala manzarasi birdan ochildi. (O.) 7. Shu kunlarda butun O‘zbekiston qudratli terim harakati bilan to‘lqinlanadi. (O.) 8. Ana endi faraz qilaylik: yil yakunlandi, hisobot-saylov o‘tkazildi, a'zolar brigadalarga baravar taqsimlandi, texnika gektarga qarab bo‘lib beraldi. (H. G‘.)

217-mashq. O‘qing, birgalik nisbati shaklidagi fe'llarni aniqlang, ularning yasalishi va ma'nosini izohlang; ko‘chirib, birgalik nisbati yasovchi affiks tagiga chizing.

Bu o‘rinda bugungi odamlarga juda yaxshi o‘rnak bo‘ladigan yana bir toifa, chin vatanparvarlar avlodi yodimga tushdi. Ular tarixga jadidlar degan nom bilan kirgan odamlar edi. Bugun biz ular haqida ko‘p gapiramiz, ularning sha'niga madhiyalar yog‘diramiz-u, lekin aslida o‘z faoliyatlarini nechog‘li azoblarda, ta'qiblar ostida, haqoratlarga ko‘milgan holda o‘tkazganlarini xayolimizga ham keltirmaymiz.

Axir, jadidlarni, birinchi navbatda, chor hukumati doimiy ta'qib ostida tutgan, ularning har bir qadamini nazardan soqit qilmagan, ular nashr etgan gazetalarni yopib qo‘ygan, chiqargan kitoblarini taqiqlagan, maktablarini berkitgan. Jadidlarni mahalliy ulamolar ham, din peshvolari ham yoqtirishmagan, ularni «kaltadum» deb, islomning dushmani deb atashgan, kofirlikda ayblashgan. Jadidlarni mahalliy boylar ham qo‘llab-quvvatlamagan, ularni moddiy boyliklarni behuda va befoyda

sovuradigan, quruq gap sotishdan boshqaga yaramaydigan ortiqcha odamlar deb hisoblashgan. Lekin eng yomoni shundaki, ba'zi amaldor ziyolilar ham jadidlarni tan olgan emas, ularni xalq yo‘lida, uning ko‘zini ochish, ma'rifatli qilish yo‘lida, uning hayotini yangilash, dunyoning oldingi xalqlari darajasiga ko‘tarish yo‘lida jonbozlik qilayotganliklarini tushungan emas, aksincha, asrlar davomida ko‘nikilgan turmush tarzini buzib, hammani besaranjom qilayotgan, allaqanday yangiliklarni joriy qilaman deb odamlarni tashvishga qo‘yayotgan, huzur-halovatini buzayotgan kuchlar deb bilishgan. (O. Sharafiddinov)

218-mashq. O‘qing, orttirma nisbat shaklida qo‘llangan fe'llarni topib, ularning yasalishi va ma'nosini izohlang. Gaplarini ko‘chirib, orttirma nisbat yasovchi affiks tagiga chizing.

I. 1. Odamning odami yurt ishida, xalq ishida o‘zini ko‘rsatadi. (O.) 2. Boshqa hamrohlari kabi tunni sovuq ayvonda poxol ustida bir amallab o‘tkazdi. (H. G‘.) 3. Endigina qizil yugura boshlagan uzumlar o‘tgan-ketganlarning tashnaligini qondirardi. (N. Biryukov.) 4. Rustam safdan ajralib qolganiga yuragi bir oz hovliqdi, nafasini rostlab olgach, yurishini tezlatdi. (V. G‘afurov.)

II. Samarqandda muttasil qirq yil hukmronlik qilgan Ulug‘bek zamonida talaygina yangi binolar qad ko‘tardi. Ammo bobosi asosan machit, maqbaralar qurdirgan bo‘lsa, Ulug‘bek fan saroylari qurdirish bilan shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Hamma narsadan ko‘proq uni matematika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida u beqiyos yuksaklikka ko‘tarildi, osmon sayyoralari harakatini sharhladi va astronomik jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. O‘zi kabi fanga sodiq do‘stlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblar yaratdi. Qishilarda ilmu ma'rifatga muhabbat uyg‘otishga intildi. Qo‘l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar soldirdi. (L. Bat.)

219-mashq. O‘qing, fe'llarni topib, nisbatlarini belgilang va ularni quyidagi jadvalga yozing, nisbat yasovchi affikslar tagiga chizing.

Nisbatlar

Misollar

Aniqlik

O‘zlik

Majhullik

Birgalik

Orttirma

1. Qalandarov brigada qachon kelishini Nazarovdan aniq bilib, bir hafta davomida oʻzi yugurib, odamlarni yugurtirib iloji bor tayyorgarlikni koʻrdi va bu ishni pravlenie muhokama qilgan masaladan... boshladi: Kozimbekni kuni-tuni yugurtirib tugʻruqxonaning kam-ketigini toʻgʻrilatdi. Kifoyatxon hammomga kassir va hammom qoshidagi sartaroshxonaga usta yordamchisi etib tayinlandi, Huriniso oʻz vazifasining ijrosiga kirishdi: bir necha kun davomida devorlarni oqlatdi. Shiftlarni, mebellarni arttirdi, hovlini tozalatdi, bebosh boʻlib ketgan bolalarni odobga oʻrgatdi... Klubni bezatish, hali rasmiy suratda tashkil topmagan milliy muzika, ...agrotexnika, foto toʻgaraklarini uskunalash uchun unga pul berildi...

Brigada kolxozning xoʻjalik va madaniy yumushini uch kun tekshirdi. Uchinchi kuni kechqurun umumiy majlis chaqirildi.

Brigada «Boʻston»ning ekin-tikinidan unchalik nuqson topmadi, aksincha, koʻp brigadalardagi paxta parvarishiga yuksak baho berildi. Gap shu haqda borayotganda, shopday moʻylovini tez-tez burab, kerilib oʻtirgan Qalandarov fermalardagi kamchiliklar aytilganda boshini quyi solib, qoʻliga tushib qolgan qalam bilan qogʻoz chiza ketdi; madaniyat, madaniy qurilish sohasidagi kamchiliklar toʻgʻrisida qiziq-qiziq faktlar ochilib, xaloyiq gur-gur kulganda esa qizarib, terlab, oʻtirgan yerida yarim gaz choʻkkanday boʻldi. (A. Qahhor.)

II. Mehmonlar esa yana uzoq oʻtirishdi, musiqa va gʻazallar tinglashdi. Navoiy bu kech forsiyda yozgan gʻazallarini oʻqidi, uni yana oʻqib bering deb qayta-qayta qistashdi. Alisherning kayfi chogʻ edi, u murakkab muammolar aytdi, topganlar ham xuddi shunday muammolar bilan javob qildilar. (L. Bat.)

220-mashq. Quyidagi fe'llarni oʻqing, bir oʻzakdan hosil boʻlgan turlicha fe'l shakllari orasidagi farqni tushuntiring.

Yasadi, yasandi, yasaldi, yasashdi, yasatdi; yutdi, yutishdi, yutqizishdi, yuttirdi, yutindi, yutildi; koʻrildi, koʻrishdi, koʻrsatdi, koʻrindi, koʻrgazdi, koʻrdi; kiydi, kiygizdi, kiyindi, kiyildi, kiyishdi; oʻtishdi, oʻtindi, oʻtkazdi, oʻtildi, oʻtdi; qirdi, qirindi, qirdirdi, qirishdi, qirildi; urdi, urildi, urindi, urishdi; yechishdi, yechildi, yechdirdi, yechindi, yechdi; soʻradi, soʻratdi, soʻrashdi, soʻraldi.

221-mashq. Quyidagi fe'llardan turli fe'l nisbatlarini yasang.

I. Atamoq, bastalamoq, bilmoq, bitmoq, boshlamoq, bogʻlamoq, boʻysunmoq, gapirmoq, gullamoq, dimlamoq, yemoq, yelpimoq, yozmoq, yoymoq, juftlamoq, joʻvalamoq, zerikmoq, yigʻmoq, kertmoq, kuylamoq, laqillamoq, mustahkamlamoq, nikellamoq, ovlamoq.

II. Os, oqdi, savadi, sana, sepgan, so‘zla, tabrikladi, tara,to‘xta, tiladi, toldi, to‘pla, ulgurdi, uchra, aldagan, farqladi, xotirla, chayqa, chertdi, boyi, bo‘sha, shoshgan, eg, eladi, yugur, yur, yutdi, o‘qla, qavidi, qayg‘urdi, borsa, qopla, g‘ovladi,hisobladi.

222-mashq. O‘qing, ikki va undan ortiq nisbat yasovchi affiks olgan fe'llarni topib, qaysi nisbatga kirishini ayting.

1. Yoz o‘tgan, kuz boshi bo‘lsa-da, havo tip-tiniq, zangori, quyosh yaxshi qizdirar, yuzlardan tomchi-tomchi terlarni yumalantirar edi. (O.) 2. Cho‘lboboning bog‘idan keltirilgan savat-savat mevalar to‘y dasturxoniga qo‘yilganda, mehmonlarning ko‘zi yondi. (H. G‘.) 3. Qatta mis samovarga qayta-qayta suv to‘ldirib, o‘ti yangilanadi. (H. G‘.) 4. Uzoqdan teplovoz qalbining gupillab urishi eshitilar, uning manglayiga qo‘ndirilgan projektorning yorqin shu'lasi ko‘zni qamashtirardi. (H. G‘.) 5. Saroy bahor quyoshining nurlarida mavjlanadi. Darvoza bayroqlar bilan bezatilgan. (L. Bat.) 6. Rayhon odmi satin ko‘ylagini kiydi, Mahfuzani kiyintirdi. (H. G‘.)

223-mashq. O‘qing, o‘timli va o‘timsiz fe'llarni topib, ma'nolaridagi farqni tushuntiring. Avval o‘timli, keyin o‘timsiz fe'llar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring.

Shu o‘rinda olis zamonlarda o‘tgan ajdodimiz Shiroqning Vatan yo‘lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushadi. Biz bu odamning oddiy cho‘pon bo‘lganini bilamiz, xolos. Uning o‘zi qanaqa odam bo‘lgan, yoshmi, keksami, bola-chaqalari bo‘lganmi-yo‘qmi ekanidan butunlay bexabarmiz. Lekin shuni aniq aytish mumkinki, u biror maktabda o‘qib, xat-savod chiqarmagan bo‘lsa kerak. Yana shunisi aniqki, u televizor ko‘rmagan, radio eshitmagan, gazeta o‘qimagan. Binobarin, Vatanni sevish, unga jon fido qilish kerakligi haqidagi xitoblar-u siyqasi chiqqan balandparvoz chaqiriqlarni eshitmagan. Lekin yurtiga bostirib kelgan yovni sahroga olib borib adashtirib kelishga qaror qilganida, sahrodan o‘zining ham sog‘ qaytib kelmasligini yaxshi bilgan. Demak, ona-Vatanini yovdan saqlab qolish uchun ongli ravishda jonini qurbon qilishga otlangan. (O. Sharafiddinov)

224-mashq. O‘qing. O‘timli va o‘timsiz fe'llarni aniqlab, o‘timli-o‘timsizlik qanday usul bilan ifodalanganini tushuntiring.

Hayajondan Yo‘lchining yuragi, sandonga tushgan og‘ir bolg‘aday, ko‘krakni "gurs-gurs" urmoqda edi. ...Alamli va yarali ko‘ngillardan ro‘yi-rost otilib, havoni yangratgan haqiqat ovozi uning butun vujudini titratdi, mazlumlarning, haqoratlanganlarning, tepkilanganlarning ulug‘, azamat kuni tug‘ilganiga shubha qolmadi. Qanday kun? Zolimlarning, zamon zo‘ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo‘r oq podshohning qora dovrug‘ini, uning mazlum xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchinini sindirish kuni! Yo‘lchi ko‘pdan kutgan va sevgisi qadar chuqur, ma'noli bir kun! U ko‘p yillardan buyon bu kunga intizor emasmidi? Ko‘p yillardan buyon bu kunning dardi va sevgisi bilan yashamasmidi? Ayniqsa, keyingi vaqtlarda bu ulug‘ kunning ruhini o‘z yuragi bilan chuqur sezib, har yerda: mahallada, choyxonada, bozorda o‘zi kabi ezilganlar, alamdiydalarning ko‘kragini bu ruhning otashi bilan yondirishga intilmaganmidi? (O.)

225-mashq. O‘qing, o‘timli va o‘timsiz fe'llarni aniqlang. Ko‘chirib, o‘timli fe'lni o‘timsizga aylantirgan affiks tagiga to‘g‘ri chiziq, o‘timsiz fe'lni o‘timliga aylantirgan affiks tagiga esa to‘lqinli chiziq chizing.

I. Tala, talandi, kul, boshla, qotirma, o‘tlat, yugur, qutqaz,tushovla, gapir, keltir, egil, qoldir, bo‘shat, bitir, ko‘rin, o‘tkaz, ko‘taril, to‘lat, ko‘rsat, yubortir, ilintir, uxlat, chiq, suyan, so‘ra, maqtandi, eshit, eshitildi, to‘g‘rila, to‘g‘rilandi, qizar, qizartir.

II. 1. Kech kirib qyelardi: Kun bo‘yi yiqqan haroratini endi ufurayotganday, hamon yerdan issiq ko‘tarilmoqda. (L.Bat.) 2. Axir... ko‘chatzordagi har bir tup daraxtni ko‘kartirish uchun qanchadan-qancha mehnat sarf bo‘lgan. (S. An.) 3. Bunday uchrashuvda bo‘ladigan hamma gap bo‘lib o‘tdi: quchoqlashdik, kulishdik; har kim o‘z institutidan gapirdi; maktabni, o‘rtoqlarni esladik, qizlardan gapirdik. (As. M.) 4. Quyuq barglar orasida hyech narsa ko‘rinmaydi. (S. An.)

226-mashq. O‘qing. Fe'llarga ketma-ket qo‘shilgan o‘timlilashtiruvchi va o‘timsizlashtiruvchi affikslarni toping. Bu fe'llarning o‘timli yoki o‘timsiz ekanligini ayting.

1. Eshikni ochgan xizmatkor ogohlantirilgan bo‘lsa kerak, «marhamat mse» deganicha boshlab ketdi. (Sh.) 2. Sulton Navoiyni o‘z huzuriga chaqirtirdi. (L. Bat.) 3. Ularni uyg‘onmasidan qo‘lga olib, qurolsizlantirish zarur. (L. Bat.) 4. Xitoydan keltirilgan pakana-pakana daraxtlarning egri-bugri shoxlariga rang-barang hind qushchalari qo‘nib o‘tiribdi. Hovlining zangori va havo rang koshin yotqizilgan yo‘lkalarida chiroyli tovuslar yurishadi. (L. Bat.) 5. Mehmonlar Eron gilamlari to‘shalgan qirq ustunli qasrda to‘planishmoqda edi. (L. Bat.) 6. Xalqni yo‘ldan ozdirishda shubhalanilgan kishilar qo‘llari orqalariga mahkam bog‘langan holda keltirilardi. (L. Bat.) 7. Uning: «Serhosil dalalar va bog‘-rog‘larga aylantirilmagan bir qarich ham sho‘rxok yer qolmasligi kerak», — deb aytganidan beri oradan bir necha yil o‘tgandi. (L. Bat.) 8. Cho‘l-biyobondagi jamiki bo‘sh yotgan yerlarga jon kirgizildi. (L. Bat.)

227-mashq. O‘qing. Fe'llarni topib, ularning nisbatini, o‘timli-o‘timsizligini ayting.

1. Biz juda ko‘p ish qildik. Yaqinginada esa juda ajoyib tajriba o‘tkazdik, ya'ni otash ta'sirida ba'zi toshlarning tusini o‘zgartirmoqchi bo‘ldik. Bir parcha yoqutni ko‘rada obdan qizdirdik. Keyin soviganiga qadar qo‘l tegizmadik. Qizdirilgan yoqutning hajmi otash ta'siridan bir oz kichraygan bo‘lsa-da, rangi tiniqlashdi. (K. Moiseeva.)

2. Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan ag‘darilib yo‘lda ko‘ndalang yotgan baqaterakka o‘tirib dam olishdi. O‘ngda bir xil kiyingan, bo‘y-basti ham bir xildagi behisob ko‘k archalar uzun-uzun saf tortib, qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko‘rinardi. yengil shabnam hali yerda, o‘t-o‘lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon tagida butun vodiy ko‘z oldingizda kaftdek yastangan, qaerdadir chashma ko‘zi miltillaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi. (As. M.)

228-mashq. O‘qing, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe'llarni aniqlab, ma'nosidagi farqni tushuntiring. Ularni ikki ustun shaklida yozib, bo‘lishsizlik ma'nolarini ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Miyasi g‘ovlab ketgan Mirzo Ulug‘bek boshini ko‘tarib yon-veriga qaraydi. Oftob ko‘rinmas, osmonni qora bulut qoplab olgan edi. Dalalar va adirlarda, o‘rib olingan bo‘g‘doyzorlarda, hatto olis-yaqindagi bog‘larda biron-bir odam qorasi ko‘zga chalinmas hatto qirlarda mollar ham ko‘rinmas edi. Go‘e Mirzo Ulug‘bek lashkari emas, talanchi qo‘shin bostirib kelayotganday, tirik jon borki, bari qochib in-iniga kirib ketgan. Ha, fuqaro bobosi Amir Temur davridayoq jang-jadaldan bezgan, yuragi zirqirab qolgan.

Mirzo Ulug‘bek og‘ir xo‘rsinib oldinga, ko‘kimtir tuman orasida elas-elas ko‘zga chalingan tog‘larga tikildi. Ilgarilab ketgan qo‘shin ko‘rinmas, faqat oldindagi yassi qir va adirlarda ot o‘ynatib yurgan suvorilar guruhi ko‘zga chalinar edi, xolos. (O. Yoqubov.)

II. 1. Navoiy Binoiyning iste'dodini mehr bilan parvarish qildi, har bir ishda do‘stona ko‘magini ayamadi. (L. Bat.) 2. Shunday hayot tug‘ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (As. M.) 3. Shunday paytlarda u na chala olardi, va na ashula ayta olardi. (J. Ikromiy.)

229-mashq. O‘qing, bo‘lishsiz fe'llarni topib, bo‘lishsizlik ma'nosi qanday ifodalanganini ayting, ularni bo‘lishli shaklga aylantiring.

1. Hyechqisi yo‘q, azizim, men dunyoda juda katta boylikka — sof vijdonga va xushomadgo‘ylik qilmay ilmu fan bilan shug‘ullanish imkoniga egamen. Buni mendan hyech kim tortib ololmaydi. Bilimlarimni boshqalar bilan o‘rtoqlashmoqni ham hyech kimsa taqiqlay olmaydi. (L. Bat.) 2. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. (Sh.) 3. Chin do‘stlikning alangasi so‘nmasin der ekanmiz, Birinchi shart — bo‘lmog‘imiz lozim do‘st-la birga biz, Ikkinchi shart — do‘st yo‘lida ayamaslik simu zar, Uchinchi shart — do‘st-la bo‘lmoq og‘ir kunda barobar. (Sh. Rustaveli.) 4. Ilm-hikmat bilan ko‘tariladigan shosupaga qurol bilan chiqib bo‘lmaydi. (K. Hamro.) 5. Munisxon va'da bergan vaqtida kelmay qolmaydi. (A. Q.) 6. Na cho‘zilar, na yonboshlar — bo‘sh turardi to‘shak-joy. (Sh. Rustaveli.)

230-mashq. O‘qing, sof fe'llarni aniqlang; ularning boshqa vazifadosh shakllardan farqini tushuntiring, gapdagi vazifasini ayting.

Mextiev, master va Rajab aka uchovi shosha-pisha maslahat qilishdi.

Rajab aka idoraga xabar berish uchun budkadagi ratsiyaga yugurdi. Mextiev haligi yuk mashinasiga minib, yaqin orada bor texnikani boshlab kelgani ketdi. Pyotr Petrovich qolganlarimizni to‘pladi-da, buyruq berdi, ovozi shovqinda zo‘rg‘a eshitildi: «Nasoslar, dizellar, hamma qimmatli mexanizmlar demontaj qilinsin! Zarur bo‘lsa qutqaramiz!» (P. Qodirov.)

231-mashq. O‘qing, ravishdoshlarni aniqlab, ularning yasalishi va grammatik xususiyatini, sof fe'ldan farqini tushuntiring.

1. Haydar chiqib ketgach, Navoiy koʻngliga choʻkkan ayriliq dardini yozish maqsadida oʻz xonasiga oʻtdi-da, darhol kitob ustida ishlashga oʻtirdi. (L. Bat.) 2. Navoiy ish bilan band boʻlib, vaqtning qanday oʻtib ketganini payqamay qoldi. (L. Bat.) 3. Endi Alisher ham davlat xizmatiga qabul qilingan edi, shuning uchun ovga qatnashishga ijozat olgali shaxsan oʻzi Abulqosim huzuriga keldi. (L. Bat.) 4. U har tong odimlovchi ekskavatorining kabinasiga narvonda koʻtarilar, qosh qorayguncha kanal kovlardi. (H. Gʻ.) 5. U ortiqcha ta'nalar eshitmay, osonlikcha qutulganiga sevinib, Alisherga bosh-oyoq sarpo kiygizdi. (L. Bat.) 6. Ayniqsa maktab-madrasa, shifoxona, karvonsaroylar qurilishi koʻp boʻlib, Navoiy shaharda bunday muassasalarni koʻplab barpo etishga jazm qilgandi. (L. Bat.) 7. Ummatali yukiga yopishgan edi, A'zam qoʻyarda-qoʻymay qoʻlidan olib, undan oldin tramvayga chiqdi. (III.)

232-mashq. Oʻqing, ravishdoshlarni topib, gapdagi vazifasini ayting, tuslanadigan va tuslanmaydigan ravishdoshlarni aniqlab, ularni ikki ustun shaklida yozing.

1. Amin boʻling, doʻstlar, saqlaymiz yodda: “Doʻstlik choʻqqisi”ning har bir onini. Chiqarmaymiz esdan hyech qachon, hyech vaqt Ukrainaliklarning tuzu nonini. (U.) Paxta ishida quruq praktika bilan ish koʻrsang, oxir turtinasan, qoqilasan. Negaki gʻoʻzaga yakka koʻz bilan qaraysan. Ikki oʻtkir koʻz kerak — praktika ham nazariy bilim... (O.) 3. Asfalt tugab, traktor gʻildiraklari oʻyib yuborgan yoʻl boshlangach, mashina bir-ikki silkinib, toʻxtadi. (T.Malik) 4. Etigini oyoqqa nari-beri ilib, yuvingali ariqqa yugurdi. (O.) 5. Erib, sehrlanib quloq solganman Ivan Frankoning yoniq soʻziga. (U.) 6. Oʻktam yashil girdobday tovlangan, mavjlangan skverga chiqib qolgach, quyuq koʻlankadagi skameykalardan biriga ixtiyorsiz ravishda oʻtirdi. (O.) 7. Shundan beri daryo boʻyida Tinmay ishlar emish xaloyiq. (H. O.) 8. Xurosonga borish unga tugʻilib oʻsgan yerlarini quvona-quvona tomosha qilishdek tuyular, oʻzicha qadrdon doʻstlari bilan uchrashishni oʻylardi. (L.Bat.)

233-mashq. Oʻqing, ravishdoshlarni toping. Boʻlishli shakldagi ravishdoshni boʻlishsiz va boʻlishsiz shakldagi ravishdoshlarni boʻlishliga aylantiring; ularni zamon ifodalash xususiyatiga koʻra quyidagi jadvalga yozing.

O‘tgan zamon ravishdoshlari

Hozirgi zamon ravishdoshlari

Kelasi zamon ravishdoshlari

1. Balxdan qaytgach, Navoiy yangi qazilgan ariqlarni koʻzdan kechirishni bahona qilib, Mashhadga borishga ijozat soʻradi. (L. Bat.) 2. Soʻngra qiziq bir hikoyani kula-kula ayta boshladi. (H.O.) 3. Yolgʻiz

bir men ona allasin Tinglagali bo‘ldim intizor. (H.O.) 4. Sen bormasang, bahor bo‘lmaydi, Ochilmaydi bog‘larda gullar, Qarag‘aylar barg chiqarmaydi, O‘rmonlarga kelmas bulbullar. (H.O.) 5. Munisxon o‘rnidan turib, eshikka tomon yo‘nalmaguncha, Saidiy joyidan qimirlamaydi. (A.Q.)6. Sulton Husayniing fe'l-atvorini yaxshi bilgan sobiq vazir zindondan chiqqach, Xurosonni tark etishga qaror berdi-da, darvish libosini kiyib, o‘tkinchi bir karvon bilan yashirincha Hirotdan chiqib jo‘nadi. (L. Bat.)

234-mashq. O‘qing, nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan ravishdosh yasovchilaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Yupqagina oy titrab chiq (-gach, -kach, -qach), Yulduz par-par uchib to‘kil (-gach, -kach, -qach), Sham shu'lasi erib tush(-guncha, -kuncha, -quncha), Miyada yalt etib tushuncha Qoni bilan yozibdi shuni. (S. Akbariy.) 2. Nur sochib oy chiqadi paxtazorga boq (-gani, -kani, -qani). (Qo‘shiq.) 3. Qashqir qirga ot soldirib chiq (-guncha, -kuncha, -quncha), tog‘ cho‘qqilari ustida lov-lov yongan qirmizi shafaq so‘nib, vodiy mayin qorong‘ilikka cho‘mdi. (O.Yo.) 4. Oradan bir piyola choy ich(-guncha, -kuncha,-quncha) vaqt o‘tmay, bosh injenerning sekretari Nazmixon kirib univermagga sudradi. (E.Nosirov.) 5. Olis yurtlardan kelgan sayyohlar o‘z vatanlariga qayt(-gach, -kach, -qach), mehmondo‘st Hirotning ulug‘vor binolarini uzoq vaqtgacha eslab yurardilar. (L. Bat.)

235-mashq. Quyidagi fe'llardan ravishdosh shakllarini yasang, ularning zamoni va imlosini tushuntiring.

O‘qimoq, intilmoq, ishlamoq, chizmoq, oqizmoq, yurgizmoq, yoqmoq, iljaymoq, xo‘rsinmoq, ko‘karmoq, o‘qlamoq, ekmoq, otmoq, terlamoq, turtilmoq, shodlanmoq, eplamoq, surmoq, yugurmoq, maqtamoq, boqmoq, sog‘moq.

236-mashq. O‘qing. Fe'llarning sifatdosh shakllarini aniqlab, ularning qaysi so‘zga bog‘langani, fe'lga xos xususiyatlari, ravishdoshdan farqi, gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Men she'rga soldim aytar so‘zimni, Baxtiyor sezaman g‘oyat o‘zimni. (U.) 2. Bunday choqlarda u hamma vaqt tanga orom beruvchi shifobaxsh mehnatga — ijodga tutinardi. (L. Bat.) 3. Go‘zal Ukraina, jonajon o‘lka, Ta'rifing, tavsifing tushmagay tildan. (U.) 4. Alisher o‘z fikrlarini she'rda ifodalab, hyech kimning nomini atamasa-da, pardali qilib, sultonni qurshagan vazirlarning o‘z manfaatini ko‘zlovchi, pastkash kishilar ekanligini fosh etgandi. (L. Bat.) 5. Qilmoq kerak va'daga vafo, Vafosizlar tortgusi jafo. (H.O.) 6. Qisqa-qisqa nafas olayotgan ustozning ko‘kragi bilinar-bilinmas ko‘tarilib-tushib turardi. (L. Bat.) 7. Tuya bo‘yi keladigan qamishzorga kirishlari bilan, oldinda borayotgan suvori yuzidan qora charm niqobini yulib oldi. (O.Yoqubov.) 8. Agar shu suhbat Gebbels qo‘liga tushib qolib, radioda foydalanilsa, Kreml, London va Oq uyda sodir bo‘lajak hodisalar rivoji qanday bo‘lishini bilmasdim-ov. (Yu. Semyonov.) 9. U hatto Haydar bilan gaplashib turgan yeridagi ana shu chodir ham Navoiy in'om qilmish shohilardan tikilganini o‘ylamasdi. (L.Bat.)

237-mashq. O‘qing, sifatdoshlarni topib, zamoni, bo‘lishli-bo‘lishsizligini ayting.

Navoiy Hirotga erta bahorda qaytdi. Bog‘iga tong yorishganda yetib keldi. Bog‘ ichkarisidan nay sadosi eshitilardi. Kuy sho‘xchan emasdi, ammo juda mashaqqatli ishni muvaffaqiyatli tugatgan kishining oromi va o‘y-xayollari tarannum etilardi. Navoiy kuy eshitilayotgan tomonga ildam yurdi. «Bunchalik barvaqt turib, nay chalayotgan kim bo‘lsa ekan? — deb o‘ylardi u qiziqsinib. — Nahotki, musiqani xush ko‘rmaydigan Binoiy biror kimsaning bu yerda soz chalishiga yo‘l qo‘ysa».

U ovoz kelayotgan tomonga borarkan, kuy to‘satdan o‘zgardi. Bitta-bitta odimlab borayotgan ot birdan yo‘rtib ketganday tezladi. Terakzorda chalinayotgan muzika tobora yaqqol eshitilardi. Navoiy so‘qmoqdan o‘sha tarafga burildi-yu, ko‘z o‘ngida kutilmagan manzara namoyon bo‘ldi: bargikaram chopon kiygan Binoiy kattakon daraxtga suyanib, ko‘m-ko‘k maysa ustida o‘tirar va ko‘zlarini qisib, zavq bilan nay chalardi.

Navoiy ko‘pdan beri Binoiyning qiziq-qiziq ishlariga o‘rganib qolgandi, ammo bu manzara uni ham quvontirdi, ham hayratga soldi. (L. Bat.)

238- mashq. O‘qing, sifatdoshlarni topib, tuslangan-tuslanmagani, zamoni va yasalishini tushuntiring. Ularni zamonga ko‘ra uch ustun shaklida yozib, sifatdosh yasovchi affikslar tagiga chizing.

1. Kattakon oilamiz, Bir men — ishlovchi odam. (Mirm.) 2. Yurt nonini harom yeganlar, Bo‘yningizdan, qisajak qopqon! (Mirm.) 3. Demak, bugun yorug‘ dunyoning yorqin yuzini ko‘radigan, nohaqlikning zim-ziyo tunidan qutuladigan, saldan keyin erkin nafas oladigan, har uchrashgan kishisiga murojaat etib, teng gaplashadigai yolg‘iz ugina emas. (Sh.) 5. O‘sha moyananing ham juda oz qismini shaxsiy ehtiyojlariga ajratib, qolmishini tajribalar uchun sarflaydilar. (K.Moiseeva.) 6. Hoziroq kechiktirmay yana bir necha material olib kelishga ruxsat bergaysiz! (Yu. Semyonov.) 7. Samarqandni qurayotgan, bezayotgan, dongini chiqazayotgan — biz. (S. B.) 8. Yana u yiroqdagi baland tog‘lardan topiluvchi Badaxshon la'llari to‘g‘risida ham nimalarnidir yozib qo‘ydi. (K. Moiseeva.) 9. U bergan ovqat shirin, u yotqizgan to‘shak yumshoq, u aytgan ertaklar sehrli edi. (H. G‘.) 10. Bitgusi parishonlik, O‘tgusi pushaymonlik, Gard qo‘nsa-da bir onlik, Gangitmasa sarsonlik, yengusi chin insonlik. (H. G‘.)

239-mashq. O‘qing, otlashgan va otlashmagan sifatdoshlarni aniqlang. Egalik va kelishik affikslari bilan o‘zgargan sifatdoshlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Qandaydir bir xayol ichida o‘tiruvchi bu yigit Toshkentning mashhur a'yonlaridan Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek. (A. Qod.) 2. Qalqon ko‘targan jangchini uchratdim-u, lekin kitob ushlaganini ko‘rmadim. (S. B.) 3. yetib borgan kuniyoq Aytdi xat yozajagin. (Mirm.) 4. U bog‘ qo‘shnilari bo‘lmish cholni esladi. (Yu. Semyonov.) 5. Siz g‘oyatda ustalik bilan meni savol beruvchidan javob qaytaruvchiga aylantirib yuboryapsiz. (Yu. Semyonov.) 6. Axir, u bunaqa qo‘li ishdan oldin oshga yuguradiganlarni endi ko‘ryaptimi? Uning o‘zi bunaqa daydilarga, o‘zi suv ichib turgan qudug‘iga tuflab, birovnikini orzu qiladigan noshukurlarga ko‘p ham ishonavermaydi. (Sh.)

240-mashq. Quyidagi fe'llardan sifatdosh shakllarini yasang, hosil bo‘lgan sifatdoshlarning zamoni va imlosini tushuntiring.

Sug‘ormoq, ko‘rmoq, ko‘tarmoq, olmoq, qurmoq, to‘lmoq, yashamoq, qatnamoq, kulmoq, ko‘rqmoq, tugmoq, sig‘moq, chiqmoq, egmoq, yasamoq, o‘tlatmoq, o‘rganmoq, eslamoq, yig‘moq, suqmoq, aldamoq, hayiqmoq, kuchaymoq.

241-mashq. O‘qing, nuqtalar o‘rniga sifatdosh yasovchi -gan, -kan, -qan affikslaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan sifatdoshlarning yozilishini tushuntiring.

1. Bu non Qo‘zivoyning o‘zi ek..., o‘zi parvarish qil... bug‘doyning birinchi noni edi. (A. Eshonov.) 2. So‘zlab berdi u uzoq Sandiqda oq...ini. (H. O.) 3. Men dunyoni ko‘p ko‘r..., ko‘p mashaqqatlar chek... va ko‘p shodliklarga muyassar bo‘l... kishiman. (H. G‘.) 4. Ufqlarda sayr etgil mudom, Quyosh kelib suvga cho‘k...da... (H. O.) 5. Navoiy mehmoni bilan xo‘shlash...da, vaqt yarim kechadan og‘...di, biroq ko‘ziga uyqu kelmadi. (L. Bat.) 6. Kun choshgohdan og‘...da, Quyosh tikka boq...da Semurg‘ qush kelib qoldi. (H. O.) 7. Axir, hali novda edim-ku, Egilardim eg...da yumshoq Va qotma... gavda edim-ku, Hatto, shamol teg...da

yumshoq Chayqalardim... (S. Akbariy)

242-mashq. O‘qing, fe'lning harakat nomi shakllarini aniqlab, ularning yasalishi va grammatik xususiyatlarini izohlang.

1. Havas edi bizlarga Bog‘ o‘stirish, Gul ekish. (Q. H.) Soldat-chun faqat dahshat — Yov oldida bosh egmoq. (Mirm.) Bolalardagi bo‘shashuv sababini ko‘proq o‘zidan ko‘rdi.(H. N.) 4. Murodimdir seni ko‘rmak, hamisha yonma-yon yurmak. (H. G‘.) Tong yorishuvi bilan chiqib ketib yana nonushta chog‘ida keksa bir rus kishisi bilan kirib keldi. Men bu odamni birinchi ko‘rishdayoq tanidim. (N. S.)

243- mashq. O‘qing, harakat nomi shakllarini topib ko‘chiring, harakat nomi shaklini yasovchi affikslar tagiga to‘g‘ri, egalik va kelishik affikslari tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

1. Biz uni soydan tosh tashuvga qo‘ysak nima deysiz? (H. G‘.) Ishlashni bilgan odam yashashni ham bilmog‘i darkor. (H. G‘.) Umuman, Dildor uning ma'yus, boqishlariga, uchrashib qolgan paytlarida gap topolmay esankirashlariga beparvoroq qarardi. (S. Ahm.) 4. Vaqtni o‘g‘irlamoq — baxt o‘g‘irlamoq.(Mirm.) 5. Shaloplashlar, suzishlar... To‘xtab qolganday taqqa, sakrashlar, qiyqirishlar Kirmay qoldi quloqqa. (Mirm.)

244-mashq. O‘qing. Fe'lning vazifadosh shakllarini (sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) topib, ularni to‘liq tahlil qiling.

— Tabriklayman, xolajon! — dedi Gulsum Feruzaning xatini ko‘kragiga bosib. — Dugonam baxtini cho‘ldan topibdi! Lekin Rayhon bu xatga nechundir quvonmadi. U o‘yga botib, Gulsumni ham bir nafas unutdi. Uning ko‘z oldida bulturgi yoz, Feruza bilan Sheralining shu hovlida, hov anovi ariq

bo‘yidagi yakka tup olma tagida imtihonga tayyorlangan kezlari jonlandi. Ular Mirzacho‘lga bir vagonda birga ketishdi. Garchand ular cho‘lning boshqa-boshqa yeriga tushgan bo‘lsa ham, bir-birlariga xat yozishib turishgani Rayhonga ma'lum. Rayhon Sheralini yaxshi bilgani uchunmi yoki Feruzaning u bilan do‘stligi samimiyligiga guvoh bo‘lgani sababdanmi, har holda umrining bundan keyini ham bir-biriga yaqin bo‘lishini istardi. (H. G‘ulom.)

245-mashq. O‘qing, tuslangan, fe'llarni topib, tuslovchi qo‘shimchalarni aniqlang, ularni tuslovchi qo‘shimchalarning turlarini hisobga olgan holda, uch ustunga ajratib yozing; shaxs-sonini izohlang.

Men hyech kimni malomat qilmoqchi emasman, buning uchun mening haqqim ham yo‘q. Lekin, nazarimda, shunday tuyuladiki, biz keyingi vaqtlarda Vatanga muhabbatimizni ko‘proq «gap sotish» yo‘li bilan ifodalashga berilib ketganga o‘xshaymiz...

Bir misol keltiraman: keyingi paytlarda ancha-muncha odamlar televizor orqali, yoki matbuot sahifalarida sira xijolat tortmay, «men falon sohada Vatan uchun 30, 40 yoki 50 yil xizmat qilib qo‘yganman», deya maqtanadigan bo‘lib qolishdi. Biroq odam o‘zi to‘g‘risida shunaqa deganida qilgan xizmatlarini pisanda qilayotganga o‘xshab ketadi. Albatta, biror sohada 30 yilmi, 40 yilmi ishlagani juda yaxshi — buning uchun faqat rahmat aytish va boshqa yo‘llar bilan rag‘batlantirish kerak. Lekin nima uchun buni — butun umr bo‘yi tirikchiligini o‘tkazish uchun maosh olib qilgan ishini o‘zining vatanparvarligi deb taqdim etishi kerak? Yo‘q, birodarlar, har nima bo‘lganda ham, men Vatan sevgisini oliyroq, yuksakroq bir xislat deb bilaman. (O. Sharafiddinov)

246- mashq. O‘qing. To‘liqsiz fe'llarni topib, ularning grammatik xususiyati va tuslanishini izohlang.

1. Navoiyning Hirotdagi bog‘i ko‘p jihatdan samarqandlik do‘sti va ustozi Abullaysning bog‘ini eslatardi. Tiniq suvli hovuz ham, chamanday yashnagan gulzor ham, bog‘ning ichkarisiga qarab ketgan yolg‘iz oyoq yo‘llar ham — hammasi o‘sha bog‘ni yodga solardi. Qashshoqlik yillari o‘tib, endi badavlat hayot kechira boshlagan Alisher bir vaqtlar ko‘ngliga tugib qo‘ygan niyatlari, orzularini ro‘yobga chiqarmoqda edi. Alishernikida mehmon bo‘lgan har bir kishi uning bog‘iga kirar ekan, albatta, hayratlanib: «Bu yerdagi hamma narsa xuddi ustozning bog‘ini eslatadi!» — derdi. (L. Bat.) 2. Og‘aynimish tog‘ bilan daryo, Qiziq emish sirlari g‘oyat, Bu ikkisi haqida hamon Yurar ekan shunday rivoyat. (H. O.) 3. To‘shab baxmal, kimxob gilamlar Bezatarkan ko‘ksini ko‘klam, Qizni ko‘rmak uchun dunyoni Gul ostiga ko‘markan ul ham. (H. O.)

247-mashq. O‘qing. Fe'l zamonlarini aniqlang. Yaqin va uzoq o‘tgan zamon fe'li ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, zamon ma'nosinn ifodalovchi affiks tagiga to‘g‘ri, tuslovchi (shaxs-son) affiks tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

I. Har faslning o‘z quvonchi bor. Qish ham kattadan-kichik hammaga bir olam shodlik baxsh etadi. Ikki kundan buyon muzdekkina qish farishtasi shahar ustida kezib, elagini silkitar, quloq-burni qizargan odamlar “Yangi yilbop qor bo‘lyapti-da”, deb kulishar, havoda musaffo chilla isi kezar edi. Kinoteatrlar, madaniyat saroylarida ta'tilga chiqqan bolalarning kulgisi yangraydi. Katta maydonlarda archalar bezatildi.

Yilning so‘nggi oqshomida Toshkent yashnab ketdi. Katta binolar peshtoqida son-sanoqsiz lampochkalar marjoni porladi, archalar nurga belandi. Oziq-ovqat magazinlari tirband bo‘lib ketdi. Sumka, to‘rxalta ko‘targan odamlar uy-uyiga shoshishar, tanish-bilishlarini ko‘rib, bayram bilan qutlashar edi. (O‘. Hoshimov)

II. 1. U sultonning o‘ng qo‘li ekanligini ta'kidlamaslik uchun jo‘rttaga boshqalardan keyinroq kelgan edi. Har vaqtdagidek u o‘zini kamtar va xushmuomala tutdi. (L. Bat.) 2. Onaning dili o‘g‘lining yuziga tepib chiqqan alamli norozilikni darrov sezgan edi. (S. An.) 3. Tug‘ilib o‘sgan shahrini u allaqachon tark etgandi. (L. Bat.) 4. Odamlarning ko‘ziga tushmaslik uchun kun bo‘yi yong‘oqzorda dam olishib, namozgarda yana yo‘lga tushishgan. (O. Yo.)

248- mashq. O‘qing. O‘tgan zamon fe'li shakllarini aniqlang; o‘tgan zamon hikoya, o‘tgan zamon davom, o‘tgan zamon maqsad fe'llarini guruhga ajratib yozing.

1. Lashkar qirg‘oqqa joylashdi. (L. Bat.) 2. Iskandar hind podshohini o‘ziga bo‘ysundirmoqchi, o‘z dini va hukmronligini unga qabul ettirmoqchi bo‘ldi. (“Kalila va Dimna”dan) Zo‘r bir mardlik qilibsan, Lekin bekor kelibsan. (H. O.) Seni deya qavmu qarindosh Ixtiyorim olgan ekanlar Va kishanga solgan ekanlar. (H. O.) 5. Vaholanki, siz, xotin kishining topgani nima bo‘lardi, xotini boqayotir, degan isnodga tobim bor ekanmi, deb firoq qilib yurgan emishsiz. (A. Muhiddin.) 6. O‘z rolingni tushunibsan g‘oyat haqqoniy. (H. G‘.) 7. Botirjonni otasi podshoning eng usta qilichbozlaridan biriga shogird qilib beribdi. U ustozidan qilichbozlikni, yoyandozlikni va nayzabozlikni ham, kurash tushishni ham o‘rganibdi. («Gulpari».) 8. Yaqindagina dam olib olgan navkarlar safar daragini eshitib quvonar edilar. Navkarlar sovutlarini yarqiratib tozalashar, naqsh solib egarlarini tartibga solishardi. (L. Bat.)

249-mashq. O‘qing. O‘tgan zamon fe'llarini aniqlab, turini, yasalishi va tuslanishini tushuntiring, so‘ngra quyidagi jadvalga joylab, zamon ma'nosini ifodalovchi affiks tagiga to‘g‘ri, shaxs-son affiksi tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Yaqin o‘tgan zamon fe'li

Uzoq o‘tgan zamon fe'li

O‘tgan zamon davom fe'li

O‘tgan zamon maqsad fe'li

O‘tgan zamon hikoya fe'li

1. Kun botgan, lekin qorli choʻqqilarni chulgʻab olgan ulkan alanga soʻnmagan, butkul borliq: osmonoʻpar togʻlar, koʻm-koʻk archazor qirlar, yam-yashil yaylovlar, sharqirab oqqan soy — hamma-hammasi goʻyo bu ulkan alanganing shu'lasiga chulgʻangan-u, boʻlakcha bir tiniqlik kasb etgan, togʻu toshlargina emas, hatto maysalarga ham oltindan jilo berilganday mayin tovlanar, shabadada yastangan oʻtloqlar dam koʻk-sargʻish ipakday eshilar, dam qizgʻish rangga kirib, yal-yal yonardi... Qaerdadir koʻkda, koʻz ilgʻamas balandlikda, soʻfitoʻrgʻaylar vijir-vijir qiladi, togʻu toshlar panasida kakliklar sayraydi. (O. Yoqubov.)

II. 1. Hammalari xayrlashib oʻz mamlakatlariga joʻnabdilar. Abulqosim singlisini yurtiga olib borib, ota-onasining qoʻliga topshiribdi. Soʻng oʻz yurtiga joʻnabdi. Oʻz ona yurtiga yetib kelibdi. Olti oydan beri otasi mamlakatga toʻy berayotgan, shu kun toʻyning oxirgi kuni ekan. Abulqosim uyiga kelsa, akalari taxtda oʻtirganmish. («Gulpari».) 2. Bosh koʻtardik, zulmdan Boʻlmoqchi edik ozod. (H. O.)

III. Hademay Husaynning navkarlari bu notanish yigit bilan qarorgohga yaqinlashib keldilar; hashamdor chodirga kira berishda Muzaffarbek oʻz navkarlarini toqatsizlik bilan kutmoqda edi. U qoʻlini koʻzlariga soyabon qilib uzoqlarga tikilar, chap qoʻli kattakon qilichning sopini mahkam qisib turardi. Vaqt oʻtib borar, Sulton Husayn esa kutishni xush koʻrmasdi. (L. Bat.)

250-mashq. Oʻqing, hozirgi zamon fe'llarini topib, turini anihlang. «Hozirgi zamon davom fe'li» va «Hozirgi-kelasi zamon fe'llari»ni ikki ustun shaklida yozib, yasalishi va tuslanishini tushuntiring.

Tekislikka yoqqan yomgʻir togʻ tepasiga qor boʻlib tushgan ekan... Togʻning yarmidan pasti yomgʻirdan keyin qorayib, xiyol bugʻlanib turadi va uncha aniq koʻrinmaydi.

Tekislikning uzoq chetidan chiqib kelgan yuk mashinasi shu toqqa qarab jadallab boryapti.

Shagʻal yotqizilgan yoʻlda yomgʻir koʻlmaklari uchraydi. Gʻildiraklardan sachragan suv bort taxtasiga shatirshutur uriladi va yoʻl boʻyida ochilgan lolaqizgʻaldoqlarni jimgina silkitib oʻtadi. (P.Qodirov)

251-mashq. Oʻqing, kelasi zamon fe'llarini topib, turini aniqlang va «Kelasi zamon gumon fe'li», «Kelasi zamon maqsad fe'llari»ni ikki ustun shaklida yozib, shaxs-son affikslari tagiga chizing.

1. Men Hirotga Sulton Husayn Boyqaro hazrat oliylarining amri bilan toʻppa-toʻgʻri jang maydonidan keldim. Ulugʻ sulton oʻz fuqarolarini baxtiyor va badavlat qilmoqchilar, adolat yoʻli bilan mamlakatni gullatib-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj boʻlgan har bir kimsaga koʻmaklashmoqchilar. (L. Bat.) 2. Meni kutgil va men qaytarman Oʻlimlarni qoldirib dogʻda. 3. Faqat agar unasang, Yana bir shart qoʻyardim. (H. O.) 4. Kim biladi, balki Mirhaydar otamni ham oyogʻidan chalar bir kun...(O.) 5. Men sizni bir marta himoya qilarman, ikki marta himoya qilarman, oxir-oqibatda himoya qilolmay qolishim mumkin. (S.Ahm.) 6. Azizjon hyech qanday ilmiy asosga suyanmagan holda paxtachilikka yovvoyi pushtni kiritmoqchi. (Oʻ.Usm.)

252-mashq. Oʻqing, buyruq-istak mayli shaklida qoʻllangan fe'llarni topib, shaxs-sonini izohlang.

1. Ulug‘ ishingizni aslo tashlamang! Siz yaratgan «Xamsa» san'at olamida chinakam mo‘jiza bo‘ldi. Shu bilan qanoatlanib qolmang. O‘z ona tilingizda bitgan g‘azallaringizni bir necha devonga to‘plagansiz; shularni bir-biridan ajrating va har qaysisini o‘ziga munosib nom bilan bezang. (L. Bat.) 2. Sizlarning shu yerda yuqori hosil olishingiz — to‘qayni o‘zlashtirish bilan barobar, iltimosim shuki, yerga ehtiyot bo‘linglar. Oltin yerimizni ko‘z qorachig‘iday saqlanglar. Agrotexnikani mahkam ushlanglar. (H. G‘.) 3. Qizim, baxtli ekansanki, ...paxtakorlik yo‘liga kiribsan. Bu yo‘ldan zinhor-zinhor toyma, yildan-yilga naxtani ko‘paytiraver. Bizning mashinalarimiz tolasi uzun-uzun, birinchi sort paxtani yaxshi ko‘radi. Buniyam unutma. (O.) 4. Kel ipakday sochlaringga men Nurdan lenta yasab taqayin. (Mirm.) 5. Mingdan ortiq xaridor... Biri deydi: «Yuz jiyron — Sovg‘a qilay, ol, jiyan!» Boshqasi der: «Ming bosh qo‘y — Beray qilgin katta to‘y!» Yana biri der: «Do‘stim, Ol qirqta suvsar po‘stin. Faqat oting ber menga!» Ovchi unga der: «Nega?» (Q. H.)

253-mashq. O‘qing. Shart mayli shaklidagi fe'llarni topib, yasalishi va tuslanishi, zamon ifodalash xususiyatini tushuntiring.

1. Xayol bilan bo‘lib ko‘chaga chiqayotsam, eshik oldida sariq fufayka kiygan, kulcha yuzli notanish bir qiz ro‘para bo‘ldi. (O. Husanov.) 2. Sen hayqirsang ko‘pirib, g‘uncha tabassum etar, Bulbul qo‘shig‘i bilan bo‘ston jaranglab ketar. (S. Nazar.) 3. Kimga kulib boqsa quyoshli davron, Saodat o‘lkasi bo‘lsa diyori, Bo‘lmas yuragida zarracha armon, Yashnar menikiday ko‘ngil bahori. (S. Nazar.) 5. Kiyintirsam seni bahorga, Yulduzlarni o‘rasam qorga, Olib kelib oldingga qo‘ysam, Ham yulduzni, ham seni suysam... Shunda sening ko‘ngling to‘lurmu? (H. O.)

254-mashq. O‘qing. Fe'llarni topib, mayli, zamoni va shaxs-sonini izohlang.

I. O‘ktam kitel tugmalarini yechib, «Uh!» deb yelpindi va sekin so‘z boshladi: “O‘rtoq Akaskin, Sobir to‘g‘ri aytadilar. G‘o‘za parvarishni qattiq suyadi. Hosilot raisi sust, beparvo, ammo jon Qarimqul ota, hammamiz bir tan, bir jon bo‘lib, ishtiyoq bnlan mehnat qilaylik. Suv, o‘g‘it, go‘ng berishlarni, chekanka va chopiqlarni joyida o‘tkazib, agrotexnikaning qonun-qoidalariga tom rioya bilan ishlaylpkki, g‘o‘zamiz baquvvat bo‘lsin, dalamiz dirkillab tursin”. (Oybek.)

II. Darvishona yashamoqni ixtiyor etgan bo‘lsangiz, biror foydali mehnat bilan shug‘ullaning: dehqonchilik qiling, kavshdo‘zliknimi, to‘quvchiliknimi o‘rganing. Tilanchilik qilish, topganingizni o‘zingizga o‘xshash bekorchilar bilan baham ko‘rish nomus. Bu kasb insonni ulug‘lamaydi, balki ma'naviy tubanlikka olib boradi, mehnatdan qo‘l siltamang, odamlardan yuz o‘girmang, aksincha ularga ko‘maklashing. (L. Bat.)

255-mashq. O‘qing, tub va yasama fe'llarni aniqlab, ularni ikki ustun shaklida yozing. Yasama fe'llarning qanday usul bilan yasalganini tushuntiring.

I. Ayni vaqtda qo‘sh surnay va to‘rt chirmanda havoni kuchli va tantanali sadolar bilan yangratib yubordi. Bir necha qiz o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketdi. Mana qulochkash chapak chalib, ovozini qaldiroqday gumburlatayotgan Sobir Ermatov — Anorxon noz va sho‘xlik bilan o‘yin girdobiga kirganda —bardosh qilolmadi, uzun, qudratli qo‘llarini mardona silkib, o‘ynab ketdi. Qaynoq yigit davrada bir aylandi-yu, bir qo‘li bilan O‘ktamning qayishiga chang solib, do‘stini o‘rtaga tortdi. O‘ktamning yuzi olovlandi, bir dam tixirlik qilib, keyin o‘z bilganicha o‘ynadi, Sobirning atrofida aylana boshladi. Tevarakda qiyqiriq avjga chiqdi. ...Xadicha xola guldor ko‘ylagining keng, uzun yenglarini hilpiratib, ...maqom bilan yo‘rg‘alay boshladi. (Oybek.)

II. Biz Masha bilan baht haqida ko‘p o‘ylardik. Baxt nima? Biz shu qadim cho‘lda yashab, baxt — mehnat, baxt — kurash,baxt — insonlar bilan hamjihatlik ekanligini angladik. Baxt — ter to‘kib topilgan bir burda shirin non ekanini tushundik. (H. G‘.)

256-mashq. O‘qing. Morfologik usulda yasalgan fe'llarni topib, ko‘chiring; fe'l yasovchi affiks tagiga chizing; qaysi so‘z turkumidan yasalganini izohlang.

1. Ot jilovin tortib olib tikildim suv tomonga, Uzoq dengiz to‘lqinida miltillardi ko‘lanka. (Sh. Rustaveli.) 2. Nodirov zaldagilarga qarab oldi, o‘zining jangovar do‘stlarini, dong‘i ketgan olovkorlarni ko‘rib dadillandi va salmoqdor ohangda odatdagidek lo‘ndasini aytdi-qo‘ydi. (I. R.) 4. Xonaning to‘ridagi chetlariga tilla tasmalar qoqilgan javonlarni Movarounnahr fozillarining kitoblari-yu, nodir qo‘l yozmalari egallagan. Bu kitoblaru qo‘l yozmalarning har biri alohida ishlov berilgan yashil va firuza rang charm bilan jildlangan. (L. Bat.) 5. Shu kech Ziyod va Anor uzoq suhbatlashishdi. (Mirm.) 6. Bundan oldin ham ular bir-ikki ko‘rishishgan, ancha inoqlashib qolishgan edi. (V. G‘afurov.) 7. Entikdi, bo‘shashdi, birdan orqaga o‘girildi. (L. Mahmudov.)

257-mashq. O‘qing, sintaktik usulda yasalgan fe'llarni topib, ularni fe'lning analitik shaklidan ajratgan holda “qo‘shma fe'llar” va “analitik shakldagi fe'llar” sarlavhasi ostida ikki ustun shaklida yozing.

1. U yangilikka ishonch bilan qaraydigan, o‘tkir zehnli.... odam sifatida brigadirga juda yoqib qolgan edi. (J. Abd.) 2. Uni qaytadan birinchi kursga qabul qilishdi. (S. An.) 3. Haqiqat doim g‘alaba qilib kelgan... (J. Abd.) 4. Amir Alisher devonga kelganda, deyarli hamma yig‘ilib bo‘lgan edi. (L. Bat.)Men xazinani, qo‘shinni, shaharlarni himoya qilaman. (S. B.) Bu xabarni olim va shoirlar, madrasa va maktablarning talabalari ayniqsa sevinib qarshi oldilar. (L. Bat.) 7. Qirq.olti yoshli, zuvalasi pishiq Alisher vodiy va daryolarni, cho‘l-biyobonlarni otda bosib o‘tdi. (L. Bat.) 8. Alisher jilmaydi va Jomiyga ta'zim qildi. (L. Bat.)

258-mashq. O‘qing, fe'llarni topib, ulardagi modal shakl yasovchi affikslarni aniqlang, ma'no xususiyatini izohlang.

1. Ukangning endi aqli kirgan. Dildorga suykalanmoqchi. (S. Ahm.) 2. Koptok bo‘lsa tepkilab Boshqalarga bermas gal. (Q. H.) 3. Chodir ichida bola ijirg‘alandi, xotin shoshib kirib ketdi. (S. Ahm.) 4. O‘z so‘zlariga Yoqubning ishonqiramaganini payqagan Ali ishontirishga tirishdi. (K. Moiseeva.) 5. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi. (Ch.) 6. Oyisi yugurgilab dorixonaga borib

barmoqlariga surkash uchun moy keltirdi. (Sh. Siddiqiy.) 7. Nizomjon xohlanqiramay akasining oldiga bordi. (S. Ahm.)

259- mashq. O‘qing, fe'llarni va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni morfemalarga bo‘ling.

Bu sho‘xni 1941 yil qishida Mirhaydar farzandlikka olgan edi. Urush tufayli ota-onasiz qolgan va O‘zbekistonga yuborilgan go‘daklardan edi u. Chamasi uch yashar rus bolasiga Qutluqjon deb ot qo‘yishdi. Mirhaydar va uning xotini o‘z farzandiday mehr bilan parvarish qila boshladi. Tillabibi qo‘sha-qo‘sha ko‘ylaklar, kamzullar, beqasam choponlar tikib kiydirdi. Qo‘shnilarining bolalari bilan hamisha birga o‘ynab, Qutluqjon tez orada o‘zbekcha biyron-biyron gapira boshladi. Boshida butun bir kolxozning tashvishi bo‘lishiga qaramay, rais bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi. Hatto bazan uni opichib, majlislarga ham olib bordi, qish kechalari Qutluqjonni tizzasiga o‘tqazib, bir zamonlar, o‘zi bolalik chog‘ida buvisidan, bobosidan eshitgan ertaklarni xotirlab aytib berdi, ba'zan bola ko‘ngli uchun ot bo‘lib kishnadi, tuya singari bo‘kirdi. Qizchani esa rais bir yildan keyin Marg‘ilondan olib keldi. Chamasi bir yarim yashar qo‘g‘irchoqday jajji ukrainalik qizcha ham xuddi Qutluqjonday urush yetimlaridan edi. (Oybek.)

260-mashq. O‘qing, fe'llarni topib, tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating va quyidagi jadvalga yozing.

Sodda

Qo‘shma

Juft

Takroriy

tub

yasama

Qulmuhammad o‘zi yaratgan kuylar bilan shuhrat topgandi. Ammo barcha sozlarni chalishda, ayniqsa, nay chalishda Shayxiyning oldiga tushadigan kimsa yo‘q edi. Navoiyga ko‘zi tushishi bilan Shayxiy shoirni qutlab nay chala boshladi. Kuygoh bahor kunlaridagi qushlar navosini eslatar, goh uyquga ketayotgan xasta bolasi tepasida kuylayotgan onaning allasi singari o‘ychan va mungli yangrardi; ammo keyinroq borib, quvonch sadolari tantana qildi. Shayxiy kuyni rosa avjiga olib chiqib, shartta to‘xtatdi-da, Navoiyga ta'zim qildi. «Bag‘oyat go‘zal, tengi yo‘q maqom!» — dedi ko‘zlari yoshlangan Navoiy va mashshoqni bag‘riga bosdi, (L. Bat.) 2. Ba'zilar ertalab ko‘rishishga va'dalashib omonatgina xayrlashib ketishgani bilan, boshqalar kelib davra yana to‘ladi, suhbat qizigandan-qiziydi. (H. G‘.) 3. Bu tegirmonda Mirhaydarning o‘zi ham bir necha yil qarol bo‘lib ishlagan, alloflarning qop-qanorlarini ko‘tara-ko‘tara yelkasi yag‘ir bo‘lgan edi. (O.)

261-mashq. O‘qing, komponentlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan fe'llarni imlo qoidasiga muvofiq yozing.

1. “O‘z hayotida sizningdek do‘st orttirgan kishi baxtiyordir”, — dedi u eshitilar/eshitilmas. O‘z his-tuyg‘ulari haqida kamdan-kam gapiradigan Jomiyning bu so‘zlari Navoiy qalbining eng nozik yerlariga borib/yetdi. Ustozning biror so‘zini eshitolmay/qolmaslik uchun Alisher u tomonga engashdi. (L. Bat.) 2. ...Agar birdan yomg‘ir quyib/bersa, chigit yer bag‘rida chirishi mumkin yoki hali murg‘ak g‘o‘zalarni tasodifiy izg‘irin sovuq bir kechadayoq unniqtiradi/ketadi. (O.) 3. Husayn Astrobod aholisi o‘zining dono hokimisiz yashay/olmaydi degan dalilni dastak qilib olgandi. (L. Bat.)

262-mashq. O‘qing. Ot, sifat, son, olmosh va fe'llarni topib, morfologik tahlil qiling.

Hayotning o‘zida siz qilishingiz mumkin bo‘lgan yumushlar oyoq ostidan chiqib qoladi. Hozir o‘zi turgan joyda obodonchilik ishlariga yordam berayotgan, maktablarga, bolalar bog‘chalariga ko‘maklashayotgan, ijodkorlarning kitoblarini chop ettirishga madadlashayotgan, qo‘li qisqaroq oilalarga bolalarining to‘ylarini o‘tkazib berayotgan va yana qanchadan-qancha saxovatpesha ishlarni qilayotgan odamlar haqidagi xabarlar ko‘payib qoldi. Bularning bari el-u yurt ravnaqi yo‘lida qilinayotgan savob ishlardir. (O.Sharafiddinov)

RAVISh

263-mashq. O‘qing, ravishlarni topib, ma'nosi, so‘rog‘i va grammatik xususiyatlarini ayting; o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring.

1. Ozroq podada yurmasa, biz bunda eplolmaydiganga o‘xshaymiz. (S. Ahm.) 2. Nizomjon u yoqdan-bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alanglaydi. (S. Ahm.) 3. Tilmoch jim o‘tirganini ko‘rgan O‘g‘ilniyoz xola pastdan luqma tashladi. (X. Deryaev.) 4. Qo‘shninikiga tomizg‘i so‘rab kirgan Hajalxon bir zumda bir talay gap topib chiqdi. (A, Muhiddin.) 5. Kattagina kul rang chamadonini ko‘tarib olgan Feruza hozirgina o‘zi tark etgan vagon bilan yigirma qadamcha yonma-yon yurib bordi. (H. G‘.) 6. Qiz etaklarini hilpiratib oldinda shamoldek yelib borardi. (S. Ahm.) 7. Geologlar ekspeditsiyasidagi

Matluba degan qiz jo‘rttaga bir ish bilan Yakkakapada qolib ketdi. (A. Eshonov.) 8. «Villis» hanuz shu yerda edi. (A. Q.)

264-mashq. O‘qing. Holat ravishlarini aniqlab, so‘rog‘i va gapdagi vazifasini ayting; ularni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan ko‘chiring.

1. Toshpo‘latning yordamchilari birin-sirin kelishdi. (N.Biryukov.) 2. Gulzordagi anvoyi gullarning yaproqlarini birov erinmasdan bittalab artib chiqqanday. (H. G‘.) 3. Karima oshxonaga asta kirib ketdi. (H. G‘.) 4. Ular yonma-yon o‘tirdilar. (H. G‘.) 5. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. (H. O.) 6. Ashula eshitayotgan bo‘lib, zimdan Chorini kuzatdi. (X. Deryaev.) 7. Siz bahuzur dam olib yotavering, darrov kelib ovqatga unnab yuboraman. (S. Ahm.) 8. ...Yarim kechagacha chuvalchangnamo harflarni o‘z qo‘li bilan terib, birinchi nutqini zo‘rg‘a yozib bo‘ldi. (A. Q.) 9. Halima o‘zining uchqo‘rg‘onlik ekanini bexosdan eslab qoldi. (N. Biryukov.)

265-mashq. O‘qing, miqdor va daraja ravishlarini topib, alohida-alohida ko‘chiring, ularning ma'no va grammatik jihatdan farqini, gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Saroy uchun allaqancha taxta, yog‘och, tunuka oldirib qo‘ygan. (S. Ahm.) 2. Bir oz sabr qilasiz. (I. R.) 3. Kolxoz idorasi xiyla balandroq yerda. (As. M.) 4. Samolyot uchishiga hali bir soatdan mo‘lroq vaqt bor, borib skameykaga o‘tirdik. (U. N.) 5. Mehmonni uyga olib kir, men otga picha yem tashlab qo‘yay. (S. Ahm.) 6. Suv sal taxchil bo‘lar deyman. (S. Ahm.) 7. Paxtachilikni mexanizatsiyalash, ayniqsa, terim mashinalarining tuzilishi, ishlash prinsipi haqidagi broshyuralarni sira qo‘ymay o‘qidi. (S. Karomatov.)

266-mashq. O‘qing, payt va o‘rin ravishlarini topib, ma'nosi, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi va gapdagi vazifasini aniqlang. Avval o‘rin ravishini, keyin payt ravishini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ertagayoq Abduxalilni Quvasoyga jo‘nataman. (S. Ahm.) 2. Qadim-qadimlarda odamlar Mirzacho‘lni «balo cho‘li» deb ataganlar. (H. G‘.) 3. Tog‘a oldinda, Ikromjon keyinda bir-biri bilan gaplashmay katta ko‘chaga yetishdi. (S. Ahm.) 4. Yashil dala o‘rtasidagi seleksiya tajriba stansiyasi uzoqdan dengizlardagi sokin orolga o‘xshaydi. (Mirm.) 5. Ro‘parada smenani tamomlab chiqqan bir to‘da ishchilar... taxta yonida maroqlanib kulishyapti. (As. M.) 7. Qalandarov burun rayonda bo‘lib turadigan majlislarda birinchi qatorda o‘tiradigan bo‘lsa, endi prezidiumga chiqadigan ...bo‘ldi. (A. Q.) 8. Hali u yerdan, hali bu yerdan gulduros chapaklar eshitiladi.(N. Biryukov.)

267-mashq. Payt ravishlari va payt ma'nolarini ifodalovchi otlarni hamda sonlarni topib, ularning farqini tushuntiring.

1. Keyin eski maktabiga bir kun borsa, uch kun bormaydigan odat chiqardi. (M.Ism.) 2. Har gal qishloqdan stansiyaga o‘tayotganimda, ...yuragimda chiroyli hislar g‘alayon qiladi. (S. Ahm.) 3. Mutalning hali esida: ularning to‘yi ming to‘qqiz yuz o‘ttiz to‘rtinchi yilning avgustida bo‘lgan edi. (S. Ahm.) 4. O‘zi imtihon hamma vaqt saraton kirish oldida boshlanadi. (S. Ahm.) 5. Hovli o‘rtasidagi bir tup shaftolining bahorda pushti gulga burkanishini, yozda sap-sariq mevadan larzon bo‘lishini, kuzda barglari olovdek yonishini, qishda yalang‘och novdalariga bulduruq qo‘nishini ko‘rib o‘taman. (S. Ahm.) 6. Boya yeldek uchib ketayotgan odam endi shoshilmasdi. (S. Ahm.) 7. Oftob deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi. (S. Ahm.)

268-mashq. O‘rin ravishlari va o‘rin-joy otlarini topib, farqini tushuntiring, alohida-alohida ko‘chiring.

1. Zalda o‘tirganlar... Anvarga qarab qanday baxtli odam-a, deyishayotgan emish. (S. Ahm.) 2. Pastda toshqin Amu pishqirib, shag‘illab ko‘hna Orol tomon shoshilmoqda. (S. Karomatov.) 3. Hali obedda kontoraga birga boramiz, o‘sha yerda ishni bitkazamiz. (S. Ahm.) 4. Poezd meni sershovqin stansiyaga tashlab, yana qichqirganicha oldinga intildi. (S. Ahm.) 5. Supaga o‘tirib u yoq-bu yoqqa qaradim. (S. Ahm.) 6. Xuddi shu yerdan, shu do‘kondan ikki respublikaning chegarasi o‘tardi. (S. Ahm.) 7. Oldinda juda jiddiy, murakkab hayot borligini qayoqdan bilaman. (S.. Ahm.) 8. Birdan qayrag‘och tagidagi skameykada yonboshlab yotgan bir kishiga ko‘zim tushdi-yu, orqamga qaytdim. (S. Ahm.)

269- mashq. O‘qing, sabab va maqsad ravishlarini topib, ularning farqi va gapdagi vazifasini ayting; gaplarni ko‘chirib, ravishlarning turini ustiga yozing.

1. «Atayin qildim, — dedi Asrora. — Shaftoli olib chiqolmaydi». (S. Ahm.) 2. Dildor daladan qaytayotib yo‘lni yaqin qilish uchun ataylab tutzor oralab kelardi. (S. Ahm.) 3. To‘lagan chol noiloj o‘rnidan turdi. (S. Ahm.) 4. O‘zi bo‘lsa qizlar oldidan atayin gerdayib, pisand qilmay o‘tadi. (S. Ahm.) 5. Elmurod noiloj indamaslikka majbur bo‘ldi. (P. T.) 6. Unsin tog‘asining gapiga parvo qilmaydi, jo‘rttaga qaddini tag‘in ham tikroq ko‘tarib o‘tib ketaveradi. (O.)

270-mashq. O‘qing, ravishlarni topib, ma'no va grammatik jihatdan turlarini aniqlab, quyidagi jadvalga yozing.

Ravishning turlari

Misollar

1. O‘rin ravishi

2. Holat ravishi

3. Payt ravishi

4. Sabab ravishi

5. Maqsad ravishi

6. Daraja-miqdor ravishi

1. Otliqlar otda, otsizlar piyoda soyma-soy izlanglar! (Ch. Ayt.) 2. Koʻnglimdagi gʻubor bir zumda tarqab, butun vujudim yayrab ketganday boʻldim. (O. Yo.) 3. Sizlarning kelishingizga ataylab tayyorgarlik ham koʻrmaganmiz. (N. Biryukov.) 4. Ruhimni allalab, tamom mast qilgan Boya chalganingiz kuyni takrorlang! (H. Gʻ.) 5. Kemani yuqoriga, pastga, chapga, oʻngga yoʻnaltirish imkoniyati ham boʻlishi kerak-ku. (J. Vern.) 6. Menimcha, biz tasodifan muhim sirni bilib oldik. (J. Vern.) 7. Bilasizmi, Qunduzxon, tajriba shuni koʻrsatdiki, daraxt koʻp joyda gripp, oʻpka kasalliklariga odam kamdan-kam chalinar ekan. (J. Abd.) 8. Orqadan qarab qolgan qizlar Asroraning bu ishidan sal ranjigandek boʻlishdi. (S. Ahm.)

278-mashq. Oʻqing.. Mustaqil soʻzlarni topib, turkumlarga ajrating. Har bir turkumga oid ikkitadan soʻzni tanlab koʻchiring. Ularni toʻliq morfologik tahlil qiling.

Qalandarning shoshilishi bejiz emas, osmonda yulduzlar soʻnib, tevarak-atrof yorishib qolgan edi. Lekin ular chapga burilib, yuz qadamcha yurmagan ham edilar, «Bogʻi maydon» tomondan ot tuyoqlarining dupuri eshitildi-yu, qamishzor orasida toʻxtashga majbur boʻlishdi. Sal oʻtmay yuqorida, oqara boshlagan ufqda, katta tosh yoʻldan ot choptirib oʻtayotgan oʻn nafarcha suvoriylar koʻrindi. Shu payt roʻparada, katta yoʻlning u yuzidagi tepalikda ham bir guruh otliqlar paydo boʻldi. Tepalikda birdan paydo boʻlgan bu otliqlar, qoʻllarida yalangʻoch qilichlarini boshlari uzra oʻynatishib, vahimali qiyqiriq bilan yopirilib kelishardi. Tepadan qora toʻfonday yopirilib tushayotgan suvoriylarni koʻrganda «Bogʻi maydon» tomondan kelayotgan otliqlar sarosimaga tushib toʻxtab qolishdi, oldingi suvoriylar esa otlarining boshlarini orqaga burishdi... (O. Yoqubov)

YoRDAMChI SOʻZLAR

279-mashq. Oʻqing. Yordamchi soʻzlarni topib, ularning mustaqil soʻzlardan farqini tushuntiring.

1. Askiyabozligi va gapga chechanligi uchun Navoiy uni sevardi ham. (L. Bat.) 2. Leksiyalar tashkil etishni boshladik-u, afsuski, ularni ma'lum tartibga solib, oqartuv ishlarini rivojlantirib yuborolmay turibmiz . (O.) 3. Bu masalani bir yoqlik qilmoq uchun Hirotga faqat amir Alishernigina yubormoqlik mumkin. (L. Bat.) 4. Biroq Buxoroga ketgunga qadar u singlisi Robiyaga ko‘p narsalarni o‘rgatgandi. (L. Bat.) 5. Basharti o‘z so‘zi va yo tanqidi bilan narigi taraf qizarsa yoki ta'sirlansa, unga ikkinchi martaba hujum qilmay qo‘yadi, chunki dushman oyog‘i ostida-da. (A.Qod.) 6. O‘ktam uyg‘onganda, uning boshi uzra jiydaning qip-qizil shamaloq novdalari shamolda vazmin tebranar edi. (O.) 7. Tanim nimjon, ammo ruhim yengil. Men qilich ko‘tarmaymen, biroq so‘zlarim avvalgiday keskir. (L. Bat.)

280-mashq. O‘qing. Mustaqil va yordamchi so‘zlarni topib, ularning grammatik xususiyatini qiyoslab tushuntiring.

1. Husayn bu ishni Alishergagina ishonib topshirish mumkinligini tushunar, chunki u xalq o‘rtasida shoirning e'tibori naqadar balandligini bilardi. (L. Bat.) 2. Saidakbar hoji qutini beparvogina ochdi-yu, ko‘zi tinib ketdi. Unda chindan ham zavqi benihoya baland va serhafsala ustaning mo‘jizakor san'ati o‘zining butun jozibasini namoyish qilib turardi: bu «etti qaroqchi» yulduzining gavhar donachalari bilan aks etgan oltin uzuk edi! (Sh.) 3. Bunday muhabbat na qilich damidan, na jallod doridan qo‘rqadi. (Sh.) 4. Irodali, go‘zal va sitamkor Xadichabegim Husaynning qalbini batamom asir etgandi: u hyech qachon hyech narsani so‘rab o‘tirmas, balki talab qilardi. (L. Bat.)

Ko‘makchi

281-mashq. O‘qing, ko‘makchilarni topib ma'nosi va vazifasini ayting.

1. Yunus Rajabiyning o‘zbek muzika san'atini rivojlantirish uchun qo‘shgan hissasi bebaho va ulkandir. (S. Karomatov.) 2. Goho ilon kabi buralib, Goh bo‘linar mingta irmoqqa. (Mirm.) 3. Butun qo‘shinda Navoiyga Musabekdan ko‘ra sodiqroq kishini topish mahol edi. (L. Bat.) 4. Nag‘alli og‘ir etiklar endigina yoqqan qor ustida sabrsizlik bilan depsinishadi. (N. T.) 5. Shu yo‘ldan jo‘nagan po‘lat parovoz, Xuddi shu yo‘l uzra to‘xtaydi sokin. (Mirm.) 6. Yoqub... shoshilgancha Samarqand sari yo‘l oldi. (K. Moiseeva.) 7. Shu tariqa malika bu yerda qiyomga qadar bo‘lar, keyin qal'aga qaytib ketardi. (K. Moiseeva.) 8. Rostgo‘ylik bilan inson kamolotga yetishgay, Qo‘sh til bo‘lar el ichra odamlarning iloni. (Mirm.)

282-mashq. O‘qing, ko‘makchilarni aniqlab, ularni asl ko‘makchilar, ot-ravish ko‘makchilar va fe'l ko‘makchilarga ajratib, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga uch ustun shaklida yozing.

1. Chevarasining surati kelgandan beri kampir oromini yo‘qotdi. Toshkentga qarab talpinib qoldi. (S. Ahm.) 2. Kosmonavt bo‘lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. (S. Ahm.) 3. Urushdan

avval qanaqa yashashgan bo‘lsa, undan keyin ham o‘zgarishsiz bir xil umr boshlandi. (S. Ahm.) 4. Navoiy she'riyat olamining ana shu sheri bilan bellashmog‘i kerak. (L. Bat.) 5. Bola-chaqalardan tortib kampirlarga qadar barchasi dalada mehnat zavqini suradilar. (O.) 6. Qadimiy falakiyot olimlarning kitobati bilan tanisha borganing sari, ilgari senga muammo bo‘lib ko‘ringan jumboqlarning sirini asta-sekin yecha borishing turgan gap. (K. Moiseeva.) 7. yolg‘iz mayin, yengil shabboda Vodiy ichra tanho tentirar. Simob kabi tiniq havoda Shitirlashib yaproqlar titrar. (H. O.)

283- mashq. O‘qing. Ko‘makchi otlarni va ot ko‘makchilarni aniqlab, alohida-alohida ko‘chiring, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Karomatov unga Akbarov va Toshev haqida savollar berdi. (P.Q.) 2. U studentlar ichida eng yaxshi modalarni tanlab kiyardi, sochini bo‘lsa kuniga har xil prichyoska qilmasa, ko‘ngli joyiga tushmasdi. (S. Ahm.) 3. So‘zlari orasida «Sug‘d» va «Xorazm» madaniyatlari, Navoiyning tili, Amudaryo to‘g‘oni masalalaridan boshlab to atom bombasiga qadar turli mavzularda gap borar edi. (0.) 4. Ismoiljon Bashoratning qo‘lidan chamadonchani olib, mashina tomonga yurdi. (S. Ahm.) 5. Po‘latjon ariq bo‘yida, o‘rilgan pichanning ustida, chalqancha yotib ashula aytmoqda edi. (O. Yo.) 6. Kattakon bak oldida choy damlangan tunuka choynakni cho‘qqa qo‘yib o‘tirgan cholning yoniga tushib ketayotgan edi, uzoqdan mashina chirog‘ini ko‘rib to‘xtadi. (S. Ahm.)

284-mashq. Nuqtalar o‘rniga sari, bilan, uchun, beri, keyin, qadar, dovur, ichra ko‘makchilaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring, ularning qaysi kelishik shaklidagi so‘z bilan kelganini ayting.

1. Yurak dala ... talpinardi. (Mirm.) 2. Umr — dono ... juda qisqa, tanbal ... keragidan ortiq uzun! (Sh.) 3. U uyga yaqinlashgan ... bahona topishga shoshardi. (S. Ahm.) 4. Zebixon shu tariqa o‘zini olisroqdan bir muddat namoyish qilib turgandan... gavdasini g‘alatiroq egib keskin burildi-da, ketdi. (S. Ahm.) 5. Majlis yarim kechaga... cho‘zildi. (Sh. Siddiqiy.) 6. Yunus Rajabiy xalq boyligini to‘plab, besh tomlik kitob qilib nashr etdi va bu ... besh bebaho haykal yaratdi. (S. Karomatov.) 7. Shukrona ayt avval parcha non uchun, So‘ng qultum suv uchun shukrona takror... (A.O.) 8. Uzoqdan Navoiyning qorasi ko‘ringuniga ... u amirning kelishiga ishonmasdi. (L. Bat.) 9. Zulmat ... nur yog‘ilganday, huvillab turgan hovli bir nafasda shodlikka to‘ldi. (J. Abd.)

285-mashq. O‘qing. Qo‘makchi va ravishlarni topib, farqini izohlang. Ko‘makchilarni o‘zidan oldin kelgan ot yoki otlashgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ular ikki yonidan qalin daraxtlar saf tortgan tep-tekis xiyobonlar, ilon izi so‘qmoqlar, kishiga ajoyib ertaklar hadya etuvchi g‘orlar yonida bo‘lishdi. (J. Abd.) 2. Yaqinda tashkil etilgan o‘zaro musobaqalarning natijalari to‘g‘risidagi xabarlar ham vaqt-vaqti bilan yetkazib turiladi. (J. Abd.) 3. Oxiri Tuyabuloqqa yaqin bir pioner lagerining avtobusini yollashga to‘g‘ri keldi. (J. Abd.) 4. Tepaliklar ustida qor uyumlari... tushga yaqin erib yana qumga singib ketardilar. (J. Abd.) 5. Shamsi avvaliga angrayib turib qoldi-yu, keyin shoshib. egarga mindi. (S. Ahm.) 6. Nonushtadan keyin, odatdagidek, kiyinib, kombinat sari jo‘nadi. (Mirm.)

Bog‘lovchi

286-mashq. O‘qing, bog‘lovchilarni topib. ularning grammatik ma'nosi va vazifasini izohlang; teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

1. Endi goh moviy tus olib, goh qoramtir rangga kirib, goh oppoq ko‘piklanib mavj urayotgai dengiz to‘lqinlarini tez-tez kelib ko‘rarkan, u buni ayniqsa yaqqol his etdi. (L. Bat.) 2. Lekin Qalandarga na go‘sht tatidi, na qimiz! (O. Yo.) 3. Yo‘l shunday tekis ediki, go‘yo biz qizil poyondoz ustida ketayotganday edik. (K. Abukov.) 4. Ayvondagi g‘o‘lalar tamom bo‘ldi, ammo tarasha qilinadigan o‘tinlar hali uyulib yotardi. (K. Abukov.) 5. Mehri bilan kampir mashinalar va ularda ishlayotgan odamlar harakatini kuzata-kuzata bo‘yoq va pardozxonaga o‘tdilar. (S. Ahm.) 6. Agar umumiy majlis qaror chiqarsa, shu pullarning ixtiyorini senga topshiraman. (S. Ahm)

287-mashq. O‘qing, bog‘lovchilarni topib, teng bog‘lovchilarning turlarini aniqlang. Teng bog‘lovchilar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring va bog‘lovchining nima uchun qo‘llanganini ayting.

1. Malika na yurib charchaydi, na sovuqdan shikoyat qiladi. (H. G‘.) 2. Navoiy farmonni xotirjam tingladi, vazirga izzat-ikrom bilan javob qildi, ammo uning qalbida bo‘ron gurillardi. (L. Bat). 3. Osmon oqara boshlagan, bog‘dagi yuksak oq teraklarning uchlari yaltirab qolgan, lekin hali oftob chiqmagan edi. (O. Yo.) 4. Dam salobatli, dam jozibador yangrovchi tanbur sadosi tinglovchini go‘yo sehrli qayig‘i bilan allaqanday maftunkor sohil sari boshlar, goh tebratib, goh to‘lqinlatib borardi. (J. Abd.) 5. Shoir o‘zining tinchlik, inson va uning burchi to‘g‘risidagi fikrlarini bu dostonning mazmuni va mundarijasiga singdirdi. (L. Bat.) 6. Qaerda yosh-yalang to‘plangan bo‘lsa, katta choyxona yo guzar bo‘lsa, u yerda o‘yin ko‘rsatadi... (O.) 7. U ketdi. U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamli uzuq-yuluq xotiralar qoldi... (O‘. H.)

288-mashq. O‘qing, ergashtiruvchi bog‘lovchilarni topib, turini ayting; ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turlarini jadvalga joylang.

Ergashtiruvchi bog‘lovchi turlari

Misollar

Aniqlov bog‘lovchisi

Sabab bog‘lovchisi

Shart bog‘lovchisi

O‘xshatish bog‘lovchisi

1. Hamma gap shundaki, biz hali davlatning zo‘r xarajatlarini oqlaydigan katta konlar topolganimiz yo‘q. (P. Q.) 2. Agar kim hayotdan olmasa ta'lim, Unga o‘rgata olmas hyech bir muallim! 3. Ikki do‘st qo‘llarini boshlari ostiga yostiq qilib qum ustida chalqancha yotishar, go‘yo shu holatlari bilan rohat qilmoqda edilar. (J. Abd.) 4. U o‘zi kutmagan holda yo‘lni qumliklar qa'riga burib yuborgan, shuning uchun mashina g‘ildiraklari... tez-tez to‘xtab qolar... edi. (J. Abd.) 5. Na u yon, na bu yonga burila olmaysan, chunki ikki tomoningni ham hamrohlaring egallagan. (J. Abd.)

289-mashq. O‘qing, bog‘lovchilarni aniqlang. Avval teng, so‘ngra ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarni ko‘chirib, bog‘lovchilarning turlarini ustiga yozing.

1. Bu tasavvurlar sizni shunday chulg‘ab oladiki, go‘yo hamma narsa ko‘z oldingizda asta jonlanib borayotganday tuyuladi. (J. Abd.) 2. Goh ko‘zlarini o‘ynatar, goh jilmayar, goh yana boshini ko‘ksi uzra tutib turgan dasta gullar ichiga suqar edi. (J. Abd.) 3. Uni na toshqin, na bo‘ron, na o‘t-olov yemira oladi, na zilzila, na tuhmat qilichi qo‘porishga qodir! (J. Abd.) 4. Asrlar bo‘yi suv chiqarish uchun kurashlar boradi-yu, lekin bu kurash oxiriga yetmay qolib ketaveradi. (J. Abd.) 5. U do‘stining bevaqt kelganiga ajablanmadi, chunki ularning hayotida bunday tungi uchrashuvlar ko‘p bo‘lib turardi.(L. Bat.) 6. Agar har kim bittadan daraxt O‘tqizganda, butun dunyoni Boshdan-oyoq bog‘ qilish mumkin! (U.) 7. Tinchlik va ozodlik uning qo‘shig‘i, Do‘stlik va hamkorlik uning bayrog‘i, Hayot, shodlik va baxt uning yo‘ldoshi... (U.)

290-mashq. O‘qing, bilan qaysi o‘rinda ko‘makchi, qaysi o‘rinda bog‘lovchi vazifasida qo‘llanganini ayting, farqini tushuntiring.

1. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi. (S. Ahm.) 2. Majididdin bilan Navoiy yuzlarida tabassum bilan ohista gaplashayotganlari tufayli, o‘tirganlardan hyech kim ular o‘rtasida yakkama-yakka kurash borayotganini payqamadi. (L. Bat.) 3. Alyosha, Gulxayri, Muzaffarlar charchash nimaligini bilmay, ya'ni ishtiyoq bilan jon koyitishlari eng qoloq bo‘lganlarni ham uyqudan uyg‘otdi. (J. Abd.) 4. Alisher shahzoda bilan gaplashishga oshiqmadi, u Badiuzzamonni va Balxdagi sharoitni yaqindan, sinchiklab o‘rganmoqchi edi. (L. Bat) 5. Ekskavator bilan skreperlarni ishga solishga hojat yo‘qdir. (J. Abd.)

291-mashq. O‘qing. Ko‘makchi va bog‘lovchilarni aniqlang, ularni morfologik tahlil qiling.

1. Fil singari xartumlari bilan yer titkilayotgan ulkan ekskavatorlar botmon-botmon tuproqni qirg‘oqqa otmoqda edi. (J. Abd.) 2. Inson go‘zallik uchun intiladi, yorqin ufqlar sari oshiqadi. (J. Abd.) 3. Agregatlar okean uzra suzib yurgan kemalarni eslatadi. (J. Abd.) 4. O‘ychan va vazmin Alisher yolg‘izlikni sevar, avvalgidek bog‘da, qog‘oz va qalam tutgan holda soatlab o‘tirardi. (L. Bat.) 5. Osmon shu qadar beg‘ubor, shu qadar ko‘m-ko‘k ko‘rinardiki, go‘yo hyech qaerda bunaqa tiniqlik bo‘lishi mumkin emasday. (J. Abd.) 6. Mohidil elektr plitkani yoqib, choy qo‘ygunga qadar ham Zubayda tashqaridan nigohini olmay turaverdi. (J. Abd.)

Yuklama va modal so‘zlar

292-mashq. O‘qing. Yuklama va modal so‘zlarni topib, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni izohlang.

1. Odam qo‘ligina odamga abadiy haykal qo‘yishiga ana o‘shanda ishonganman. (S. Ahm.) 2. Aftidan, eshelon bu yerda to‘xtamaydi. (I. R.) 3. Xuddi shu payt salomxona eshigi ohista ochilib, ustod ko‘rindi. (O. Yo.) 4. Hali xabaring yo‘qmi? Asrora opam kasalxonadalar-ku. (S. Ahm.) 5. Baxtimga, qizillar o‘z vaqtida yetib kelib qolishdi-yu, men tirik qoldim, faqat shu bir yoq ko‘zimdan ayrildim. (Ivan Le.) 6. Bizning faryodimiz hatto ota-onalarimizning ham qulog‘iga kirmas edi! (A. Q.) 7. Mana, nihoyat, Dildorning qorasi ko‘rindi. (S. Ahm.)

293-mashq. O‘qing, yuklama va modal so‘zlarni topib, alohida-alohida ko‘chiring, turlarini qavs ichida ko‘rsating.

1. Toshkentdan kelgan har xil mutaxassislar proektni tuzish uchun ertagayoq cho‘lga safar qilishadi. (O.) 2. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo‘ldi. (J. Abd.) 3. Nomini unutmas xalqlar, zamonlar, Jonajon shoirning baxti ham shu-da. (U.) 4. Balki shu turishda dunyoga keladigan yangi-yangi dalalarni, bog‘larni, yaylovlarni ko‘z oldiga keltirayotgandir? (J. Abd.) 5. Tiq etgan ovoz eshitilmas, faqat shamolda tebrangan terak barglarigina shitirlardi. (L. Bat.) 6. Giyoh unmagan joylarda kichik-kichik gulzorlar, shinam-shinam xiyobonlar, ikki qavatli uylar, hatto ko‘chalar ham paydo bo‘lgan. (J. Abd.) 7. Nima, men o‘zim uchun ishlayotibmanmi, rais buva? Boshqalarning ishiga aloqam yo‘qmi? (H. N.) 8. Nihoyat, quyosh bulut orasini yorib chiqdi. (S. B.)

294-mashq. Yuklamalar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, yuklamalarning tagiga chizing, turlari va ma'no xususiyatini izohlang.

1. Xuddi binoga yaqin joyda bir guruh odamlar doira qurib, o‘yinga tusha boshladilar. (J. Abd.) 2. Voy, ilm uvol emasmi, nega ishlamaysiz? Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning

koʻziga xunuk koʻrinadi-ya! (A. Q.) 3. Topdi-yu, shu ondayoq qayta yoʻqotdi. (S.Anorboev) 4. Ammo tabiatida bir xil kiborlik ham mavjudki, bu, shubhasiz, hammaga yoqavermas, hatto, kishida bir oz hayiqish ham uygʻotadi. (J. Abd.) 5. Axir har bir davr oʻz romantikasini yaratadi-ku! (J. Abd.) 6. Shu jaziramada....oʻz dalasiga oʻgʻit tashiganlari uchunoq men ordenlarimni hammasiga bitta-bitta taqib qoʻygim kelyapti hozir. (O.)

295-mashq. Oʻqing, shakli bir xil yordamchi soʻzlarning vazifasiga koʻra nomini ayting.

1. Salimov bilan Pardavoy ostonaga qadam qoʻyishlari bilan, Qudrat oʻzini chetga oldi-yu, kelgan tomoniga qarab chopa ketdi. (J. Abd.) 2. Bolalarki, shunday deyayotgan boʻlsa, kattalarning ogʻzida nima gap? (I. R.) 3. Odamlar kelayotibdi-yu, siz ketasizmi? (A.Q.) 4. Shuni bilginki, birovning baxti yuzida — husni jamolida boʻlsa, sening baxting — boshingda — dono qizsan. (Yo. Shukurov.) 5. “Nima gap ekanini tushuntirib berarsiz balki”, — dedi. (A. Chakovskiy.) 6. Men buyruqning oʻzinigina emas, balki shu buyruqning qanday ahamiyatga ega ekanligini ham bilib olishim muhim. (A. Chakovskiy.) 7. Shunday ajoyib odamlar boʻladilarki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhratlar ham oʻzgartirmaydi. (H.Gʻ.) 8. Bu katta shaharda ulugʻ madrasalar, san'atning butun moʻjizalari bilan bezalgan boy saroylar ham bogʻchalar, havoyi koʻshklar koʻp edi. (O.)

296- mashq. Oʻqing, yuklama va modal soʻzlarni topib, ularni toʻliq tahlil qiling.

1. Xullas, akasiga teng keladigan yigit yoʻqday edi dunyo-da. (J. Abd.) 2. Mohidil uchun bu uchrashuv katta mukofot, albatta. (J. Abd.) 3. Aftidan, mustaqil hayot kechirmoqqa ilk bor qadam qoʻyish ham kishida hayajon uygʻotar ekan. (J. Abd.) 4. Faqat Mastura xolagina qattiq mehr qoʻyganidan, u bilan xuddi bemorga muomala qilganday juda muloyim va ehtiyotkorona soʻzlashardi. (J. Abd.) 5. Axir joʻnar paytida xat yozishni... va'da bermaganmidi? (J. Abd.) 6. Menimcha, ular mashinada ketdilar. (Yu. Semyonov.) 7. Xayriyat, shunaqa oʻrtoqlaringiz ham bor ekan! (Sh.) 8. O d i l o v. Gʻayrati-ku yaxshi, lekin oʻjarligi yomon! (A. Q.)

297- mashq. Oʻqing. Koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama va modal soʻzlarni topib, morfologik tahlil qiling.

1. Qishloqning u boshidan bu boshiga yetgunga qadar biror kimsaning qorasi koʻringani yoʻq. (J. Abd.) 2. Faqat shirin xotiralarnigina eslashga urinishdi. (J. Abd.) 3. Odamning xarakterini oʻzgartirishdan qiyin narsa yoʻq. (J. Abd.) 4. Ertadan boshlab besh yil ichida orttirgan nazariy bilimini amalda namoyish qilishi kerak. Shuning uchun oxirgi bor darsliklarni koʻzdan kechirmoqda, chogʻi. (J. Abd.) 5. Aftidan, ularning koʻpchiligi kechagi boʻron yetkazgan shikastlarni tuzatish, qum toʻlib qolgan xandaqlarni tozalash bilan band. (J. Abd.) 6. Axir, kishi yashash, kurash, yaratish, baxt uchun tugʻilmaydimi?! (B. Daminov.) 7. Voy, gʻalati gapni gapirasiz-a, domlasi, ona oʻz bolasiga yomonlikni ravo koʻradimi? (A. Q.)

298-mashq. Oʻqing. Mustaqil va yordamchi soʻzlarni topib, ularga toʻliq xarakteristika bering.

Otda koʻp yurib oʻrgangan Ortiq endi mototsikl egaridan tushmaydi. Egardan tushsa, umri barbod boʻladigandek qoʻrqadi. Akasining shu zaif tomonini Avaz yaxshi biladi, oʻzaro gap bilan buni yoʻqotib boʻlmasligini sezadi. Shuning uchun boya ataylab uni koʻpchilikning oldida uyaltirib, koʻzini sal ochmoqchi boʻldi. Lekin buning natijasida ikkovining orasi battar sovuganini sezib, hozir ta'bi tirriq boʻlib boryapti. (P.Qodirov)

Undov va taqlid soʻzlar

299-mashq. Oʻqing, undov soʻzlarni topib ma'no va grammatik xususiyatini tushuntiring.

1. Qulluq, qulluq, oʻrtoq vakila, hovlidagilarga men oʻzim yaxshilab tushuntirib qoʻyaman. (S. An.) 2. “Xoʻsh? — dedi Hasan yoʻlda, — demak, sen motoristka boʻlmoqchisan?” (Iboxon.) 3. Ha, barakalla! Ana endi chinakam frontchi qiz boʻldingiz. (Z. Fatxullin.) 4. O, doʻstlar, bilasiz baxt uchun kurash Necha-necha asr davom etganin. (U.) 5. Hovlida qiy-chuv, chapak boʻroni avjga chiqdi. (O.) 6. Qoʻsh hoʻkizim, juft mugizim, Omochni tort, chu! (Mirm.) 7. Salom, ey laylivash mahbubam, assalom, muhabbatim! (M. Qoriev.) 8. «Voy-boʻ-oʻ... — dedi Mohidil sevinchi toshib, — shuncha gul-a!» (J. Abd.)

300-mashq. Oʻqing, undovlarni topib, turlari va gapdagi vazifasini ayting. Avval his-hayajon undovlari qatnashgan, keyin buyruq-xitob undovlari qatnashgan gaplarni koʻchirib, undovlarning tagiga chizing.

1. Qanot yozib uchdik, goʻyo «Ofarin!» deb boqdi dunyo. (E. Rahim.) 2. Xoʻp-xoʻp, obbo, hadeb bir gapni gapiraverasiz-da, — dedi Teshaboy, jahli chiqib. (M.Ism.) 3. — O-o-o... ish chatoq, Nazirqul! — dedi u tizzasiga shapaloqlab osmonga qarab qolib. (N. S.) 4. Voy-voʻ, hamma yoq - gul. (H. Gʻ.) 5. Oʻhhoʻ, juda aktivistka boʻlib ketibsan-ku! (Gʻ. Gʻ.) 6. Xushvaqt suruvni ... qoʻraga haydamoqchi boʻldi: «Qur-ey, qur-ey». (S. Nurov.) 7. Qoʻrqmas shu yerda, aksilinqilob oʻchogʻida? Eh, bechora bola, ma'sum invalid. (N. S.)

301-mashq. Oʻqing, otlashgan va otlashmagan undovlarni topib, ularning gapdagi vazifasini ayting.

1. Bay-bay-bay! Muncha ham shirin uxlapti! Menga ber-chi, bola koʻtarish esimda bormikin... Oʻhoʻ! Polvon qiz boʻladiganga oʻxshaydi-ku. Barakalla. (A. Q.) 2. Layli va Shirinning ohi, qadimiy shashmaqomning hazin mungi singgan Nigoraning qalbidan... Shtrausning melodiyalari joy oldi. (S, An.) 3. Ey soʻz san'atining Asqar togʻlari, Yuksak she'riyatning sha'n buloqlari, San'at maydonida chiqarganlar nom, Assalom alaykum! Salom! Assalom! (U.) 4. Balli, bu sharoitga moslashish belgisi. (S. An.) 5. Va beizn qilgan ishimdan pushaymonim va ohim yoʻqdir. (H. O.) 6. — Bas! — Nigora sapchib oʻrnidan turdi. — Suyunchi olgani keldingizmi? Rahmat sizga! (S. An.) 7. «Chu! chu...!» deb otini savaladi. (S. An.) 8. yer kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «Qur-ey!» bundan keyin ham tinmaydi. (S. Nurov.)

302-mashq. O‘qing, undovlarni aniqlang. Tuzilishiga ko‘ra turini (sodda, takrorlangan, juft, qo‘shma) ayting.

1. «Pisht», — dedi. Haligi ikkita cho‘g‘ yo‘q bo‘ldi-qoldi. (S. An.) 2. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi. (G‘.G‘.) 3. O‘h, o‘h, o‘h! Juda yarashipti-ku, Xumorxon! (A. Q.) 4. Necha marta oldingga kirdim. «Ho rais, chorvaga ahamiyat ber, ho rais...» — deb orqangdan ergashib yurdim. (I. R.) 5. Eh, Komil, Komil, qachongacha oyog‘imga tushov, yo‘limga g‘ov bo‘lasan! Ana, ana chiroq... Ana Botirning signali. Kelyaptilar. Yo‘lini to‘smasang, to‘ppa-to‘g‘ri uyiga qarab ketishi mumkin... (I. R.) 6. Kunlardan bir kuni Saidg‘ozi Ashir bilan gaplashib o‘tirib: «Ho‘, u kuni raisning oldida ranging o‘chib ketdi, nima balo?» — deb qoldi. (S. An.) 7. Xayr. Baxtimga salomat bo‘ling, oyijonim. (S. An.) 8. Ana ota-bola. Qizchasining qo‘lidan ushlab olib ketyapti. (I. R.) 9. Mana, Ra'noxon. Ma, qizim, juda shirin eskimo ekan. (I. R.)

303- mashq. O‘qing, taqlid so‘zlarni topib, ularning o‘ziga xos leksik-grammatik xususiyatini, nimaga taqlid qilinganini (taqlid ob'ektini) izohlang.

1. Taqa-taq... taqa-taq... Taqa-tuq... taq-taqa-tuq... Poezd pishqirib olg‘a chopardi. (N. S.) 2. Qo‘rqqanimdanmi yoki sovuqdanmi qalt-qalt titrab sekin so‘radim. (N. S.) 3. ...Og‘zini katta ochib, esnab olib, so‘ng «miyov-miyov»lab dadamning pinjiga kiradigan Mosh ham sandalni tark etgan edi. (N. S.) 4. Nazira oldinga qadam tashlamoqchi bo‘lgan ediki, uning ko‘z oldidan bir narsa lip etib o‘tib ketdi. (N. Biryukov.) 5. Bo‘ron Mirniy ustida g‘uvv, g‘uvv, g‘uvv deb na'ra tortyapti.(Yu. Smuul.) 6. Qachon qarama, hiring-hiring kulaveradi. (J.Abd.) 7. Maysazorni oralab... Bir ona tipratikan O‘rmalar dikong-dikong. (R. Ne'mat.)

304-mashq. O‘qing, taqlid so‘zlarni topib, turlarini ayting. Gap bo‘lagi sifatida qo‘llangan taqlidiy so‘zlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ter oqardi manglayda duv-duv. (Mirm.) 2. Gup, gup, gup, gup... uradi dizel. (Mirm.) 3. Nog‘oraning serzavq tak-tumi Sari kabi chulg‘aydi qaddin. (Mirm.) 4. Olimjon tut va teraklardan chirt-chirt etib duv to‘kilayotgan yaproqlarga ko‘milib bir lahza xayol surib turdi. (H. N.) 5. Daryoning narigi tomonidagi ufqqa qadar quloch yoygan qumliklar jimir-jimir qiladi. (J. Abd.) 6. Choy qog‘ozini burdalab tashlagandek oy tangalari suv betida milt-milt oqadi. (S. Ahm.)

305-mashq. O‘qing, yakka va takrorlangan holda qo‘llangan taqlid so‘zlarni topib, ma'nosidagi farqni va gapdagi vazifasini ayting; ularni ikki ustun shaklida yozing.

1. Tashqarida ot tuyoqlarining dupuri eshitildi. (O. Yo.) 2. G‘ir-g‘ir esar edi kuzgi shabada, Chirt-chirt etib tushar edi yaproqlar. (S. Nazar.) 3. Shirr... etganda o‘t tushmasin zinhor Paxtakorning anor bag‘riga. (Mirm.) 4. Hovlida yugur-yugur boshlangan, shivir-shivir ovozlar eshitilar, eshiklar sharaq-

shuruq ochilib-yopilar edi. (O. Yo.) 5. Mo‘rilardan tutun burqadi, Gur-gur yonar qoq g‘o‘zapoya. (Mirm.)

306-mashq. O‘qing, otlashmagan va otlashgan taqlid so‘zlarni topib, ularni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring. Taqlid so‘zlardagi egalik, kelishik affikslari tagiga chizing.

1. Mayna uyda yolg‘iz o‘tirib uy tomini chertayotgan yomg‘irning takir-tukurini tinglardi. Takir-tukur yana zo‘raydi. (Sh.Toshmatov.) 2. Teshalarning taqir-tuquri, quruvchilarning baqirib-chaqirishganlari, hatto havoni qoplagan to‘zon ham Navoiyga lazzat bag‘ishlardi. (L. Bat.) 3. U klub va choyxonadan o‘tgach, o‘zidan bir oz narida g‘arch-g‘urch bosib ketayotgan bir necha kolxozchilarni ko‘rdi. (O.) 4. Suvning shildir-shildiri kuchaydi. (S. Ahm.) 5. Hyech kutilmaganda katta ko‘cha tomonidan nog‘oraning «taka-tumi» eshitilib qoldi. (P. T.) 6. U duxobaday mayin, shirali ovozi bilan so‘zlarkan, plyonkalar shirillab aylanar, fotoapparatlarning chaqmoqlari yilt-yilt yonib-o‘char, avtoruchkalar oq qog‘ozlarda qitirlardi. (H. G‘.) 7. Boloxona bo‘g‘otlaridan musichalarning huv-huvi, popushaklarning kukusi eshitila boshladi. (P. T.) 8. Oq-sariq yuzli, oqish-sarg‘ish sochli ozg‘ingina kapitanning komandasi bilan yigitlar apil-tapil safga tizila boshladilar. (H. G‘.)

307-mashq. O‘qing, undov va taqlid so‘zlarni topib, o‘xshash va farqli tomonlarini ayting, ularga to‘liq xarakteristika bering; “Undovlar” va “Taqlid so‘zlar” sarlavhasi ostida ikki ustun shaklida ko‘chiring.

1. Suv jimir-jimir qilib oqyapti. (S. Ahm.) 2. Orkestr tinmay g‘at-g‘ut, gumbir-gumbir qilib turibdi. (S. Ahm.) 3. E-e, keling, Oqilaxon opa, qaysi avtobusda kelishingizni bilmaganim uchun kutib olgani chiqolmadim. (A. Q.) 4. To‘rt tomondan... g‘ir-g‘ir yugurib chiqqan mashinalar skver maydoni orqali g‘at-g‘ut bilan yana yashilliklar qo‘yniga uchardi. (O.) 5. O, qizlarning, ayollarning qo‘llari, ularning ohangdor, aniq, ildam harakati! (O.) 6. Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. (O. Yo.) 7. Toshqyent vokzalidagi kuzatuv, cho‘ldagi dastlabki uchrashuvlar — hammasi... lip-lip ko‘rina berdi.. (H. G‘.) 8. Qix-qix, ha bormisan. (L. Mahmudov.) 9. Faqat vagonning bir maqomda tebranishidan chiqayotgan taraq-turuq hokim edi. (S. Ahm.)

308-mashq. O‘qing. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va modal so‘z, shuningdek, undov va taqlid so‘zlarni aniqlang, ularning ma'no va vazifasini tushuntiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni morfemalarga bo‘ling.

1. Demak, u ishonchli qo‘lda. Uning taqdiri xaqida g‘amxo‘rlik qiladilar. (Sh.) 2. Uning dam u yoqqa, dam bu yoqqa sakrab gul terishi kapalak orqasidan quvlagan yosh bolani eslatardi. (J. Abd.) 3. Voy-yey, o‘shanga xafa bo‘lib o‘tiribsanmi, allaqachon qaytib kelgan. (L. Mahmudov.) 4. Xolidaga xat yozish uchun uch marta qog‘oz-qalam oldim-u, ammo yozolmadim. (O‘.H.) Ikkovlari jiydazor oralab, dala tomon yurishdi. (O.) Yanvarning o‘n beshida kolxozlar yoppasiga cho‘l sari otlandi.. (O.) 7. Ovulga tushgan qo‘noqni et bilan, qimiz bilan siylamagan qozoqni bular qozoq demaydi. (S. A.hm.)

8. Assalomu alaykum, Rohila kennoyi, yaxshi keldingizmi? (L. Mahmudov.) 9. Chol shildir-shildir oqayotgan ariqcha bo‘ylab borardi. (S. Nazar.)

309-mashq. O‘qing. 1. Mustaqil so‘zlarni aniqlab, qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting. 2. Yordamchi so‘zlarni topib, turlari va vazifasini tushuntiring. 3. Undov va taqlid so‘zlarni topib, ularning mustaqil va yordamchi so‘zlarga o‘xshash hamda farqli xususiyatlarini izohlang.

1. Soldat. Yulduzli qalpoq, yashil gimnastyorka, galife shim, yo‘g‘on kamar, kirza etik. Qadam bosganda yer gursillaydi. Men yigitlarning armiyaga ketayotgandagi qiyofasi bilan armiyadan qaytgandagi qiyofasini fikran taqqoslab ko‘raman. yer bilan osmoncha farq. Xizmatga chaqirilgan ozg‘in, rangpar yigitlar ko‘zlari chaqnab, norg‘ul, qip-qizil bo‘lib qaytishadi. Armiya — yigit uchun chiniqish maktabi. Buning ustiga, yigit armiyadan hunarsiz qaytmaydi. (H. G‘.)

II. Pastdagi soy va soy bo‘yidagi qo‘rg‘on ko‘rinmas, faqat soyning u yuzidagi bog‘lar orasidan o‘choqlarda yongan olov shu'lasi milt-milt etardi. Qashqir otini niqtab qirdan endi tusha boshlagan ham edi, qaerdadir oldinda, olamni chulg‘ab olgan mayin qorong‘ilik orasida, birdan lov etib gulxan yondi. Gulxan xiyla olisda yonsa ham, uning aylanasida ivirsib yurgan allaqanday ko‘lankalar ko‘zga chalindi. Sal o‘tmay amir aytgan ikkinchi gulxan ham lov etib yondi-yu, qo‘rg‘onning baland devorlari atrofida, darvoza oldida ot o‘ynatib yurgan suvorilar ko‘rindi. (O.Yo.)

SINTAKSIS

So‘z birikmasi

310-mashq. Matnni o‘qib, gaplarni aniqlang. Har bir gapni so‘z birikmalariga ajrating.

1. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni afzal. (G‘.G‘.) 2. Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar, tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak. (J.Abd.) 3. Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o‘tirdi. (M.Osim) 4. Tonggi salqin o‘rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi. (J.Abd.) 5. Farmonov bu juvonni dashtda bir-ikki marta ko‘rgandi. (O.Yo.) 6. Vazira Sherzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(P.Q.) 7. Ertasiga Ergash kuni bo‘yi ro‘zg‘or ishlari bilan ovora bo‘ldi. (As.M.) 8. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan. (X.T.)

311-mashq. O‘qing. Gaplar tarkibidagi frazeologik birikmalarnn aniqlang, so‘z birikmalaridan farqini tushuntiring.

1. Qosh qorayib qolgan. Pastqam tepaliklar qurshagan Jarqoq dengizdagi charog‘on kemaday uzoq-uzoqlardan ko‘rinib turibdi. (I. R.) 2. A'zamning hafsalasi pir bo‘lib, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, battar ter bosdi. (Sh.) 3. Ishga sho‘ng‘ib ketganidan qulog‘iga gap ham kirmaydi. (S. Nazar.) 4.

Bu yashnab turg‘an gul qanchadan-qancha kishilarning bahridilini ochardi. (S. Ahm.) 5. U shunday ostin-ustin bir vaqtda bir o‘q bilan ikki quyonni urmoqchi bo‘ldi. (P. T.)

312-mashq. O‘qing. So‘z birikmalarini aniqlang. Faqat yordamchi so‘zlar vositasida tuzilgan so‘z birikmalarini ko‘chirib, turini ayting.

1. U hamisha oldinga, kamolot sari intildi. Xo‘sh, kamolotning o‘zi nima? Kamolot ulkan mehnat va insonga nisbatan chuqur mehr-muhabbatdir. Kamolot kishining o‘z iste'dodini yuksaltirishi va bilimini boyitishidir. Eng muhimi shuki, kishi o‘zi orttirgan bilimini boshqalar bilan o‘rtoqlashmog‘i lozim. (L. Bat.) 2. Karimjon bilan ikkalamizga ayvonga joy qilib berishdi. Mayin shamol daraxt yaproqlari bilan so‘zlashayotgan kabi, uzoqdan soy shivirlaydi. Qo‘rg‘onning orqasida bulbul xonish qiladi. Gullarning yoqimli isi dimoqqa uradi. Uyqum o‘chib, notanish yerlarning sehrli tungi manzarasini tomosha qilib yotdim. (S. Yunusov.)

313- mashq. O‘qing. Affikslar yordamida, yordamchi so‘zlar vositasida, shuningdek, intonatsiya orqali tuzilgan so‘z birikmalaridan ikkitadan ko‘chirib, birikma hosil qilishda ishtirok etgan vositalar tagiga chizing.

1. Iroda insonning qudrati, sevishi va sevilishi, nafrati va quvonchi, vafosi va ishonchi demakdir. (J.Abd.) 2. Navoiy keksa do‘stiga Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si bilan sandal daraxti po‘stlog‘ining shirasidan tayyorlangan qimmatbaho dori hadya etdi. (L. Bat.) 3. Turli millatdan tashkil topayotgan bu ulkan oila Qizilqumda haqiqiy do‘stlik qasrini o‘rnatmoqda edi. (J. Abd.) 4. Davlat ishlarida siz kabi olijanob zotlar qancha ko‘p bo‘lsa, yurtimiz shunchalik tez ravnaq topgusidir. (L. Bat.) 5. Tepaqo‘rg‘onda yangragan karnay-surnay ovozlari butun kengliklar sari parvoz qildi. (J. Abd.) 6. Kulgi bir nafas tinmasa ham, vaqt juda sekin o‘tmoqda edi. (O. Yo.)

314-mashq. O‘qing, tenglashish va ergashish yo‘li bilan bog‘langan so‘z qo‘shilmalarini aniqlab, ular orasidagi farqni tushuntiring. 1. Teng bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan so‘z qo‘shilmalarini ko‘chirib, bog‘lovchi vositalar tagiga chizing. 2. Ergashish yo‘li bilan tuzilgan so‘z qo‘shilmalarini ko‘chirib, hokim va tobe so‘zlarni belgilang.

1. Pastliklarda g‘uj-g‘uj pista daraxtlari, azamat toshlar orasida sinkaga solingandek ko‘k suv goh ko‘rinadi, goh ko‘rinmaydi. Soyning narigi tomonida yalang‘och tog‘lar yuksala-yuksala vodiy yo‘lini to‘sib yotibdi. Uning qizil cho‘qqilariga oftob tushib turibdi. O‘ngirlarda saratondan yashirinib qolgan qor uyumlari ko‘rinadi. (S. Ahm.) 2. Qishloqlardan, yaqin-uzoq dalalardan paxtalar, qovun-tarvuzlar, xashak-pichanlar, don-dun, o‘tin-yog‘ochlar, makkapoya, g‘o‘zapoya, beda va boshqa narsalar yuklangan aravalar shaharga paydarpay kelib turadi. Katta yo‘llar bo‘yidagi daraxtlar, uylar, devorlargina emas, ot-ulov yurmaydigan jin ko‘chalardagi, hatto ko‘cha yuzidan yiroq hovli-maydonlardagi daraxtlar, uylar, devorlar ham xuddi osmondan tuproq yoqqandek ikki enli chang ostida so‘rrayib yotadi. (M.Ism.)

315-mashq. O‘qing. Har bir gapda nechta birikma borligini va ular qanday munosabatga kirishganligini ayting. Moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalarini ko‘chiring.

1. Traktorchilarning ovqatlanishi va dam olishi uchun Anorxonning taklifi bilan kolxoz duradgorlari ko‘chma shiypon yasab bergan edilar. (I. R.) 2. Jo‘ra quyoshning issiq nurlari sochilib turgan mana bu osmonni sevadi, oq oltinlar yetishtirgan mana bu yerni sevadi, laziz mevalar, soya-salqinlar bergan bog‘larni sevadi. (N.Biryukov.) 3. E, o‘rtoq Odinaev, har bir komandir o‘zining jangchilarini o‘z farzandidek yaxshi bilishga, esida saqlab qolishga majbur. (F. Niyoziy.) 4. Navoiy sharafiga tantanali qabul marosimlari o‘tkazildi, ziyofatlar berildi. (L. Bat.) 5. Chol o‘rnidan turib yana gullar orasiga kirib ketdi. (S.Ahm.) 6. Siz qozoq xalqining sevgi, salomin, Do‘stlik haqidagi shirin kalomin, Qardoshlik tuyg‘usin ola keldingiz, Qalbimizga sevinch sola keldingiz. (U.)

316-mashq. O‘qing. Boshqaruv munosabatidagi birikmalarni ko‘chirib, boshqaruvchi (hokim) va boshqariluvchi (tobe) so‘zlarni aniqlang, ular qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Butun yurtda qizg‘in ish borardi. Navoiy savdogarlar va sayyohlar uchun hamma yo‘llarda rabot va karvonsaroylar qurdirish, ko‘proq madrasa, maktab va shifoxonalar barpo etish, ariqlar qazdirib, qaqrab yotgan yerlarga suv chiqarish; o‘tmishning qimmatbaho yodgorliklarini vayrongarchilikdan asrab qolish, olim va shoirlarni qo‘llab-quvvatlashga intilardi. Bularning hammasi muttasil nazorat qilib turishni, sabot-matonat bilan mehnat qilib, katta mablag‘lar sarflashni talab etardi. (L. Bat.)

317-mashq. Bitishuv yo‘li bilan tuzilgan so‘z birikmalarini topib ko‘chiring, ularning ifodalanishi va boshqa birikmalardan farqini ayting.

1. Serfayz bahor darakchisi bo‘lgan bu havo Saodatning diliga quyildi, ruhi yana ham tetik tortib ketdi. (I. R.) 2. Maktabning katta zalida sozandalar saf tortib muzika chalmoqda. Yoshlar birin-ketin raqsga tushmoqda. (I. R.) 3. Saodatning yuragi sof sevgiga to‘la edi. U yoshligidan qishlog‘i, onasi, jajji singlisini sevardi. Mevazor bog‘ni, uning har bir tup o‘rigi, olmasi, gilosu olchasini, gulini, qushlarini, quyoshi, oyi, yulduzlari va oqin suvlarini chin qalbdan yaxshi ko‘rardi. Keyin bu qalbga Bahodirning iliq nafasi, otashin muhabbati qo‘shildi. (I. R.) 4. Ular shovillab oqayotgan daryo bo‘yida jimgina turishardi. O‘ynoqi ko‘klam yeli bu qo‘shaloq baxtiyor yoshlarning boshiga xushbo‘y is taratib turgan olma gullarini yog‘dirardi. (K. Moiseeva.)

318-mashq. O‘qing. Gaplardagi so‘zlarning bog‘lanishini aniqlab, namunadagidek sxema bilan ko‘rsating.

Komiljon yotish oldidan oʻtov orasidan bosh chikarib atroflarga qaradi.

Keng yaylov kech tunda bu tepalikdan juda oʻzgacha koʻrinardi.

1. Uzoq-uzoqlarda gulxanlar tovlanadi. Hamma yoq jimjig. Bu jimlikni uzoq-uzoqlarda hurigan qoʻriqchi itlarning ovozigina buzmoqda. (I. R.) 2. U kechqurun va kechasi boʻlgan hamma gaplarni fikran qaytardi. Beruniy bilan suhbatini ataylab sekin, toʻxtab-toʻxtab takrorladi. Har bir soʻz oʻz ma'nosidan koʻra koʻp daraja ahamiyatli tuyuldi. Hyech kim hyech qachon Husayn bilan bunday gaplashmagandi. Unga xuddi mana shu kerak edi. (V. Smirnova-Rakitina.)

319-mashq. Oʻqing. Soʻz birikmalarini topib, ular tarkibini soʻz turkumlari jihatidan tahlil qiling.

1. Komiljon oʻrnidan turib atrofga nazar tashladi. Atrofda tepaliklar, qirlar, qorli togʻlargina koʻrinadi. Togʻlardan begʻubor yoqimli shabada esmoqda. Togʻ qushlarining sayrashi qoʻylarning ma'ragan ovozlariga joʻr boʻlmoqda. Toʻrgʻaylar maysalar ichida yoʻrgʻalab yuribdi. U qamashgan koʻzlarini uqalab astoydil qaradi. (I. R.) 2. Mohidil tashqariga yugurib chiqib, kuylovchini qidirib topishga, koʻrishga oshiqdi. (J. Abd.) 3. Moʻmin Mirzoni qal'aga keltirib qamashgan kuni Navoiy Mashhadda edi. (L. Bat.)

GAP

320-mashq. Oʻqing. Matndagi gaplarni aiiqlab, tegishli tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring. Gapning soʻz va soʻz birikmasidan farqini tushuntiring.

Hamid Olimjonga aqalli Pushkin yoshiga yetish ham nasib boʻlmadi u bor-yoʻgʻi salkam 35 yil yashadi va shundan yigirma yili davomida muttasil ishladi va yozdi adabiyot haqida uning nomisiz, ilhomisiz yozilgan birorta maqolani topib bering-chi uning nomi tilga olinmagan birorta she'riy anjuman yoki mushoirani eslaysizmi shu yillar ichida, ya'ni adabiyotimizga ikki-uch yangi avlod kirib kelgan davr davomida va hozir, shu kunlarda ham, Hamid Olimjonni, Hamza va Abdulla Qodiriy, Oybek va Gʻafur Gʻulom qatorida, oʻziga ustoz deb bilmagan bironta ijodchi bormi. (H. Gʻulom.)

321-mashq. Oʻqing. Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turini aniqlang, farqini ayting.

1. Birov yon bag‘irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. (S. Ahm.) 2. Olamni quyosh, insonni ilm yoritadi. Bilmaslik ayb emas, o‘qimaslik — ayb. (Sh.) 3. Kombinatga borganmisan o‘zing? Qirq ming odam ishlaydi. (S. Ahm.) 4. Dunyoda el va yorga xiyonat qilishdan, zolimga do‘st bo‘lishdan ham ko‘ra og‘irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? (S. Ahm.) 5. Bu — bizning chinakam balog‘at yoshimizning birinchi kuni! Qanday tantanali jimlik! O‘sib yotgan o‘t-o‘lanlar go‘yo qizil alanga berib yonayotganday, oyoq ostida tutab yotganday tuyuldi. Biz faqat dashtdagina bayram nashidasini sezdik. (K. Abukov.)

322-mashq. O‘qing. So‘roq gaplarni topib, turlarga ajrating: sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, so‘roq-buyruq gaplar. Avval so‘roq olmoshlari, so‘ngra so‘roq yuklamalari, undan so‘ng so‘roq ohangi orqali ifoda qilingan so‘roq gaplarni ko‘chiring, so‘roq ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o‘tiribdi? (T.Malik) 2. Seni ham qo‘rboshi yigitlari qidirdilar? (A.Qod.) 3. Bu ahvolda suvga tushgan bo‘lka nonga o‘xshab cho‘kib o‘tirganingdan ruhi ranjimaydimi? (S.Ahm.) 4. O‘sha lim-lim daryoni ayyuhannos solgan bilan orqaga qayirib bo‘larkanmi? (O‘.Usm.) 5. Mayli, tanasi boshqa dard bilmas, deganlaridek, uning dardu hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi? (O.Yo.) 6. Urush qurbonlariga yodgorlik o‘rnatishdan savob ish bormi? (O.Yo.) 7. – Men seni ket deyapmanmi? Yaxshi odam bo‘lsang, o‘zingga foyda! Yoshing yigirma beshdan oshdi. (P.Q.) 8. U chiqadigan vagondan keyingisining qarshisidagi gazeta-jurnal sotish do‘konchasi yonida G‘ulom aka turardi. Mohidilni kutyaptimikin? Xuddi shu bugun, shu soatda kelishini qayoqdan bildiykin u? (J.Abd.) 9. O‘z nomi bilan qora bo‘lgan bu qora qishloqda odamlar xoru zorligi buloqday qaynab yotmayaptimi? Ota-buvalari bu yerni shuning uchun ham Qorabuloq deb atab ketishmaganmikan? (M.Ism.) 10. Axir ko‘krak ostida gup-gup urib turgan yurakning o‘zi hamma sirini bildirib turgandan keyin uni til bilan ifoda etishga hojat qoldimi? (J.Abd.) 11. Dam o‘tmay suv ichgani tushaversa, ish unumli bo‘larmidi? (J.Abd.)

323-mashq. O‘qing. Buyruq gaplarni ko‘chirib, ma'no munosabati va tinish belgilarini izohlang.

1. Darveshali, ... har ishga bel bog‘lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o‘zingiz uchun bir mezon deb biling. (O.) 2. Navoiy, qilichni ko‘tarmasdan, ...keskin turda so‘zladi: “Qilichlarni qinga joylangiz, shu lahzada taslim bo‘lingiz!” (O.) 3 Murodovani siz kutib oling, shunday kutib olingki, bu yog‘i mahkam bo‘lsin. (I. R.) 4. Priborlarni o‘z joningdan ham avaylab saqla. (A. Chakovskiy.) 5. Kartani sizga qoldiraman. Belgilarni o‘z kartangizga o‘tkazib oling. Keyin sizdan olaman. Hozir esa, keling, soatlarimizni bir-biriga to‘g‘rilab olaylik. (A. Chakovskiy.) 6. O‘zingni tut, Saodat, kishilarni shubhaga solma, sen ularning hammasiga bir ko‘z bilan qaraydigan kishisan. (I. R.) 7. Bir qop somon suvga tashlansin, Qaerda charx ursa aylanib, Quvur shunda to‘sa boshlansin. (S. Nazar.)

324-mashq. O‘qing. Undov gaplarni topib, ularni turlarga ajrating: darak-undov, so‘roq-undov, buyruq-undov gaplar.

1. Doimo olg‘a qarab intilish, hamma vaqt yangilik qidirish, yutuqlardan mag‘rurlanmaslik, muvaffaqiyatsizliklar ko‘ndalang bo‘lganida ham tushkunlikka berilmaslik, shuhrat ketidan quvmaslik mening oliy maslagim bo‘lsin! (J. Abd.) 2. Inson qalbiga yo‘l topish — juda mushkul, ayni mahalda katta san'at! Orzu-havaslarga to‘la, nozik hissiyotlar bilan yashovchi, qaynoq ehtirosli qalbni asray bilish, ehtiyot qilish — fazilat! Inson atrofidagi hamma narsani ana shu qalb ko‘zi bilan ko‘radi! Ana shu qalb shishaday chil-chil sinsa, nohaq toptalsa, iztirob o‘tida qovurilsa, uni o‘nglash qiyin bo‘ladi! (S. Abd.) 3. O‘z qo‘lim bilan achchiqqina palov qilaman. Qani, yemasdan ketib ko‘r-chi! (O.) 4. Hoy, o‘roq-ketmonning asl egalari! yer-suvning sohibkorlari! Ko‘zlaringizni ochinglar! yer-suv, hukumat, jamiki boylik sizlarniki! Boy va eshonlarga noningizni tuya qildirib kelganingiz yetar! O‘g‘il-qizlaringizni o‘qiting! (N. S.) 5. Tabiat oshiqlari va turistlar! Qo‘nib o‘tgan joyingizni aslo iflos qila ko‘rmang. O‘zingizdan keyin keladigan kishilar haqida ham qayg‘uring! Kishining madaniyati uning tabiatga bo‘lgan munosabati bilan belgilanishini unutmang! (A. Kolbinsev.)

325- mashq. Tegishli tinish belgisini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, ifoda maqsadiga ko‘ra turini ayting.

1. Men o‘z baxtimni, quvonchimni, boyligimni uzoqda, olis tog‘lardan topib keltirdim (M.Qoriev) 2. – Onang qandoq xotin edi Qandoq xotin edi (S.Ahm.) 3. Bahromov bilan birga chizadigan loyihalaring Bo‘zsuv bo‘ylarini ham xunuk qilib qo‘yadigan bo‘lsa, uni qaytadan obod qilguncha, qancha kuch ketadi, qancha vaqt ketadi (P.Q.) 4. – Vazmin bo‘ling, Shovvoz – Men vazmin bo‘lay – dedi Shovvoz hansirab. (O.Yo.) 5. Bas qiling – dedi Nigora. – Hozir bas qiling yo (O.Yo.) 6. Emaklab u tomon kela boshladi: - Meni kechiring Kechiring (S.Ahm.) 7. Raqiblar o‘rtasidagi masofaning tanobi tortishib, tobora qisqarib borardi (A. Hasan) 8. Undan tashqari, otaxonimizga Samarqandni ko‘rsatmoqchimiz (S.Ahm.) 9. Bekorga halloslab yurgandan ko‘ra, boynikida yashash yaxshiroq emasmi (G‘.G‘.)

326- mashq. O‘qing. Gaplarning tuzilish jihatidan turini ayting, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. O‘rtoqlar, biz farzandlarimizning tarbiyasiga qancha e'tibor bersak, ular shuncha odobli, aqlli va mohir bo‘lib chiqadi. (A. Mirahmedov.) 2. Bizda har kim o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi kerak, birovga qaram bo‘lish, kimgadir bo‘ysunish degan eskilik sarqitlari allaqachon barham yegan. (J. Abd.) 3. Uning betinim harakat qilayotgan epchil qo‘llariga qaray-qaray Sattorovning ko‘zlari tinib ketdi. (S. Nazar.) 4. Sen institutga tayyorgarlik ko‘rasan, men esa dugonalarim bilan kolxozga ishga chiqaman. (K. Abukov.) 5. U biram chiroyli kularkanki, beg‘ubor qalbi, samimiyligi xuddi shu kulgisida aks etib turgandek edi. (S. Ahm.) 6. Dengiz dovuli bilan mashhur, sahro — bo‘roni bilan! (J. Abd.) 7. Haqiqiy turmush halol mehnatda ekan. (M. Salom.)

327-mashq. O‘qing. Sodda gaplarni topib, tarkibiga ko‘ra turini ayting. Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplardan ikkitadan ko‘chirib, farqini tushuntiring.

1. Vatan o‘g‘limizni o‘z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o‘rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug‘ bo‘ladi. (H. G‘.) 2. Kelmaydi. Mototsiklini patillatib Suluvingizning oldiga ketdi. (S. Ahm.) 3. Men o‘g‘limning Vatan oldidagi burchi yozilgan bir enlik qog‘ozni qayta-qayta o‘qib, eshik oldida bir necha daqiqa turib qoldim. (H. G‘.) 4. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to‘da-to‘da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o‘z navbatida

ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to‘g‘ri keldi. (L. Bat.) 5. Birinchi bo‘lib motorga o‘t berish bilan boshqalarni ham jadal ishga chorlaydi. (J. Abd.) 6. Daraxtzor hovlidagi skameykalardan birida Malika uch-to‘rt xotin bilan suhbatlashib o‘tirardi. (H. G‘.) 7. Malikaning so‘zlarini zaldagilar qarsaklar bilan kutib olishdi. (H. G‘.)

328- mashq. O‘qing. Yig‘iq va yoyiq ikki bosh bo‘lakli gaplarni aniqlang. Yoyiq ikki bosh bo‘lakli sodda gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirib ko‘chiring.

1. Komiljon yangi ferma binosi ichidan chiqarilgan quvur oldida qazilayotgan ariqning narigi yuziga o‘tib to‘xtadi. (I. R.) 2. Haydar — montyor, Anorxon —zveno boshlig‘i. (I. R.) 3. Axir, Vatanim bepoyon, keng-ku. Mirzacho‘lda bilagimni shimarib men ishlamasam, kim ishlaydi!? (B. Daminov.) 4. Kechasi. Vaqt allamahal bo‘lib qolgan... Erta-indin imtihonlar boshlanadi. Qyecha-kunduz berilib kitob o‘qiyman. (Sh. Siddiqov.) 5. Tog‘ yo‘li boshlandi. Pastak adirlar oralab ketgan kaftdek yo‘l ilon izi bo‘lib malla rang qirlar orasida yo‘qolib ketardi. (S. Ahm.) 6. Hamma jimib qoldi. Odamlarning ko‘z oldiga toshlarni Farhoddek qulatgan Rustamjonning pahlavon qiyofasi kelardi. (S. Ahm.)

329- mashq. O‘qing. Yoyiq sodda gaplardagi ega va kesim tarkibini ayting.

Dastlabki kunlar yo‘l uncha mashaqqatli bo‘lmadi. Cho‘l o‘tlari endi qovjirab kelayotgan bo‘lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko‘m-ko‘k o‘tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho‘l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o‘xshab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o‘tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o‘pkalarini yondirardi. (M.Osim)

GAP BO‘LAKLARI

330-mashq. O‘qing. Gaplarning ega va kesimini topib, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir. (Maqol.) 2. Ishlagan yerni yashnatar. (Maqol.) 3. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz do‘stini. (Maqol.) 4. U kunduzi ustaga qarashar, damni bosar, cho‘g‘da toblangan temirlarni sandonga qo‘yib, og‘ir bosqon bilan usta xohlagan shakllarga keltirib berar, qozon-tovoq, choydish va qumg‘onlarni tuzatar, qozon qaynatar, xullas, bir amallab kun o‘tkazar edi. (O. Yo.) 5. Oqsoy vodiysi bo‘ylab pastga tomon yurishning ham gashti bor. (A. Kolbinsev.) 6. Bu shovqinlarga Bashorat ko‘pdan ko‘nikib ketgan. (S. Ahm.) 7. Bu yer to‘xtash va dam olish uchun juda qulay. (A. Qolbinsev.)

331-mashq. Koʻchiring. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizing; kesimning tuzilish jihatdan turlarini izohlang.

1. Ana shu saksovullar, ana shu barxanlaru, qoʻy-qoʻzilar mening odamligimni tanitdi. (M. Salom.) 2. Bu yer xuddi qal'aning devoriday tik. (H. Gʻ.) 3. Fonar koʻtargan toʻrt qiz ichkari kirishdi. (S. Ahm.) 4. Endi ishimiz — besh. Endi sen bilan biz gʻolib chiqdik. (Yu. Semyonov.) 5. Ikki yuzga yaqin kursantlar oʻrtasida eng yoshi men bilan Oqil edi. (N. S.) 6. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi. (O.Sharafiddinov) 7. Adolatsizlnk gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq — ulugʻ baxt! (Sh.) 8. Kitob oʻqimaydigan boshliq — shoʻrimiz, u na san'atning, na adabiyotning, na ilmning qadriga yetadi. (Mirm.)

332-mashq. Oʻqing. Sodda va tarkibli kesimlarni aniqlab, farqini tushuntiring.

1. Norqoʻzi koʻchatlarni chuqurlarga bittadan tashlab chiqdi-da, ketmonni cholning qoʻlidan olib, tuproq torta boshladi. (H. Gʻ.) 2. Urush — quyon ovi emas. (A. Q.) 3. Ivan Andreevich Mudrov — xizmat koʻrsatgan irrigator. (H. Gʻ.) 4, Dunyoda uch narsa yomon deyishardi. Biri — yolgʻiz qoʻyni yetaklash, ikkinchisi — birovni kutish, uchinchisi —tarvuz koʻtarish. (S. Ahm.) 5. Kechasi ham shudgor olishyapti, bir-ikki soat dam olib yana ishga tushib ketishadi. (S. Ahm.)

333-mashq. Oʻqing. Ega bilan kesim orasiga tirening qoʻyilish va qoʻyilmaslik sababini izohlang.

1. Demak, shu ishning muallifi uchovimiz!.. (Oʻ.Usm.) 2. Bu avliyoga esa hali-hali bir gap oz, ikki gap koʻp. (Oʻ.Usm.) 3. Toʻlishib qolgan oy xiyla koʻtarildi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 4. Donolikiing bir belgisi — adolat, Zulm bilan hamroh erur jaholat. (S. Nazar.) 5. Uning nazarida har bir chanoq — baxt tabassumi, har bir tola — qon tomiri; u paxta bilan tirik, paxta — uning hayoti, paxta — uning kasbi, uning quvonchi. (I. R.) 6. 7. Barmoq oʻyini — polvonlar san'ati! (T.Murod) 8. Niyati — sahroda ham yangi shaharcha barpo etib, choʻlni bogʻ-boʻstonga aylantirish! (O.Yo.) 9. Yana biz uchun eng zaruri hozir ekayotgan “F” gʻoʻzamizdan olti-yetti kun oldin yetilishidir. (Oʻ.Usm.) 10. Ammo orzularingizni tezda qondirish uchun birdan-bir yoʻl — orangizga besh-olti oʻrtoqni tarqatish. (A.Qod.)

334-mashq. Oʻqing. Kerakli oʻrinlarda ega bilan kesim orasiga tire qoʻyib, gaplarii koʻchiring; eganing tagiga bir va kesimning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizing.

1. Unga Vatanningki ishi tushibdimi, demak, u yetuk grajdan. (H. Gʻ.) 2. Orzuim yana Mirzachoʻlga, jonajon qishlogʻimga borib ishlash. (M. Qoriev.) 3. Siz oʻsha azamat mergan, eng kuchli, eng dovyurak, eng himmatli yigitsiz. (L. Bat.) 4. Bu qum yuzasidan bir qarich ichkarida yotgan, hali sovib ulgurmagan kunduzgi jaziramaning taftidir. (J.Abd.) 5. Kipriklar oʻq, moʻljal yurak, koʻzlar boʻlsa sal qiygʻoch. (Sh. Rustaveli.) 6. Oʻzi qoramagʻiz, Toʻlagina, yuzlari loʻppi. (Mirm.) 7. Uning ovoziga quloq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamiz. (O.) 8. Bu oʻsimliklarga doir qalingina kitob edi. (O.) 9. Bu yer mehnat, ijod, rohat manzili, Bu yer dong chiqargan mardlar makoni. (U.)

335-mashq. O‘qing. Gaplarni yig‘iq gap tarzida ko‘chirib, kesimning ega bilan mosligini aniqlang.

1. Bu payt Munavvarning kabinetiga hamshira kirib keldi. (S. An.) 2. Respublikada dong taratgan atoqli artistka zo‘r zavq bilan yangi bir ashulani ijro etardi. (Sh.) 3. Jaloloboddagi katta maydonga uch yuz tog‘li odam to‘plandi. (S. Kalmikov.) 4. Dehqon tong otgandan kun botguncha dalada. (S. Kalmikov.) 5. Shaharning bir chekkasida o‘troq arablarning taxta va qamishdan qilingan kulbalari joylashgan edi. (J. Vern.) 6. Biz diplomatlardan ham, generallardan ham kuchlimiz. (N. T.) 7. Dadamning changallarida semiz bedanani ko‘rib dunyo-dunyo quvonganim hali-hali esimda. (N. S.)

336-mashq. O‘qing. To‘ldiruvchilarni topib, turi va qanday ifodalanganini ayting. To‘ldiruvchini o‘zi bog‘lanib kelgan (boshqarayotgan) so‘z bilai birikma tarzida ko‘chiring.

1. Men chollarning gapiga beixtiyor berilaman. Dam bobomga, dam uning o‘rtog‘iga tikilaman. Ular allaqanday xonlar, beklar, qo‘rg‘onlar, urushlar to‘g‘risida so‘zlashadi. Allakimlar qandaydir katta darvozalarni berkitib qo‘ygan, kimlardir shaharga suv bermagan, bog‘dorlar qaylargadir qochib ketgani uchun bog‘larda mevalar pishib, sasib-chirib ketgan. Bu gaplar menga ertakdan ham qiziq tuyuladi. Nihoyat chollar jim bo‘lishadi, go‘yo yoshliklarini sog‘inganday, boshlarini quyi solishadi. (O.)

2. Sen yana yashnab ketasan, seni bo‘stonga aylantirayotgan xalqing hyech kam bo‘lmaydi. Sen davr suradigan zamon keldi. Shu zamonni, mustaqil hayot zaminini qurayotganlarga men chin yurakdan zafar, omad tilayman. Nasib etsa oz bo‘lsa ham ularga qo‘limdan kelganicha yordam beraman. (O‘.U.)

337-mashq. O‘qing. Avval vositasiz, so‘ngra vositali to‘ldiruvchilarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring, farqini tushuntiring.

1. Shu kichkina oppoq qo‘lchalar Vatan burchini oqlar, albatta! (Mirm.) 2. Naqqoshga yasatig‘liq bir ot in'om qilinadi, qolgan mehmonlarga esa qimmatbaho sarpolar kiygizildi. (L. Bat.) 3. Erkni, qirni, daryolarni, cho‘lni qo‘msab qoldi dil. (Sh. Rustaveli.) 4. Munavvar balanddan olingan tuproqni yerning chuqurroq yeriga to‘kkach, ... bir kosa qatiq keltirib, mehmon oldiga qo‘ydi. (S. Nazar.) 5. Uzoq-uzoq elatlarga, ellarga, Janub yoqda turfa-turfa gullarga, Mushtoq bo‘lgan qancha-qancha dillarga Bizdan salom eltadilar turnalar. (H. G‘.)

338-mashq. O‘qing. Kelishik affikslari va ko‘makchili so‘zlar bilan kelgan to‘ldiruvchilarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Otang, albatta, keladi, onang seni qidirib yuribdi, bugun-erta kelib qoladi, deb bolalar qalbida umid chirog‘ini so‘ndirmay yurgan hamshiralar, murabbiyalarni ko‘rganda odam uchun faxrlanmay bo‘ladimi! (H. Tojiboev.) 2. Gulnoz to‘rttagina uzum g‘ujumini piyolaga solib ezdi va choy qoshiqda

buvi labiga tutdi. (H. G‘.) 3. Urush haqida ham, tinchlik, arzonchilik haqida ham hyech narsa demadi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 4. “Aziz otamizning fikrini, yo‘lini himoya qilmoq uchun, — dedi Sultonmurod bo‘g‘iq va hazin ovoz bilan, — qilichingizni mahkam tuting, bahodir!” (O.) 5. “O‘zbekning o‘z xalqiga qilgan xizmati uning paxtachilik rivojiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi”, — deya o‘z so‘zini dabdaba bilan tugalladi Xalilov. (I. R.) 6. Men tinchlik haqida qo‘shiq aytaman, Bulbul gul ishqida kuylaganiday. (U.)

339-mashq. O‘qing. To‘ldiruvchilarni topib, ifodalanishini ayting, birikma holida qo‘llangan to‘ldiruvchilarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Qiz bolaning bunchalik mard bo‘lishini men endi ko‘rishim. (P. Q.) 2. Na Mansurov Zebinisodan gina qildi, na Zebiniso undan. (F. Niyoziy.) 4. To‘g‘onlar, kotlovanlar uchun, suvni tez oqizish zarur bo‘lgan joylar uchun beton kerak. (J. Abd.) 4. Qanday qilib eshiklardan o‘tganini, zinalardan chiqqanini bilmadi. (Sh.) 5. Saltanat shularning barini kattalardan eshitgan edi. (O‘.Usm.) 6. Men buvimlarni tez-tez ko‘rishni, biznikiga kelishlarini, yo ularnikiga borishni yaxshi ko‘rardim. (O‘.Umarbekov.)

340-mashq. O‘qing. Ajratilgan to‘ldiruvchilarni topib, ular qaysi so‘zni izohlayotganini tushuntiring.

1. Mashhur terimchi Xosiyatoyni — gavdasi ham, ko‘zlari ham kichkinagina, lekin zuvalasi pishiq, harakatlari yengil, chaqqon yosh ayolni — hurmat bilan to‘rga o‘tqazishdi. (O.) 2. Bola taqlidchi bo‘ladi, u sizga, o‘z otasiga, taqlid qilishga harakat qiladi. (S. Z.) 3. Biz uchun, suvi kul rang dengiz farzandlari uchun, bu — bir jonli afsona. (Yu. Smuul.) 4. Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo‘lish hazil gap emas! (O‘. U.) 5. Aksari dilgir bo‘lgan chog‘larida u o‘zining eng asl do‘stlari — kitoblariga murojaat qilardi. (L. Bat.)

341-mashq. O‘qing. Aniqlovchilarni topib, so‘rog‘i, ifodalanishi va qaysi so‘z bilan bog‘lanib kelganini ayting.

Alisher rastalardan ildam o‘tib bordi. Bozor chekkasidagi qo‘l yozma kitoblar taxlab qo‘yilgan kichik do‘konchalar uning e'tiborini jalb qildi. Bu sovuq va nim qorong‘i do‘konchalarda inson aqlining xazinalari o‘yma gulli charm muqovalarga o‘ralib taxlanib yotardi. Kitob do‘konlari yoniga muqovasoz ustalarning do‘koni joylashgan. Alisher to‘xtab, mashhur muqovasoz ustaning gul solish oldidan charmni tarang qilib tortib, iylashini uzoq tomosha qildi. Ayniqsa, ana shu rastalarda Alisher o‘zining hirotlik ekanini yaqqol his etdi. Eski qo‘l yozmalarning hidini huzur qilib iskarkan, u ketishga shoshilmasdi. (L. Bat.)

342-mashq. O‘qing, aniqlovchilarni topib, turini, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Sifatlovchilarni sifatlanmishlar bilan birga ko‘chiring, sifatlovchi tagiga to‘lqinli chnziq chizing.

1. Choy ustida shiringina oilaviy suhbat boshlanib ketdi. (J. Ikromiy.) 2. Yangi klub. Katta zalda o‘tgan kuni bo‘ldi bal. (Q. H.) 3. Ming bir xil davo bor totli qimizda. (Mirm.) 4. Chang-to‘zon bilan qoplangan osmonda mayda-mayda yulduzlar g‘ira-shira miltirardi. (N. Biryukov.) 5. Boychechaklarning xushbo‘y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli hidi bilan uchirib keldi. (I. R.) 6. Bir qarashdayoq uning zehnli, udli-shudli ekanligini bilib oldim. (Sh. Siddiqiy.) 7. Uning na mol-davlatga, na shon-shavkatga ishtiyoqi bor. (K. Moiseeva.) 8. Qizning onasi muallima, otasi xizmatchi edi. (I. R.)

343-mashq. Ajratilgan qaratqich aniqlovchisini topib, qaysi so‘zni izohlayotganini ayting; ularni qaralmish bilan birga ko‘chiring.

1. Biz, ana shu sinalgan kuchning vakillari, do‘stligimizning tarixiy izlaridan kelib, uning veteranlari, yangi avlodlari bilan tanishdik. (As.M.) 2. O‘rik gulini eslatuvchi laylak qor girdobidan qutulmoqchi bo‘lgandek yelayotgan suvoriyning — Farg‘ona yigitining — bor diqqati ilon izidek o‘rmalagan yo‘lda. (S. Azimov.) 3. Aftidan, mayorning fyurerga yaqinligi haqidagi ovozalar bu yerdagilarnpng — gospitaldagilarning ham qulog‘iga yetgan ko‘rinardi. (A. Chakovskiy.) 4. Lekin har ikkovi ham bir narsani — Gavharning endigi taqdirini o‘ylar edilar. (O‘.H.)

344- mashq. O‘qing. Izohlovchilarni topib, ularning ma'no xususiyatlarini ayting.

I. Hali juda yoshlik chog‘imda Ismoil boboning to‘y bazmida toshkentlik mashhur To‘ychi hofiz, beshariqlik Hazratqul qori, qo‘qonlik mashhur hofiz va askiyachi Erka qori, marg‘ilonlik mashhur Yusufjon qiziq, Samarqand sozandalaryning‘ sardori mashhur sozanda-xonanda ustoz Hoji Abdulazizlarning dutor, childirma hamda tanburlari, yalla, askiyalari, ichak uzdi qiziqchiliklari avjiga chiqib, to‘y bazmining fayziga fayz qo‘shilgandi. (N. Safarov.)

II. 1. Mahallada Isroil va Muslim degrez, Odil Varshav, Hayitboy oqsoqol, Ahmad kaltadum, birinchi grammofon olib kelgan Abdulla forumlar bilan ulfatchilik qilardi. (Mirm.) 2. Raqqosa qiz tovlanib xil-xil, Qushdek uchar sahnada yengil. (O. Xoldor.) 3. Master Fyodor Kuznetsov bilan bosh murabbiy Omonov bir-birlariga qarab, ko‘z urishtirib olishdi. (Iboxon). 4. Nafisa opa ilgari bolalar bog‘chasida murabbiya bo‘lib ishlardi. (Mirm.)

345-mashq. O‘qing. Gaplardagi izohlovchilarni topib, izohlanmish bilan birga ko‘chiring.

1. Usta Qambar yana o‘sha bir yuz yetti yoshlik kampirning oldiga bordi. Fotima kampirning sakson va sakson besh yoshlik ikkita mo‘ysafid o‘g‘li bor edi. (O‘.H.) 3. Biz, ekspeditsiya qatnashchilari, ikkinchi yer yo‘ldoshi haqida juda oz narsa bilar edik. (Yu. Smuul.) 4. Yo‘rgakda yetim qolgan bu go‘dakni buvisi — oyisining oyisi — Huriniso xola tug‘ruqxonadan o‘z uyiga olib keldi. [I. R.) 5. Siz, o‘qituvchilar, bu yangiliklarni zo‘r berib turmushga oshirishlaringiz kerak. (R. Guntekin.) 6. Biz — qizlar uni kuzatib yurardik. (S. Z.)

346- mashq. O‘qing. Hollarni topib, so‘rog‘i, ifodalanishi va ma'no munosabatini ayting.

O‘shanda ertasiga u dadasining o‘rtog‘iga konni ko‘rsatadigan bo‘ldi. Quyoshli kuz ertasi juda chiroyli edi. Yo‘l bo‘yidagi qayrag‘ochlarning shapaloqdek-shapaloqdek qizg‘ish barglari oyoq ostida shitirlaydi, ko‘lmak suvlar jimirlaydi. Tog‘ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho‘qqilar quyoshga o‘chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag‘irlarda saf tortgan archalar qorayib ko‘rinadi. So‘qmoq yo‘l qadam sayin yuqoriga o‘rlab boradi, pastda eski Shodasoy qishlog‘i sarg‘ish daraxtlarga burkanib yotibdi, sal berida unga tutashib ketgan kon shaharchasining tunuka tomlari. Konchilar smenadan chiqqandan keyin uyga qaytadigan yo‘lni zap manzarali joylardan solishibdi-da! Kela-kelguncha hordig‘i ham chiqib ketsa kerak.(As.M.)

317- mashq. O‘qing. Avval kelishik affikslari, so‘ngra ko‘makchilar bilan ifodalangan hollarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ertasiga kechqurun klubda umumiy yig‘ilish bo‘ldi. (I. R.) 2. Ular uyga kirganda Yagona bilan Ojiza oshxonada ovqat pishirishayotgan edi. (I. R.) O‘ngirdan billurdek tiniq, ichsang tishingni sirqiratib yuboradigan suv jildirab oqib chiqadi. (S. An.) 4. Anorxon traktorchilarning o‘zlari bilan gaplashish uchun dalaga jo‘nadi. (I. R.) 5. Turdimat yuk mashinasida bir necha kishi bilan Labgardonga jo‘nadi. Adirdan soyga tushayotgan sel suvi qattiq hayqirardi. (I. R.) 6. Bu ariyani ham u katta hayajon va yoshlik g‘ururi bilan kuylardi. (S. Azimov.) 7. yer yuzida, tog‘larda, sahrolarda, okeanlarda minglab do‘stlarim bo‘ladi, men ular bilan istagan vaqtimda gaplasha olaman. (As. M.)

348-mashq. O‘qing, birikma bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, hollarning tagiga chizing.

Chimyonda dam olish uchun deyarli yil bo‘yi sharoit qulay. Tog‘ yon bag‘irlarida hali qor ketmagan, tog‘ etaklari esa xilma-xil ko‘katlar bilan qoplangan, bahor paytida u yer ayniqsa go‘zal bo‘ladi. O‘t-o‘lanlar orasida oq va sariq boychechaklar, alvon lolaqizg‘aldoqlar ochilib yotadi. Chimyon yozda ham ajoyib istirohat o‘chog‘idir. Tekislikda jazirama issiq bo‘lgan bir paytda u yerda havo mo‘tadil keladi, kechalari bo‘lsa juda salqin havo turadi. Tez-tez yomg‘ir yog‘ib o‘tadi. Kuz paytida tabiat alvon va oltin bo‘yoqlarga burkanadi. Qyechasi osmon gumbazida yulduzlar charaqlab turadi. Chimyon qishda ham gavjum bo‘ladi. Bu yerga dam olish kunlari qorli tog‘ yon bag‘irlarida chang‘i va chanalarda uchish uchun, qor havosidan to‘yib nafas olish va hordiq chiqarish uchun minglab kishilar keladi. (A. Qolbinsev.)

349- mashq. O‘qing. Ravish hollarini topib, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring, ifodalanishini tushuntiring.

1. Oftob yerdagi qorlarni qanddek eritib oqizdi. (Mirm.) 2. Jomiy asta-asta tetiklanib, yana ikki qadrdon do‘st samimiy suhbat qurdilar. (L. Bat.) 3. Tevarak-atrofni haybatli tog‘ halqa kabi o‘rab olgan. (A. Po‘lat.) 4. Tog‘ cho‘qqilari yonida, tevarak-atrofdagi qorda va moviy osmon tagida oq qayinlar naqadar go‘zal va tantanali qad ko‘targan. (A. Kolbinsev.) 5. Askarlardan biri

shoshilmasdan, istar-istamas javob qildi. (S. B.) 6. Biz boboning hayoti to‘g‘risidagi hikoyalarini zo‘r qiziqish bilan tingladik. (A. Po‘lat.) 4. Yo‘l yana toshloq yon bag‘ridan buralib-buralib ko‘tarilib boradi. (A. Kolbinsev.) 8. Sovxozlarning hisobsiz chorvalari, ming-minglab qo‘y podalari uzoqdan katta to‘lqindek chayqaladi. (A. Po‘lat.)

350-mashq. O‘qing, sifatlovchi aniqlovchi va ravish hollarini topib, ular orasidagi farqni izohlang. Sifatlovchili birikmalarni chap tomonga, ravish holini o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan o‘ng tomonga yozing, sifatlovchi va holning tagiga chizing.

Gap

1

Sifatlovchili birikmalar

Ravish holli birikmalar

1. Bahorda bu tog‘lar yam-yashil o‘tlar va gullar bilan bezanadi, yozda bo‘lsa qovjirab, qandaydir ko‘rimsiz manzara hosil qiladi. Lekin bu yerning yoz paytida ham o‘ziga xos fayzi bor. Ufqqacha cho‘zilib ketgan salobatli tog‘lar osmon gumbazi tagida go‘yo qotib qolgan dengiz to‘lqinlariga o‘xshab ketadi. (A. Kolbinsev.) 2. Rais cho‘ponning zavq-shavq bilan aytayotgan qo‘shig‘idan mamnun bo‘lib, otni qo‘shiq ohangiga yo‘rttirib, qamchisini beixtiyor o‘ynab borardi. Qirning eng cho‘qqi joyiga chiqqanimizda, pastda qolgan “Villis” mashinasi, oldinda esa o‘sha qirning narigi pastlik joyida yoyilib yurgan qo‘ylarga tikilib, qo‘shiq aytayotgan Rajab boboning gavdasi va uning qo‘lidagi tayog‘i yaqqol ko‘rindi. (A. Po‘lat.)

351- mashq. O‘qing, o‘rin holini topib, so‘rog‘ini va qanday ifodalanganini ayting, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring.

1. Toshkentdan ellik kilometr yurilgach, chorraha keladi, ko‘prikdan o‘tib chapga qarab yursangiz, Oqtoshga, o‘ngga burilsangiz, G‘azalkentga borasiz. (A. Kolbinsev.) 2. Quyosh tog‘ cho‘qqilari orqasidan bosh ko‘tarib, tig‘ini bizga to‘g‘riladi. Eng yirik, mo‘l hosilli rayondan o‘tib ketayotganimizda, quyosh yuqorilab, o‘zining saxiy nurlarini bepoyon paxta dalalariga, qir-yaylovlarga sochdi. Xalk mehnati bilan qazilgan shifobaxsh Shohimardon kanali ancha orqada qolib ketdi. (A. Po‘lat.) 3. Jannat xola endi cho‘ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. (S.Ahm.) 4. Yo‘l har qancha qiyin bo‘lmasin, siz ajoyib manzaralarni ko‘rasiz, ba'zan yo‘l suv yoqasigacha tushib keladi, ba'zan o‘rmonzor orasiga sho‘ng‘iydi. Bu ikki soy qo‘shilgan joyda bir-biridan go‘zal qoyali ikkita dara ikki tomonga qarab ketadi. Ana shu yerda qalin daraxtlar bor. Bu yerda qayin bilan zarang, terak bilan archa yonma-yon o‘sadi. (A. Kolbinsev.)

352- mashq. O‘qing. Hollarni aniqlab, turini ayting. Payt holini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib, holning tagiga chizing va qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Arpasoyda ertalab va kechqurun, ayniqsa, go‘zal manzarani ko‘rasiz. Shuning uchun ham Toshkentdan va respublikaning ko‘pgina shahar va qishloqlaridan dam olish kunlari bu yerga ko‘plab kishilar kelib istirohat qiladilar. (A. Kolbinsev.) 2. Bu hikmatli so‘z doim yengishga, orqaga qaytmaslikka undardi. (A. Po‘lat.) 3. Ko‘klamda adirlar rang-barang o‘tlar va gullar gilamiga burkanadi, yozda esa oltin bug‘doyzorlar bilan qoplanadi. (A. Kolbinsev.) 4. Oqshomdagina ko‘chalarda, bog‘ va maydonlarda odam to‘lqini siyraklandi. (O.) 5. Inson qalbi ham bir vaqtlarda ko‘rolmaslik, manmanlik, shuhratparastlik tuyg‘ulari bo‘lganini unutadi. (N. Biryukov.) 6. Ekskursantlar XV asrda Samarqand yaqinida Ulug‘bek tomonidan qurilgan mashhur observatoriyaning qoldiqlarini ko‘zdan kechiradilar... (A. Kolbinsev.) 7. Ko‘kda turna qator bo‘lib tizilib ketgan yulduzlar ahyon-ahyonda pastga uchib tushar edi. (A. Po‘lat.)

353- mashq. O‘qing. Sabab va maqsad hollarini topib, ularning so‘rog‘i, qanday ifodalangani va bir-biridan farqini tushuntiring; ularni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga alohida-alohida ko‘chiring.

1. Men vrachman, odamlarni o‘ldirish uchun emas, ularni o‘limdan saqlash uchun yashayman. (As. M.) 3. Sultonmurod do‘stini tabassum bilan tinglab, Hirotning bahorda toza husn bilan yashnagan ajoyib-manzaralariga suqlanib qarar, shodlikdan, hislarning sho‘xligidan ko‘ksi to‘lib-toshardi. (O.) 4. Do‘stining she'rlarida unga avvaldan belgili bo‘lgan ba'zi umumiy nuqsonlarni yedirib ketish uchun ko‘proq zavq va ruh bilan o‘qishga tirishdi. (O.) 5. Kechga tomon hordiq chiqarish maqsadida daryo bo‘yiga otlangan edim, markaz tomondan ketma-ket uzilgan o‘q ovozi eshitildi. (Murod as-Siboiy.) 6. Ularning mardligini, xushchaqchaqligini yoqtirganidan yigitlarga biror kori hol bo‘lmasin deb bezovtalanardi. (J. Koup.)

354-mashq. O’qing. Daraja-miqdor hollari ishtirok etgan gaplarni ko’chirib, hollar tagiga chizing. Qaysi so’z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda mo’l-ko’l tortildi. (O.) 2. Bolalar juda yomon qo’rqib ketishdi. (M.Ism.) 3. Sultonmurodga bir-ikki soat dars bermoq uchun u ba’zan o’z uyida haftalab kitob ko’rar edi. (O.) 4. Dumbul boshoqlar qo’rda pishib, ancha mazali bo’ladi. Bolalar undan bir kaft-bir kaft yeb olishsa, barvaqtroq uxlashadi. (S. Ulug’zoda.) 5. Sultonmurod... bir oz enkayib, uning qo’lini siqdi-da, bir qadam orqaga tashlandi. (O.) 6. Taxtda o’tirgan Husayn Boyqaroga uch marta bukilib rasmiy ta’zimni bajo qilgach, ijozat so’rab o’tirdi. (O.) 7. Maktabni, maktabdoshlarimni har qancha qo’msasam ham, otamning ra’yini qaytara olmadim. (P. Q.)

355-mashq. Ko’chiring, hollarni topib, turini ustiga yozing.

1. Bepoyon yam-yashil yaylov. Uzoq-uzoqlarga suqlanib qaraysan kishi. Qirlarni gilamga o’xshatib bezab turgan maysa-giyohlar yelda ohista tebranadi. Yaylovda na daraxt, na uy bor. Olisdagi «Yulduztog’» kishi ko’zga juda yaqin bo’lib tuyuladi. Sovliqlar bilan dikir-dikir sakrab yurgan do’mboqqina qo’zilarni aytmaysizmi! Ularning quyoshda porlab turgan qorako’llari jimjimador tovlanib, munchoq ko’zlari yoqutday chaqnab, kishi diqqatini o’ziga tortadi. (A. Po’lat.) 2. Sango xonada sochilgan narsalarni yig’ishtirish uchun o’rnidan turdi. (S. Ekvensi.) 3. O’rta asrlarda Xo’jand anchagina yirik shahar bo’lgan. SHahardan Eron, Old Osiyo, Uzoq SHarq, Hindistonga boradigan qadimgi savdo yo’llari o’tgan. Toy-toy ipak ortgan karvonlar bu yerda qisqa vaqt dam olishgan. (A. Kolbintsev.) 4. Ota-bobolarimiz suv va nur to’g’risida juda ko’p orzu-umid qilganlar, o’z orzu-umidlariga erishish uchun cheksiz azob va uqubatlar chekkanlar. (A. Po’lat.)

356-mashq. Gaplarni ko’chiring. Bir xil kelishik shaklida qo’llangan to’ldiruvchi va hollarni topib, farqini tushuntiring.

1. Mamlakatimizning bepoyon yerlari bo’ylab avtomobilda va mototsikllarda sayohat qilish tobora ommaviy tus olmoqda va tobora ko’proq kishilarga manzur bo’lmoqda. (A. Kolbintsev.) 2. Navoiy Hirotga kirishi bilan, uning maxsus farmon olib kelganligi butun shaharga yashindek tarqaldi. (O.) 3. Buxoroda tarixchi Narshaxiy, shoirlardan Rudakiy va Daqiqiy, butun dunyoga mashhur Abu Ali ibn Sino yashagan va ijod etgan. (A. Kolbintsev.) 4. Nigora ham ularning hazillariga hazil bilan javob qaytarardi. (S. Ahm.) 5. O’zbek bog’laridan do’stlarga elt deb, Qo’limga guldasta uzatar bahor. (U.)

357-mashq. Ko’makchi vositasida ifodalangan to’ldiruvchi va hollarni aniqlang; ularni o’zi bog’langan so’z bilan birikma tarzida ikki ustun shaklida ko’chiring; farqini izohlang.

Ko’makchi vositasida ifodalangan to’ldiruvchili birikmalar

Ko’makchi vositasida ifodalangan holli birikmalar

I. Farg’ona... O’zining bitmas-tuganmas boyliklari, so’lim bog’lari, shalola suvlari, poyonsiz paxtazor, gulzorlari bilan kishilar ishqini qozongan, ko’kragini baland ko’targan bu oltin vodiyni kim bilmaydi! Ayniqsa, bu yerda xalq uchun, Vatan uchun dushmanlarga qarshi o’z aziz jonlarini fido qilgan bahodir kishilarimiz ozmunchami!

Go’zal Farg’ona va uning olovli yillari va jasoratli kishilari to’g’risida gapirish kishiga zavq va shavq bag’ishlaydi. (A. Po’lat.)

II. 1. Biz xalqni asrab qolmoq uchun, xalqqa dalda bermoq uchun shu yerda qolishimiz kerak. (S. B.) 2. Torgina yolg’izoyoq yo’l ba’zan quyosh nurini emib yotgan gulzor o’tloq orasidan o’tsa, ba’zan qalin o’rmon orasiga kirib ketadi. (A. Kolbintsev.)

358-mashq. Ajratilgan hollarni topib, holning qaysi turi ajratilganini tushuntiring.

1. Tepalikda, quyuq daraxtlar ostida, gilamchalarda to‘p-to‘p o‘tirib, katta sopol laganlarga uyum-uyum suzilgan palovni zo‘r ishtaha bilan bir-biriga qiziqib oshayotgan... oshxo‘rlar orasidan o‘tib, pastga tusharkan, O‘ktamning yuragi birdan “shig‘” etib ketdi. (O.) 2. Temur Malik otdan tushib, ikki-uch navkari bilan yuqoriga – qorovulxonaga ko‘tarildi. (Mirm.) 3. Ana, jadvallarning yonida, burchakdagi javonda, Mirzo Ulug‘bekning olti jildlik tarixiy asarlari yonida uning — Ali Qushchining ham kitoblari turibdi! (O. Yo.) 4. Lekin xuddi shu payt, oldinda borayotgan shahzoda handaqqa yaqinlashib qolganida, o‘ng qo‘ldagi tepalikda bir guruh suvoriylar paydo bo‘ldi. (O. Yo.) 5. Pastlikdan, Qichqiriq tomondan, esayotgan salqin shamol eshigimiz oldidagi azim tup o‘rikning tilla rang barglarini chitir-chitir uzib uchiradi. (H. G‘.)

359-mashq. Ko‘chiring. Ravishdosh o‘ram shaklida ajratilgan hollarning tagiga chizib, ma'no munosabatini ayting.

1. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz va undan mo‘l hosil olmog‘imiz kerak. (O.) 2. Yoshlar avtobusdan tushishlari bilan, xuddi otasidan suyunchi olgani chopgan bolalarday, yugurganlaricha Kallaquladi tepaligiga chiqib olishdi. (J. Abd.) 3. Tong saharda cho‘l parrandalarining betinim qo‘shiqlari sizni uyg‘otib yuboradi. Ko‘zingizni ochib qarasangiz, tevarak-atrofingizda shudring tushgan gullar va maysalarni ko‘rasiz. (A. Kolbinsev.) 4. Xalq, kuchli yel bilan chayqalgan dengiz kabi, birdan qo‘zg‘aldi. (O.) 5. Mashinamiz turli-tuman ranglarga g‘arq bo‘lib, cho‘g‘day tovlanardiki, ehtimol u o‘nlab kilometr naridan ko‘zga tashlanib turgan bo‘lsa kerak. (Ch. Ayt.) 6. Yigit, Alida uning ortidan qarab turganini sezsa-da, jo‘rttaga orqasiga qaramay ketaverdi. (J. Koup.)

360-mashq. O‘qing. Ikkinchi darajali bo‘laklarni topib, turi va ifodalanishnni ayting.

Shohimardonga go‘zal Vodil qishlog‘i orqali yaxshi avtomobil yo‘li boradi. Vodilda, ulkan chinor tagidagi choyxonada, maza qilib dam olsa bo‘ladi. Bu chinorni biolog olimlar jonli tabiatning noyob ob'ekti sifatida maxsus hisobga olib qo‘yishgan.

Konchilar posyolkasi hisoblangan Qadamjoydan o‘tgandan keyin yo‘l Shohimardonsoyning torgina toshloq darasiga kirib ketadi, shundan so‘ng yo‘l yana keng vodiyga chiqadi. Vodiy yon bag‘ri ko‘m-ko‘k daraxtlar, terakzorlar va tamakizorlar bilan qoplangan. Soy suvi o‘tlar va butalar bilan qoplangan yerlardan ko‘pirib-toshib oqadi. Yo‘ldan sal narida, toshloq tepalik ustida, bir qoya bor, bu qoya yotib

olgan filga o‘xshaydi. Qoyani turistlar har doim suratga olishadi. Qarshingizda bir-biriga ulanib ketgan qator tog‘ tizmalari yuksalib turadi. Bu tog‘larning yon bag‘irlarida chuqur daralar bor. Uzoqda, moviy osmon tagida, Oloy tizmasining mangu qorlar bilan qoplangan yuksak cho‘qqilari suzib ketayotganday ko‘rinadi. Yo‘l vodiy tagida va yon bag‘irlar bo‘ylab joylashgan katta qishloqning ko‘chalariga olib kiradi. Bu — Hamzaobod qishlog‘i. (A. Kolbinsev.)

361- mashq. O‘qing. Gaplarni gap bo‘laklari jihatidan tahlil qiling.

1. Bu xalq jahonga ne-ne mashhur olimlar, me'morlar, ustalar va mutafakkirlarni yetishtirib bermagan, axir! (K. Moiseeva. 2. Kishining kuchi—uning ongi, dunyoqarashi, tushunchasi, ishonchi, ruhi, yashashga qobiliyati, niyati va intilishida, xullas, uning irodasida. (I. R.) 3. Ko‘l bo‘yida erta saharda ayniqsa manzara go‘zal bo‘ladi. Ilk quyosh nurlari tog‘larning dovonlaridan mo‘ralab moviy osmon ostida tovlanib turgan ko‘l suviga yuzini yuvadi. Ko‘l bo‘yida kechqurun o‘tirib orom olish naqadar yoqimli. (A. Kolbinsev.) 4. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin. (O.)

362- mashq. O‘qing. Gap bo‘laklari normal holatda kelgan va gap bo‘laklarining normativ tartibi o‘zgargan gaplarni aniqlab, inversiyaga uchragan gaplarni ko‘chiring, ulardagi gap bo‘laklarining tartibi qanday o‘zgarganligini tushuntiring.

1. Palovga sabzini nechog‘liq tekis va mayin to‘g‘ralsa, osh shuncha shirin bo‘ladi. (O.) 2. Ishqilib umid uchqunlari o‘chmay, uzoqdan bo‘lsa ham yilt-yilt ko‘zga tashlanib turganidan mamnun u. (J. Abd.) 3. Turistlar dastlabki besh kun davomida Samarqandda bo‘lib, uning me'morchilik yodgorliklari va diqqatga sazovor boshqa joylarini tomosha qiladilar, shaharliklarning sevib dam oladigan joylariga boradilar. (A. Kolbinsev.) 4. Hatto ayrim jihatdan Komiljondan ham ustunrok tomonlari bor edi uning. (J. Abd.) 5. Institutga kirib olish esa hayotida eng katta mukofot hisoblanardi unga. (J. Abd.) 6. Bu kiyimida u qandaydir juda kamtar, ayni mahalda burungisidan ham jozibali bo‘lib ko‘rindi menga. (O. Yo.) 7. Haqiqat shunday bir narsaki, u suvga tushsa cho‘kmaydi, o‘tga tushsa yonmaydi. (I. R.) 8. Mohidilxon biz bilan bayram qiladi bugun. (J. Abd.) 9. Mard kurashda, do‘st tashvishda, dono g‘azabda sinalar. (Mirm.) 10. Yuzlaridan sharbat tomizib Yotar bunda do‘ndiq handalak. (Mirm.)

363-mashq. O‘qing. Uyushiq bo‘lakli gaplarni topib, qanday bo‘lak uyushganini, uyushiq bo‘laklar o‘zaro qanday bog‘langanini ayting. Uyushiq bo‘laklarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chirib, uyushiq bo‘laklarning nomini ustiga yozib qo‘ying.

Atrofi ko‘rkam bog‘lar bilan o‘ralgan, ulug‘vor binolar qad ko‘targan Samarqand nihoyatda go‘zal va boy edi. Uzoq mamlakatlardan kelib ko‘rgan sayyohlar undagi qurilishlar, don-dun va sharobga, anvo turli mevalar, parranda, go‘sht-yoqqa to‘la bozorlar, ajoyib qurol-aslaha, nihoyatda nozik zargarlik buyumlari, shisha va sopol idishlar yasovchi, rang-barang shohi-adraslar to‘quvchi mohir hunarmandlar haqida hayratlanib hikoya qilishardi. Och pushti rang mashhur Samarqand kimxobi ko‘p mamlakatlarga olib borib sotilardi. Samarqandda ishlangan qog‘oz jahonda eng yaxshi qog‘oz

sanalardi. Shuningdek, uning rastalaridan ajnabiy mamlakatlardan keltirilgan har xil mollarni xarid qilish mumkin edi. Nimalar topilmas edi deysiz bu yerda! Rossiyadan keltirilgan surp va nafis mato, xitoy shohisi, hind marvaridi va shirinliklari...

Samarqand go‘zal va boy edi. Ammo bu yerda ilm zavol topdi, ilm-fan ahllari xo‘rlandi va quvg‘in etildi. (L. Bat.)

364-mashq. O‘qing, gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini aniqlang. Uyushiq egali to‘rtta gapni ko‘chirib, uyushiq bo‘laklar tagiga chizing va ular qanday ifodalanganini tushuntiring.

1. Olmalar, anoru anjirlar, shaftoli, behilar, giloslar g‘aynolilar, noklar kamolga yetdi. (H. G‘.) 2. Hamma o‘z qarindosh-urug‘, oshna-og‘ayni va yaqinlari bilan ko‘rishmoqda yoki xayrlashmoqda. (M. Muhamedov.) 3. Qanchadan-qancha ajoyib yigitlar, qizlar jasorat ko‘rsatishyapti! (H. G‘.) 4. Erining xotirasi, bolalarining tarbiyasi, tinimsiz mehnati, yurt g‘amidan boshqa tashvishi yo‘q u muhtaramaning! (H. G‘.) 5. Bo‘rilarning etni jimirlashtiradigan ulishi, to‘ng‘izlarning ko‘ksov yo‘talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarning sovuq boqishi, ilon po‘stlarining ojiz yiltirashi, cho‘l burgutlarining viqorli boqishi bu ikki yo‘lovchining yuragiga vahm sololmasdi. (S. Ahm.) 6. Muzaffar navkarlarga, ularning changga belangan, toliqqan, ammo kuchli otlariga tikilib, sukut qildi. (L. Bat.) 7. Mevazorlar gulda-chechakda, Tol, chinorlar tugal kurtakda. (O.)

365-mashq. O‘qing. Kesimi uyushgan gaplarni ko‘chiring, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq chizing, kesimning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi. (S. Kalmikov.) 2. Quruvchilar uchun... shaharcha qurildi; oziq-ovqat palatkalari, baraklar, oshxonalar, choy-xonalar, qizilburchaklar, kutubxonalar, ambulatoriyalar, kasalxonalar, omborlar, magazinlar barpo qilindi. (N. Biryukov.) 3. Kun salqin va izg‘irin. (S. B.) 4. Hammaning dilida bir-biridan yaxshi, tez, toza, ko‘p paxta terish tuyg‘usi. (A. Muhiddin.) 5. Ko‘l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. (Ch. Ayt.) 6. “Komiljon bilan Tatyanani chaqiringlar!” — dedi u qabulxonadagi xodimasiga. (I. R.) 7. To‘tixon xatni ko‘zlariga surtar, o‘par, hidlar edi. (S. Ahm.) 8. Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o‘tgan-ketganlar hayron bo‘lib qarashardi. (L. Bat.) 9. Naimshoh... Shakar bahodirni izzat-hurmat bilan kutib oldi va mehmonxonaga boshlab kirdi. (S. Ulug‘zoda.)

366-mashq. O‘qing, to‘ldiruvchisi uyushib kelgan gaplarni topib, uyushiq to‘ldiruvchilarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring, to‘ldiruvchining turini ustiga yozib qo‘ying.

1. O‘tgan yili Madaminxo‘ja xirmonida yoqilgan umid chirog‘i qalbiga na surur berdi va na nur! (M.I.) 2. U yerda Saodatni yaxshi kutib oladilar, yuvib-taraydilar, kiyintiradilar. (S. Z.) 3. Qo‘biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo‘l yoqalab kelgan ko‘m-ko‘k yavshon va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebranib gul changlarini to‘kayotgani haqida kuylardi. (Ch. Ayt.) 4. Beso‘naqayroq yuzli, qora ko‘zli bu yigit aqlli ko‘rinardi. (V. Karpov.) 5. O‘razqulga ko‘rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va'dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. (Ch. Ayt.) 6. Birdan uyini, qizini, shiyponini ko‘rgisi

kelib ketdi. (S. Z.) 7. Bularning oralarida shoiralar, g‘azalxonlar, sozanda, qiziqchi va raqqosalar bo‘lardi. (N. S.)

367-mashq. Uyushiq aniqlovchilarni topib, aniqlanmish bilan birga ko‘chiring; so‘rog‘i, turi va qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ey, tim qora sochli, ko‘zlaridan nur yog‘ilib turuvchi murabbiya! Qadamlaringga hasanot! (Fodil as-Siboiy.)2. Yomon, yaxshi ish yo‘q, hamma ish yaxshi! Bizda halol mehnat odamning naqshi! (U.) 3. Katta, dehqonga foydali, o‘z ko‘ngliga yoqadigan ish qilmoqchi edi u. (S. Nurov.) 4. Qancha-qancha to‘qnashuvlar, yangi tashvishlar, quvonch, ikkilanish, muvaffaqiyatlar, mag‘lubiyatlar va kurashlar kutadi bizni. (J. Abd.) 5. Bo‘m-bo‘sh, jimjit ko‘chalardan yolg‘iz ketdim. (O. Yo.) 6. Zebo va barno bu qizning jasorati odamlar nazarida chindan ham hayron qolarli edi. (S. Ulug‘zoda.) 7. Tashqari gullarga ko‘milgan, sadarayhonlar, qashqargul va atirgullarning hidi havoda anqirdi. (O.) 8. Yo‘lchi uchun Petrov... butun hayoti va kurashi bilan muallim bo‘ldi. (O.)

368-mashq. O‘qing. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchilarni aniqlang, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Uning mehnatda chiniqqan qoramtir yuzida, jonli, tiyrak yirik ko‘zlarida bolalarcha ma'sumlik jilvalanardi. (O.) 2. Yurtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko‘rmoq orzusida bo‘lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko‘p narsa umid qilar edi. (O.) 3. Hozir Mirzacho‘lga borgan har bir kishi u yerdagi yangi, obod shaharlarni, ko‘p qavatli muhtasham binolarni, hashamatli uy-joylarni, har ikki tomoni ko‘m-ko‘k daraxtzorlar bilan qoplangan keng va tekis asfalt yo‘llarni ko‘radi. (A. Po‘lat.) 4. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo‘rg‘a qorabayir otini ko‘ndalang qilishdi. (O.) 5. Chol katta zarang tovoqda lim to‘la tariq olib chiqib, toza supurilgan keng sahnga sochdi. (O.)

369-mashq. O‘qing. Uyushgan hollarni aniqlab, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring; tagiga chizib, ustiga turini yozib qo‘ying.

1. Korolyov mayorni... dov yurakligi, sof dil va rostgo‘yligi uchun yaxshi ko‘rardi. (A. Chakovskiy.) 2. Yong‘in tutuni barra o‘tlar ustida, endi nish urib chiqqan ekinlar ustida, daraxtlari kurtak chiqargan bog‘lar ustida, ko‘pirib-hayqirib oqayotgan bo‘tana soylar ustida suzib yurardi. (S. B.) 3. Bo‘g‘iq shovqin suv orqali aniq o‘tib, dahshatli va dabdabali eshitilar edi. (J. Vern.) 4. Lekin hozir qahramonlar minglab, o‘n minglab chiqyapti. (A. Chakovskiy.) 5. Yana qo‘rquvdan va tanholikdan yuragim o‘ynay boshladi. (Samim ash-Sharif.) 6. Dengizday chayqalib, daryoday toshib, Ko‘hna qirg‘oqlardan ko‘pirib toshib, Sharqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbimga to‘ldirib hayajon va shavq Hayot chaqiradi meni yoniga! (U.)

370-mashq. O‘qing. Umumlashtiruvchi so‘z qatnashgan uyushiq bo‘lakli gaplarni topib, qanday bo‘lak uyushganligini ayting.

1. Traktorlarning tarillashi, tog‘-tog‘ xarsang tosh, tuproq uyumlarining qulashi, vahimali gumburlashlar — bularning hammasi haqiqiy jang maydonini eslatardi. (J. Abd.) 2. Bu yerda hamma narsa: qizil daraxtdan ishlangan panel ham, ko‘rkam va qulay mebellar ham, billur qandil va qimmatbaho matodan tikilgan darparda, polga to‘shalgan mayin turk gilami kishida taassurot qoldirishga mo‘ljallangan. (V. yegorov.) 3. Uning yurish-turishi, kafedra oldida so‘zlash usullariga taqlid qiluvchilar ham ko‘p. (J. Abd.) 4. Ziyofatga Hirotning eng ilg‘or kishilari: olimlar, shoirlar, hofizlar, mashshoqlar, xattotlar, teri ishlaydigan va kimxob to‘qiydigan mashhur hunarmand ustalar, muqovasozlar va egarsozlar to‘planishgan edi. (L. Bat.) 5. Men hamma narsani: charchoqni ham, yor-do‘stlarimni ham, kolleksiyalarimni ham unutdim. (J. Vern.) 6. Shu daqiqalarda uning fikru xayolini uch narsa band qilgan edi: farzandlarining bemorligi, Olim mo-jarosi, Norzoda bilan munosabati. (F. Niyoziy.) 7. U minglarcha yilgi madaniyatni, asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. (O.)

371-mashq. O‘qing. Uyushiq bo‘lakli gaplarni aniqlab, qanday bo‘lak uyushganini, ularning o‘zaro bog‘lanishini ayting. Tegishli tinish belgilarini qo‘ygan holda ko‘chirib, uyushiq bo‘laklar tagiga chizing.

1. Bu kengashda har kim o‘z fikrini mulohazasini ko‘ngliga tugib yurgan dardini bamaylixotir hyech kimning fikri bilan hisoblashmasdan xavotir olmasdan tap tortmasdan aytdi istagan taklifini qildi. (A. Q.) 2. Nozimjon yoshligidan mehnatkash, sezgir, yerga va molga mehr qo‘yib o‘sdi. (S. Nurov.) 3. Stol atrofida majlis hay'ati kotib bola rayijrokom vakili va zavod direktori Hikmat Hatamov o‘tirishibdi. (O.Yo.) 4. Uchastka uchun ham grafik plan ish sifati odamlarga to‘g‘ri maosh taqsimlash uchun ham kollektiv o‘rtasidagi ahillikka g‘ubor qo‘nmasligi uchun ham turish-turmush yemishlar kishilarnnng ruhi-ra'yini ko‘tarish uchun ham birinchi galda u javobgar! (J. Abd.) 5. Suv yer elektr bular hayot bahoriga yangi go‘zallik va yangi nash'a bag‘ishlovchi kuchlar edi. (O.)

372-mashq. O‘qing. Gapning ajratilgan va uyushiq bo‘laklarini aniqlang, ular orasidagi farqni ayting.

1. Yigirma kun deganda Nizomjon qorayib, ozib qirdan qaytib keldi. (S.Ahm.) 2. “Og‘aynilar, — dedi Yo‘ldoshboy xaloyiqqa o‘girilib, — bu yerda hurriyat, ozodlik to‘g‘risida gapirildi...” (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 3. Yozilayotgan risolalar, qanchadan-qancha ilmiy tadqiqotlar chetga surib qo‘yildi. (J. Abd.) 4. Janob professor, men kim, kapitan Nemo, bugun, 1868 yilning yigirma birinchi martida, Janubiy qutbga... yetdim va yer sharining ana shu qismiga egalik qila boshladim. (J. Vern.) 5. ...Osib qo‘yilgan inqilobiy shiorlar kishilarni yangi hayotga — baxtiyor, ozod hayotga, da'vat qilardi. (J.Ikromiy.) 6. G‘alabamiz uchun bu imkoniyatdan qay darajada foydalana bilish bizlarga, harbiylarga, bog‘liq. (Yu. Semyonov.) 7. Lutfinisa inqillab, harsillab qizini olib jo‘nashga kirishdi. (O.) 8. Bundan bir oy oldin, olmazor bog‘lar nafis pushti rang gulga burkangan iliq bahor kunlaridan birida, ikki otliq qishloqdan chiqib, toqqa qarab yo‘l oldi. (O. Yo.)

373-mashq. O‘qing. Undalmalarni topib, ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini, o‘rnini va intonatsiyasiga ko‘ra qo‘yilgan tinish belgilarini tushuntiring.

1. “U uyga choy so‘rashsa, Yo‘lchi akangga kelib shipshit, Gulnor qizim!”—deb to‘y bekasi Lutfiniso ketdi. (O.) 2. Gapir, Qo‘zivoy, gapir, bo‘taloq, so‘z seniki! (H. G‘.) 3. Qani, Sinchalakxon qizim, mana buni kiyib oling-chi! (A. Q.) 4. Kuylangiz, xonim qizlar, chevar qizlar, Boshlarda ipak ro‘mol hilpillasin! Kuylangiz, asl qizlar, dongdor qizlar, Ko‘kraklarda Yulduzlar yaltillasin. (Mirm.) 5. Dadangni hurmat qil, puchuq. (H. G‘.) 6. Oy yuzli, shakar so‘zli, olamda tanho go‘zal, ayting-chi, siz chindan ham shu uyning bekasi bo‘lasizmi? (H. G‘.) 7. Xadicha! Sarvi! Qumri! Erkinoy! Saodat! Uylaringizga boringlar. Ertalab “Baxt uyi”da uchrashamiz. (H. G‘.) 8. Do‘ppilar qutluq, askar bola!— Qulluq, opoq buva. (H. G‘.) 9. Suyukli qiz, qora ko‘z Navro‘z, Badaxshonning nozli kaptari, Sen haqingda yuritaman so‘z... (Mirm.)

374-mashq. O‘qing. Undalmalarni aniqlang. Undalmaning egaga o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring. Undalmalarni egaga aylantirgan holda gaplarni qayta tuzib ko‘ring.

N a m u n a: Hali ham terdirganingiz yo‘kmi, ota?. (M.Ism.) — Otam hali ham terdirgani yo‘qmi?

1. Ummatali, seni o‘rtoq Oxunboboev tabriklab telegramma yuboribdilar. Ma, ol, o‘qi! (S. Ahm.) 2. Lekin shuni ham inobatga olingki, mayor, Turkistonda siz boshqa familiya bilan yurasiz. (S. Kalmikov.) 3. Jiyan, aqling bo‘lsa, kishining bir tiyiniga xiyonat qilma. (O.) 4. – Hoy, tentakkinalarim, tog‘angni bevoshlik qilib qiynamanglar. (S.Ahm.) 5. Kampir, achchiqqina xo‘rda qilib ber, mehmon bolani bezgak ushlab qolibdi. (S. Ahm.) 6. Dunyo turguncha turing, malikam, Baxtingiz daryoday mavjlansin, bekam. (S. Nazar.) 7. Sira tashvish tortmagaysiz, oyi, men tinchman. (O.) 8. Hashamsiz purviqor qoyamsiz, Tiz cho‘kmas, gard yuqmas g‘oyamsiz, kift tutgan ming pillapoyamsiz, Ey baland cho‘qqilar, qoyalar. (Z.O.)

375-mashq. O‘qing, tegishli tinish belgilarini qo‘yib, undalmali gaplarni ko‘chiring. Undalmalarning tagiga chizing va ularning uyushiq bo‘laklardan farqini ayting.

1. O‘lmas o‘z muallimangni tanqid qilishing yaxshi emas. Senga bu ish yarashmaydi. (Sh.) 2. “Tug‘ilgan kuningizga odamning jonidek aziz bir narsa keltiraman azizim”, — dedi kunlardan birida Mahmudjon xotiniga. (H. Tojiboev.) 3. Shu narsa yodingizda bo‘lsin Meliboy millatidan qat'i nazar, ishchi bilan dehqon hamisha og‘ayni. (S. Kalmikov.) 4. Bahoroy Salima Naima Halima Yuringlar, menga qarashib yuboringlar. (H. G‘.) 5. Sizni ilgariroq saylasak bo‘larkan Ashirali aka. (H. G‘.)

376-mashq. O‘qing. Kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gaplarni toping, tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Qo‘qqisdan shamol yoshroq ko‘ringan qizning zotan har ikkovi ham yosh qizlar edi, shlyapasiga chatilgan uzun yashil to‘rni ochib yubordi, qizning sutga chayilganday oppoq yuzi, oltin tusli sochi, tiniq moviy ko‘zlari ko‘rinib ketdi. (F. Kuper.) 2. Oltinshoh ko‘rfazi. Ma'murlar ular orasida Amerika

ofitserlari ham koʻrinadi hammollar, taksichilar, gadoylar har biri oʻz maqsadi yoʻlida teploxodni kutishga hozirlik koʻrar. (S. Azimov.) 3. Dars tayyorlashdan charchab universitetga kirish uchun tayyorgarlik koʻrayotgandim.daryochaga choʻmilgani ketayotgan edim. (K. Abukov.) 4. ”Otamning taxti shak-shubhasiz meniki, bu jihatdan koʻnglim toʻq”. — der edi valiahd toʻra. (S. Ulugʻzoda.) 5. Aftidan bu ishga... hokimlar ham yengil-yelpi qarayotgan koʻrinadilar. (S. Ulugʻzoda.) 6. Sahroyi bir odamning fahmicha uni nomard deyishdan koʻra sharmandalik yoʻq edi. (S. Ulugʻzoda.) 7. Manzilga yetgach Nasibalar shaharning chekkasida bir hovlida turar edilar Nasiba meni qoʻyarda-qoʻymay ichkariga boshlab kirdi. (O.Yo.)

377-mashq. Oʻqing. Kiritma gaplarni topib, uning oʻzi kiritilgan gapning qaysi boʻlagiga aloqador ekanini, ajratilgan boʻlaklardan farqini ayting.

1. Keng, uzun, paxtasi chiqib yotgan toʻnimning (bu dadamning eski jomakor toʻni) barini belimga bogʻlab olgan boʻlsam-da, loyga belangan orqa etagi tovonimga shalp-shalp urardi. (N. S.) 2. Sovuq kunlarning birida, oktyabrning oxirida (Polshada esa qish erta tushadi) bizlarni baraklardan haydab chiqishdi. (D. Kyusak.) 3. Qizil duxobaga oʻralgan daftarchaning jildiga (Qalandar buni keyin, madrasaga qaytgach koʻrdi) zar bilan shu satrlar bitilgan edi. (O.Yo.) 4. Biroq ikkovi ham — ular davlat sekretari Meysner bilan prezident Gindenburgning oʻgʻli Oskar edi — hyech kim tanimaydigan bu irqchining aft-basharasi qanaqaligini ham bilishmasdi. (A. Chakovskiy.) 5. Ustozi professor Danilovich oʻz shogirdining qobiliyatli yigit ekanligini maqtar, u bilan faxrlanardi ham. (Kim biladi deysiz, balki bu gaplarni Hoshimning oʻzi tarqatgandnr.) (J. Abd.) 6. Yozda qishloqqqa borganlarida kamina...(u mahalda men oʻn uch – oʻn toʻrt yashar bola edim) ularga pochtachilik qilardim... (O.Yo.)
BIR BOSh BOʻLAKLI GAPLAR

378-mashq. Oʻqing. Ikki bosh boʻlakli va bir bosh boʻlakli gaplarni aniqlab, ular orasidagi farqni ayting. Bir sostavli gaplarning tipini belgilang.

I. Shu kuni kimning qoʻliga qaramang gazeta. Hamma yoq ari uyasiday gʻuvillab qolgan. Tushki ovqat mahali ham bahs ustiga bahs ochilardi. Istagan xonangizga kirmang, ikki-uchtadan boʻlib olib radiobiologiya laboratoriyasini tilga olib turganini koʻrasiz. Har kim har xil talqin qilardi. Birovlar Gʻoyibning gruppasiga achinishar, shuncha mehnatlari zoe ketganidan afsus qilishardi. Maqola muallifini esa shaddodlikda ayblashardi.

“Oʻtkir yozilibdi, - derdi boshqa birovlar, - egasini topib yozishibdi!..” Yana bir xillari bor ediki, ular na u tomonga, na bu tomonga boʻlishga garang edilar. (J.Abdullaxonov)

II. Mana oʻsha choʻl. Na bir qoʻqqaygan uy, na bir qultum suv va na tikkaygan daraxt bor. Poyoni yoʻq yaylov. Bu yerda yil fasllarining oʻziga xos fayzi, gashti boʻladi. Bahor shabadasi esib, osmonda oq-qora bulutlar suzadi, chaqmoq gumburlaganda, bular larzaga keladi, qish uyqusida tosh qotib yotgan jonivorlar momaqaldiroq na'rasidan choʻchib uygʻonadi. (N. Safarov.)

379-mashq. Oʻqing, egasiz bir bosh boʻlakli gaplarni topib, tiplarini ayting. Avval shaxsi aniq, soʻngra shaxsi noaniq, undan soʻng shaxsi umumlashgan va egasi topilmas gaplarni koʻchirib, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Bu yerni sahro deydilar. (I. R.) 2. Esing borida el tani, kuching borida yer tani! (Maqol.) 3. Kabinadan chiqishga to‘g‘ri keldi. (Ch. Ayt.) 4. Biz tomonlarga ham boring, Feruzaxon. (H. G‘.) 5. Uni qaytadan birinchi kursga qabul qilishdi. (S. An.) 6. Keling, yaxshisi kuzatuvlarimizni davom ettira qolaylik. (J. Vern.) 7. Endi o‘tirib ishlasa bo‘ladi. (Yu. Semyonov.) 8 Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l. (Maqol.) 9. Toshtemirga bog‘ oralab kichik-kichik kalta ariqlar ochishni, suvni jildiratib qo‘yishni o‘rgatdi. (H. G‘.)

380-mashq. Gaplarni o‘qib, bir bosh bo‘lakli gap tiplarini aniqlang; egasi topilmas gaplarni ko‘chirib, uning bir bosh bo‘lakli gaplarning boshqa tiplaridan qanday farq qilishini ayting.

1. Sessiya oldida bunday temalarni pishiqroq takrorlamasa bo‘lmaydi. (S. An.) 2. Qarshisida osig‘lik turgan Komiljonning portretiga boqdi. (J. Abd.) 3. Tunlarni bombapanada o‘tkazishga to‘g‘ri kelardi. (V. Kudryavsev, K. Raspevin.) 4. Askiyani ham do‘ndiradi, deyishadi. (J. Abd.) 5. O‘ta tepsa tebranmas Konselday odamning shunchalik hayajon bilan gapirganiga qarab ham tasavvur etsa bo‘ladi! (J. Vern.) 6. Ko‘kka boqma, ko‘pga boq! (Maqol.) 7. Katta-katta xarsanglarni maydalashga to‘g‘ri keldi. (L. Bat.) 8. Xushbo‘y, shirin olmalarni huzur qilib yedim. (S. Yunusov.) 9. ...Haftalab, oylab, yillab bir kichkina narsa ustida bosh qotirish, qiynalish kerakdir. (J. Abd..)

381-mashq. O‘qing. Kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplarni (nominativ) topib, egasiz bir bosh bo‘lakli gaplardan farqini ayting. Nominativ (atov) gaplarni ko‘chirib, ularning mazmun va strukturasiga ko‘ra tiplarini aniqlang.

1. Baland tog‘. Uning cho‘qqisiga qaragan odamning do‘ppisi tushadi, ko‘zi tinib, boshi aylanadi. (I. R.) 2. Yoz. Atrofga qaralsa, ko‘z quvnab, ko‘ngil qanot yozadigan kunlardan biri. Kechqurun. Yo‘lchi Adashev mashinasida kerilib o‘tirib olgan. (A. Muhiddin.) 3. O‘shandan beri qirq ikki yil o‘tdi. Qirq ikki tashvishli bahor, qirq ikki qahraton qish... Uning yuz-manglayidagi ajinlar — shu tashvishlarning izlari: soch-soqolidagi oq — shu qishlardan qolgan qirov... (D. G‘.) 4. Mana, oq uy. Kabinet. Stol. Mikroskop yonida Mavjuda. (Mirm.) 5. Balki bu yo‘lda sonsiz shafqatsizliklarni, musibatlarni boshdan kechirishga to‘g‘ri kelar. (J.Abd.) 6. Tantanali kecha. Katta zal hamma yoqdan kelgan turli kasbdagi odamlar bilan lim-lim. (A. Muhiddin.)

382-mashq. O‘qing. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplarni topib, ularni mazmuniga ko‘ra izohlang, bir bosh bo‘lakli gaplardan farqini ayting.

1. — Assalomu alaykum, domla! – dedi yugurib kelib uning qo‘lidan sumkani olarkan. – Qalay, tuzaldingizmi, domlajon? – Rahmat! - dedi Bashirjon kabinaga chiqib o‘tirayotib. (N.Aminov) 2. M a r a s u l. Men jonimni, tanimni, butun umrimni ilm yo‘liga tikkan darveshman-ku, axir. Men sizni doktor qilaman, akademik qilaman? N a s i b a (kulimsirab). Rostmi? (A. Q.) 3. N a s i b a. Voy. Tilla soatim bor edi-ku! M a r a s u l. Ikkovimiz o‘tkazadigan oltin umrning oltin minutlarini har qancha oltin soat sanasa oz! N a si b a, Rahmat... (A. Q.) 4. Hormang, Do‘simboy ota! - dedi

Abduqodir o‘sha tomonga yurib. - Salomat bormisiz? (O‘.Umarbekov) 5. — Sizga ovqat berishdimi? — so‘radi Myuller qaytib kelgach. Balki tamaddi qilib olarmiz?

Yaxshi, — ko‘ndi Shtirlits.

Yuqoridan biron nima olib kelishlarini aytdim.

Rahmat. Odamlarni chaqirtirdingizmi?

Chaqirtirdim.

Ko‘rinishdan mazangiz yo‘q...

— E, — dedi Myuller qo‘lini siltab (Yu. Semyonov.)

6. Yo‘lchining so‘zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi:

— Astag‘firullo!

7. — Teshavoy soy bo‘yida kutib turmoqchimidi?

— Ha. (H. G‘.)

8. — Mashinachingiz menga yoqmadi, kaketkani o‘xshatolmas ekan. Boshqasini topamiz.

— Xo‘p. (H. G‘.)

383-mashq. O‘qing. To‘liqsiz gaplarni topib, qanday bo‘laklar tushirib qoldirilganini, uning sodda gapning boshqa turlaridan farqini ayting.

1. — Bu qishloqning hammasi sizga.

Menga? — Qodirbobo tushunmadi.

Ha, sizga.

Hammasi-ya?

Hammasi!

Bepul-a?

Bepul.

Tag-tugi bilan-a?

— Tag-tugi bilan. (Sh. Toshmatov.)

2. — Qaysi xislat odamni past darajadan a'lo darajaga ko‘taradi?

Aql va tamiz.

Odam nima bilan odam bo‘la oladi?

Odamgarchilik bilan.

Adab, tarbiya odamga qanday foydalar beradi?

Adabli, tarbiyali odam boshqalarga muhtoj bo‘lmaydi, balki ular bunga muhtoj bo‘ladilar.

Qaysi narsalar inson uchun ayb sanaladi?

Baxillik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, do‘stlarining ozgina kamchiliklarini ko‘rish bilan ulardan yuz o‘girish, o‘z aybini ko‘rmay, boshqalarning ayblarini oshkor qilish. (“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”)

384-mashq. O‘qing. Gaplarning ifoda maqsadi, tuzilishi, tarkibiga ko‘ra turlarini aniqlang; 4 ta gapni tanlab, sintaktik jihatdan to‘liq tahlil qiling.

I. Hoji uni o‘zi chiqqan xonaga emas, undan narigisiga boshlab kirdi. Bu yer mehmonxonasi bo‘lsa kerak, juda serhasham va dabdabali edi. Burchakda odam bo‘yidan baland kurant soat, to‘rda turkman qorabayiridek tim siyoh pianino, uning orqasi—devorda antiqa rangli «qizil oyoq» gilam. Gilamda esa Tamannoning rangdor, chiroyli surati. Shiftda muhtasham, uyning husniga yana husn qo‘shib turgan billurin qandil. Javonda yapon chinnilari. Javon ustida bir juft ajdaho naqshli xitoy ko‘zasi. Derazalarda harir parda. Xonaning gir aylangan navosida toshkentcha ganch o‘ymakorligining ajoyib namunasi.

Ancha past-balandni ko‘rgan Qoplonbekning esi og‘ib qoldi. Ichida beixtiyor “mana, yashash!” deb yubordi. Osilgan dorning juda baland ekanini endi butun salobati bilan his qildi va yuragi orqasiga tortib ketdi. (Shuhrat.)

II. 1. Ha, labbay? Salim Salimov?? Xo‘sh, xo‘sh? Biletni oldi? Tayyorlanyapti? Xayriyat. (H. G‘.) 2. Sarkarda emasman, arbob ham emas, Ammo elga tanish kamtar ovozim. (Mirm.) 3. Jomiy haqida gap ketdi, uning she'rlarini, saxiyligi, olijanobligi, o‘tkir aqlini maqtashdi. (L. Bat.)

QO‘ShMA GAP

385-mashq. Berilgan matndan avval sodda gaplarni, so‘ngra qo‘shma gaplarni yozing. Qo‘shma gap qismlari sonini, qanday bog‘langanini izohlang.

Darada havo issiq, hamma yerdan qarag‘ay va archa hidi anqirdi. Tevarak-atrof igna bargli ko‘m-ko‘k daraxtlar bilan qoplangan. Yirik shag‘al yo‘ldan tepalikka ko‘tarilish ancha mushkul edi. Havo issiq, suv ichkilari kelardi. Hamon suv uchramasligidan hayron bo‘lishardi. Shu daradan qor bosgan Qrasnaya Polyana degan joyga o‘tishlari kerak edi. Shu yerda daryocha bo‘lishi kerak, lekin undan hamon darak yo‘q edi. Qaragaylar uchini shitirlatib shamol esardi, ammo shamol ovozi sukunatni buzmay uni yanada chuqurlashtirardi. Borgan sari oyoq ostidagi kul rang, ba'zi joylarda esa oppoq tus olgan shag‘al birdaniga qoraya boshladi va o‘n minut o‘tmasdan shag‘al orasida shildirab oqayotgan ariqchani ko‘rdilar, olisdan esa shovillagan ovoz eshitildi. Sal keyinroq ular ayqirib oqayotgan oqim bo‘ylab ketaverdilar, suvdan esgan muzdek shamol oyoqlarini junjiktirdi. Keyin ular qor bosgan maydonchaga ko‘tarildilar, hamma yoqni yana sukunat bosdi, chunki qor erib, uning ostidan chiqayotgan oqim pastda qolgan edi. Ular qor ustidan yana balandroq ko‘tarildilar va hyech zot yo‘q shu balandlikda ularda qandaydir notanish yuksak tantana, ko‘tarinkilik ruhi paydo bo‘ldi. (Yu. Semyonov.)

386-mashq. Gaplarni o‘qib, bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarni ajrating, ular orasidagi farqni izohlang.

1. Qovun pishmagan, lekin sap-sariq pishgan do‘mboq-do‘mboq handalaklar ko‘p edi. (O.) 2. Kun sovuq bo‘lsa ham, u terlab ketgan edi. (S. Kalmikov.) 3. Bizning nafratimiz dahshatli, irodamiz, g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoqimiz esa cheksizdir. (Yu. Semyonov.) 4. Kechqurun tiniq osmonda ilk yulduzlar charaqlaganda, hamma qishloqqa qaytadi. (O. Yo.) 5. Tuman tarqaldi va men butun astronomik kuzatuvlarimizni amalga oshira olishimizga umidvor bo‘la boshladim. (J. Vern.) 6. Mening hamma istaklarim, butun vujudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o‘zim uchun eng ulug‘ baxt deb bilaman. (Abu Rayhon Beruniy.) 7. Bilamanki, har bir orzuning o‘ziga yarasha tashvishi bor. (M. Muhamedov.) 8. Uch-to‘rt g‘o‘la arralaguncha, onam qora terga botdi. (N. S.) 9. Ko‘z yoshidek toza tomchilar Qilar ekan daryoni paydo, Daryo bo‘lsa gul vodiylarni Etar ekan o‘ziga shaydo. (H. O.)

387-mashq. Qo‘shma gaplarning turini aniqlang. Bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chiring, bog‘lanishini tushuntiring.

1. Ular butun vujudi bilan ishga sho‘ng‘ib ketishgandi-yu, ammo texnika yetishmasdi. (Ch. Ayt.) 2. Hamma quvnoq, hammaning yuzida baxt balqib turibdi. (S. Z.) 3. Men uni taniyman, alllaqaysi bir zavodda ishlaydi. (M.Muhamedov.) 4. Aprel oyining oxirlari bulsa-da, kecha xuddi sentyabrdagidek qop-qorong‘i edi. (L. Sh.) 5. Qatta ariqning narigi sohili ularniki, berigi sohili bizniki. (Ch. Ayt.)

BOG‘LANGAN QO‘ShMA GAP

388-mashq. Bog‘langan qo‘shma gaplarni ko‘chiring, bog‘lovchi vositalarni topib, gaplarning o‘zaro qanday bog‘langanligini izohlang.

1. Umid iljayib kuldi-yu, lekin yuragi pichoq sanchilgandek zirqirab ketdi. (Mirm.) 2. Ammo tirikchilik qilishi uchun manba kerak, manba esa yo‘q edi. (M.Ism.) 3. O‘zi gapini topolmay nima ahvolda-yu, sizlar yana uyaltirasizlar kulib. (M.Ism.) 4. Urush bosilgan, ammo qahatchilikning dami qaytmagan kezlar edi. (S. Siyoev.) 5. Xalq qonunga xizmat qiladimi yoki qonun xalqqa xizmat qiladimi? (Sh. Toshmatov.) 6. Nihoyat, mashina terimi ham izga tushib ketdi-yu, Hilol aka u bilan suhbatlashishga vaqt topdi. (J.Abd.) 7. Toshpo‘lat gap qaytarmadi, lekin alamidan, jahlidan lablari hamon dirillar edi. (N. Biryukov.) 8. Daraxtlarning bargi tiniq va ulardagi yomg‘ir tomchilari botib borayotgan quyoshning qizg‘ish nurida jilvalanar edi. (A. Q.) 9. Tavba, shuncha paxtani o‘zim terdimmi yo birov qo‘shib qo‘ydimi? (S.Ahm.)

389-mashq. Berilgan zidlovchi bog‘lovchi va bo‘lsa, esa so‘zlari orqali bog‘langan qo‘shma gaplarni izohlang.

1. Biz hokimiyatni qo‘lga kiritdik bu esa juda mushkul ish edi. (Ivan Le.) 2. Siz sevasiz pokiza ham mard Yigitlarga xos sevgi bilan, Ammo goho poyonsiz o‘ylar Xayolimni chulg‘aydi yomon. (Mirm.) 3. Har kim har xil fikr yuritar, lekin hyech qaysisi aniq bir narsa aytolmasdi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 4. Zavod yopildi-yu, biz ham ko‘chada qoldik. (I. S.) 5. Mana siz tashakkurnoma oldingiz, men bo‘lsam vigovor oldim. (N. Biryukov.) 6. Elektr stansiyasi chiroqlarni o‘chirdi, Shtirlits esa kamin oldida uzoq vaqt qoramtir-qizg‘ish o‘tinlarni ko‘m-ko‘k olov chirmab olayotganini tomosha qilib o‘tirdi. (Yu. Semyonov.)

390-mashq. Ayiruv, inkor bog‘lovchilari va yuklamalar orqali bog‘langan qo‘shma gaplarni toping.

1. Shu choq qo‘ng‘iroq chalindi-yu, bolalar sinflariga kirishdi. (P. T.) 2. Faqat na unisi bir narsa deya oldi, na bunisi ovozini chiqarishga botindi. (Ch.) 3. Yaktak, mol-dunyo topiladi, ammo odam topilmaydi. (N. S.) 4. “Sho‘roi islom” va “Ulamo” o‘lka komitetida qo‘qonliklardagidek na kuch bor, na pul bor. (S. Kalmikov.) 5. Mehmon, sallangizni yo o‘zingiz yeching, yo biz yechamiz! (H. G‘.) 6. Onasi sopol tovoqda tupa (ugra) osh keltirib qo‘ydi-yu, u ham sandalga tiqildi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 7. Na biror uyning mo‘risidan tutun chiqadi, na biror daraxt ko‘rinadi. (Sh. Toshmatov.)

391-mashq. Badiiy asarlardan bog‘langan qo‘shma gapga to‘rtta misol topib yozing. Qismlarning qanday bog‘langanini tushuntiring.

392-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring va ularning qo‘yilish sababini izohlang.

1. Dildorning gavdasi o‘girildi-yu yuzi, ko‘zlari hamon A'zamjon ketgan tomonda edi. (S. Ahm.) 2. Hyech kim javob bermadi ammo ichkaridan olim cholning ovozi eshitilib turardi. (N. Biryukov.) 3. Siz chiroqsiz porlagan Men esa parvonangiz. (Mirm.) 4. Bu yer osti ko‘lida xavf-xatardan tamoman xolisiz va hyech qanaqa chaqirilmagan mehmon sizni bezovta qilolmaydi. (J. Vern.) 5. Xayriyatki, uchinchi signal chalinib qoldi-yu, bu uchrashuvning sovuqligi bilinmadi. (A.Q.) 6. Hyech kimning hayoti olijanob va himmatli odamlarning hayotidan azizroq bo‘lishi mumkin emas sizlar esa ham olijanob ham himmatli kishilarsizlar! (J. Vern.) 7. Tungi smena tongga yaqin tugaydi-yu, odamlar uy-uylariga qaytib, hordiq olishga yotadilar. (J.Abd.)

ERGAShGAN QO‘ShMA GAP

393-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni o‘qib, bosh va ergash gaplarni ajrating. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ayting.

1. Darslar allaqachon tamom bo‘lgan bo‘lsa ham, zalda negadir g‘ala-g‘ovur bosilmasdi. (S. 3.) 2. O‘zi singari keksa irrigatorlardan ilgari boshqa biror kishi gapirib qo‘ymasligi uchun, u bu fikrni komissiya a'zolariga eng birinchi bo‘lib xabar qilgisi kelgan edi. (Ivan Le.) 3. Sen baxtlisan, chunki erking o‘zingda. (S. Sauvapong.) 4. Bu yerga hyech kim oyoq bosmay qo‘yganidan, atrofini o‘t, tikanak bosib ketgan edi. (Ch. Ayt.) 5. Bilamanki, har bir orzuning o‘ziga yarasha tashvishi bor. (M. Muhamedov.) 6. O‘rin shunday yumshoqki, go‘yo gul bargi to‘shalgan deysiz. (Mir Ammon Dehlaviy.)

394-mashq. Ergash gaplarning o‘rnini aniqlab, tinish belgilarining qo‘yilishini izohlang. Ko‘chirib, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga chizing.

1. Garchi piyoda yo‘l bosib charchagan bo‘lsa ham, notanish shahardagi olag‘ovur, Marg‘ilonda uchramaydigan har xil odamlar uni qiziqtirgan edi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 2. U meni koridordan boshlab borar ekan, menda bir ajib tuyg‘u paydo bo‘ldi. (Yu. Smuul.) 3. Hasan chiqib ketishi bilan, Tursunov jiringlab turgan telefonga quloq soldi. (Iboxon.) 4. Vatan insonga dunyodagi barcha narsadan aziz tuyulsa, u vaqtda odam po‘latdan ham mustahkam bo‘lib ketadi. (S. Sauvapong.) 5. Ular olmazor etagidagi so‘qmoq yo‘lga burilishganda, quyosh tog‘ ortidan endigina mo‘ralay boshlagan edi. (O‘. U.) 6. Oqqal'ada ham so‘nggi besh kunlikda shunday g‘ayrat ko‘rsatildiki, deyarli bir oylik vazifa oxiriga yetkazib qo‘yildi. (J. Abd.) 7. Uni osmonga ko‘tarilgan chang-to‘zon hayratda qoldirdi, go‘yo Samarqand bozoriga dushman o‘t qo‘yib yuborganday edi. (S. B.) 8. Toshpo‘lat akamlar, men nimani xohlasam, shuni qiladilar. (N. Biryukov.) 9. Odam, nima yaxshi bo‘lsa, shuni qilishi kerak. (O‘. U.)

395-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarning sxemasini namunadagidek chizing.

N a m u n a : Shu uchrashuvdan u umidvor bo‘lgan edi, chunki qarmoqqa juda mazali xo‘rak ilingan edi. (Yu. Semyonov.)

, chunki

1. Bu yerdagi ish sur'ati bizning portlarimizdagiga qaraganda juda sust, shu sababli ham kemalar bir yerda ancha to‘xtab turadi. (Yu. Smuul.) 2. Uning orzusi bir qarashda romantik qasoskorning orzusi bo‘lib ko‘rinsa ham, tagidagi haqiqat chuqur, o‘ta hayotiy. (H. G‘.) 3. O‘tgan kuni Saida tamaki saroyidan ishdan qaytib kelayotganda, orqasidan Mirzaqul ham yetib keldi. (Ch. Ayt.) 4. Domla tezda kelavermagach, o‘quvchilar bezovta bo‘la boshladilar. (N. S.) 5. Eng so‘nggi askar ichkariga kirishi bilan, darvoza mahkam bekitildi. (S. B.) 6. O‘sha guzar tamom bo‘lgach, ko‘cha sharqdan g‘arbga buriladi.(S. A.)

396-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni o‘qing. Qaysi ergash gaplar bosh gapdagi biror bo‘lakni, qaysilari umuman bosh gapni izohlayotganini aniqlang.

1. U xotin shunday go‘zal ekanki, olamni bezatib turgan porloq yulduzlar ham uning husni oldida xiralanar ekan. (N. Biryukov.) 2. Shu gapim qulog‘ingda bo‘lsinki, men yilning ikki kuninigina o‘z ehtiyojim uchun sarflayman. (K. Moiseeva.) 3. Yo‘lak qorong‘i bo‘lgani uchun, u kishini taniy olmadi. (S. An.) 4. Quyosh porlab turgan bo‘lsa ham, kun ancha sovuq edi. (S. Z.) 5. Shuni bilamanki, mashinaga ajratilgan kattakon bir kartaga Arslonbek akam mo‘ylov qilib odam qo‘ydirib yubordilar. (A. Q.)

397-mashq. O‘qing. Ega va kesim ergash gaplarni aniqlang, ularning bosh gapga qanday bog‘langanini izohlang.

1. Gap shundaki, har qaysi joyning o‘ziga yarasha qoida-qonuni bor. (B. Boshu.) 2. Yangi gap shuki, dardingizga davo bor. (H. G‘.) 3. Gap shundaki, u yigitda hamma narsaga qiziqish bor. (N. Biryukov.) 4. Hammamizga ma'lum, har bir litr suv uchun kolxoz pul to‘laydi. (Ch. Ayt.) 5. Sizga ravshan bo‘ldiki, ser, qirollik hukumatidan olayotgan pullarimni o‘rnida sarflayapman. (S. Kalmikov.) 6. Darvoqye, kimki o‘zining tilsiz do‘stlari uchun g‘am cheksa, u yomon odam bo‘lmaydi. (F. Kuper.) 7. Nimaiki nafratimga duchor bo‘lgan bo‘lsa, hammasi mana shu kemada! (J. Vern.)

398-mashq. Avval ega ergash gapli, keyin kesim ergash gapli qo‘shma gaplarni ko‘chiring, ularning bosh gapga bog‘lanishini sxema bilan ko‘rsating.

N a m u n a: Yana shu ham sir emaski, mana shunday ko‘p bolali oilalarda ota-onalar o‘z farzandlariga ba'zan bir ko‘z bilan qaramaydilar. (M.Ism.)

ki,

1. Buyruq shuki, biz shu yerda qolishimiz kerak. (E. Xeminguey.) 2. Orzum shuki, kuyovimiz qarg‘a bo‘lmasin, bulbul bo‘lsin. (H. G‘.) 3. Kimki Do‘smatov usuli bilan ishlasa, u uch kishining normasini bajaradi. (N. Biryukov.) 4. Demak, Angliya razvedkasiga nimaiki ma'lum bo‘lsa, bularning hammasi

amerikaliklarga ham yetib borgan. (S. Kalmikov.) 5. Shu narsa sir emaski, Farg‘onada bosmachilarning piri... Naim Qudrat eshondir. (S. Kalmikov.)

399-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, ega va kesim ergash gapli qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga ikki to‘g‘ri chiziq chizing.

1. Haq gap shuki Buxoro dunyoda eng arzon, eng sifatli gaz chiqarishi mumkin. (I. R.) 2. Baxtsizligim shundaki men sahnani, uning qonun-qoidalarini, talabini bilmayman. (Yu. Smuul.) 3. Siz nima desangiz muallim o‘sha ma'qul. (Ch. Ayt.) 4. Ma'lum bo‘ldiki bungi siz mos emas ekansiz. (Yu. Semyonov.) 5. Kimki tartibni buzsa o‘zidan o‘pkalasin. (N. S.) 6. Qizig‘i shundaki hyech qachon Qodirxon har gapga bu qadar oppa-oson unaydigan ko‘ngilchan odam bo‘lmagandi. (K. Moiseeva.)

400-mashq. O‘qing. To‘ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplarni aniqlang, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ayting.

1. Kimki sizni olib chiqib ketishimga ruxsat bergan bo‘lsa, qarindoshlaringiz o‘shalar nazorati ostida. (Yu. Semyonov.) 2. Shunday kunlar bo‘ladiki, xalqning tarixiy taraqqiyoti uchun bir necha o‘n yillarga arziydi. (N. Biryukov.) 3. Kim qudratli bo‘lsa, o‘shanga ergashish kerak. (S. Kalmikov.) 4. Yaxshi bilasizki, mehrsiz yashash mumkin emas. (E. Usmonov.) 5. Kavkazni mudofaa qilayotgan har bir jangchi shuni bilsinki, uning orqasida keng jonajon yurti va yo‘liga ko‘z tikkan oilasi turibdi. (Ya.)

401-mashq. To‘ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplarni alohida-alohida ko‘chiring, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga chizing.

1. Ammo shunday vaziyat yuzaga keldiki, o‘sha kunlarda men dushman uyasiga borib qoldim. (V. Karpov.) 2. Sen shuni unutmasliging kerakki, hyech kim birovga o‘ylash, istash, orzu qilishni man eta olmaydi. (Ch. Ayt.) 3. Bilasan-ku, bizning o‘lkada Allaqachon tutqunlik bitgan! (Z.) 4. Tabiatda shunday moddalar borki, ular qisqa muddat ichida quyosh nurini o‘ziga singdirib, qorong‘ilikda yana bo‘shliqqa qaytaradi. (J. Abd.) 5. Shunga iqror bo‘lishim kerakki, kapitan Nemoning bu ishi endi menga o‘ta ehtiyotsizlikday tuyula boshladi. (J. Vern.)

402-mashq. Badiiy asarlardan ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplarga bittadan misol topib yozing va ularning farqini tushuntiring.

403-mashq. Berilgan o‘rin va payt ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘qing. Bosh va ergash gapni aniqlab, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni izohlang.

1. Bosqinchilarning askari tor tog‘ yo‘liga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan. (S. B.) 2. Qayrag‘och uchidagi barglarda quyosh nurlari endigina jilva qila boshlaganida, Naziraxon, Meliboy, va Rasuljon Aravonga kirib keldilar. (S. Kalmikov.) 3. Soy qayoqqa oqsa, tosh ham o‘sha yoqqa dumalaydi. (H. Shams.) 4. Xayol og‘ushiga g‘arq bo‘lib, ayni vaqtda bu ulug‘vor manzarani boricha xotiramda saqlab qolishga intilayotgan paytimda, kapitan Nemo suv o‘tlari qoplagan ustunga suyanib, harakatsiz va gung odamday turar edi. (J. Vern.) 5. Nazira oldinga qadam tashlamoqchi bo‘lgan ediki, uning ko‘zi oldidan bir narsa lip etib o‘tib ketdi. (N. Biryukov.) 6. Kemalar muzliklar maydoni bo‘ylab suzishni o‘rganmagunlariga qadar, ular uzluksiz yaxlit muzliklar oldida to‘xtab qolishga majbur bo‘ladilar. (J. Vern.) 7. Qaerda tinchlik bo‘lsa, baxt ham o‘sha yerda, bolalarim. (Ch. Ayt.)

404-mashq. Tinish belgilarini qo‘yib, o‘rin va payt ergash gaplarni alohida-alohida ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga chizing.

1. Men qaerga borsam sen menga hamroh bo‘lursan. (O.) 2. Karimjon urushga ketgach Asrora biron oy telbanamo bo‘lib yurdi-yu, darrov o‘zini o‘nglab oldi. (S. Ahm.) 3. Katta kema qayoqqa yursa kichik kema ham shu yoqqa yuradi. (Maqol.) 4. Do‘smatov qo‘liga endi piyolada choy olgan edi tarjimon qiz savol berdi. (N. Biryukov.) 5. Komil kolxoz idorasi yonidan o‘tib ketayotganda sekretar Tolibjon qo‘liga bir xat tutqazdi (A. Muhiddin.) 6. Men qaerga borsam sen ham o‘sha yerga borasan. (J. Ikromiy.)

405-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Payt ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni izohlang. 1- va 5- gaplarni ko‘chirib, sxemasini chizing.

1. Temirjon kelganda, Qunduz endigina uyquga ketgan ekan. (J. Abd.) 2. Mironshoh o‘z saroyiga yaqinlashgan sari, uni qurshagan saroy ahllari kamayib borardi. (S. B.) 3. U meni koridordan boshlab borar ekan, menda bir ajib tuyg‘u paydo bo‘ldi. (Yu. Smuul.) 4. U suv to‘ldirilgan ko‘zani joyiga qo‘ygan choqda, chol qandaydir qiyin bir misra ustida o‘ylanib o‘tirgan edi. (S. B.) 5. Hamshaharlari chiqib javob qilgunga qadar, Pushok anchagacha sabr-matonat bilan bo‘yin egib kutdi. (S. B.) 6. Tog‘ni oqshom qorong‘isi chulg‘ab ola boshlagach, mash'allar yoqildi. (S. B.) 7. U hali zinadan tushmagan ham ediki, yuqorida Ahror paydo bo‘ldi. (S. Abduqahhor.) 8. Biz o‘yinga kirishib ketguncha, gulxanlar bo‘y cho‘zadi. (Ch. Ayt.) 9. Tilla rang bo‘yoqlari yaltiragan vagonga kirishingiz bilan, uzun koridor boshlanadi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.) 10. Bir kuni maktabdan kelsam, hovlimizda ikki begona ot bog‘log‘liq turibdi. (Ch. Ayt.)

406-mashq. Quyidagi gaplarni o‘qing. Ergash va bosh gaplarni aniqlab, ergash gapning turini va bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ayting.

1. Siz qaerni xohlasangiz, o‘sha yer menga yoqadi. (O.) 2. Kimki o‘z ishiga hushyor bo‘lsa, u hyech qachon yanglishmaydi. (Furmanov.) 3. Xalq shunday bir daryoyi azimki, uning mavjidan na shohning, na darveshning kulbasi qolur. (O.) 4. S o q i ye v. Shuni bilib qo‘yingki, xonimcha, men Umiddan ham

qo‘rqmayman, Zamonovdan ham. (H. G‘.) 5. Elmurod g‘aramdan sirpanib tushar ekan, bolaning harakat va avzoyi eshonga boshqacha ko‘rindi. (P. T.) 6. Men “Avraam Linkoln” bortiga chiqqan paytimda, bu orol turklar zulmiga qarshi bosh, ko‘targan edi. (J.Vern.) 7. Bilamanki, mening ixtiyorimga qarshi bormaydi. (S. B.) 8. Bu oqpadar o‘g‘il bilmaydiki, o‘zi jerkib, yerga urayotgan kishisi - otasi! (M.Ism.) 9. Men sizga shuning uchun ishonamanki, bir boshingiz bilan o‘n odam ko‘tara olmaydigan mashaqqatni yenggansiz. (H. G‘.) 10. Senday qonxo‘r zolimdan Qolmasin deb biror zot, Bosh ko‘tardik, zulmdan Bo‘lmoqchi edik ozod. (H. O.)

408-mashq. Sabab va maqsad ergash gaplarni alohida-alohida ko‘chirib, ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga chizing. 1- va 3- gaplarning sxemasini chizing.

1. Harorat ortiq darajada issiq bo‘lganidan, soat beshda bo‘lajak yig‘ilish kech soat sakkizga qoldirildi. (Iboxon.) 2. Qalandarrv so‘zni aylantirib, byuro sostavida qolishga hohish bildirib qo‘ymasin uchun, Saida yana uning so‘zini og‘zidan oldi. (A. Q.) 3. Sovuq sabab bo‘ldi shekilli, Ulug‘bek bugungi darsini qisqa qildi.(T.Malik) 4. Gulsum opa hammadan ko‘ra bu odamning mana shunday kishi ko‘nglini ovlamoqchi bo‘lishidan qo‘rqardi, chunki buning tagida hamisha bir yomon gap, bir sovuq habar yotardi. (O.Yo.) 5. Umr bo‘lsin deb ziyoda, Mehnat qilar erta-kech. (Mirm.) 6. Doniyorbekovchilar Gazoboddan ancha olislab ketganliklari uchun, Bobomirza ularning ishini ko‘zdan kechirolmadi. (I. R.)

409-mashq. O‘rin, payt, sabab, maqsad ergash gapli qo‘shma gaplarga badiiy asarlardan bittadan misol tanlab yozing va ularning o‘xshash hamda farqli tomonlarini ayting.

410-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, ergashgan qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Har bir gapdan so‘ng ergash gapning turini qavs ichida yozib ko‘rsating.

1. Qudrat minnatdorchilik bildirib uch-to‘rt qadam bosgandi hamki orqadan haligi qizning ovozi eshitildi. (J.Abd.) 2. Quyosh go‘yo xira oynadan nur sochayotgandek Shohimardon tog‘larining cho‘qqilariga ko‘tarilganda Muhiddin Qora vodiyning devorlarini g‘ira-shira ko‘ra boshladi. (N. Biryukov.) 3. Mana shu mablag‘ behuda sarf etilmasligi uchun komissiya qat'iy bir qarorga kelishi kerak. (Ivan Le.) 4. Kuzda daraxtlar sarg‘aya boshlaganda u yer chiroyli bo‘ladi. (E. Xeminguey.) 5. Qizim xursand bo‘lsin deb qo‘lidan kelgan barcha ishni qildi. (T. Liben.)

411-mashq. O‘qing. Shart va to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarni aniqlang. Bosh va ergash gaplarni topib, bog‘lanishini ayting. Shart va to‘siqsiz ergash gaplarning farqini tushuntiring.

1. Ufq uzra quyoshning balandligini aniqlay olmasam, unda bu ishni olti oyga kechiktirishga to‘g‘ri keladi. (J. Vern.) 2. Garchi bu notinch o‘lka dunyoviy mashg‘ulotlardan bexabar bo‘lsa-da, uning o‘rmonlariga odamlar g‘ovuri tez-tez jon baxsh etib turardi. (F. Kuper.) 3. Agar Firuzabonu klub mudirasi bo‘lsa, xotin-qizlar ozodligi yuz foiz bo‘ladi. (J.Ikromiy.) 4. Agar g‘oyibdan yetishgandek Beruniy duch kelib qolmaganda, na hodisa ro‘y berishi mumkin ekanligini aytishga tilim bormaydi. (K.

Moiseeva.) 5. Siz bolani hurmat qilmas ekansiz, bola sizni tinglamaydi, sizni sevmaydi. (S. Z.) 6. Bu xalqni tiz cho‘ktira olishga uning ilgarigidek aqli yetmasa hamki, ertalab uyda kechirgan hayajoni endi yo‘q edi. (N. Biryukov.) 7. Agar bu la'nati gitlerchilar bo‘lmaganda edi, har bir xonadonda shodlik, farovonlik bo‘lur edi! (N. Biryukov.) 8. Ish vaqti bo‘lishiga qaramay, guzarda odam ko‘p edi. (H. Nu'mon, A. Shorahmedov.)

412-mashq. Mirmuhsinning «Ziyod va Adiba» dostonidan keltirilgan quyidagi parchada ergash gapning qaysi turi qatnashgan? Istalgan to‘rt gapning bo‘laklarini aniqlang.

Sen agar ketar bo‘lsang,

Qalbimdan ketar orom.

Sen agar ketar bo‘lsang,

Yuzim bo‘lar za'faron.

Men agar ketar bo‘lsam,

Onam bo‘ladi murda.

Men agar ketar bo‘lsam,

Dil bo‘lar burda-burda.

Sen agar ketar bo‘lsang,

Uyimizdan fayz ketar.

Men agar ketar bo‘lsam,

Sen agar ketar bo‘lsaig,

Kasalvon onam netar?!

Sen agar ketar bo‘lsang,

Qular baxtim yulduzi.

Men agar ketar bo‘lsam,

Qurir xonam ildizi.

So‘nib tushar quyoshim.

Men agar ketar bo‘lsam,

Tinmas onam ko‘z yoshi.

413-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, shart va to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarni alohida-alohida ko‘chiring, bog‘lovchi vositalar tagiga chizing.

1. Temur naqadar olg‘a talpinmasin qo‘shin hamon orqada qolib ketar edi. (S. B.) 2. Ularni yengmas ekansiz farovon hayot ertak bo‘lib qolaveradi. (S. Kalmikov.) 3. Yomg‘ir aralash qor yog‘ib turgan bo‘lsa ham u negadir shoshmas xayol bilan band edi. (S. Z.) 4. Egilgan daraxtga suyansang agar u daraxt seni ham o‘ziday egar. (Ya.) 5. Hali labidan tabassum arimagan bo‘lsa-da oftobda qoraygan yuzlari borgan sari kuchliroq oqarmoqda edi. (Ivan Le.) 6. Agar Jo‘ra tog‘am kasallanib yotib kolmaganda balki men ham temirchilik hunarini egallab olgan bo‘larmidim. (N. S.) 7. Ha, zulm qancha zo‘r va shafqatsiz bo‘lmasin bari bir umri qisqa! (N. S.) 8. Mabodo odamni tark etsa aqli Shodligu qayg‘uning bo‘lmaydi farqi. (H. G‘.) 9. Ko‘chalar loyroq bo‘lsa bog‘lar oralab borishimiz ham mumkin. (I. Sodiqov.)

414-mashq. Badiiy asarlardan shart va to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplarga ikkitadan misol tanlab yozing, har birining sxemasini chizing.

415-mashq. Natija va o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplarni topib o‘qing. Ergash gap bosh gapga qanday bog‘langanini tushuntiring.

1. Daryo suvi qancha oqqani bilan kamaymagani kabi, odam qalbi dunyo-dunyo shodligu tog‘-tog‘ qayg‘u-alamlarni sig‘dira olarkan. (H. N.) 2. Eshon javob o‘rnida shunday bir ingradiki, suyaklari zirqirab ketganday bo‘ldi. (P. T.) 3. Shunday g‘azab alangasi ko‘tariladiki, bu alanga zolimlarni va bosqinchilarni kuydirib, kulini ko‘kka sovuradi. (Z. Samadiy.) 4. Har qanday yangilik biron eskilik qarshiligiga duch kelganidek, yangi maktab yo‘liga g‘ov to‘suvchilar ham paydo bo‘lib qolgandi. (N. S.) 5. Shu kun uch o‘rtoq chunon ishlashdiki, Asqarning oyisi o‘g‘lini taniyolmay yoqasini ushladi. (L. Mahmudov.) 6. Go‘yo qishloqqa Chiqqan kabi kun, Ming-ming chiroqdan Yorug‘ bo‘lar tun. (Q. H.)

416-mashq. Avval natija ergash gapli, keyin o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar tagiga chizing.

1. Darslar shunaqa o‘tadigan bo‘ldiki, go‘yo bilgan narsalaringni qayta takror qilgandek bo‘lasan kishi. (M. R.) 2. Archa atrofidagi bolalarni shu qadar kuldirdiki, Turdi bilan Asqarning ichagi uzila yozdi. (L. Mahmudov.) 3. Bir kaftgina hovurlangan tuproq turar qo‘limda, Go‘yo shunda yashnagan bog‘ paydo bo‘ldi yo‘limda. (Z. O.) 4. Havo shunday dim, issiq ediki, ko‘zini yumib turgan kishi o‘zini olov guvillab yonayotgan tandir oldida turgandek his qilar edi. (N. Biryukov.) 5. Derazadan tushayotgan shu'la chevarning so‘lim yuzini yoritar, go‘yo quyosh ham inson go‘zalligi oldida bosh egib turardi. (B. Iqlimov.) 6. Bu yilgi qish shunday cho‘zildiki, odamlar yilt etib oftob chiqishiga zor edi. (Y. Sulaymon.) 7. Soy va jilg‘alardagi suvlar quyilib katta daryoni vujudga keltirganiday, to‘p-to‘pi bilan qo‘zg‘olonchilarga qo‘shila boshlagan xalq katta oqimga aylanmoqda edi. (Z. Samadiy.)

417-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yib, ergashgan qo‘shma gaplarni ko‘chiring, sxemasini qavs ichida ko‘rsating va ergash gapning turini ayting.

1. Sariyog‘, qazi shunday ustalik bilan parrak qilib to‘g‘ralgan ediki biron joyida pichoq tirnab ketgan g‘adiri ko‘rinmasdi. (O‘. U.) 2. Lekin biz shapko‘r odam turli ranglarni bir-biridan ajratolmagani kabi hozircha vujudga kelmagan asarlarimizni aniq, bus-butun tasavvur qila olmaymiz. (Yu. Smuul.) 3. Hamqishloqlari deraza oldidagi gilamga davra qurib o‘tirishdi go‘yo oqsoqollar gilamni qurshab olgandek edilar. (N. Biryukov.) 4. Ertasiga Ramazon qori shu qadar hovliqib keldiki eshikdan kirayotib ostonaga qoqilib ketdi. (P. T.) 5. Elmurod bukun shunday maza qilib uxladiki hatto tush ham ko‘rmadi. (P. T.) 6. Kuzgi sinov yaqinlashgan sari Rahbarxonning Umridan xavotiri oshmoqda edi. (H.N.) 7. Babushkin ko‘proq Meliboyga murojaat qilib gapirar chunki u Qo‘qondagi ahvolni yaxshi bilardi. (S. Kalmikov.)

418-mashq. Avval daraja-miqdor, so‘ngra ravish ergash gapli qo‘shma gaplarni ajratib ko‘chiring, ergash va bosh gaplarni aniqlab, qanday bog‘langanini tushuntiring. Bog‘lovchi vositalar tagiga chizing; ikkinchi va uchinchi gaplardagi qismlarning o‘zaro bog‘lanishini sxemada ko‘rsating.

1. Nasiba qanchalik sergap va sermulozamat bo‘lsa, Mahbuba shunchalik kamgap, kamsuqum edi. (O. Yo.) 2. Muzlagan ariq bo‘yidagi yosh tolchalar egilishib, butoqlari u yoq-bu yoqqa tebranib turardi. (Ch. Ayt.) 3. Cho‘l qancha issiq va jazirama bo‘lsa, qovun ham shuncha shirin va mazali bo‘ladi. (S. B.) 4. Zanjir shiq etib tushib, darvozaning bir tavaqasi ochildi. (H. G‘.) 5. Qari otda poyga chopish qanchalik qiyin bo‘lsa, keksa kishining qorong‘ida tog‘larda qolishi ham shunchalik xavfli. (N. Biryukov.) 6. Kun ham qaytib, hovli o‘tirishli bo‘ldi. (H. G‘.) 7. Oxirgi darsdan chiqishga qo‘ng‘iroq chalinib, sinf bir nafasda bo‘shab qoldi. (J. Abd.) 8. Sening qo‘ling naqadar qattiq bo‘lsa, dushmanning qo‘li shu qadar kuchsiz bo‘ladi. (S. B.) 9. Bulutlar asta-sekin tarqalib, havo ham iliy boshladi.(Ch. Ayt.) 10. Mehribon otaning boladan ranjimog‘i qancha qiyin bo‘lsa, achchig‘idan qaytmog‘i ham shuncha qiyin. (Z. Samadiy.)

419-mashq. Badiiy asarlardan natija, o‘xshatish, daraja-miqdor, ravish ergash gapli qo‘shma gaplarga bittadan misol topib yozing, bog‘lanish usulini ko‘rsatib, sxemasini chizing.

420-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni o‘qing. Ergash va bosh gaplarni aniqlab, ergash gapning turini, bosh gapga bog‘lanish yo‘lini ayting.

1. Amerikadagi xalq ozod bo‘lmagani uchun, u yerdagi boylik qanday qilib umumxalqqa xos bo‘la olishi mumkin? (Ivan Le.) 2. Iloji shuki, ko‘pchilikning‘ ra'yiga qaraysiz. (H. G‘.) 3. Mashina derazalari yopiq bo‘lsa ham, tishlarimiz orasida qum g‘ichirlardi. (Yu. Smuul.) 4. yerdan nimaiki topilsa, shuni darrov ularga ma'lum qilishlarini so‘rashadi. (N. B.) 5. Ular olmazor etagidagi so‘qmoq yo‘lga burilishganda, qo‘yosh tog‘ ortidan endigina mo‘ralay boshlagan edi. (O‘. U.) 6. Ko‘z qaerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi. (Maqol.) 7. Qosh-qovog‘i uyulib, basharasidan zahar tomib turardi. (J.Abd.) 8. Yuragidan oqqan har bir tomchi qon yaralangan bug‘u uchun qanchalik qimmatli bo‘lsa, biz ham o‘zimiz uchun shunchalik qimmatga ega vaqtni zoe ketkazyapmiz. (F. Kuper.) 9. Sandiqning qopqog‘i shunday og‘ir ediki, ikki kishilashib, arang ko‘tarishdi. (O.Yo.) 6. Bundan

kelinning bop-nobopligi qancha aniqlansa, kelin tushgan xonadon odamlarining yangi a'zoga munosabatlari ham shuncha ravshanlashadi. (M.Ism.)

421-mashq. Berilgan qo‘shma gaplarni o‘qing. Avval bog‘langan, keyin ergashgan qo‘shma gaplarni ko‘chiring; har birining bog‘lanish usulini ko‘rsatgan holda sxemasini chizing.

N a m u n a: 1. Toshpo‘lat gap qaytarmadi, lekin alamidan, jahlidan lablari hamon dirillar edi. (N. Biryukov.)

2. Oy botib ketgan bo‘lsa ham, hali tong yorishmagan. (S. B.)

, lekin

-sa ham,

1. Qora yerga yaqinroq kelsin deb quyosh, Ulug‘bek yo‘qotdi ko‘kday ulug‘ bosh. (G‘. G‘.) 2. Ehtimol, u yoqlarda o‘t-o‘lanlar tizzaga kelmagandir, lekin yam-yashil qirlarda, Sayxun bo‘ylaridagi cheksiz dashtlarda hanuzgacha lolaqizg‘aldoqlar ochilib yotgandir! (O.Yo.) 3. Yo ko‘k unga o‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko‘zgusi xiralashib qolgan. (O.Yo.) 4. Tor ko‘cha chekinib, oldinda kichikroq bir guzar ko‘rindi. (O.Yo.) 5. Ali Qushchiday shogirdlari bor ekan, uning asarlari izsiz yo‘qolmaydi. (O.Yo.) 6. Uni tasodifan topdim va bu tasodif menga ozmuncha xizmat qilayotgani yo‘q. (J. Vern.) 7. Suhbatdan shu narsa ma'lum bo‘ldiki, o‘rtoq Valiev ilgari tuppa-tuzuk lavozimlarda ishlagan. (M. Niyozov.) 8. Idora yo‘lagiga kirgan ham ediki, Olimning kimgadir baland ovoz bilan do‘q urib gapirayotgani qulog‘iga chalindi. (F. Niyoziy.) 9. Qizig‘i shundaki, mana shu korxonaga dastlab direktor bo‘lib kelibdi. (M. Niyozov.) 10. Kimki taxtga sodiq qolsa, shohdan in'om oladi. (Sh. Rustaveli.)

422-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Har bir gapning tuzilishiga ko‘ra turini (bog‘langan yoki ergashgan) qavs ichida ko‘rsating.

1. Sovuq tushib dalalarda izg‘irin shamol esa boshladi. (Ch. Ayt.) 2. Nizomjon birovga aralashmaydigan, kamgaproq bola bo‘lganidan sinfdoshlari uni “indamas” deb chaqirishardi. (S. Ahm.) 3. Garchand noyabr endi boshlangan hali uzun qish qirov ostida qimirlamay turgan bo‘lsa ham

to‘satdan tushgan sovuq odamlarni shoshirib qo‘ydi. (H. G‘.) 4. Ilm misoli bir daraxt bo‘lsa amal — uning mevasi. (K. Moiseeva.) 5. Meni qo‘rqitish qiyin, hayratlantirish esa undan ham qiyinroq. (N. T.)

BOG‘LOVChISIZ QO‘ShMA GAP

423-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘qing, qismlarining o‘zaro qanday bog‘langanini ayting. Har bir gapning sxemasini chizing.

N a m u n a: 1. Bahodir xalqimiz g‘alaba qildi, Yana izga tushdi farovon hayot. (Z.)

2. U biladi: kimdir Mashrabning ko‘ngliga shubha solgan. (O. Yo.)

,

:

1. Qo‘shni tog‘ ustini ko‘kish tuman qoplagan, qishloq choshgoh quyoshidan charaqlab turardi. (S.B.) 2. Asosiysi millatlar hamkorligi manfaatlarini ko‘zlashdir, qolgan hammasini tarix kechirgusidir. (Yu. Semyonov.) 3. O‘zbek xalqining sizdan qat'iy talabi bitta: dushman yo‘lini to‘singiz, uni uloqtirib tashlangiz va tezroq tor-mor etingiz! (Ya.) 4. Dono gapirmaydi, nodon vaysaydi. (S. Kalmikov.) 5. Do‘stni dushman qilish — bir nafaslik ish, Dushmanni do‘st bo‘l deb ko‘ndirish qiyin. (As. M.) 6. Bu yigitning yoshi o‘ttizlarga borib qolgan, qiyofasida qandaydir ulug‘vorlik bor edi. (N. S.) 7. Hal qilinmagan juda ko‘p muammolar meni tashvishlantirar, talay kishilar ko‘z oldimdan nari ketmas edi. (J.Vern.) 8. Qadimda afsonalarda ham botinmay orzu qilinadigan narsa birdan haqiqatga aylandi qoldi: yerlar boylardan kambag‘al dehqonlarga olib berildi. (N. Biryukov.)

424-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘qing, qismlarning o‘zaro mazmun munosabatlarini izohlang. Bog‘langan qo‘shma gapga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chiring.

1. Yaxshi do‘st — jon ozig‘i, yomon do‘st — bosh qozig‘i. (Maqol.) 2. Xorazm dalalariga allaqachon oqshom cho‘kkan, osmonda yulduzlar miltillaydi. (Mirm.) 3. Bolalar balog‘atga yetaveradi, keksalar umrini o‘tkazaveradi. (S. Ahm.) 4. Men bilaman, sen dong chiqarishni yaxshi ko‘rasan. (N. Biryukov.) 5. Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. (N.) 6. Sandiq qopqog‘i ochiq, latta-puttalar sochilib yotibdi. (H. G‘.) 7. Biz hosil yetishtirish bilan, ular hisoblash bilan ovora. (S. B.) 8. Har kim o‘z sovg‘asini topshirdi, har kimning nasl-nasabi va mavqyeiga qarab podsho hadya ulashdi. (Mir Ammon Dehlaviy.)

425-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar qismlarining o‘zaro mazmun munosabatlarini aniqlab, ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lganlarini ajratib ko‘chiring.

1. Ammo siz ham tushunishingiz kerak: bizning neft konlarimizga o‘xshagan muassasalarda qat'iy tartib va intizom bo‘lishi kerak. (S. Jamol.) 2. Qalandarov o‘g‘li Kozimbekni qattiq sog‘ingan ekan, butun kunini uyida o‘tkazdi. (A. Q.) 3. Zulmatni ziyo yengar, Chin ahdu vafo yengar. (H. G‘.) 4. Yuqori qavatga chiqishga ahd qildik — u yer bexavotirroq. (V. Karpov.) 5. Kifoyatxon kelgani ham yaxshi bo‘lgan ekan: kechga tomon keldi-ketdi ko‘paydi. (A. Q.) 6. Bundan o‘n yil ilgari ahvol butunlay boshqa edi: u vaqtlarda Muxtorbek buning oldida qo‘l qovushtirib turar edi. (N. Biryukov.) 7. Men uni uzoqdanoq tanidim: u xuddi onasiga o‘xshardi. (Yu. Smuul.) 8. Uka bo‘lar akasining qanoti, O‘g‘il farzand — otasining ulfati. (Po‘lkan.) 9. Za'far yurtga nur to‘kar oqshom, Bog‘da gullar javlon urgan payt. (S. ye.)

426-mashq. Berilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘qing, qismlarining o‘zaro mazmun munosabatlarini tushuntiring; bog‘langan qo‘shma gapga ham, ergashgan qo‘shma gapga ham sinonim bo‘lmagan turinigina ko‘chiring.

1. Bu yerda suron yo‘q, sukunat hokim. (Z. O.) 2. Qay kasbni qilma, qay ishni. Hammaga teng sharafdir mehnat. (Shukrullo.) 3. Hali u yerdan, hali bu yerdan gulduros chapaklar eshitiladi, artistlar, muzixachilar tomosha ko‘rsatmoqdalar. (N. Biryukov.) 4. Hamon ko‘z oldida Ashirali jonlanar, quloqlarida uning so‘zlari jaranglardi. (H. G‘.) 5. Ko‘m-ko‘k o‘tlar bodrab chiqmishdi, Ko‘m-ko‘k edi ariqlar cheti. (Mirm.) 6. U yer xavfsizroq zdi, o‘t o‘chiruvchilar ham biz tomonda turishardi. (Yu. Semyonov.) 7. Xayollarim — uchar gilam, charx urar yeru samo. (Z. O.) 8. Qamishzorlar yashillanadi, qirlarda lolaqizg‘aldoqlar gulxani yonadi. (S. Ahm.) 9. Kulba oldidagi yo‘ldan qo‘shinlar o‘tib borar, ularning oyog‘idan ko‘tarilgan to‘zon yog‘ochlarning 6arglariga o‘tirardi. [E. Xeminguey.)

427-mashq. Quyidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘qing, qismlar orasidagi tinish belgilarining qo‘yilish sababini izohlang.

1. Dengiz sokin, atrof yaqqol ko‘rinar edi. (J. Vern.) 2. Bahodir xalqimiz g‘alaba qildi, Yana izga tushdi farovon hayot. (Z.) 3. U biladi: kimdir Mashrabning ko‘ngliga shubha solgan. (O. Yo.) 4. Azizxon akam — geroy, Tursunboy — qochoq. (S.Ahm.) 5. Askarlar tovush chiqarmay yo‘l bosar, ularning daragini eshitgan xaloyiq ham indamay jo‘nab qolardi. (S. B.) 6. Quyosh allaqachon botgan, poyonsiz dalalar ortidagi qoramtir ufq tubidagina nimtatir shafaqdan ojizgina qizg‘imtir asar ko‘rinardi. (H. G‘.) 7. Bu yerda, Potsdamdan uncha uzoq bo‘lmagan Babelsbergda, o‘zining mo‘jazgina kottejida yakka o‘zi turardi; uning xizmatchisi bir hafta oldin Tyuringiyaga, toqqa, jiyaninikiga jo‘nab ketgan edi. (Yu. Semyonov.)

428-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yib, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chiring. 1-, 3- gaplarning sxemasini chizib ko‘rsating.

1.To‘g‘ri til tosh yorar har egri til — bosh. (Ya.) 2. U pastdagi eshik yopilganini eshitdi boyagi ikki kishi kirib keldi, shekilli. (Yu. Semyonov.) 3. Men Duyshenning otiga mindim u yonimda piyoda ketdi. (Ch. Ayt.) 4. Butun tevarak-atrofni tit-pit qilib chiqdik ayolni topib bo‘lmadi. (Yu. Semyonov.) 5. Bizni umr bo‘yi xo‘rlab, oyoq osti qilib kelishdi johillikda o‘tdi umrimiz. (Ch. Ayt.) 6. Akbar bilan o‘chakishib bo‘lmasdi hozir Rasuljon buni tushundi. (J.Abd.)

429-mashq. O‘qing, qo‘shma gapning turlarini aniqlang. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chirib, qavs ichiga sxemasini chizing.

1. Pahlavon elingda boshlandi tinch ish, Yana gurkuradi mehnat va ijod. (Z.) 2. Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim. (N.) 3. Otryadga yondashibroq yurgim kelsa-da, lekin boshimdagi non savat xalaqit berardi. (N. S.) 4. Meni tezda tanib olish mumkinku-ya, ammo sizlarni tanish mushkul bo‘lib qolibdi, og‘aynilar! (K. Moiseeva.) 5. Uning kirib kelishi hyech kimning yetti uxlab tushiga kirmaganidan, Yoqubni eshik oldida hyech kim qarshi olmadi. (K. Moiseeva.) 6. Siz chegaradan o‘tasiz, men esa singlingizning xavfsiz joyda bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilib turaman. (Yu. Semyonov.) 7. Temurning ketidan mash'al olib kirdilar, shu on uyning ichi yorishib ketdi. (S. B.) 8. Kapitan Nemo mening yonimga keldi va biz birgalikda tez harakat qilayotgan manometr milini kuzatdik. (J. Vern.)

430-mashq. Qo‘shma gaplarni o‘qib, turini aniqlang: 1 abzatsdagi gaplardan bog‘langan qo‘shma gaplarni ajratib, qismlarining o‘zaro bog‘lanish usulini tushuntiring; II abzatsdan ergashgan qo‘shma gaplarni topib, qismlari qanday vositalar yordamida bog‘langanini ayting; III abzatsda bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni aniqlab, qismlarining mazmun munosabatini izohlang; bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan ikkitadan ko‘chirib, sintaktik tahlil qiling.

I. 1. Tun oysiz bo‘lsa ham, yulduzlar aks etgan firuza gumbazlar allaqanday ko‘kish jilo taratib, g‘alati yaltillab turardi. (O. Yo.) 2. Oftob hali chiqmagan, lekin qorli cho‘qqilar usti go‘yo olov purkaganday yal-yal yona boshlagan edi. (O. Yo.)3. Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo‘lmaydi. (A. Muhiddin.) 4. Sen aqlli qizsan va biz senga ishonamiz. (F. Niyoziy.) 5. Ko‘kda goho g‘azab chaqnar, goh kun balqir nuroniy.(III. Rustaveli.) 6. Sobirvoyning ko‘zlari shu manzarada-yu, o‘zi ko‘ngli tusagan tomonga yo‘l oldi. (A. Muhiddin.) 7. Hasadgo‘y misli chayon, chayon esa O‘ziga o‘zi nashtar urar emish. (U.)

II. 1. Inson umri qanchalik qisqa bo‘lsa, tabiatning umri shunchalik boqiy ekan! (O. Yo.)2. Davlatpanoh neni lozim ko‘rsalar, biz shunga bosh egamiz. (O. Yo.) 3. Odinaev bu o‘y-fikrlardan biron murod hosil qila olmasdi, lekin bu o‘y-fikrlar miyasidan sira chiqib ham ketmasdi. (F. Niyoziy.) 4. Tushga yaqin... hujum sur'ati sustlashib, jangchilar o‘rinlaridan qimirlamay qoldilar. (F. Niyoziy.) 5. Olisda, Ko‘ksaroy tomonda, hamon nog‘oralar gumburlar, karnaylar suron solardi, (O. Yo.) 6. Bilib qo‘yki, sevgi bilan mashaqqat sherik ikkov. (III. Rustaveli.) 7. Karima uyg‘onib qolmasin deb, oyoq uchida sekin-sekin bosib kiradi. (S. An.)

III. 1. Kitob dono uchun aql xazinasi, nodon uchun tutantiriqdir. (K. Hamro.) 2. Jahl bilan qartayasan, kulgi bilan yosharasan. (K. Hamro.) 3. Ufqdagi tog‘larning usti g‘ira-shira oqargan, lekin osmonda siyrak bulutlar orasida hamon milt-milt yongan yulduzlar ko‘rinardi. (O. Yo.) 4. Mirzo Ulug‘bek unsiz titrab yig‘layotgan nozaninning yalang‘och qo‘llarini ko‘rganda angladi: bonuning husnixati xina qo‘yilgan barmoqlariday nozik va go‘zal edi. (O. Yo.) 5. Yomonning urug‘i yo‘q, u mikrobday o‘z-o‘zidan ko‘payadi. (K. Hamro.) 6. Ikkita 18-19 ga kirgan qiz ariq labida munkayishib shaftoli yeyishar, yelkalaridan osilib tushgan yo‘g‘on soch o‘rimi yerda chulg‘anar edi. (U. N.) 7. Soxta go‘zallik bezdiradi, tabiiy go‘zallik sevdiradi. (K. Hamro.)

MURAKKAB QO‘ShMA GAPLAR

431-mashq. Murakkab qo‘shma gaplarni o‘qing, necha qismdan tuzilganini va oddiy qo‘shma gapdan farqli tomonlarini tushuntiring.

1. Pleyshner yana eshikni itardi, ammo u yopiq edi, kichkina oynachadan esa chiqib ketishning iloji yo‘q. (Yu. Semyonov.) 2. Bilib qo‘y, bugundan boshlab biring do‘stimsan, biring—singlim! (P. Q.) 3. Minora baland, zinapoyalari tik, o‘y-xayollar esa zildek og‘ir edi. (S. B.) 4. Bu fikr hammaga ma'qul tushsa ham, Aloiddinga yoqinqiramadi, chunki bu uning yolg‘iz o‘ziga xos ish bo‘lib, boshqalarni sherik qilishga tobi yo‘q edi. (O.) 5. Uning zamonida xalq to‘q, xazina to‘la, lashkar baxtiyor, g‘aribu g‘urabolar osuda yashar ekan. (Mir Ammon Dehlaviy.) 6. Kuz kirib, yomg‘ir ketidan yomg‘ir quyib bergach, kashtanlarning yaproqlari duv to‘kildi-da, shoxlari qip-yalang‘och bo‘lib qoldi, daraxtlarning tepalari yomg‘irdan qorayib ketdi. (E. Xeminguey.)

432-mashq. Berilgan murakkab qo‘shma gaplar ichidan qismlari ergashish yo‘li bilan tuzilgan turini ko‘chiring, ularning sxemasini ko‘rsating.

N a m u n a: Paxta yig‘im-terimi hali boshlanmagan bo‘lsa-da, asfalt yo‘llar solinayotgani uchun, bu yerdagi kolxozlarda ish ayni qaynagan bir payt edi. (N. Biryukov.)

-sa-da, -gani uchun,

1. U gapini tugatmagan ham ediki, eshik ochilib, ostonada Yo‘ldosh paydo bo‘ldi. (S. An.) 2. Hanifa tizginni chapga tortdi, otlarning boshi burilib, arava egilibroq pastga tushdi. (H. G‘.) 3. Men soldatman, urush urushligicha qoladi, men o‘zimga yengillik berilishini kutmayman. (Yu. Semyonov.) 4. Shu payt otishmalarning ham ovozi eshitilmay, bir lahzaga urush dahshatlari unutilib, tinchlik hukm surardi. (Ch. Ayt.) 5. Garchand bu to‘g‘rida Muxtorov hali hyech narsa demagan, shuningdek, bu

to‘g‘rida hali cho‘l qurilishi bo‘yicha berilgan buyruqda ham hyech narsa yozilmagan bo‘lsa-da, lekin ishning borishidagi mantiqiy xulosa shunga olib borardi. (Ivan Le.) 6. Ferma balandroq yerda joylashganligidan, tevarak-atrof kaftda turganday ko‘rinar, men yo‘lni, yo‘l chekkalaridagi daraxtlarni, dalalar va chetanlarni, chekinib borayotgan qo‘shinlarni ko‘zdan o‘tkazdim. (E. Xeminguey.)

433-mashq. Murakkab qo‘shma gaplarni o‘qing, ulardagi qismlar o‘zaro qanday bog‘langanini ayting. Bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gaplarni ko‘chiring, sxemasini chizing.

1. E'tiqod va muhabbat yonma-yon bo‘lgani ma'qul, biri — qalb, biri — qanot. (Mirm.) 2. Kishi qancha xafa bo‘lsa, alam o‘tib yurgan bo‘lsa, qilgan ishi ham shuncha unumsiz bo‘ladi. (N. Biryukov.) 3. Dalalar ko‘m-ko‘k maysa bilan qoplangan, uzum novdalari naycha kurtak otgandi; yo‘l yoqasidagi daraxtlar yaproqchalar chiqargan, dengiz tomondan shabada esib qolgandi. (E. Xeminguey.) 4. Cho‘l yashnab, chinorlar barg yozganda, atrofni xushbo‘y gullar hidi qoplaganda, zavod va fabrikalarning kuchli gudoklari yangraganda, Said ko‘kraklarini kerib, jonsiz sahroga jon kirgizgan mehnat go‘zalligi maqtovini ko‘kka ko‘tarajak! (Ivan Le.) 5. Atrofi ko‘m-ko‘k daraxtzor, o‘rtadagi gullar ko‘z qamashtirardi, oftobda yal-yal yonib bir tup lola ham ochilib yotibdi. (L. Mahmudov.) 6. U shunchalik xursand bo‘lganiga o‘zi hayron qoldi: inglizlar Berlinni bombardimon qilardi, Frankfurt ostonalaridan rus to‘plarining gumbur-gumburi eshitilib turardi, Reynda hamma narsa vayron bo‘lmoqda, u esa o‘ch olayotgan kishidek quvonardi. (Yu. Semyonov.) 7. Tog‘ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho‘qqilar quyoshga o‘chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag‘irlarda saf tortgan archalar qorayib ko‘rinadi.(As.M.) 8. Ana, qaerdadir qush sayradi, ariqdagi suv shalopladi; tong yorisha boshladi. (N. Biryukov.)

434-mashq. Quyidagi murakkab qo‘shma gaplarni o‘qing, qismlarining o‘zaro bog‘lanishini izohlang. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo‘shma gaplarni ko‘chiring, sxemasini chizing, 5-gapni sintaktik tahlil qiling.

N a m u n a : Kotiba qiz kirishi bilan, ichkaridan g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovoz eshitildi va keyingi daqiqada eshik lang ochilib, Zokir Qo‘shmoqovning o‘zi chiqib keldi. (O‘.Usm.)

va

1. Shunday odamni yuborish kerakki, u ko‘pchilikka ma'lum bo‘lmagan kishi bo‘lsin, undan hyech kim shubhalanmasin. (H.G‘.) 2. Taksi oldimizga kelib to‘xtadi, men Ketrinni mashinaga o‘tqazdim, shofyor esa chamadonni old o‘rindiqqa qo‘ydi. (E. Xeminguey.) 3. Aravalarning o‘qlari g‘ijillar, otlar

pishqirar, temirlar shiqirlar edi. (S. Borodin.) 4. Fazilat yuragi uvishib o‘rnidan turdi, lekin shu payt to‘rdagi eshik ochilib, Latofat o‘zi chiqib keldi. (O.Yo.) 5. U kerilib yotar, lekin samarqandliklar uning yoniga kelib o‘tirishga oshiqmadilar, chunki ular o‘z tashvishlari bilan edilar. (S. B.) 6. Kun iliq edi, ko‘klam hidi esardi, men devorga quyosh nuri tushib turgan, oftobda isigan qator daraxtzor ko‘chadan o‘tib bordim va biz hamon o‘sha o‘zimizning uyda turganligimizni, shuncha vaqt o‘tsa-da, hamma narsa qanday bo‘lsa shunday qolganligini ko‘rdim. (E. Xeminguey.)

435-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, murakkab qo‘shma gaplarni ko‘chiring; ikkita gapni sintaktik tahlil qiling.

1. Osmon keng ufq poyonsiz dengiz chuqur tabiat saxiy. (H.G‘.) 2. Nusratjon osh yedimi yo osh Nusratjonni yedimi buni bilib olish qiyin edi. (F. Nasriddinov.) 3. Ular koridordan o‘tib ketayotganlarida Vasya Stepanov mudirning kabinetidan chiqdi ishi shoshilinch bo‘lsa kerak bolalarga e'tibor qilmay tashqariga tomon zipillab ketdi. (P. T.) 4. Garchi otlar tipirchilab bezovtalansalar ham ertalab hovlida hamma uxlab yotgani uchun otboqarlar otlarga baqirib, o‘shqirmas edilar. (S. B.) 5. Rim faqat shuning uchun halokatga uchradiki u butun dunyoga hokim bo‘lmoqqa intildi va natijada vahshiy qabilalar zarbasi ostida halok bo‘ldi. (Yu. Semyonov.) 6. Kuz o‘tadi orqasidan qor kelur Qor ketadi izma-iz bahor kelur Chamanlarga qancha-qancha yor kelur Ular sizni kutadilar turnalar. (H. G‘.)

436-mashq. Badiiy asarlardan murakkab qo‘shma gaplarning har bir turiga bittadan misol topib yozing va sintaktik tahlil qiling.

437-mashq. O‘qing. Avval bog‘lanish, keyin ergashish, so‘ngra bog‘lovchi vositalarsiz va aralash tipda tuzilgan murakkab qo‘shma gaplarni ko‘chiring; har biriga oid bittadan gapni singaktik tahlil qilib, sxemasini chizing.

1. Buning sababi shundaki, kuch bor joyda, odatda g‘urur paydo bo‘ladi, g‘urur esa shuhratparastlikka olib boradi, boshga qiyinchilik tushgan yillarda esa shuhratparastlikdan g‘o‘rroq va zaifroq narsa bo‘lmaydi. (Yu. Semyonov.) 2. Vodiy yerlari hosildor edi, unda bog‘zorlar serob edi, vodiy etagidagi tog‘lar esa taqir qo‘ng‘ir tog‘lar edi. (E. Xeminguey.) 3. Qo‘llari beixtiyor chamadon ichidagi narsalarni titkilar, o‘zi esa o‘tmishni o‘ylar, unutilgan kunlar ko‘z oldida jonli bo‘lib gavdalanar edi. (Ivan Le.) 4. Bu dunyoda qidiruv tashkilotlari yo‘qolmagandek, u ham o‘lmaydi, chunki odamlarning asosiy intilishi izlanishdir. (Yu. Semyonov.) 5. Agar og‘iz nazoratsiz qoldirilsa, tanobi mahkam ushlanmasa, undan dag‘al so‘zgina emas, haqorat ham chiqaveradi. (M.Ism.) 6. Havo sovuq, osmon ko‘kimtir, yerni qalin qor bosib yotardi. (Yu. Semyonov.) 7. Allakim ichkariga kirdi, eshik ochilganida, tashqarida hamon qor yog‘ayotganini ko‘rdim. (E. Xeminguey.) 8. Bilib qo‘y, Qoratoy, sen xalqning rizqini qiyding, ter to‘kib qilingan mehnat esa zoe ketdi, endi xalqning uvoliga qolasan. (Ch. Ayt.) 9. Qishki o‘rmon hayratda qolarli darajada go‘zal edi: shoxlardagi qor oy nurida tovlanar, hamma yoqda sukunat hukmron, bepoyon binafsha rang osmon qo‘ynida yulduzlar chaqnardi. (Yu. Semyonov.) 10. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o‘yin-kulgi avjiga chiqqan edi. (O‘. U.) 11. Garchand noyabr endi boshlangan, hali uzun qish qirov ostida

qimirlamay turgan bo‘lsa ham, to‘satdan tushgan sovuq odamlarni shoshirib qo‘ydi. (H. G‘.) 12. U yashaydi besitam, bezor, u bilmaydi qayg‘uni, g‘amni, Oyoqlari ostiga bahor To‘shab qo‘ygan alvon gilamni. (H.O)

KO‘ChIRMA VA O‘ZLAShTIRMA GAP

438-mashq. O‘qing. Qo‘chirma gap va muallif gapini topib, ulardagi bosh bo‘laklarni aniqlang. Ko‘chirma gapni muallif gapi bilan bog‘lovchi vositalarga va tinish belgilarga diqqat qiling.

1. “Siz haddan ziyod ko‘ngilchan va olijanobsiz”, — deb e'tiroz bildirdi Haydar qiziqqonlik bilan. (L. Bat.) 2. “Men birinchi galda vijdonim buyrug‘iga quloq solaman,— dedi Latifjon,— sening buyrug‘ingga emas”. (J. Abd.) 3. «Sahroning bag‘ri yomg‘irga tashna bo‘lganidek, — dedi Sultonmurod qo‘llarini harakatga solib, — ko‘hna Xurosonning eli adolat va fazilat quyoshiga tashnadir». (O.) 4. “Uh... — dedi og‘ir so‘lish bilan. — Nega kelmas ekan otam, to‘da-to‘da askarlar qaytyapti, ne bo‘ldi ekan otamga?—dedi u ichida o‘z-o‘ziga. — Ehtimol dushman qo‘liga tushib, tutqunlikda yurganmikan — dedi va yosh yuragi kattalarnikiday zirqirab, xomush holda uzoq o‘tirdi. — Yo‘q, mumkin emas, nahotki otam shunday yuraksiz, nomard bo‘lsa, aslo yo‘q”, — dedi qat'iyat ila xayolida bola va ovutdi o‘zini. (O.) 5. Xayrlasha turib Yoqub Husaynga dedi: “Sulton Mahmudning Hind mamlakatiga qilgan g‘olibona yurish xabari Xorazmga yetib kelganida, hazrati ustoz shunday degan edilar: “Mahmud gullagan obod o‘lkani butkul yer bilan yakson qildi. Uning ko‘rsatgan hayratomuz jasorati shu bo‘ldiki, hindlar tuproq zarralaridek chang-g‘uborga aylanib, har taraf to‘zib ketdilar”. Qo‘rqamanki, — deb qo‘shib qo‘ydi Yoqub, — bu gap faqat Hindistonga emas, Xorazmga ham taalluqli bo‘lib qolmasa edi”. (K. Moiseeva.)

439-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gap va muallif gapining o‘rnini aniqlang, ko‘chirma gap bilan muallif gapidagi ega va kesimlarni tolib, tartibini qiyoslang, farqini tushuntiring, tinish belgilarining ishlatilishini ayting.

1. “Yaxshiki Ibn Sinoni Xorazmshoh o‘z saroyiga chaqirtirgan, — deb o‘yladi Aburayhon. — U bilan uchrashmoq naqadar ko‘ngilli!” (K. Moiseeva.) 2. Bektemir ularga qaramasdan, sekin dedi: “Qopqonga tushibmiz, bu qalay?”. (O.) 3. «Balli, dehqon uchun savob Makka yo‘lida emas, cho‘lni yashnatishda», — dedi Mirhaydar. (O.) 4. Dedi kulib: “Xafaroqsiz, sababi sir emasmi?” (Sh.) 5. Uning yonidagi boshqa bir kosaga: “Ilmning ibtidosi achchiq, so‘ngi boldan ham totli”, — deb yozilgandi. (K. Moiseeva.)

440-mashq. O‘qing. Ko‘chirma gap va muallif gapini ayting, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang, tinish belgilarining qo‘yilishidagi farqni tushuntiring.

1. “Hayot olamida eng zarur narsa suvdir, — davom etdi u hamon asabiy holatda, — har qanday go‘zal elatda suv yetarli bo‘lmasa, unday elatning xarob bo‘lishi muqarrardir”. (J. Abd.) 2. “Bu

janjallarga mening nima aloqam bor?" - dedi Asadbek. (T.Malik) 3. Ahmadjon o‘ylab o‘tirmasdan darhol javob berdi: “Granata tashlardim! Yondirib yuborar edim!” (A.Q.) 4. “Biz yashaymiz!—Norqo‘zi endi ovozini pasaytiribroq, bosiq gapirdi.— Senlar obro‘, pul ketidan quvib, xarob qilgan mana bunday to‘qaylarni biz obod qilamiz”. (H. G‘.) 5. “Xalq nimani maslahat ko‘rsa o‘shani qiling”, — dedi Haydarbek. (N. S.) 6. ”Qo‘lingizdagi qanaqa aso?” — so‘radim men. (E. Xeminguey.) 7. «Tatyana to‘g‘ri aytadi, — dedi Komiljon Ernazar akaga qarab, — Dadajon akaning ishi — chorva, joyi — yaylov!” (I. R.)

441-mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘chirma va muallif gapini aniqlang, tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Tarixni bilgan kishi kelajakka ongliroq qaraydi, kelajakni yorqinroq ko‘radi degan edi u kishi. (N. S.) 2. Bu holatni zimdan kuzatib turgan, qilni qirq yoradigan mayor yana shu nozik torni cherta boshladi Samarqandda bo‘lmaganimga afsus qilaman. (Sh.) 3. Ikki gapning birida eri unga men chinakam muhabbatdan bo‘lak hyech qanday baxtni tan olmayman ...azizim derdi. (J. Abd.) 4. Omon bo‘l dedim o‘g‘limning yuzi ko‘zlaridan o‘pib ana shu shavkatli komandirlaring — sening otalaring. Sadoqat bilan xizmat qil, o‘g‘lim! (H. G‘.) 5. Olim bo‘laman desangiz, hyech qachon oson yo‘l qidirmang derdi u shogirdlarining ba'zi mushkullikdan silliqqina qutulishga uringanini sezib qolsa, fan oson yo‘l axtargan odamni yoqtirmaydi. (J. Abd.) 6. Bilasanmi u Yo‘ldoshboyga engashibroq tikildi kurash bunaqa bo‘lmaydi. (H.Nu'mon, A.Shorahmedov.) 7. Iya dedi Zebixon siz Ikromjon amakining jiyanlari emasmisiz? Jiyanlari emasman. U kishiga o‘g‘il bo‘ldim. (S. Ahm.)

442-mashq. O’qing. Ko’chirma va o’zlashtirma gaplarni topib, farqini ayting. Avval ko’chirma gaplardan, so’ngra o’zlashtirma gaplardan ikkitadan ko’chiring.

O’ktam Michurin ta'limotini o’rganib, amalga oshirish lozimligini, dehqonchilikning butun sohalarida cheksiz g‘alabalarga yetishish imkoniyati borligini va Karimqulning dehqonchilikka qarashlari noto’g‘ri, ibtidoiy, mutaassib ekanini anglatishga kirishdi. Keyin Sarvi haqida gapirdi, unga nasihat berishni, yo’lga solishni aytdi.

— E, bizning kelinmi? — dedi mug‘ambirona iljayib. O’ktam qizdan umid borligini, ishda va chaqqonlikda boshqa qizlarga yetayotganini, ammo kelinning o’jar, ish yoqmasligini, kecha birdan ishni tashlab ketganini aytib berdi.

Gapiring, ta'sir eting, yo’qsa, majlisga o’zini chaqirib tekshiramiz, — dedi O’ktam qat'iy ravishda.

Yo’q, inim, men bo’ynimga ololmayman. Kelinim qurg‘ur shaddod, unga hech teng kelib bo’lmaydi. Yotig‘i bilan sekin-sekin epga keltiramiz, — dedi Karimqul va yana gapni o’zgartdi. Bug‘doy o’rog‘i haqida gapirib, yangi bug‘doy nonining totli bo’lishini aytdi. U o’z xayolida O’ktamni firibgarlikka va o’z yoniga tortishga mo’ljallagandi. Buni shipshitmoqqa, agar iloji bo’lsa birgalashib xo’jalikni kemirishni o’ylar edi. O’ktam — zukko yigit, uning yomon niyatini tez angladi. Davlat planini to’latish, odamlarni yaxshi ta'min etish haqida so’zladi u.

— Ha, siz to’g‘ri aytasiz. Avvalo davlatga topshiraylik, davlat ishi zarur, keyin o’zimizni o’ylarmiz,— dedi Karimqul qizarib.

SHu choq rais O’ktamni chaqirayotganidan xabar keldi va O’ktam gapni chala qoldirib, idoraga ildam jo’nadi. (Oybek.)

443-mashq. O’qing. Ko’chirma gaplarni o’zlashtirma. gapga aylantiring.

1. “Kishilar qalbiga quvonch baxsh etmoq bizning asosiy maqsadimizdir”, — dedi u o’ziga-o’zi. (L. Bat.) 2. “SHahzoda hazratlari, — dedi Navoiy darhol, — men bu yerga Sulton hazratlarining iltimoslari bilan emas, o’z xohishim bilan keldim. Kaminaning birdan-bir orzusi Xurosonni tinch va osoyishta ko’rmoqdir. Nizolar tinsin va odamlar erkin nafas olsin”. (L. Bat.) 3. “Ikkalangiz, — der Tariel,—ajab to’kis botirsiz, Mardlikda-yu, maslahatda tengi yo’qsiz, nodirsiz!” (SH. Rustaveli.) 4. “Hunar o’rgatibsan-u, muomala o’rgatmabsan-da, shogirdga, Qoraboy”, — dedi ikkinchi yigit gapni ilib. (H. N.) 5. “Hirotdan bunday tez qaytishi ko’ngliga og‘ir botmasin uchun, unga do’stona iltifot ko’rsatmog‘ingiz lozim”, — degandi Majididdin Sulton Husaynga. (L. Bat.) 6. “Kelinglar, bir-birimizni hech qachon unutmaslikka qasamyod qilaylik”,— dedi kimdir. (K. Abukov.) 7. “Soflik harakatni nazarda tutadi, — kulimsirab o’qiy boshladi u,—ishonch zamini kurashdir...” ((Yu. Semyonov.)

444-mashq. O‘qing. Avval o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin bo‘lgan, so‘ngra o‘zlashtirma gapga aylantirib bo‘lmaydigan ko‘chirma gaplarni aniqlang, sababini tushuntiring.

1. Opam qulochini ochib: “Nazirquljonmisan? Voy ukaginamdan o‘rgilay”, — deya meni bag‘riga bosib o‘gtdi. (N. S.) 2. Nizomjon nima deyishini bilmay: ”O‘zim, shunday, uyqum qochib ketdi” — deb qo‘ya qoldi. (S . Ahm.) 4. “Ma, ol, yeyaqol”, — deb dasturxon chekkasiga bir chimdim oshmi, kulchatoymi qo‘yardi. (N. S.) 5. “U yantoqzordan, chamamda, o‘n gektar qamrash mumkin...” — dedi rais qo‘lini u tomondan uzmay. (O.) 6. “To‘xta!” — dedi qovoqning ichidan Dadavoy. “A?” — aravakash to‘xtab... tizzasi qaltirab o‘tirib qoldi. (L. Mahmudov.)

445-mashq. O‘zingiz badiiy asarlardan ko‘chirma gaplarga misollar topib, ko‘chirma va muallif gapining o‘rnini, ishlatilgan tinish belgilarini ayting.

446-mashq. O‘qing. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni sintaktik jihatdan to‘la tahlil qiling. Ko‘chirma gap va muallif gapining o‘rnini hisobga olgan holda sxemasini chizib ko‘rsating.

1. “Shunday chiroyli xatlar bitasanki, qizim, — derdi ona javob xatida, — o‘qib turib ming xil chiroyli suratlarni ko‘rayotganday bo‘laveraman”. (J. Abd.) 2. “Mening kompozitor bo‘lib yetishuvimda bosh murabbiy xalq kuylari, klassik maqomlardir, — deydi Yunus Rajabiy. — Xalq yaratgan xushohang kuylar meni maftun etdi, u menga ozuqa berdi, hayajonlantirdi. Shuning uchun kuy yaratganimda, xalq uslubini to‘la saqlab qolishga intilaman”. (S. Qaromatov.) 3. “Bu — dur”. — Navkarlardan bir oz chetroqda turganliklari uchun Valixon dangalroq aytdi. (Sh. Toshmatov.) 4. “Unday holda biz sulh

tuza olmaymiz, — dedim men, — chunki siz prezident emassiz, men esa kansler emasman”. (Yu. Semyonov.)

USLUBIYaT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI

447-mashq. Quyidagi gaplarning qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlab yozing.

N a m u n a : 1-gap – ilmiy uslub…

1. Barmoq tizimida bo‘g‘inlarning muayyan guruhlarga ajratilishi oqibatida paydo bo‘ladigan ritmik bo‘lak turoq deb yuritiladi. (T.Boboev) 2. O‘lguday yomon ko‘raman uni. Odam qurib qolganday shuni brigadir qilishganiga o‘laymi. (J.Abd.) 3. O‘rtaga sovuq bir jimlik cho‘kdi, kemiruvchi, vahimadan vahimaga otguvchi jimlik edi u. (M.Ism.) 4. – Voy, bo‘yginangday aylanib ketay seni. Sog‘intirib qo‘yding-ku ayajoningni. (O.Yo.) 5. Yana urishib qolamiz xuddi. Yaxshisi, xo‘p degin-da, bir boshdan o‘sha kashfiyotingni tushuntirib ber. (J.Abd.) 6. Qisqa, cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlarning turlicha birikuvidan har xil rukn (ustun) deb ataluvchi ritmik bo‘laklar tuziladi. (A.Hojiahmedov) 7. G‘o‘za tuplari barglarini tashlab, oppoq momiq tolalarini xuddi qo‘lda tutganday yuqoriga ko‘tarib, shabadada shitirlashib turibdi. (O‘.Usm.) 8. – Arz bilan keluvdingmi? – Go‘rnimi? Kasaldan turgan ekan, bir ko‘rib ketay deb keluvdim. (M.Ism.) 9. Ma'lumki, qizil imperiya parchalanib, yurtimiz bo‘ylab ozodlik, mustaqillik shabadalari esa boshlagandan so‘ng paxta ishlarini qaytadan ko‘rish sharafiga Oliy sud muyassar bo‘lgan edi. (U.Mingboev) 10. Qisqa talaffuz qilinuvchi unlidan iborat bo‘lgan yoki shunday unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar qisqa bo‘g‘in (hijo) deb ataladi. (A.Hojiahmedov) 11. Ma'lumki, bugun mustaqil respublikamizda sanoatning turli tarmoqlari, jumladan, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari, energetika va boshqa sohalar gurkirab rivojlanmoqda. (Sh. Akbarov, F. Rahimqulov) 12. Yomg‘ir suvidan bahra olib yashnayotgan sahro giyohlari, endigina bosh ko‘targan tuyaqorin ham asta badaniga kuch yig‘a boshladi. (J.Abd.) 13. Kelishikli boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zning talabi bilan tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklaridan birida qo‘llanadi. (“O‘zbek tili grammatikasi”dan) 14. Aruz vazni hijolarning talaffuzdagi uzun-qisqaligiga asoslangan bo‘lib, musiqa bilan chambarchas bog‘liqdir. (T.Boboev) 15. Alvir-shalvir Ibodin soqov Hayotxon degich momoning yolg‘iz o‘g‘li bo‘ladi. (T.Murod) 16. Ruxsat etasiz, o‘rtoq Ikromjon Usmonovga mukofot topshirishni. (S.Ahm.)

448-mashq. To‘liq sinonimlarni sinonimiya qatorlari hosil qilib yozing.

Kosmos, lug‘aviy, respublika, poema, tragediya, sinonimiya, jumhuriyat, doston, fojia, leksik, fazo, ma'nodoshlik.

449-mashq. Quyidagi sinonimiya qatorlaridagi so‘zlarni eskirgan shakllarini ajratib yozing:

N a m u n a : noma, ...

Xat, noma, maktub; chidam, bardosh, toqat, tob, to‘zim, tahammul, matonat; cho‘loq, oqsoq, lang; shubha, gumon, ishonchsizlik, ishtiboh; ega, xo‘ja, sohib; iltimos, iltijo, o‘tinch, zor, tavallo; urush, jang, muhoraba; foyda, naf, manfaat, hayon; xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum;

450-mashq. Quyidagi sinonimiya qatoridagi so‘zlarni quyidagicha yozing.

1) salbiylik xususiyatiga ega: turq, ...

2) ijobiylik xususiyatiga ega: chehra, ...

Gavdali, jussali, barvasta, norg‘ul, qomatdor, barzangi; novcha, daroz, naynov, uzun; bosh, kalla; noaniq, dudmal, noma'lum, notayin, belgisiz, mubham; burun, tumshuq.

451-mashq. Grammatik sinonimlarni aniqlab, sinonimik qatorlar hosil qilib yozing.

N a m u n a : kelyapti – kelayotir – kelmoqda.

Kelyapti, o‘quv, qizaloq, borishdi, paxtadan (boyidi), cho‘lda (kezdi), mehmonlarning (biri), teshikdan (sig‘adi), yutuqlarini (aytdi), yumushdan (gapiring), dalani (aylandi), kelayotir, kinoni (hikoya qildi), yurgiz, ish haqida (so‘radi), o‘qish, singlisiga (oldi), eshikka (sig‘adi), do‘sti uchun (asradi), o‘tirganlardan (kattasi), ko‘rganlaridan (gapirdi), ikkalasi, do‘sti orqali (eshitdi), bordilar, kelmoqda, o‘qimoq, qoraroq, doston haqida (so‘zladi), oqish, qizcha, ko‘kimtir, uchovlon, terdir.

451-mashq. Chap tomondagi iboralarning sinonimlarini o‘ng tomondan topib, sinonimik qator hosil qilib yozing.

1) adabini bermoq

2) yoqasini ushlamoq

3) “san-man”ga bormoq

4) lom-mim demaslik

5) tutuni osmonga chiqdi

6) “ali” desa, “bali” demoq

7) bir yostiqqa bosh qo‘ymoq

8) boy bermoq

9) boshi ko‘kka yetdi

10) g‘isht qolipdan ko‘chdi

11) holdan toymoq

12) vaqti chog‘lik qilmoq

13) ikki oyog‘ini bir etikka suqmoq

14) kulini ko‘kka sovurmoq

15) ko‘ngli toza

16) ipidan ignasigacha

17) qo‘l ko‘tarmoq

18) almisoqdan qolgan

19) oyog‘iga bolta urmoq

20) yengil tabiat

21) oyog‘ini uzatmoq

22) yoshi bir joyga borib qolmoq

23) aravangni tort

24) tumshug‘idan ilinmoq

25) kuni yetdi

hayratda qolmoq

adi-badiga bormoq

og‘ziga tolqon solmoq

payini qirqmoq

oyog‘ini tirab olmoq

paymonasi to‘ldi

churq etmaslik

dunyodan ketmoq

oq ko‘ngil

ko‘ngil ochmoq

jazosini bermoq

toshingni ter

oyog‘i yengil

fig‘oni falakka chiqdi

odam atodan qolgan

miridan sirigacha

qo‘lga tushmoq

gap qaytarmoq

turmush qurmoq

qo‘ldan bermoq

ovoz bermoq

yer bilan yakson qilmoq

terisiga sig‘may

tinkasi qurimoq

bo‘lar ish bo‘ldi

USLUBIYaT TURLARI

Leksik uslubiyat

454 -mashq. Grammatik omonimlarni, ya'ni omonim qo‘shimchalarni aniqlab, ma'nolarini izohlab yozing.

N a m u n a : yumshoq – sifat yasovchi, taroq – ot yasovchi.

Ekin, toshkentlik, Salimgina, o‘roq, ishchi, terma, chizg‘ich, suzgich, oilaviy, aqlli, jizza, kuzgi, tepki, o‘yna, borar, qo‘shma, ko‘rin, sharshara, borsa, onasi, ko‘pay, kelishdi, oshlandi, tinchlik, ko‘kar, ozar, boyi, tugma, supurgi, o‘chirgich, sog‘in, soyi, qo‘rqoq, yulg‘ich, asabiy, suvsa, kerildi, to‘lat, o‘qit, yuray, kechki, turtkila, tegma, do‘stlik, to‘kin, ishla, yasama, mensimoq, ishlandi, ozg‘ingina, erkin, borgandir, Toshkentdir, to‘lishdi, terildi, to‘kin, borma, sezdir.

453-mashq. Quyidagi she'rlarda qo‘llangan omonimlarning ma'nolarini izohlab ko‘chiring.

1.Yorab, ul shahdu shakkar yo lab durur?

Yo magar shahdu shakar yolab durur

Jonima payvasta novak otqali,

G‘amza o‘qin qoshig‘a yolab durur? (Navoiy)

4. Bo‘ldi chun umring kunining vaqti tush,

Nafsi sarkash otini ko‘b chopma, tush.

Xobgoh etkil qanoat manzilin,

Yo‘qsa hargiz ko‘rmagung rohatni tush. (Ogahiy)

2.La'lidin jonimg‘a o‘tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.

Men vafosi va'dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki qilmas yo qilur.

(Navoiy)

5.Gar qurutmas ul ko‘zumning yoshini,

Haq uzun qilsun ul oyning yoshini. Yig‘lama ko‘p, bu vujuding ishq o‘ti

Ne qurug‘in qo‘yg‘usi, ne yoshini. (Lutfiy)

3.Manga sensiz, begim, kunduz kechadur,

Dareg‘o, sensizin umrim kechadur. (Xo‘jandiy)

6. Ko‘ngulda garchi hajring dog‘i bordur,

Valekin vasl umidi dog‘i bordur. (Sayid Ahmad)

455-mashq. O‘qing. Sinonimik qatorlardagi noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zlarni aniqlang.

Bayroq, yalov, lozung, alam; asramoq, e'zozlamoq, saqlamoq; asabiy, tajang, tund; asar, asorat, belgi, iz; bemahal, to‘satdan, bevaqt; istiqbol, kelgusi, kelajak; muzlamoq, sovqotmoq, to‘ngmoq, yaxlamoq; nolish, shikoyat, qayg‘u, hasrat; sevgi, muhabbat, havas, ishq; sezgi, his, hayajon, tuyg‘u; subut, vijdon, burd, tayin; titroq, qaltiroq, diydiramoq.

456-mashq. Noto‘g‘ri tuzilgan antonimik juftlarni aniqlab ko‘chiring.

Butun – yirtiq, butun – siniq, anqov – merov, avlod – ajdod, a'lo – o‘rta, band – bo‘sh, bardam-munkillagan, bahorgi - qishki, beixtiyor – jo‘rttaga, bepand – mustahkam, bosh – oxir, bo‘shatmoq – to‘ldirmoq, vertikal – gorizontal, dahriy – dinsiz, janubiy – g‘arbiy, jismoniy – ruhiy, yirik – ushoq, kam – ko‘p, kichik – buyuk, kecha – ertaga, komediya – drama, lanj – tirik, ma'lum – mavhum, murakkab – sodda, mo‘rt – mustahkam, ozod – tutqun, oson – og‘ir, pok – iflos, saxiy – ziqna, asta – jadal, siyrak – qalin, sudralmoq – yugurmoq, unumli – samarasiz, sipo – yengiltak, xunuk – barno, shodlik – qayg‘u, shafqatli – berahm.

457-mashq. O‘qing. Gaplardagi paronimlari o‘rinsiz qo‘llangan so‘zlarning o‘rniga moslarini toping.

N a m u n a : 1. jodu emas jodi.

1. – Axir bo‘ron bilan hazillashib bo‘ladimi, opa? Boshingni jodu orasiga tiqish bilan barobar-a! (J.Abd.) 2. Ona bechora ko‘zi yorigandan keyin o‘nglanmay yurib, axir o‘lib ketdi. (Sh.) 3. Tursun degan meshkopning qo‘liga bir qism tilla uzatdi. (“Zulfizar va Avazxon”) 4. Bir masofani qat etish uchun avvalo uning yarmini ... qat etish kerak. (A.Q.) 5. Otang sayd, enang qanday parizod, Sen shekilli suluv tug‘mas odamzod. (“Bo‘tako‘z”) 6. Boshidan kechirgan faje hodisalar uning butun siymosida ravshan edi. (O.) 7. Ancha vaqt bo‘ynimni ham qilib yurdim. (M.Jo‘ra) Kelin choy quyaturib, ko‘zi taxti ochilmagan do‘ppiga tushdi. (Oydin) Bu odamning tabini juda ravshan qiladi. (H.) 8. Olti kishilik choy servis olindi. 9. Munavvarxonning hali-veri tinchiydigan siyohi yo‘q. (M.Ibr.) 10. Nihoyat, usta Maxsumni texbo‘lim otalikka oladigan bo‘ldi.(J.Abd.)

Fonetik uslubiyat

458-mashq. Tovushlari uslubiy g‘alizlik keltirib chiqaradigan so‘zlarni aniqlab, to‘g‘rilab ko‘chiring.

1. Bu bandda «Ona tili” o‘quv fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari yoritilgan. (Ilm. maq.) 2. Umuman umumiy o‘rta ta'lim maktablarida DTS asosidagi dastur va darsliklarning joriy etilishi ... haqidagi tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. (Ilm. maq.) 3. Arava va otliqlar ko‘lagasi daqiqa sayin kichiklasha bordi, bora-bora keng qirning bag‘rida ko‘zga ko‘rinmas bo‘lib ketdi. (A.Qod.)

Morfologik uslubiyat

459-mashq. Uslubiy xususiyat kasb etgan egalik va kelishik qo‘shimchalari qatnashgan so‘zlarni aniqlab, izohlab ko‘chiring.

N a m u n a : onalarning - onalardan

1. Benuqson, eng muqaddas sanalgan onalarning biri bo‘lishini, hamma ularga havas qilishini orzu qiladi doim. (J.Abd.) 2. Bir kuni trassaga yaqin joyda Mohidil Zubaydaning rangi-ro‘yi o‘chgan holda uchratdi. (J.Abd.) 3. Shundan keyin Qizilqum mashina kanali jahonda eng birinchi va eng katta qurilishlardan biri ekanligini ta'kidlab o‘tildi. (J.Abd.) 4. Biroq shuni aytib qo‘yayki, bu Qudratingizga ham kafil bo‘lolmayman. (J.Abd.) 5. Qum sochlaringning ich-ichiga kirib ketadi-ya, tavba. (J.Abd.) 6. Bu uning hadeb ko‘z yosh to‘kib yig‘lashdan to‘xtatdi.(Mirm.) 7. – Jo‘lomon! Qulunim Jo‘lomon, qanisan? – deb chaqira boshladi Nayman ona. (Ch.Ayt.) 8. Olmosh ot, sifat va sonning o‘rniga almashib qo‘llanadigan so‘z turkumidir. (“O‘zb. tili gr.” 2.) 9. Q o‘ ch q o r. Olimtoy, jigarim! Gap undoq.. (Sh.Boshbekov) 10. Qudrat uning tavbasiga tayantirganini, qancha ortiqcha pul yozdirib olgan bo‘lsa, hammasini to‘layman deb va'dasini olganini aytdi. (J.Abd.) 11. “Mumkin ekan-ku? Shu narsani nega ilgariroq aqlingizga kelmaganiga hayronman”, deb qo‘ydi Qudrat ichida. (J.Abd.) 13. – Bu kitoblardan ... o‘qigandirsiz? – dedi Saidiy tutilib. (A.Q.) 14. Hokim to‘ra telefon berdi, mendan bir oz koyidi. (Ch.) 15. Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi, o‘ng kiftiga besh qo‘lini urdi. (“Alpomish”dan)

460-mashq. O‘qing. Ot yasovchi, sifat yasovchi, fe'l yasovchi va ravish yasovchi sinonim qo‘shimchalarni toping.

Adabiyotshunos – adabiyotchi, baobro‘ – boobro‘, ijodkorlik – ijodchilik, chiqit – chiqindi, bilimli – bilimdon, suvsamoq – suvsiramoq, bozorbop – bozorgir, ilmoq – ilgak, qo‘rqinch – qo‘rquv, azalgi – azaliy, askiyaboz - askiyachi, afsungar – afsunchi, alamdor – alamli, xomlay – xomligicha, aqidachi – aqidaparast, ayyorona - ayyorlarcha, gapdon – gapchil, bazmgoh – bazmxona, dorboz – dorchi, vaznli – vazndor, dardli – dardchil, dindor – dinchi, alahlamoq – alahsiramoq.

461-mashq. O‘qing. Uslubiy xususiyatga ega bo‘lgan son va olmoshlarni aniqlab, izohlang.

1. Birdan oldinga munkib, ikkovi ot ham gursillab yiqildi. (M.Ism.) 2. Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o‘ttiz uloqchi birdaniga yo‘l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo‘killatib boradi. (A.Qod.) 3. Zaynab bir qizini uzatgan, uning ikki bolasi bor edi. (S.Ahm.) 4. Husn bozorini kechqurunlar ana bu yerda tomosha qil! (O.) 5. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi. (Ch.) 6. U yarim hazil, yarim chin qilib: – Men emas, o‘sha sobiq zamministrlaringiz kamina bilan quda bo‘layotganidan faxrlansin! – dedi. (O.Yo.) 7. Sizga aytadigan endigi gap shukim, boshda Chavandoz yanglish yozganmi, bilmadik, biz Eshmat Mo‘minov bo‘lmay, Eshvoy Mo‘minov bo‘lib ketibmiz. (O.Yo.)

462-mashq. Ko‘chiring. Fe'l zamonlari, mayl hamda shaxs-son qo‘shimchalari almashib qo‘llangan o‘rinlarni aniqlang va izohlang.

N a m u n a : bo‘ldik – 1-shaxs ko‘plikdagi shaxs-son qo‘shimchasi 1-shaxs birlik o‘rnida qo‘llangan.

1. - Mana endi kar ham bo‘ldik! - dedi Vazira ma'yus tovush bilan. (P.Q.) 2. Bugun ikki haftadirki, u jiyanlarini yoniga olib guvala dumalatdiradi. (S.Ahm.) 3. Shuncha tang‘ib bog‘lasang ham bo‘lmaydi. (J.Abd.) 4. Odamzodning, tarixning, zamonning intilishi shu, deysan. (M.Ism.) 5. Biz bir durkum otliq boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi... (A.Qod.) 6. ... O‘rmonjon ... chiroylikkina og‘izchasini otasining qulog‘iga yaqin keltirib: - Qandoq ovqat qilyapmiz? – deb so‘radi. (M.Ism.) 7. Q u m r i . Kecha nima dedingiz? Q o‘ ch q o r . Nima debmiz? (Sh.Boshbekov) 8. – Orqaga qaytmaysan. Shu yerda tong otguncha o‘tiraman. Qaytding, otaman. (S.Ahm.) 9. Qayoqqa qarasang, kambag‘al, bekorchi, nonga zor odamlarni ko‘rasan. (O.) 10. Yot kishining qorasini ko‘rdi, taftish qiladi... (J.Abd.) 11. Ashrafjon, go‘yo ukasining fikriga tushunganday: - Ertaga urushga ketyapman, uka, - dedi. (O.Yo.)

Sintaktik uslubiyat

463-mashq. Berilgan bir bosh bo‘lakli gaplarni ikki bosh bo‘lakli gaplarga, ikki bosh bo‘lakli gaplarni esa bir bosh bo‘lakli gaplarga aylantirib yozing.

1. Yarim yillik imtihonni yaxshi topshirdim. (G‘.G‘.) 2. Uchastkang trassasini bir necha bo‘laklarga bo‘lib qo‘ygansan. (J.Abd.) 3. Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... (Ch.) 4. Orenburg chegaralari ham bosib o‘tildi. (G‘.G‘.) 3. Devorlar boshqatdan suvalib, oqlandi. (J.Abd.) 5. U yerda meni juda yaxshi qarshi oldilar. (G‘.G‘.) 6. Uydan kiyib kelgan hamma kiyim-boshlarim allaqachon harbiy forma bilan ayirbosh qilingan. (G‘.G‘.) 7. Endi qanday bo‘lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. 8. Bolalarni cho‘ldagi bir bostirmaga joylashtirishdi. (T.Malik) 9. Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi. (Ch.) 10. Xona har xil plakatlar, chaqiriqlar yozilgan alvonlar bilan bezandi. (J.Abd.) 11. Hamma yoqqa plakatlar, shiorlar, bayroqlar osilgan. (J.Abd.) 12. Ikkita doshqozonda osh tayyorlanmoqda. (J.Abd.) 13. Nurali baxshi, Abulg‘ozi ota, Borot polvon, pionerlar vakili, minbarga yaqin joyga kelib turinglar. (S.Ahm.)

464-mashq. Bir bosh bo‘lakli gaplarning turlarini o‘zgartirib yozing.

1. Onaning ne-ne niyatlar bilan tayyorlagan sarpolariga qaralmadi ham. (J.Abd.) 2. Bolaga Mahmud deb ism qo‘yishdi. (T.Malik.) 3. Boshliqlar bilan bunaqa mavzuda so‘zlashmaydilar. (J.Abd.)

465-mashq. Berilgan qo‘shma gaplarni sodda gaplarga, sodda gaplarni esa qo‘shma gaplarga aylantirib yozing.

1. Bilib turibman, sen Jamshidga o‘xshaganini xohlayapsan. (T.Malik) 2. Kim kimning oyog‘idan olyapti – buni hamma ko‘rib turibdi-ku, nodon! (O.Yo.) 3. Shuni yaxshi bilib qo‘yginki, sen suyangan tog‘ning tagi nurab bo‘lgan. (S.Ahm.) 4. Men sening samimiyligingga, niyati pok, yuragi pok, yaxshi yigit ekaningga shubha qilmayman, bolam. (O.Yo.) 5. Otaxonning bu ishdan o‘kinayotgani shundoqqina bilinib turardi. (S.Ahm.) 6. Aftidan, Shukurov ham kechasi bilan mijja qoqmagan, u ham qaerlardadir yurib chiqqan edi. (O.Yo.) 7. Bilasanmi, ko‘chada kelayotganingda o‘ynab yurgan bolalar ham uylariga qochib kirib ketadilar. (S.Ahm.) 8. Darvoza yo‘qligidan ko‘chada qolgan mashinasi eshiklarini bir-bir tortib ko‘rdi-da, ostona hatlab ichkariga kirdi. (S.Ahm.) 9. Bilasizki, men bunday buyruq berolmayman. (O.Yo.) 10. Bu bir gap ekanini Tolibjon yaxshi bilardi. (S.Ahm.)

PUNKTUATSIYa VA TAKRORLASh UChUN MAShQLAR

466-mashq. I. O‘qing. Qo‘llangan tinish belgilari nomini ayting; nima uchun qo‘llanganini aniqlab, ularni: a) qo‘llanish o‘rniga ko‘ra, b) qo‘llanish usuliga ko‘ra, v) tuzilishiga ko‘ra klassifikatsiya qiling.

I. Uy ichi qorong‘i edi. Shiftdagi qandil tashqaridan tushib turgan ojiz nurda xiragina yaltirar, yomg‘irning shivir-shiviri eshitilib turar, qaerdadir soat chiqillardi.

Muqaddam bolalikdanoq qadrdon bo‘lib qolgan bu uyga ko‘p chiqar edi. Shodligini ham, alamini ham mana shu uyda mana shu Lobarga to‘kib solardi. Ammo hozir u nima deydi? Qandoq gapirsin?!

Muqaddam shiftga tikilgancha yotar, xayoli chuvalashib ketgan, nimani o‘ylayotganini o‘zi bilmasdi… (O‘.Hoshimov)

II. — Iya, yangi kasb muborak, — hazillashdi unga zavod direktori Ibrohim Muhamedov, — bog‘bon ham bo‘lib olibsiz-ku.

Po‘lat toblagan qo‘l gul ko‘tarolmaydi deb o‘yladingizmi, Ibrohim aka, javob qaytardi yigit va qo‘lidagi gullarni mehmonlarga bo‘lib berdi.

Esiz, shunday gullarni bekor uzibsiz, — dedi mehmonlardan biri gulni hidlarkan.

— Hamma narsa inson uchun: gul ham, po‘lat ham. (Y. Muqimov.)

III. 1. Insonga obro‘ orttirish uchun juda ko‘p narsa kerak,undan mahrum bo‘lish esa juda oson: buning uchun bejo bosilgan bitta qadaming, o‘ylamay aytib yuborgan bitta so‘zing yoki nomaqbul ishing kifoya. (T. Qaipberganov.) 2. — Iya, hali opani tanimaysizlarmi? (Voy-bo‘, toza bo‘lgan ekan-ku) Opani tanimaydigan odamlar ham bor ekan-a. Akademik Halima Rustamovani-ya! (S. Ahm.) 3. Darvoqye, momiqdan yumshoq narsa ham — ona qalbi, toshdan qattiq narsa ham ona qalbidir. “Ona qalbi, — deb yozadi Yorqul, — onadan bo‘lak biror insonda bo‘lmasa kerak. U shunday ulkan ekanki, bolaning bir dunyo sevinchini ham, qayg‘usini ham o‘zida sig‘dira olar ekan. Bola mehri bilan quvonadigan ham, kuyadigan ham ona qalbi ekan» (B. Boyqobilov.)

II. Yuqoridagi matnni qayta o‘qing. Yordamchi so‘zlarni aniqlab, ularni turlarga ajrating va har biriga to‘la xarakteristika bering.

467-mashq. I. O‘qing. Tinish belgilaridan nuqta, ikki nuqta va ko‘p nuqta qo‘yilgan o‘rinlarga diqqat qiling. Ular nima maqsadda qo‘yilganini izohlang. So‘ngra ot va fe'llarni topib, ularni ikki ustunga ajratib yozing, otlarning ma'no va tuzilish jihatdan turlarini, fe'llarning esa mayllari, shaxs-soni va zamonini ayting.

1. Paxta...

U sevgidek mavzudir o‘lmas,

U ilhom chashmasi, mangu buloqdir. (E. V.)

2. Mana, maktub bahona ko‘z o‘ngimizda Mirzakalonning yoshlik chog‘lari namoyon bo‘ldi. O‘sh. yetim bolalar uyi. Toshkent. O‘zbek erlar bilim yurti. Mashhur jurnalist A'zam Ayub bilan bo‘lgan hamkorliklar... (M. Muhamedov.)

3. Fanning chegarasi ufqqa o‘xshaydi: unga qanchalik yaqinlashaversalar, u shunchalik uzoqlashaveradi. (Buast Per.) 4. Shunday aqlli mashina topishimiz kerakki, u hamma ishni bajarsin. yerni haydasin, molalasin, eksin, sug‘orsin, chopiq qilsin, paxtasini terib, tashib bersin... (I. R.) 5. 19.... yil, 11 iyul. O‘zFA Biofizika ilmiy-tekshirish instituti. Professor Alievning tajribaxonasi. (T. Malik.) 6. Asalarining dushmani ham yo‘q emas. Uning dushmanlari: ayiq, ninachi, qurbaqa, chumoli, sichqon, ilon. Ular asalni yaxshi ko‘rishadi, lekin arisini ham o‘ldirishadi. (Yu. Alperovich.)

II. O‘qing. Har bir gapning ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra turini aniqlang; qo‘llangan tinish belgilariga diqqat qilib, ular nima uchun ishlatilganini ayting. So‘ngra uyushiq bo‘laklarni topib, qanday bo‘laklar uyushgan holda qo‘llanganini, ularning o‘zaro bog‘lanishni izohlang.

I. Bir mahallar bog‘larni to‘ldirgan qushlar qani? Yovvoyi kaptarlar, kakkular, zarg‘aldoqlar, daraxt shoxlari orasida bir parcha cho‘g‘dek yal-yal yonib yuradigan qizilishtonlar, to‘g‘on va soy bo‘ylarida javlon urguvchi mitti va go‘zal baliqchi qushlar qani? Har bir terak, har bir qayrag‘och tepasiga uya qo‘yadigan va qishloq bolalariga olam-olam quvonch keltiradigan laylaklar qayda? Qir va adirlarda, shivoq va yovshan orasida yo‘rg‘alab yuradigan va semizligidan zo‘rg‘a uchadigan qirg‘ovullar, bulduriqlar, tustovuqlar, to‘qaylardagi yovvoyi g‘ozlar qayda? Qishda, tog‘larni qor bosganda pastga, qishloqlarga uchib tushadigan gala-gala kakliklar qayoqqa ketdi? Men tog‘ oralig‘ida, archazorlar ichida suruv-suruv bo‘lib yuradigan arxarlar, ohularni aytmay qo‘ya qolay!

Albatta, bu tilsiz bechoralarning kamayib ketishiga faqat ovchilar aybdor emasdir, buning boshqa ob'ektiv sabablari ham bordir. Lekin osmondagi qushdan yerda miltiq ko‘targan ovchining ko‘payib ketgani ham rost. Eshitishimcha, ovchi uchun osmonda uchib borayotgan qushni otib tushirishdan katta zavq yo‘q emish. Ehtimol. Lekin millionlardan iborat jamiyat ovchi atalmish bir guruh kishilarning zavqi uchun o‘zini tabiatning eng ulkan in'omidan, qushlar va hayvonlarni ko‘rish, ularning ovozlarini eshitish baxtidan mahrum bo‘lolmaydi. (O. Yo.)

II. Polkovnik davom etdi: — Diyorning ishonchli posboniga xos mas'uliyat hissi sizlarni hyech qachon, hyech qaerda bir daqiqa ham tark etmasin. O‘zingiz xizmat qilayotgan harbiy kollektivning obro‘-

e'tiborini yana oshirish uchun tinmay kurashingiz. Soldatlik oilasidagi ma'naviy va axloqiy poklikni koʻz qorachigʻiday muqaddas deb bilib, avaylab asrang. Unutmangki, harbiy intizom bu harbiy xizmatning negizi, sarchashmasidir. Busiz yuksak jangovar tayyorgarlikni tasavvur etib boʻlmaydi. (H. Tojiboev.)

Eh, tinchlikni qoʻriqlash bilan sazovormiz xalq olqishiga,

Ayting, doʻstlar, bundan ham ulkan yana qanday baxt bor kishiga! (E. Yondash.)

Muallim — yetakchi, rahnamo, ustoz

Har orzu, har tilak, har bir xohishga.

U berar doimo aqlga pardoz,

Berar u yoʻllanma hayotga, ishga. (Oʻ. Rashid.)

III. Oʻqing. Tegishli oʻrinlarga nuqta, soʻroq va undov belgilarini qoʻygan holda gaplarni koʻchiring. Soʻngra soʻz turkumlarini aniqlab, ustiga nomini yozib qoʻying.

1. Dunyoda pul oʻgʻrisi bor, mol oʻgʻrisi bor, lekin qadr oʻgʻrisi yoʻqmi Birovning qadrini yerga urish yoʻli bilan oʻz qadrini oshiradigan odam qadr oʻgʻrisi emasmi (P. Q.) 2. — Yoʻq, singlim, oʻlimdan qoʻrqqanning kuni qursin Oʻlim qoʻrqoqqa dahshat Hayotda oʻz oʻrnini topgan, ideali yuksak odam uchun oʻlim umrning qonuniy yakunlanishi Chunki u nima maqsadda yashab, nima uchun oʻlayotganini biladi. Oliy maqsad yoʻlida yashab, dunyodan oʻtish naqadar sharaf (Sh.) 3. Nigoraning eng katta boshligʻi ham, eng yaqin sirdoshi ham eri Eng katta quvonchi esa bolalari (E. Usmonov.) 4. — Domlaning planlari Napoleonning planlaridan ham katta — Xoʻsh — Domla mukofot olgani keptilar bu yerga Beruniy nomidagi Davlat mukofotini — A Qanaqa qilib — Normurod Shomurodovning koʻzlaridagi horgʻinlik taajjub va hayrat bilan almashdi (O. Yo.) 5. Eh, koʻksi soʻqirlik koʻzi soʻqirlikdan qanchalik yomon Shuncha ajoyib mashinalar kashf etgan dono odamlar nega kishining yuragini, fikru e'tiqodini roʻyi rost koʻrsatadigan, aniqlab beradigan birorta asbob oʻylab topolmaydilar (Sh.)

468-mashq. I. Oʻqing. Qanday tinish belgilari ishlatilganini ayting. Vergul va nuqtali vergul qoʻyilgan oʻrinlarga alohida diqqat qilib, ular nima uchun qoʻyilganini izohlang. Komponentlari vergul va nuqtali vergul qoʻyib ajratilgan qoʻshma gaplarni koʻchirib, qoʻshma gap turini ayting.

1.—Gaz-chi? Qayoqqa boshlasang, oʻz oyogʻi bilan boradi. Qaerga toʻgʻrilab qoʻysang, oʻzi yonib, oʻzi qizitib yotadi. Ulkan xazina! Kelajakning yoqilgʻisi shu! Rohatijonligini aytmaysizmi! Barmoqday quvurchadan oqizib qoʻysangiz, qirq quloqlik qozonni qaynatadi. (I. R.) 2. Odatda qizning goʻzalligini, aqlini hurmat qilib sevish qiyin emas, lekin ishini ham chinakam hurmat qilib sevish qiyinroq. (P. Q.) 3. Biz yashayotgan, oʻqiyotgan, sof havodan nafas olayotgan mana shu ona tupprogʻimiz uchun boʻlgan ayovsiz janglarda oʻn uch millat farzandlari qahramonlarcha kurashganlar. (I. R.) 4. Aytishlariga qaraganda, shamdonning ogʻirligi besh pud sof tilla zkan; uni Amir Temurning buyrugʻiga

muvofiq o‘sha zamondagi eng zo‘r hunarmand ustalar yasashgan ekan. (H. Irfon.) 5. Yuksak fikr, yorug‘ o‘y bo‘lmas tuban odamda, Derlarki, past tog‘ning boshida qori bo‘lmas. (U.) 6. O‘lmas o‘ziga o‘zi dedi: “Qo‘rqma, O‘lmas, aytsang ham o‘ldiradi bular, aytmasang ham! Yaxshisi, mardlarcha halok bo‘l! Sen nomard, qo‘rqoq bo‘lsang, Iskandarov ham, Sergey amaki ham ishonib bu yoqlarga yubormas edi. Menga otam ham ishonib rozilik bermas edi. Mayli, istagancha qiynashsin!... Men mard odamning o‘g‘liman” (Yo. Shukurov.) 7. Shimol tomon biyday yalanglik, ho‘ ufqqa tutashib ketgan qirda esa qo‘yday-qo‘yday silliq, xarsanglar dumalab yotar, undan u yog‘i qop-qora qoyalar boshlanar; ship-ship bosib borayotganim serqum tuproq ustida, kuz bo‘lishiga qaramay, ko‘m-ko‘k, o‘tkir hidli, shaharda uchramaydigan baland-baland gullar, giyohlar o‘sib, shabadada to‘xtovsiz silkinib turardi. (O‘. Usmonov.)

II. O‘qing. Qanday tinish belgilari ishlatilganini aniqlang. Tire, qavs va qo‘shtirnoq qo‘yilgan o‘rinlarga diqqat qiling, ular nima uchun qo‘yilganini ayting. Tire qo‘llangan gaplarni ko‘chirib, uning qo‘yilish sababini izohlang.

1. Bir donishmanddan so‘radilar: — Qanday qilib ilmning eng yuqori cho‘qqisiga chiqding? Donishmand shunday javob berdi: — Bilmagan, tushunmagan narsamni olimdan ham, oddiy kishidan ham, kattadan ham, kichikdan ham so‘radim. Bu to‘g‘rida uyalmadim, nomus qilmadim, o‘zimni yuqori tutib, mutakabbir bo‘lmadim. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.») 2. Ishkom tagida stolda samovar shaqillab qaynar (Obid Yunusovich, choydishdan choy ichganday bo‘lmayman, deb doim samovar qo‘ydirardi!) Mavjuda xola nevarasiga ovqat yedirar, dadasi yangi gazetalarni ko‘zdan kechirmoqda edi. (O. Yo.) 3. Yoshu qari, bola-chaqa — hammasi shoshilib guzar tomongaketishardi. (Yo. Shukurov.) 4. Dala shamolidan qoraygan yuzlar, g‘o‘zaga tirnalib, issiq-sovuqni ko‘p ko‘rib chiniqqan qo‘llar (so‘nggi ikki kun qor changallab ko‘sak yulishga to‘g‘ri kelgandi), jismoniy mehnatda pishgan navqiron gavdalar hozir har qachongidan ham o‘tliroq edi. (P. Q.) 6. Amudaryo sohili. Telba daryoning ulkan idishda biqirlab qaynayotgan kofega o‘xshash bo‘tana suvi burala-burala shimoli-g‘arb tomon — Orol sari oshiqmoqda. (S. Karomatov.) 7. Azizov Farhodning gaplarini esladi: «Ajoyib apparat! Asrimizning chinakam mo‘jizalaridan biri! (H. Shayxov.)

III. Quyidagi misollarni o‘qing. Birinchi bo‘limda berilgan matndagi tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang va ular nima uchun qo‘yilishi kerakligini izohlang. Ikkinchi bo‘limda berilgan misollarni tegishli tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda ko‘chirib yozing; sifat, son, olmosh va ravishlarni aniqlab, ustiga nomini yozing, ularni morfologik jihatdan to‘liq tahlil qiling.

I. 1. Bizda yaxshi rahbar yuzlab minglab kishilarning yurak haroratini bir joyga to‘plab uchqundan alanga chiqaradigan odam. Bizda yaxshi rahbar kollektivning o‘qi o‘q bo‘lmasa, mashinaning detallari sochilib ketadi. Bizda yaxshi rahbar — o‘ziga xos geolog odamlarning qalbida yotgan qimmatbaho fazilatlar konini qidiradi topadi ishga tushiradi. Bizda yaxshi rahbar hayotni bilishda olim bo‘lishi kerak odamlarni boshqarishda san'atkor... Bizda yaxshi rahbar eng yaxshi tarbiyachi bo‘lishi kerak chunki tarbiyaning ham, rahbarlikning ham markazida odam turadi, odamlarga g‘amxo‘rlik turadi. (P. Q.) 2. O‘tgan yili radiodan Vatan urushi ishtirokchisi o‘z farzandlarini qanday topganligi haqidagi bir hikoyani zshitib, men ham Mudofaa vaziriga hamda O‘zbekiston Respublikasi harbiy komissariatiga xat yozdim. Mana nihoyat yaqinda Toshkentdan quvonchli xat oldim Sizni dadamni topdim (N.

Fozilov.) 3. Mening ishonchim faqat shaxsiy ishonchgina emas xalq ishonchi ekanini unutmang. Aslo Yagona niyatim endigina baxtga erisha boshlagan xalqimga xizmat qilishdan iborat. Balli dedi Davron aka mamnun Aql chiroq, nafs — suv. Nafs ustunlik qilsa sham suvga cho‘kib o‘chadi. Buni ham unutmang! (Yo. Shukurov.) 4. Bahor Uch tup o‘rik birdan gullab Faridalarning hovlisini oppoq go‘zallikka to‘ldirdi. (P. Q.)

II. 1. Akramning esida bor urushdan oldin, Akram yetti-sakkiz yashar paytida, butun qishloq yozda hu anavi adirlar ortidagi dashtga qovun ekib kapa qurib ko‘chib chiqar bolalar har kuni kechqurun eshakda qishloqqa qovun tashishar edi. (O.Yo.) 2. Gavhar o‘zining o‘qishi u birinchi kursni a'lo baholar bilan bitirib kelgan edi Moskvadan olgan taassurotlari haqida gapirar ekan bir necha marta o‘zbek arxitekturasini ham tilga oldi. (P. Q.) 3. Kular yuzli xushxulqli xushmuomalali odam andisha va farosat egasi bo‘ladi Shunday go‘zal sifatlarga ega bo‘lgan lekin o‘qimagan odam bilan hamsuhbat bo‘lish yomon xulqli qo‘rs bir olim bilan hamsuhbat bo‘lishdan ko‘ra yaxshiroqdir. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur») 4. Bosh arxitektor bu juda katta, juda mas'uliyatli vazifa Bu vazifa birgina iste'dod emas tashkilotchilik va rahbarlik qobiliyatini nihoyat vijdoniy poklikni talab qiladi (O. Yo.)

469-mashq. I. Kabi, darvoqye, albatta, xo‘p, attang, faqat so‘zlarini dominanta sifatida olib, ularning sinonimlarini toping. Bu so‘zlar qaysi turkumlarga kirishini ayting.

II. Hojiakbar Shayxovning “Olmos jilosi” asaridan keltirilgan quyidagi misollarni o‘qib, ular tarkibida qo‘llangan neologizmlarni aniqlang. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni fonetik jihatdan to‘liq tahlil qiling.

1. Ekspeditsiya rahbari yopiq kanal orqali 17-kondagi odamlarning qandaydir dorivor iste'mol qilib, fe'l-atvorlari o‘zgarib qolayotgani haqida kosmogramma yubordi. 2. Ekspeditsiya rahbari Azizovni o‘zining ixcham va choqqina ilmiy tajribaxonasida qabul qildi. 3. Ekspeditsiya boshlig‘i bahaybat tankni eslatuvchi «Yashin» nomli ulkan planetoxod yonida besh odamning shaxsiy delosini Olmos Azizovga tanishtirdi. 4. Birinchi bo‘lib Hayotning hujjatlarini ko‘zdan kechira boshladi... Ikki yil Uranda, bir yil Mirrixda geologik ekspeditsiyada geomexanik bo‘lib ishlagan. Fazogirlar uchun ta'sis etilgan Gagarin nomli xalqaro mukofot laureati. 5. — Menga siz to‘g‘ringizda ratsiya orqali aytishdi, — dedi u. — Ksioperator Olmos Azizovsiz, shundaymi? 6. Hamma injener-texnik xodimlarimiz aloqa punktining orqasidagi sintetik kottejlarda turishadi. 7. ...Umuman, zal temir-beton poydevorlarga o‘rnatilgan o‘chirgichlar, ajratgichlar, transformator, kondensator, to‘g‘rilagich va boshqa turli-tuman elektr qurilmalara bilan to‘ladi. 8. Nariroqda turgan mo‘jaz elektromobilda ana shu yo‘l bo‘ylab istalgan tomonga borish mumkin edi. 9. Atom batareyali mikrofonarini yoqib, oldinga yurdi. 10. Ruhiy kasalliklar haqidagi kasseta-kitoblarni oldi-da, Farhodning uyiga otlandi.

IV. O‘qing. Omonim so‘zlarni topib, ma'nolarini izohlang, turini ayting.

1. Qolsun desang agar mendan yaxshi ot,

Yotni so‘kma, jahl chiqsa— nosni ot.

Eshakliga salom bergil birinchi, O‘zing minib olg‘on bo‘lsang hamki ot.

Soz bo‘lurdi, yor, gapimni bo‘lmasang,

Buncha ovsar, buncha qaysar bo‘lmasang?

Menga do‘stim uzatg‘on gul bo‘lginu,

Yovim — Toshmat zol qo‘lida bo‘lmasang.

Nola qilma, kangul, fursat bo‘ldi kech.

Ul nigorni qo‘msamoqdan tugal kech.

Kalish olib bermag‘onding yig‘lasa,

Ketdi tashlab, emdi armon loyin kech.

Ko‘p javrama, xotin, o‘chir uningni.

Ash'or bitay, sen xamir qil uningni.

Bunda ilhom qiynar, unda — xotinim,

Ol, iloyim, buningni yo uningni.

(Anvar Obidjon.)

Binafshajon, binafsha,

Bog‘imda gullab-yashna.

Bo‘ylaringga men qurbon,

Oshiq qalbda yo‘q armon.

Men seni sevib-kuyib

Qoshginamga keltirdim,

Bo‘ylaringga bir to‘yib

Baxt uyimni to‘ldirdim.

(M. Muhamedov.)

6. Tomlardan kuralgan qor tor ko‘chalarni deyarli to‘ldirayozdi. (T. Malik.) Yana bir necha daqiqadan keyin Anvar sadaf pardalari yarqirab turgan yap-yangi tor ko‘tarib kirdi. (O‘. H.)

III. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning antonimlarini topib, ularni yonma-yon yozing.

1. Yomon niyat ham, yomon odat ham yuqumli kasallikning bir turi. (T. Qaipberganov.) 2. Issiq qaytib, odam siyraklashib qolganda, Eshonboev keldi. (P. Q.) 3. Amal — baland bir minora. Unga narvon bilan chiqasan. Chiqib olganingdan keyin narvon tilsimday, o‘zidan-o‘zi yo‘qoladi. Ana undan keyin tushish qiyin. (T. Qaipberganov.) 4. Navoiy o‘zi haqidagi aytilgan bu haqqoniy so‘zlarni kamtarlik bilan tingladi. (O.) 5. Charchamayman. Muhabbat bilan yashagan odam charchamaydi, degan rivoyatga ishonaman. (T. Qaipberganov.) 6. Tunning chirog‘i oy bo‘lsa, qalbimning oftobi - siz. (N. Yoqubov.)

470-mashq. I. O‘qing va ko‘chiring. Ko‘chma ma'noda qo‘llangan so‘zlarni topib tagiga chizing; ustiga ma'no qanday yo‘l bilan ko‘chganligini yozib qo‘ying.

I.1. «Olmos»da o‘n beshta ekspress kanal mavjudligi, kosmonavtlarning soni esa, qutqarilganlar bilan birga, o‘n yettiga yetganligi yerdagilarga besh qo‘lday ayon-ku! (H. Shayxov.) 2. Qanday aqlli qiz. Konferensiyadagi gaplari bilan butun zalni tang qoldirdi. (T. Qaipberganov.) 3. Kema bezovta daryoda oqar, to‘lqinlar kema kiftiga urilardi. (Y. Shamsharov.) 4. Sharifa kechki ovqatning g‘amida oshxonaga kirib, derazaning‘ ikkala qanotini ochdi. (T. Kaipberganov.) 5. Ikki ming juft quvnoq ko‘z Munisxonning og‘ziga qarab turibdi. (I. R.) 6. Yaxshiliq stoli ustida ochiq yotgan bugungi pochtani indamay ko‘ra boshladi. (T. Qaipberganov.) 7. Beruniy yalt etib qaradi. Upa chaplangan niqobli yuz hanuz sovuq kulimsirardi! (O.Yo.) 8. Oftobda qizib, bilqillab turgan tuproqni tuyoqlar to‘zitib borardi. (T. Malik.)

II. Odil yequbovning «Ko‘hna dunyo» romanidan keltirilgan misollarni o‘qing. Eskirgan so‘zlarni topib, ularning turini belgilang.

1. Beruniy, garchi umrida hyech qachon ilmi nujum bilan shug‘ullanmasa ham, sultonning iltimosini qaytarmadi. Saroydan qaytgach, munajjimlar yo‘l-yo‘rig‘idan foydalanib, zoyicha tuzdi, hatto unga jinday tuzatishlar kiritib, sultonning ko‘ngliga tasalli beruvchi so‘zlar yozib yubordi. Kim bilsin, ertaga mashvarat vaqtida sulton uni shu xususda so‘roqqa tutar, ehtimol, tuzgan zoyichasidan biror xato topib, intiqom olar. 2. Ana, to‘rt tomondagi mehrobsimon joylarda zabt etilgan yurtlarning ko‘k, sariq, oq tug‘lari turipti! Mag‘lub lashkarboshilarning oltin va kumush dubulg‘alari, tillodan jilo berilgan sovut va qalqonlari osib qo‘yilgan. Ularning yonida bandlariga la'l va zabarjad qadalgan egri qilichlar, o‘q terilgan charm sadoqlar... 3. Amir eshikda serrayib turgan nayzador sarbozlar yonidan o‘tib, ko‘shkka kirdi. Kechasi yoqilgan shamlar o‘chirilmagan, ikkinchi oshyonaga olib chiqadigan tor yo‘lak ham, yuqoridagi mashvaratxona ham yop-yorug‘ edi. 4. Eng chekkadagi chog‘roqqina hujrada Jolinus kitobidan ilmi tashrihga oid bobini ko‘zdan kechirib o‘tirgan yosh tabib Abu Ali eshik taqillaganini zshitib, cho‘chib boshini ko‘taradi. 5. ...O‘nlab jarrohiya asboblarini, huqna qilishning yangi yo‘llarini o‘ylab topdi.

III. O‘qing. Dialektal so‘zlarni aniqlab, umumxalq leksikasi bilan qiyoslang.

1. Ularning eshiklarini Ahmadboyvachcha o‘ziniki qilib olgan edi. Marhumani shu o‘zimizning eshikdan chiqardik. (T. Malik.) 2. Ular sizdan keyinoq Shirmonbuloqqa ko‘chib ketishgan. Dadangizning bo‘lalari olib ketdilar. (T. Malik.) 3. — Bo‘lmasa “o‘tik” deng. — Ha, aytaman. Asli to‘g‘risi “o‘tik”. Sizlar “etik” qilib o‘zgartirib olgansizlar. — Bo‘zak-chi? — “Buzoq” to‘g‘risi bo‘lmasa? Asli “bo‘zlash”dan olingan-ku. — Bo‘lmasa baqa keling, ...Cho‘lponoy ham oyko‘lliklarning talaffuziga hazil qildi, o‘zini orqaga tashlab: — Jo‘q! — dedi. (P. Q.) 4. Mahfuza dasturxon yozdi-da, bir chinni ovqat bilan ikkita non keltirib, o‘zi ham o‘tirdi. (T Malik.) 5. — O‘sha mening doyim-da. O‘zi ham ovchi! — Doyim? — dedim men. — Hali Boytemir senlarga qarindosh bo‘ladimi? — Ova. (N. Fozilov.) 6. — Qani, boybuva, oshga qarang... — Dasturxondan tovoq olinib, fotiha o‘qilgach, qo‘lga

suv berildi. (T. Malik.) 7. — O‘tiring, chalob ichasizmi? — Chalobmi, chalobdan ham chakki ma'qul. (Sh. Xolmirzaev.)

IV. O‘qing. Kasb-hunarga oid so‘z va terminlarni topib, ular qaysi sohaga tegishli ekanini izohlang.

1. Katta sada tagidagi baland chayla tomon yurdim. Tokqaychining chaq-chaq ovozi eshitildi. Ota ishkomning narigi chekkasida xomtok qilib yurgan ekan. (N. yequbov.)

2. Yog‘ochni tesha bilan yo‘nsang, tesha payrahani faqat o‘z tomoniga to‘playdi, bir payrahani ham tashqariga chiqarmaydi. Randalasang, randa qirindilarni tashqariga chiqarib yuboradi, o‘z tomonida birorta qirindi qoldirmaydi. Arralasang, arra har ikki tomonga baravar qipiq to‘qadi. Turmushda tesha kabi baxil bo‘lib, faqat o‘z manfaatingnigina o‘ylama, boshqalarga ham yordam ber. Agar bor-yo‘g‘ingni boshqalarga sarf qilib, natijada o‘zing muhtojlikda qolsang, randa ishini qilgan bo‘lasan. Eng yaxshisi arra kabi ish tut, o‘zingga ham bo‘lsin, boshqa kishilarga ham foydang tegsin. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

3. Yashil suv o‘ti — xlorella juda katta miqdorda organik modda yaratishi bilan katta iqtisodiy samara berish xususiyatiga egadir. Uning eng qimmatli mohiyati shundaki, unga oqsil, yog‘lar, hatto uglevodlar ham zarur emas, aksincha, eng oddiy mineral birikmalar — karbonat angidrid gazi va suv bo‘lsa, bas... (K. ye. Sharikov.)

4. Hofiz marten pechini qaynatishga, Said esa otash g‘o‘lalarni jilovlashga ketdi. Said o‘z melkosort stani yonida javlon urardi. 1200 gradusgacha qizdirilgan pech ichidan qip-qizil cho‘g‘ bo‘lib chiqqan po‘lat quyilmalar ketma-ket qisuvchi stanga yugurishadi, unda rosa qisilib, noziklashib chiqqan g‘o‘lalar o‘ynoqlab, beboshlik qilmoqchi bo‘lishadi. Ammo Said qo‘lidagi uzun ombur bilan ularning dam yelkasidan, dam esa dumidan turtib, roliklar yordamida qaychi stanga yo‘llab yuboradi. (Y. Muqimov.)

471-mashq. I. O‘tkir Hoshimovning «Quyosh tarozisi» to‘plamidan keltirilgan quyidagi misollarni o‘qing. Frazeologik iboralarni topib, ma'nosini tushuntiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni fonetik jihatdan tahlil qiling.

1. Terak bo‘yi pastlikda ajdardek vishillayotgan Bo‘rjarga qarashim bilan yuragim orqaga tortib ketdi. — Qalay, yuraging po‘killab qoldimi? Do‘rillagan ovoz egasini tanib, burilib qaradim. 2. To‘y aniq bo‘lganida, oldiga o‘tqazib qo‘yib. lo‘ndagina kilib tushuntirgan edi: “O‘zing xohlab qilyapsan bu ishni, bilib qo‘y, to‘ydan keyin mayda-chuyda gaplarni ko‘tarib keladigan bo‘lsang, dilingni siyoh qilib qo‘yaman”. Yodgor jaranglagan uylar, qora daraxtdan qilingan garniturlar, qo‘sha-qo‘sha gilamlarni ko‘rib og‘zi ochilib qoldi. Qimning yuragiga qasr qurayotganini u bilmasa, Yodgor biladi-ku. 5. Partalar orasidan o‘tib borarkan, qog‘ozga ko‘z tashladi-yu, xat ekanini bilib, tepa sochi tikka bo‘lib ketdi. 6. Qishda Yodgorning yotog‘iga borganida, erga tegaman deganda shunchaki uning qo‘yniga qo‘l solib ko‘rmoqchi edi. 7. Dilfuzani ko‘rishi bilan birdan yuzi yorishdi-yu, sekin-sekin yurib ketdi. 8. Mana, hozir ham qayoqqa ketganini bilmaysiz. Bitta qizingizni eplab ololmaysiz. — Bu Vasila Nazarovnaning ovozi edi. Dilfuzaning yuragi shuvillab ketdi.

II. O‘qing. Frazeologik iboralarni sinonimik gruppalarga ajratib yozing.

Hayratda qolmoq, “hash-pash” deguncha, holdan toydi, yuragini yordi, yuragi siqildi, ta'bi xira bo‘ldi, yoqasini ushlamoq, ko‘z ochib yumguncha, hushi ketdi, yurak-bag‘ri qon bo‘ldi, sabr kosasi to‘ldi, oyog‘iga bolta urmoq, og‘zi qulog‘iga yetdi, “ha-hu” deguncha, tinkasi quridi, esi og‘di, o‘takasini yordi, ta'bi tirriq bo‘ldi, payini qirqmoq, boshi ko‘kka yetdi.

III. O‘qing. Frazeologik iboralarning antonimlarini topib, yonma-yon yozing.

Yuzi yorug‘ bo‘ldi, tili uzun, lafzida turmoq, istarasi issiq, ichi qora, ko‘kka ko‘tarmoq, ko‘ngli yumshoq, ko‘ngli xira bo‘ldi, ko‘ngli cho‘kdi, fe'li tor, yodidan chiqmots, yuzi shuvut bo‘ldi, tili qisiq, so‘zidan qaytmoq, so‘xtasi sovuq, ko‘ngli oq, yerga urmoq, ko‘ngli qattiq, ko‘ngli yorishdi, ko‘ngli ko‘tarildi, fe'li keng, esiga kelmoq.

472-mashq. I. O‘qing. Birinchi bo‘limda berilgan tekstdagi fraza, takt, so‘z, bo‘g‘in va tovushlarni aniqlang: ikkinchi bo‘limdagi tekstni ko‘chirib, fraza va taktlarga ajrating.

1. Men Mirzajon Eminovning shaxsiga sig‘inmoqchi emasman. Bilaman: ortiqcha maqtov hyech kimga foyda keltirgan emas! Lekin ish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hozir ko‘p narsa rahbar xodimlarga bog‘liq; agar rahbar uddaburon va ishbilarmon bo‘lsa, eng muhimi, jonkuyar bo‘lsa, mehnat ahlining oddiy ishchining qadrini bilib ish tutsa, u ko‘p narsaga qodir!.. Shunda mehnat ahli ham bu g‘amxo‘rlikka javoban jonini fido qilib yuboradi! (O. Yo.)

2. Bahor nafasi ufurgan hamma yerda sergak dehqonni ko‘rasiz. Fikri-yodi dalada, ekish-tikishda. Dala aylanib yurgan Hakimjon ana shu ulug‘ tirishqoqlikni bug‘doy maysasida, daraxt kurtagida, asalari viz-vizida, traktorlar hayqirig‘ida ko‘rdi. (M. Muhamedov.)

II. O‘qing. Kombinator va pozitsion o‘zgarishga uchragan so‘zlarni topib, tovush o‘zgarishi qanday yuz berganini izohlang.

1. Simyog‘och tagida turgan yigit bilan qizni ko‘rib kulib qo‘ydi. “ Shu havoda nima zaril?” (O‘.H.) 2. O‘sha lodon bilan o‘zing gaplash. (T. Qaipberganov.) 3. Ana, sizga g‘alamislikning, arizavozlikning oqibati. (T. Qaipberganov.) 4. Bobommi fe'lini aytganman sizga. (S. Karomatov.) 5. Nayimjon bechoraga javr bo‘ldi-di. (S. Karomatov.) 6. Kampirri dardini asti so‘ramang. (S. Karomatov.) 7. Yilli oxirida million-million ajratilgan mablag‘ foydalanilmay qolib ketadi. (S. Karomatov.) 8. Boshqa qishloqlarning oqsoqollaridan hyech qaysisiga tasbeh arg‘umon qilganim yo‘q. (F. Boyqurt.) 9. Mayram oldidan qandaydir zo‘r yig‘in shu yerda bo‘lar emish. Kattalar aytishibdi. (O‘. Usmonov.)

III. O‘qing. Orfografik jihatdan xato yozilgan so‘zlarni topib ko‘chiring, tagiga chizib, nimada xato qilinganini izohlang va yoniga to‘g‘risini yozib qo‘ying.

1. Shoazim stakanni olib krandan suv ichkani ketdi. (P. Q.) 2. O‘rik g‘arq pishgan, handalaklar endi hid taratgan issiq yoz kunlarini birida Mahkam Moskvadan telegramma oldi. (P.Q.) 3. Bundan qirq yilcha ilgari qishlog‘imizda faqat bitta savodlik kishi bor edi... (I. R.) 4. Rangi bo‘lsa ham samon, Past kelmas edi hamon. (H.O.) 6. Qor ustida gul singari so‘lum edi ul nigor. (Sh. Rustaveli.) 7. Sayfi tunika choynakni qo‘liga oldi. (S. Ahm.) 9. Mashina goh o‘nga, goh chapga sirg‘anib, kutilmaganda chuqurchaga tushib qoldi. (E.Usmonov.) 10. Ahmadning suvi uchchalamizga yetadi. (F. Boyqurt.)

473- mashq. I. O‘qing. Sodda va qo‘shma gaplarni aniqlang. Sodda gaplarni ko‘chirib, ular tarkibidagi so‘z birikmalarini ajrating.

Akram jar yoqasidagi jiydazorga yetib borganida, osmonda ham, soydagi suvda ham milt-milt yulduzlar yondi, tegirmon ustidagi oq terak shoxlari orasida sirg‘aday yaltillab yarim oy ko‘rindi... Atrof jimjit edi. Faqat novdan quyilayotgan suv shovillar, tegirmon parraklari guvillar edi. Goho-goho tog‘dan esgan yengil shabada jiyda shoxlarini silab shitirlatib qo‘yardi!.. Akram jiyda shoxlarini egib, yuziga bosdi. Jiyda gulini to‘kkan bo‘lsa-da, oqish yaproqchalar va gul tugunchalarining xushbo‘y hidi dimog‘iga gupillab kirib, ko‘ngli yayrab ketdi. Shu payt qaerdadir yuqorida, jar ustidagi bog‘lar orasida, ayol kishilarning shivir-shiviri va bo‘g‘iq kulgisi eshitildi. Ilgarilari Hamida bilan Malohat doim o‘sha tomondan tushib kelishardi. (O. Yo.)

II. O‘qing. Ikki bosh bo‘lakli va bir bosh bo‘lakli gaplarni topib, alohida-alohida ko‘chiring; gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing; bir bosh bo‘lakli gaplar ustiga turini yozib qo‘ying.

1. Sultonmurod tinmasdan Xayyomning eng go‘zal ruboiylarini o‘qib, ma'nolarini ustalik bilan sharhlashga boshladi. (O.) 2. G‘oyibnazarni yangi mavsum oldidan hisobchilikdan bo‘shatishdi. (N. Qobul.) 3. Bu yerda katta shaharlarga xos asabiylik, shovqin-suron, chop-chop yo‘q. (O.Yo.) 4. Isoq qizning beg‘ubor gapiga huzur qilib kuldi. (Y. Shamsharov.) 5. O‘zingizdan oldin kelgan odamlardan ibrat oling, keyin kelganlarga ibrat bo‘ling. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».) 6. Zamonaviy bo‘lish uchun yozuvchi o‘z yurtining bugungi kunini o‘z xonadonidek bilishi kerak. (As. M.) 7. — Shoshma, Yurka. Osh haqida boshqa vaqtda gaplasharmiz. Bo‘lim komandiridan ruxsat olib, Xromovning oldiga kiraylik. Ketib qolmasin, tag‘in. Aks holda, tong otguncha uxlamay qiynalib chiqaman. (H. Tojiboev.) 8. Dala yo‘li. Biri kichik, ikkinchisi kattaroq ikki anhor o‘rtasidan o‘tgan bu yo‘lning chetini tol va teraklar qoplagan. (Yo. Shukurov.) 9. Huv anov, qoq tepadagi katta oq yulduzni Oltin qoziq deydilar. (O. Yo.)

III. O‘qing. Undalma, kirish so‘z va kirish birikmali gaplarni topib ko‘chiring, ustiga nomini yozib qo‘ying; ishlatilgan tinish belgilarining qo‘yilish sababini izohlang.

1. Uning nazarida, bunyod bo‘lgandan beri qishloq bunaqangi tantanavor tus olmagan edi. (I. Shamshirov.)

2. Quyoshdan toj kiygan cho‘qqilar,

Tunda oy bosh qo‘ygan cho‘qqilar,

Yulduzlar yosh quygan cho‘qqilar,

Siz mening qo‘shig‘im, kuylarim. (Z. O.)

3. Murodjon indamay, bitta-bitta yura boshladi. (Y. Shamsharov.) 4. O‘tinsiz qozon qaynamaydi, chirog‘im. (O.) 5. U odam eng to‘g‘ri yo‘lni emas, eng oson yo‘lni tanlar edi. (P. Q.) 6. Afsuski, siz xatoingizni hali ham tushunib yetmabsiz. (E. Usmonov.) 7. Menimcha, shofyor yolg‘on gapirmadi. (T. Qaipberganov.) 8. Nuriga o‘xshash qizlarning ishqi bahorda yoqqan qorday: bir yoqdan yog‘ib, bir yoqdan erib ketadi. (O.) 9. Demak, sen O‘rta Osiyoda yangi oltin rudasi formatsiyasi... borligini isbot qilding. (S. Karomatov.)

10. Bilsang, adabiyot — fanlar onasi,

U doim o‘rgatur odam bo‘lmoqni.

O‘rgatib qo‘yadi kelsa xonasi

Qanday tirilmoqni, qanday o‘lmoqni! (Muh. Ali.)

IV. O‘qing va ko‘chiring. Ajratilgan bo‘lak va kiritma gaplarni aniqlab, tagiga chizing, ustiga nomini yozib qo‘ying; qo‘yilgan tinish belgilariga dikqat qiling va ular nima uchun qo‘llanganini ayting.

1. Ommaning tarbiyasi bilan, kitobxonning go‘zallikka muhabbati bilan bir chaqalik ishi bo‘lmagan unday shoirlar bor joyda - kapital dunyosida yozuvchi bilan kitobxonning uchrashuvi muammodir. (As.M.) 2. Zokir qo‘ng‘iroq chaldi (u katta-kichik hamma majlislarni qo‘ng‘iroq bilan olib borardi) va qovog‘ini solib dedi... (P. Q.) 3. Umri mehnat bilan o‘tgan, paxta deb, bog‘-rog‘ deb yonib ketgan bu ulug‘ zahmatkashlarning so‘nmas xotirasini bo‘lg‘usi avlodlarga, Mirzacho‘lda qad ko‘tarayotgan go‘zal shaharlarda yashaydigan kelgusi nasllarga yetkazuvchi biror yirik asar bormi? (O.Yo.) 4. Otamni yanada xursand qilish uchun burchakdagi po‘lat sandiqchadan (biz uni seyf deymiz, o‘zimning jamg‘armalarimni shunga solib qo‘yaman) omonat daftarchani olib berdim. (I. R.) 5. — Bir vaqtlar, Bekobodga endi kelgan paytlarimda, — deydi Said, — bu yerlar ko‘zimga sovuq, jozibasiz ko‘ringan edy. (Y. Muqimov.) 6. Akram o‘z dokladida bosh arxitektorning loyihasini ancha qattiq tanqid qilgan, loyihaning yaxshi tomonlarini e'tirof etgani holda, uning qishloq hayoti talablaridan ancha uzoq ekanini — Zafar Boboevning bu ishi Zarafshon vohasidagi katta bir qishloqni qayta qurishga bag‘ishlangan edi — isbotlab bergan edi. (O. Yo.)

475- mashq. I. O‘qing va ko‘chiring. To‘liqsiz gaplar va so‘z-gaplarni topib, tagiga chizing, ustiga nomini yozib qo‘ying; to‘liqsiz gaplarda qaysi bo‘laklar tushirib qoldirilganini izohlang.

I. Ochil o‘sha kuni kelmadi. Ertasiga tush paytida Mahkam poezdga chiqmoqchi bo‘lib chamadonini yig‘ishtirayotganda keldi. — Qaerda edingiz? — Redaksiyada. — Kechasi-ya? — Ha.

Navbatchilik qildik. (P. Q.) 2. — Kambag‘allarning kuni tug‘di — oq poshsho taxtdan tushibdi! — Rostmi? — Ha. (Yo.Shukurov.) 3. Mayning boshlari edi. Ma'mura to‘qqizinchi sinfni bitirayotgandi. (To‘lqin.) 4. — Tanimasangiz, bilib oling: Habiba opam Nortoji akamlarning xotinlari. A?— Ha. U kishi doktorlar. (N. Fozilov.) 5. — Idorada kim bor? — Hyech kim... — zo‘rg‘a javob bera oldi Fazilat. — Rais qani? — Dashtda. O‘roqda. — Siz kim bo‘lasiz? — Men... hisobchiga yordamchi. (O. Yo.)

II. O‘qing. Sodda va qo‘shma gaplarni aniqlang. Qo‘shma gap turlarini, komponentlari o‘zaro qanday bog‘langanini izohlang.

1. Bu vaqt mahalla-ko‘y, yaqin-yiroq, do‘stlar yig‘ilishgan, to‘p-to‘p bo‘lib suhbatlashishardi. (H. G‘.) 2. Harakat besh minut to‘xtab qolsa, mashinalar yo‘lga sig‘may ketar ekan. (B. Ergashev.) 3. O‘tirayotib yana orqamga qaradim: Shohista hamon pastlikda qo‘l silkib turardi. (E. Usmonov.) 4. Maqsadim bitta: brigadada ishlab turib o‘qish, texnikani o‘rganib olish, institutni bitirib injener bo‘lish. (H. N.) 5. Alangani gulxandan ajratib bo‘lmaganiday, bu fikrlarning shaklini mazmunidan ajratish mumkin emasdi. (P. Q.) 6. Bolalar yog‘in-sochinli kunlarda loy kechib qiynalishmasin deb ko‘chalarga asfalt yotqizdi. (E. Usmonov.) 7. Yozuvchilikning boshqa kasblardan farqi shundaki, uning bo‘sh vaqti bo‘lmaydi. (As. M.) 8. Toshkentdagi to‘qimachilik fabrikasining sobiq masteri, burunlar ob-havo hodisalariga beparvo qarardi. (O.) 9. Zamira hayajondan xiyol no‘noqlashgan qadamlar bilan ichkari kirar ekan, Ochil uning tomoshaga otlanganday bashang kiyinib chiqqanini sezdi. (P. Q.) 10. Inson hayotidagi eng quvonchli damlar — bu yorug‘ dunyoning tashvish-g‘amlarini unutgan damlar bo‘lsa kerak. (T. Qaipberganov.) 11. Gap Sayyoraga taalluqli ekan shekilli, unga tikilib qolishdi. (Olmos)

III. Qo‘shma gaplarni o‘qing, turini ayting. Bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni topib, alohida-alohida guruhlab ko‘chiring; komponentlarning mazmun munosabatini izohlang.

1. Shahardagi Navoiy, Shota Rustaveli, Do‘stlik ko‘chalarida transport harakati nihoyatda tig‘iz bo‘lganligi sababli, velosiped qatnovi taqiqlab qo‘yilgan. (B. Ergashev.) 2. Manzura opam kichik o‘g‘illari Suxrob bilan ovora edilar; bir payt darvozadan hovliqib Xayriddin aka kirib keldilar. (O‘. Usmonov.) 3. Qoratoshning osoyishtaligini sen asrashing kerakmi yoki men asrashim kerakmi? (F. Boyqurt.) 4. Siz qaerda bo‘lsangiz, men o‘sha yerga boraveraman. (F. Boyqurt.) 5. Hyech narsani bilmovchi va hyech narsani bilib olishga intilmovchi kishi eng yomon kishidir: axir, unda ikki illat bir-biriga chirmashib ketgandir. (Platon.) 6. Kimni ham qo‘msatmas umr bahori? Kimni rom etmagay tug‘ilgan uyi? (T. Saydaliev.) 7. Ilgari Zamiraning rad javobi tufayli o‘zini kamsitilganday his qilar va bu his qalbini tutunday qoplab yotardi. (P. Q.) 8. Nasihat qilish oson, uni ado etish qiyin. (O‘. Usmonov.)

IV. O‘qing. Ergashgan qo‘shma gaplarni topib ko‘chiring; bosh gap tagiga bir to‘gri, ergash gap tagiga to‘lqinli chiziq chizib, ergash gapning turini ustiga yozib qo‘ying.

1. Bolasini kim ko‘p erkalatsa, keyin u o‘ziga shunchalik ko‘p azob-uqubat sotib oladi. (O‘. Usmonov.) 2. Katta qora stol ustiga yuz shamlik qalpoqsiz lampochka past tushirib osilgan ediki, o‘tirgan kishining peshanasiga issig‘i urib turardi. (P. Q.) 3. Borliq tun qo‘ynida tinchgina orom olar, faqat ariqlarda sharqirab oqqan suvlargina, mayin shabadada astagina tebranib, o‘zaro sekingina

nimalarnidir shivirlashayotgan g‘o‘za yaproqlarigina bu sokinlikni buzardi, xolos. (J. Abd.) 4. Tog‘-toshlardan ko‘tarilayotgan hovur yeru ko‘k oralig‘ida behol tebranib turar, tabiat go‘yo borliqni ulkan belanchakda allalayotgandek edi. (S. Karomatov.) 5. Boya bildingiz-ku, o‘qigan, tushungan, o‘zini madaniyatli hisoblagan mudirdan ko‘ra oddiy bir chalasavod ayolning fahmi o‘tkirroq chiqdi. (O‘.Usmonov.) 6. Nahotki, inson umri shu qadar tez o‘tsa-yu, yoshlik ko‘chalarini yillar xazoni shu qadar tez, shoshilib berkitsa? (U. Usmonov.) 7. Nigora qiynalib qolmasin, deb bolalaringizni bog‘chaga joylashtirdik. (E. Usmonov.) 8. Rayhon Samadovna vujudi bilan sezib turibdi — Zulxumor yana dadasini qo‘msagan. (O‘.Usmonov.) 9. Ochil so‘zini tamom qilar-qilmas, Vitaliy Aleksandrovich so‘zga chiqdi. (P. Q.) 10. Yoshlikning topilmas fazilati shuki, odam hyech narsadan qo‘rqmaydi. (O‘. Usmonov.) 11. Oftob hali qor tashlagan... bulutlar ortidan chiqmagan bo‘lsa ham, tushga borib hamma yoq ilib ketadi. (P. Q.) 12. Qo‘shnimiz Ahmad buvaning uyi tepalikda bo‘lgani uchun, hovlisi, ayvoni biznikidan ko‘rinib turardi. (O‘.Usmonov.)

476-mashq. I. O‘qing. Bog‘langan, ergashgan, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni topib, ular orasidagi farqni, komponentlar orasidagi munosabatni izohlang; ergash gaplarning turini aniqlang.

I. Havo yuzini to‘sgan parda ko‘tarilgach, cho‘lquvarlar o‘rinlaridan turib, paxtazor tomon yurishdi. (S. Karomatov.)2. Tomchi sel bo‘lmas, dushman el bo‘lmas! (O. Yo.) 3. Vahobovning chehrasidagi quvonch o‘rnini ma'yuslik qopladi, ammo qalbida jo‘sh urayotgan umid so‘nmadi. (S. Karomatov.) 4. Zo‘r daryodan kanal, ariq va egatlar orqali g‘o‘zalarga obihayot olib borilgani kabi, tarix daryosidan har bir bo‘lajak eshituvchisining ongiga olovli haqiqat olib bormoqchi edi. (P. Q.) 5. Hayotda shunday daqiqalar bo‘ladiki, kishi o‘z maqsadini aniq belgilab olishi zaruratga aylanadi. (S. Karomatov.) 6. Tilning go‘zallik qoidasi — mantiq va tabiiylik, boylik manbai xalqchillik. (As. M.) 7. Cho‘lda qish qancha qahrli kelsa, bahor shuncha muloyim bo‘ladi. (S. Karomatov.) 8. «Lochin»ning radiouzatgichiga nimadir bo‘lgan-u, Shahboz morze lug‘ati yordamida gaplashishga harakat qilgandi. (H. Shayxov.) 9. Qaer qulay bo‘lsa, o‘sha yerda yashayveradigan zamon hozir. (O‘. Usmonov.) 10 Har yili yoz keldi, suv janjali boshlanadi. (S.Karomatov.) 11. Uning sog‘ayib ketishi yo‘lida nimaiki lozim bo‘lsa, barchasini qilamiz. (F. Boyqurt.) 12. Ammo baxtim shunda ediki, ona tabiatning qo‘ynida edim. (As. M.)

II. O‘qing va yozing. Qo‘shma gap turini aniqlang. Har bir misoldan so‘ng qo‘shma gap qismlarining bog‘lanishini sxemada ko‘rsating.

1. O‘qishiga xalaqit beradigan nimaiki uchrasa, hammasini keskin rad etib kelyapti. (P.Q.) 2. Sen ilmga o‘zingni butkul bag‘ishlamasang, ilm senga hyech nima in'om qilmaydi. (T. Malik.) 3. Donishmandning shohga ehtiyoji yo‘q, ammo shoh donishmandga hamisha muhtojdir. (T. Malik.) 4. Foyda bermas nodonlarga haqiqat shamin yoqish, Budir go‘yo kecha-kunduz zarang toshga mix qoqish. (H. Irfon.) 5. G‘orning og‘zini portlatib butkul berkitib qo‘yish kerak, toki birorta odam ham u yerga kirolmasin! (H. Shayxov.) 6. Ie, bahor kirganini sezmay qolibmanmi yo bu bir kechada gullab chiqibdimi... (P. Q.)

7. Naima to‘g‘risidan tashvish yo‘q; husn, odob, yumush hammasidan ko‘ngil to‘q. (A. Qod.) 8. Kecha kechqurun oynangiz qarsillab singan zahoti yugurib ko‘chaga chiqsam, Qosimov muyulishda qochib borayotgan ekan. (O‘. Usmonov.) 9. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi. (T. Malik.) 10. Darhol ichkarida yengil oyoq sharpasi eshitilib, eshik asta ochildi. (O. Yo.)

III. O‘qing. Murakkab qo‘shma gap komponentlari soni va ularning o‘zaro bog‘lanish usulini izohlang. Murakkab qo‘shma gapning har bir turiga mos keladigan bittadan misolni tanlab ko‘chiring, ulardagi qismlarning bog‘lanishini sxemada ko‘rsating, gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.

1. Osmon musaffo, quyosh charaqlagan bo‘lsa-da, yalanglik u qadar issiq emasdi. (T. Malik.) 2. Shahar ko‘chalari kimsasiz, do‘konlar yopilgan, faqat soy bo‘yidagi ba'zi karvonsaroylardagina tungi sirli hayot nishonalari sezilar, qurg‘onlarda gulxan yonar, o‘choqlar atrofida odamlar kuymalanar edi. (0.Yo.) 3. Inson, uni hyech kim yo‘qlamay bor-yo‘qligi ahamiyatsiz bo‘lib qolganda, o‘ladi. (N. Qobul.) 4. Mahmud aka onda-sonda gapirib qo‘yar, lekin ikkovi ham o‘g‘illaridan ko‘ngillari to‘lib suhbatlashayotganlari bilinib turar va bu Mahkamga ajib bir xotirjamlik bag‘ishlardi, (P. Q.) 5. G‘ulom ustalik bilan mashinaga gaz berdi, biroq g‘ildirak endi uch metrcha olg‘a siljigan ediki, ko‘prik bir tomonga og‘a boshladi. (D. Nuriy.) 6. Kimningdir ko‘nglida zebu ziynat, ayshu ishrat hirsi alanga olsa, u yerda insof, odamgarchilik xas o‘rnida yonib, kimlarnidir o‘z qopqoniga tortishi turgan gap. (O‘.Usmonov.) 7. Aminmizki, o‘rtoqlar, ona-Vatan siz ijodkor, yangilikka tashna yoshlarni qaysi jabhaga yubormasin, yuzimizni yerga qaratmaysizlar, sovet yoshlariga xos g‘ayrat bilan fidokorona mehnat qilasizlar. (H. Tojiboev.) 8. Ular barcha qilgan ishlarini hisoblab o‘tishdi: temir yo‘l ko‘prigi portlatildi, natijada, bir hafta poezd o‘ta olmadi; Krutoy Yar posyolkasidagi nemis garnizoniga hujum qilib, soldatlar turgan uylarga granatalar tashlandi; qisqa, shiddatli jangdan so‘ng partizanlar ortga qaytdi, gitlerchilar esa o‘lganlarni ikki kun ko‘mishdi; qo‘poruvchi gruppa o‘q-dori omborini va uchta yonilg‘i omborini portlatdi; soldat va texnika or-tilgan eshelon jarga ag‘darildi. (A. Voinov.)

IV. O‘qing va ko‘chiring. O‘zga gapning ko‘chirma va o‘zlashtirma gap turlarini aniqlang. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga, o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib yozing.

1. Navoiy bu o‘lkaga hushyor odamlardan yuborib, ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo‘lib turish mumkinligini bayon qildi. (O.) 2. Latipov: «Uni tezroq oyoqqa turg‘izmasak bo‘lmaydi. Aprelda Chimqo‘rg‘on komandasi bilan musobaqa qilamiz. Eshmat darvozabonsiz komandamizning changi chiqadi», — deyapti. (H. N.) 3. Zohid ketish oldida Malikaxonni ko‘rolmaganiga juda achinganini, u kishi bilan bir gaplashish uchun alohida kelishini aytib kampirni yupatdi. (S.Ahm.) 4. Salimov kabinetiga hyech kimni kiritmaslikni buyurdi. (J.Abd.) 5. Yigit bir-ikki qadam orqaroqda yurib, har zamonda egilib, to‘kilgan paxtalarni tergancha, institutning agronomiya fakultetini bitirganini, agar bu yerga o‘rnashsa, yolg‘iz onasini ko‘chirtirib kelishini aytdi. (S. Nurov.)

ShARTLI QISQARTMALAR

A. Q. — Abdulla Qahhor

A. Qod. — Abdulla Qodiriy

A. P. — Akmal Po‘lat

As. M. — Asqad Muxtor

G. J. — Gulchehra Jo‘raeva

J. Abd. — Jonrid Abdullaxonov

Z. — Zulfiya

Z. O. — Zohidjon Obidov

I. R. — Ibrohim Rahim

L. Sh. — Lev Sheynin

M. G. — Maksim Gorkiy

M. I. — Mirzakalon Ismoiliy

Mirm. — Mirmuhsin

N. — Navoiy

N. S. — Nazir Safarov

N. T. — Nikolay Tixonov

O. — Oybek

O. Yo. — Odil yequbov

P. T. — Parda Tursun

P. Q. — Pirimqul Qodirov

R. F. — Rahmat Fayziy

S. A. — Sadriddin Ayniy

S. Ahm. — Said Ahmad

S. An. — Sunnatulla Anorboev

S B. — Sergey Borodin

S. ye. — Sergey yesenin

U. — Uyg‘un

U. N. — Uchqun Nazarov

X. S. — Xayriddin Saloh

Ch. Ayt. — Chingiz Aytmatov

Sh. — Shuhrat

E. V. — Erkin Vohidov

Ya. — Komil Yashin

O‘. U. — O‘lmas Umarbekov

O‘. H. — O‘tkir Hoshimov

Q. H. — Qudrat Hikmat

G‘. G‘. — G‘afur G‘ulom

H. 0. — Hamid Olimjon

H. N. — Hakim Nazir

H. G‘. — Hamid G‘ulom

H. H. — Hamza Hakimzoda

MUNDARIJA

Fonetika, grafika, orfografiya

5

Leksikologiya

25

So‘z va uning ma'nosi

25

So‘zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko‘ra turlari

29

O‘zbek tilining lug‘at sostavi

36

Morfologiya

47

Ot

50

Sifat

60

Son

68

Olmosh

74

Fe'l

81

Ravish

100

Yordamchi so‘zlar

105

Ko‘makchi

106

Bog‘lovchi

108

Yuklama va modal so‘zlar

110

Undov va taqlid so‘zlar

112

Sintaksis. So‘z birikmasi

116

Gap

119

Gap bo‘laklari

123

Bir bosh bo‘lakli gaplar

140

Qo‘shma gap

143

Bog‘langan qo‘shma gap

144

Ergashgan qo‘shma gap

146

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap

155

Murakkab qo‘shma gaplar

158

Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap

162

Uslubiyat

165

Uslubiyat turlari. Leksik uslubiyat

167

Fonetik uslubiyat

169

Morfologik uslubiyat

169

Sintaktik uslubiyat

171

Punktuatsiya va takrorlash uchun mashqlar

172

R.Ikromova, D.Muhamedova, M.A.Hamroev

Ona tilidan mashqlar to‘plami

Toshkent, 2009. Adadi 1000. Times New Roman garniturasi, 10 kegl.

Hajmi 12 bosma taboq.